Geografiya

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

YANGI NASHR



Toshkent—2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K 91(075.3)
KBK 26.8ya72
G 35

Tuzuvchilar:

V. N. Fedorko, N. I. Safarova, J. A. Ismatov, E. Y. Nazaraliyeva

Taqrizchilar:

M. Egamberdiyeva — Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU geografiya va tabiiy resurslar fakulteti iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.n.

Z. Abdalova — Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti geografiya va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, g.f.n.

F. Rajabov — Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti geografiya kafedrasi mudiri, g.f.f.d. (PhD), dotsent.

R. Abdiyev — Navoiy viloyati Navoiy shahridagi 11-maktab geografiya fani o‘qituvchisi.

L. Boltayeva — Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 273-maktab geografiya fani o‘qituvchisi.

M. Rashidova — Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi 198-maktab geografiya fani o‘qituvchisi.

Xaritalar geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) **Viktor Fedorko** tahriri ostida berildi.

Geografiya [Matn]: 10-sinf uchun darslik / V. Fedorko [va boshq.]. — Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. — 192 b.

ISBN 978-9943-8453-6-7

SHARTLI BELGILAR:

 — kalit so‘zlar

 — bilimlarni faollashtiramiz

 — eslab qoling!

 — savol va topshiriqlar

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.
Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

ISBN 978-9943-8453-6-7

© Respublika ta’lim markazi, 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Mundarija

Kirish 5

I bo‘lim. Jahonning umumiy tavsifi 6

1-bob. Jahonning siyosiy xaritasi 6
1-§. Jahonning siyosiy xaritasi 6
2-§. Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi bo‘yicha tasnifi 10
3-§. Mamlakatlarning boshqaruv shakli va davlat tuzilishi 13
4-§. Amaliy mashg‘ulot. ***Jahon siyosiy xaritasi bilan ishlash*** *16*

2-bob. Jahon tabiiy resurslari 18
5-§. Mineral resurslar geografiyasi 18
6-§. Tugamaydigan va tiklanadigan tabiiy resurslar geografiyasi 21
7-§. Loyiha darsi. Global ekologik muammolar 25

3-bob. Jahon aholisi 27
8-§. Dunyo aholisining soni, o‘sishi va joylashishi 27
9-§. Jahon aholisining yosh, jinsiy va irqiy tarkibi 32
10-§. Dunyo aholisining etnik va diniy tarkibi 36
11-§. Jahon mamlakatlarining urbanizatsiyasi 39
12-§. Amaliy mashg‘ulot. ***Aholi harakati, tarkibi va joylashuviga oid masalalar*** 43

4-bob. Jahon xo‘jaligi geografiyasi 44
13-§. Jahon xo‘jaligi va xalqaro mehnat taqsimoti 44
14-§. Jahon iqtisodiyoti markazlari va xalqaro integratsiya jarayonlari 48
15-§. Amaliy mashg‘ulot. ***Jahon xo‘jaligi va uning tarkibini o‘rganish*** 51
16-§. Jahon energetikasi geografiyasi 53
17-§. Amaliy mashg‘ulot. ***Jahon sanoati geografiyasi va uning o‘zgarib borishini o‘rganish*** 56
18-§. Jahon qishloq xo‘jaligi geografiyasi 59
19-§. Jahon transporti geografiyasi 63
20-§. Xalqaro iqtisodiy aloqalar geografiyasi 66
21-§. Umumlashtiruvchi dars 69

II bo‘lim. Jahonning regional tavsifi 70

5-bob. Yevropa mamlakatlari 70
22-§. Yevropaning geografik o‘rni, chegaralari va siyosiy xaritasi 70
23-§. Amaliy mashg‘ulot. ***Yevropa siyosiy xaritasini o‘rganish*** 74
24-§. Germaniya Federativ Respublikasi 76
25-§. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi 79
26-§. Fransiya Respublikasi 82
27-§. Italiya Respublikasi 85
28-§. Rossiya Federatsiyasi 88
29-§. Rossiya Federatsiyasi xo‘jaligi 91
30-§. Umumlashtiruvchi dars 94

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

6-bob. Osiyo mamlakatlari 95
31-§. Osiyo qit'asining geografik o'rni, chegaralari va siyosiy xaritasi 95
32-§. Amaliy mashg'ulot. ***Osiyo siyosiy xaritasini o'rganish*** 98
33-§. Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanganligi 100
34-§. Qozog'iston Respublikasi 103
35-§. Qirg'iz Respublikasi 106
36-§. Turkmaniston Respublikasi 109
37-§. Tojikiston Respublikasi 112
38-§. Amaliy mashg'ulot. ***Markaziy Osiyo mamlakatlarining qiyosiy geografik tavsifi*** 115
39-§. Turkiya Respublikasi 116
40-§. Amaliy mashg'ulot. ***Eron, Afg'oniston va Pokistonning qiyosiy geografik tavsifi*** 119
41-§. Xitoy Xalq Respublikasi 123
42-§. Xitoy iqtisodiyoti va iqtisodiy rayonlari 125
43-§. Koreya Respublikasi 128
44-§. Yaponiya 131
45-§. Hindiston Respublikasi 134
46-§. Fors qo'ltig'i arab davlatlari 137
47-§. Umumlashtiruvchi dars 139

7-Bob. Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Amerika mamlakatlari 141
48-§. Afrikaning geografik o'rni, siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari 141
49-§. Afrika mamlakatlarining aholisi va xo'jaligi 145
50-§. Janubiy Afrika Respublikasi 148
51-§. Nigeriya Federativ Respublikasi 151
52-§. Misr Arab Respublikasi 154
53-§. Amaliy mashg'ulot. ***Afrikaning siyosiy xaritasi, tabiiy va iqtisodiy geografik sharoitini o'rganish*** 157
54-§. Avstraliya Ittifoqi 159
55-§. Amerikaning siyosiy xaritasi 162
56-§. Amerika Qo'shma Shtatlari 167
57-§. AQSH xo'jaligi va iqtisodiy rayonlari 170
58-§. Kanada 174
59-§. Braziliya 176
60-§. Umumlashtiruvchi takrorlash 179

Glossariy 180
Foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati 183
Xalqaro statistik ma'lumotlar bilan tanishishda foydalanish mumkin bo'lgan veb saytlar 184

Ilova 185

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Kirish

Aziz o‘quvchilar! Sizlar 10-sinfda geografiya darslarida ushbu darslik yordamida zamonaviy dunyo, uning yirik mintaqalari hamda xalqaro iqtisodiy va siyosiy tizimda muhim o‘rin egallagan davlatlarga xos ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarni o‘rganib olasizlar, turli global va mintaqaviy iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jarayonlar haqida tizimli ma’lumotlarga ega bo‘lasizlar.

Darslikning asosiy maqsadi sizlarga jahon, uning yirik mintaqa va mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga doir zamonaviy bilim berish, mustaqil bilim olish va uni amaliyotda qo‘llashni o‘rgatishdan iborat.

Darslik **“Jahonning umumiy tavsifi”** va **“Jahonning regional tavsifi”** bo‘limlaridan iborat. Umumiy qismning asosiy vazifalari jahonning siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jaligi haqidagi umumiy ilmiy tasavvurni shakllantirishdan iborat. Darslikning regional qismida jahonning yirik mintaqalari — Yevropa, Osiyo, Afrika, Amerika va Avstraliyaning siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari, aholisi va iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Shuningdek, barcha qit’alardagi tayanch, ya’ni har tomonlama e’tiborga sazovor davlatlarning geografik tavsiflariga bag‘ishlangan mavzular ham ushbu bo‘limdan joy olgan. Eng katta e’tibor respublikamiz joylashgan Osiyo qit’asi mamlakatlariga qaratilgan. Mamlakatlarning iqtisodiy-geografik tavsifi mazkur fanda qabul qilingan va sinalgan uslubiy yondashuvdan foydalangan holda bajarildi.

Bunda geografik o‘rin, tabiiy sharoit va resurslar aholi xo‘jaligidagi ahamiyati nuqtayi nazaridan baholandi.

Darslikni yozishda mualliflar Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro valyuta fondi, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO), BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO), “British Petroleum” kompaniyasi, AQSH Geologik xizmati, xorijiy davlatlar statistik boshqarmalarining rasmiy ma’lumotlari, Rossiya Federatsiyasi, AQSH, Yevropa va Osiyo mamlakatlarida nashr etilgan ma’lumotnomalar, statistik to‘plamlar, geografik atlaslar va boshqa ilmiy-uslubiy materiallardan foydalandi.

Darslikda dunyo va davlatlar aholisining soni, 1.07.2020-yil holatiga ko‘ra, BMT Aholi masalalari bo'yicha ma'lumotnoma byurosining rasmiy ma’lumotlari bo‘yicha berilgan.





I bo‘lim. Jahonning umumiy tavsifi

1-bob. Jahonning siyosiy xaritasi


1-§. Jahonning siyosiy xaritasi

Siyosiy xarita, davlat, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, eng yirik va “mitti” davlatlar, orol davlatlar, yarimorol davlatlar, ichki kontinental davlatlar, mustaqil davlatlar.

Mustaqil davlatning qanday belgilari bor?

Jahonning siyosiy xaritasida 2022-yil boshi holatiga ko‘ra jahon hamjamiyati, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan mustaqilligi rasman tan olingan 194 ta suveren davlat mavjud. Bulardan 193 tasi BMT faoliyatida a’zo davlatlar sifatida, 1 tasi (Vatikan) esa kuzatuvchi davlat bo‘lib ishtirok etadi.

Davlatlar bir-biridan turli xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bunday muhim jihatlaridan biri hududning kattaligi hisoblanadi. Xususan, 29 ta mustaqil davlatning maydoni 1 mln km^2 dan katta bo‘lib, 12 tasining hududi 2 mln km^2 dan, 6 tasining maydoni 5 mln km^2 dan yirikdir *(1-rasm)*.



1-rasm. **Hududining kattaligi bo‘yicha jahondagi mustaqil davlatlarning taqsimlanishi**

Shu bilan birga, dunyodagi davlatlar ichida hududiy kattaligi jihatidan mayda, yoki “mitti” bir guruh davlatlar ham o‘ziga e’tiborni tortadi *(1-jadval)*. Jahonning siyosiy xaritasida maydoni 1 ming km² ga yetmaydigan 24 ta mustaqil davlat bor. Bunday toifadagi davlatlar turli qit’alarda, xususan, Yevropada (Vatikan, Monako, San Marino, Lixtenshteyn va boshqalar), Osiyoda (Maldiv Respublikasi, Singapur, Bahrayn), Amerikada (Sent Kits va Nevis, Grenada, Barbados va boshqalar), Avstraliya va Okeaniyada (Nauru, Tuvalu, Marshall orollari va boshqalar) joylashgan.

1-jadval. ***Jahonning 10 ta eng yirik va 10 ta eng kichik davlatlari (2022-yil)***

№	Davlatlar	Hududi (mln km²)	№	Davlatlar	Hududi (km²)
1	Rossiya	17,1	185	Malta	316
2	Kanada	10,0	186	Maldiv Respublikasi	298
3	Xitoy	9,6	187	Sent Kits va Nevis	261
4	Amerika Qo‘shma Shtatlari	9,5	188	Marshall orollari	181
5	Braziliya	8,5	189	Lixtenshteyn	160
6	Avstraliya	7,7	190	San Marino	61
7	Hindiston	3,3	191	Tuvalu	26
8	Argentina	2,8	192	Nauru	21
9	Qozog‘iston	2,7	193	Monako	2
10	Jazoir	2,4	194	Vatikan	0,44

Davlatlar geografik o‘rni nuqtayi nazaridan, birinchi navbatda, dengizga chiqish imkoniyatiga ega hamda bunday imkoniyati yo‘q davlatlarga bo‘linadi. Dengizga chiqish imkoniyati bor davlatlar orasida esa orol, yarimorol va dengizbo‘yi kontinental davlatlar ajratiladi *(2-rasm).* Dunyo okeani va uning dengizlariga bevosita tutash bo‘lmagan davlatlar **ichki kontinental davlatlar** guruhini tashkil etadi. Bunday geografik joylashuvga ega davlatlar jahon siyosiy xaritasida 44 ta. O‘zbekiston Respublikasi ham ichki kontinental davlat hisoblanadi.

Davlatlarning geografik o‘rniga ko‘ra guruhlari

Dengizga chiqish imkoniyati bor davlatlar (jami 150 ta)

Orol davlatlar
Indoneziya, Yaponiya, Shri Lanka, Buyuk Britaniya, Irlandiya, Madagaskar, Kuba, Yamayka va boshqalar.

Yarimorol davlatlar
Saudiya Arabistoni, Ispaniya, Italiya, Koreya Respublikasi, Vetnam va boshqalar.

Dengizbo‘yi kontinental davlatlar
Fransiya, Germaniya, Xitoy, Misr, AQSH, Kanada, Avstraliya va boshqalar.

Dengizga chiqish imkoniyati yo‘q (ichki kontinental) davlatlar (jami 44 ta)
Avstriya, Belarus, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Afg‘oniston, Mongoliya, Chad, Efiopiya, Uganda, Boliviya va boshqalar.

2-rasm. **Davlatlarning geografik o‘rniga ko‘ra tasniflanishi**

Jahonning hozirgi siyosiy xaritasi turli tarixiy jarayonlar ta’sirida shakllangan. Bular ichida Birinchi va Ikkinchi Jahon urushlari, mustamlaka tizimining yemirilishi, sotsialistik tuzumning barham topishi

alohida e’tiborga loyiqdir. Ushbu tarixiy voqealar ta’sirida XX va XXI asrlar mobaynida dunyoda mustaqil davlatlar soni muntazam o‘sib keldi *(2-jadval).*

2-jadval. Mustaqil davlatlar sonining o‘zgarib borishi (1900–2022-yillar)

Hudud	Mustaqil davlatlar soni				
	1900-y.	1945-y.	1990-y.	2000-y.	2022-y.
Yevropa	24	31	33	43	44
Osiyo	9	18	40	47	48
Afrika	4	3	52	53	54
Amerika	20	22	35	35	35
Avstraliya va Okeaniya	0	2	12	13	13
Jahon	57	76	172	191	194

Jahon siyosiy xaritasida zamonaviy tarixiy davrda, ya’ni 1990-yildan keyin eng katta o‘zgarishlarni keltirib chiqargan voqea — 1991-yil sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishi bo‘ldi. Buning natijasida 15 ta yangi mustaqil davlat vujudga keldi: Armaniston, Belarus, Estoniya, Gruziya, Latviya, Litva, Moldova, Ozarbayjon, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina, O‘zbekiston.

Yevropada 1991–1992-yillarda Yugoslaviyaning parchalanishi natijasida Sloveniya, Xorvatiya, Bosniya va Gersegovina hamda Makedoniya (2019-yildan Shimoliy Makedoniya deb ataladi) davlatlari mustaqillikka erishdi. Yugoslaviya tarkibida o‘shanda faqat Serbiya bilan Chernogoriya qoldi. 2006-yili esa Chernogoriya Serbiyadan ajralib, mustaqil davlatga aylandi.


1993-yil 1-yanvar kuni Chexoslovakiya davlati o‘rnida Chexiya va Slovakiya mustaqil respublikalari tashkil topdi.

Jahon siyosiy xaritasidagi bu o‘zgarishlar xalqaro sotsialistik tuzumning barham topishi bilan bog‘liq. Shuningdek, ushbu jarayon bilan bog‘liq ravishda 1990-yil Yevropada ikki nemis davlati (Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasi) qo‘shilishi natijasida yagona Germaniya Federativ Respublikasi, Osiyoda esa Yaman Arab Respublikasi va Yaman Xalq Demokratik Respublikasi birlashib, yagona Yaman Respublikasi tashkil etildi.

Boshqa siyosiy jarayonlar ta’sirida ham jahon siyosiy xaritasida yangi suveren davlatlar paydo bo‘lishi davom etdi. Afrikada 1993-yil ko‘p yillik urush natijasida Eritreya Efiopiya tarkibidan ajralib, mustaqil davlat maqomiga ega bo‘ldi. Okeaniyada 1994-yil Palau davlati AQSH nazorati ostidagi hududdan mustaqil davlatga aylandi. Janubi-sharqiy Osiyoda 2002-yil Sharqiy Timor mustaqil davlatlar qatorini kengaytirdi. Afrika qit’asida 2011-yil 9-iyulda Sudan tarkibidan Janubiy Sudan davlati ajralib chiqdi. U hozirgi paytda dunyodagi eng yosh mustaqil davlat hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar

1 Yozuvsiz xaritada harflar bilan qaysi davlatlar ko‘rsatilganini aniqlang.



2 Darslik ilovasi va atlasdagi jahonning siyosiy xaritasidan foydalanib Yevropa, Osiyo, Afrika, Amerika qit’alarida joylashgan eng yirik va eng kichik 5 tadan davlat nomini daftaringizga yozing hamda yozuvsiz xaritaga belgilang.

3 Quyidagi jadvalda berilgan davlatlarni geografik o‘rin xususiyatlariga qarab orol, yarimorol, dengizbo‘yi kontinental hamda ichki kontinental guruhlarga ajrating.

Irlandiya	Misr	Mongoliya	Madagaskar	Norvegiya	Kuba	Vetnam	Polsha
Xitoy	Boliviya	Ispaniya	O‘zbekiston	Fransiya	Avstriya	Italiya	Fiji

4 Jahonning siyosiy xaritasidan Yevropa, Osiyo, Afrika va Okeaniyadagi eng yangi (1990-yildan keyingi davrda mustaqillikka erishgan) mustaqil davlatlarni toping.



Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, yalpi ichki mahsulot, rivojlangan mamlakatlar, rivojlanayotgan mamlakatlar, “Katta yettilik” guruhi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish deganda nimani tushunasiz?

Yalpi ichki mahsulot (YIM) *mamlakatning iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanib, u muayyan davrda mamlakat hududida yaratilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxidagi qiymatini ifodalaydi.*

2-§. Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi bo‘yicha tasnifi

Jahon mamlakatlarining eng muhim belgilaridan biri ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidir. Davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganini baholash uchun bir qancha mezonlar qo‘llanadi.

Bu mezonlardan asosiylari:

— yalpi ichki mahsulotning umumiy va aholi jon boshiga nisbatan hajmi;

— milliy iqtisodiyotning tarmoqlar tarkibi;

— mamlakat eksportining tovar tarkibi;

— turli ko‘rsatkichlar bilan belgilanadigan aholining turmush sifati.

Jahon mamlakatlari yuqoridagi mezonlar asosida BMT tomonidan 3 ta yirik blokka bo‘linadi: *rivojlangan*, *rivojlanayotgan* va *o‘tish iqtisodiyotidagi* mamlakatlar.

Rivojlangan mamlakatlar qatoriga Yevropadagi ko‘plab davlatlar (Sharqiy Yevropadan tashqari), AQSH, Kanada, Yaponiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Isroil, Koreya Respublikasi, Singapur va Janubiy Afrika Respublikasi kabi davlatlar kiradi. Bu davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bir qator jihatlarda namoyon bo‘ladi *(3-jadval)*.

3-jadval. ***Rivojlangan mamlakatlarning asosiy belgilari***

YIMning aholi jon boshiga qiymati	**• 25 000 AQSH dollaridan ortiq**
Milliy iqtisodiyotning tarmoqlar tarkibi	**• Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan qayta ishlash sanoati yuqori darajada rivojlangan**
Mamlakat eksportining tovar tarkibi	**• Eksport tarkibida tayyor mahsulotlar yetakchilik qiladi**
Aholining turmush sifati	**• Aholining daromadlari, salomatlik va savodxonlik darajasi juda yuqori**

Rivojlangan mamlakatlar orasida ulkan iqtisodiy salohiyati va ishlab chiqarish hajmi bilan *“Katta yettilik”* guruhini tashkil etuvchi davlatlar jahon miqyosida alohida ajralib turadi. Ushbu guruhga AQSH, Kanada, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya hamda Italiya kiradi. Bu mamlakatlar xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimida muhim o‘rin tutadi *(4-jadval)*.

Osiyo, Afrika, Amerika hamda Okeaniyaning aksariyat mamlakatlari rivojlanayotgan mamlakatlar blokiga kiradi. Jahon aholisining juda katta qismi (2020-yil ma’lumotlariga ko‘ra, 6,5 milliard kishi) yashaydigan bu davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va xususiyatlari bilan bir-biridan ancha farq qiladi. Shuning uchun ham rivojlanayotgan mamlakatlar bir nechta guruhlarga bo‘linadi. Xususan, jahon iqtisodiyotida tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar, neftni eksport qiluvchi mamlakatlar hamda yirik industrial-agrar mamlakatlar muhim ahamiyatga ega.

Ulkan tabiiy-resurs, demografik va iqtisodiy salohiyatga ega Xitoy, Hindiston, Braziliya va Meksika *tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar* guruhini tashkil qiladi *(4-jadval)*.

Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar, Kuvayt, Bahrayn, Ummon, Bruney davlatlari *neft eksport qiluvchi mamlakatlar* guruhi sifatida ajratiladi. Bu mamlakatlarda YIMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan hajmi ancha yuqori (masalan, 2020-yil holatiga ko‘ra, Qatar bu ko‘rsatkich bo‘yicha jahonda 4-o‘rinni egallagan — 89949 AQSH doll.), lekin ularning iqtisodiyoti xomashyo resurslariga asoslanganligi sababli bu davlatlar odatda rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritilmaydi.

4-jadval. ***“Katta yettilik” davlatlari va tayanch rivojlanayotgan mamlakatlarning ayrim ko‘rsatkichlari (2020-yil yakunlari bo‘yicha)***

Mamlakatlar guruhi	Mamlakatlar	Maydoni, ming km²	Aholisi, mln kishi	YIM, milliard AQSH doll.	YIM bo‘yicha dunyodagi o‘rni	Aholi jon boshiga YIM, ming AQSH doll.	Aholi jon boshiga YIM bo‘yicha dunyodagi o‘rni
“Katta yettilik” davlatlari	AQSH	9519,4	329,9	20894	2	63078	9
	Kanada	9984,6	38,2	1860	15	48947	25
	Yaponiya	377,9	126	5305	4	42154	33
	Germaniya	357,4	83,3	4537	5	54551	18
	Fransiya	547	64,9	3017	10	46213	27
	Buyuk Britaniya	243,8	66,2	3041	9	45329	28
	Italiya	302,1	60,5	2462	11	41279	35
Tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar	Xitoy	9599	1434,2	24168	1	17115	78
	Hindiston	3287,2	1400,1	9005	3	6532	129
	Braziliya	8515,7	211,8	3153	8	14890	86
	Meksika	1972,5	127,8	2443	12	19117	73

Izoh: mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti xaridorlik layoqatining pariteti bo‘yicha berilgan.

Ulkan tabiiy va mehnat resurslariga ega bo‘lgan, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarida yuqori natijalarga erishayotgan Turkiya, Eron, Pokiston, Indoneziya, Argentina va boshqa davlatlar *yirik industrial-agrar mamlakatlar* guruhiga kiritiladi.

Sobiq Ittifoq respublikalari hamda 1991-yilgacha sotsialistik tuzum asosida rivojlangan, keyinchalik esa undan voz kechgan Sharqiy Yevropa davlatlari (Albaniya, Bolgariya, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Vengriya, Chexiya va sobiq Yugoslaviya tarkibidan ajralib chiqqan davlatlar) hamda Mongoliya BMT tomonidan *o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar* blokiga birlashtiriladi. O‘zbekiston ham o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlardan biri hisoblanadi.


Savol va topshiriqlar

1 Quyidagi omillarning mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini izohlang:

- Geografik o‘rni;
- Hududining kattaligi;
- Tabiiy sharoiti va boyliklari;
- Aholisi soni.

Sizningcha, davlatlar taraqqiyotiga yana qanday omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatadi?

2 Quyidagi davlatlar nomini aniqlang. Ularning umumiy o‘xshash jihatidan kelib chiqib, bu yerda yana qaysi davlat bo‘lishi kerakligini toping.



3 Ushbu davlatlarni “Katta yettilik” davlatlari, tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar, neft eksport qiluvchi mamlakatlar, yirik industrial-agrar mamlakatlar hamda o‘tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar guruhlariga ajrating.

1 TURKIYA | 2 QATAR | 3 GERMANIYA
4 MONGOLIYA | 5 POLSHA | 6 XITOY
7 AQSH | 8 O‘ZBEKISTON | 9 BRAZILIYA
10 ARGENTINA | 11 BRUNEY | 12 ERON
13 BAA | 14 HINDISTON | 15 KANADA

4 “Katta yettilik” davlatlari, tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar va ularning poytaxtlarini yozuvsiz xaritaga tushiring.

3-§. Mamlakatlarning boshqaruv shakli va davlat tuzilishi

Boshqaruv shakli, respublika, prezidentlik respublikasi, parlamentar respublika, monarxiya, konstitutsion monarxiya, mutlaq monarxiya, davlat tuzilishi, unitar davlat, federativ davlat.

Respublika va monarxiya boshqaruv shakllari orasidagi farqlar haqida nimani bilasiz?

Jahon mamlakatlarining muhim belgilaridan biri boshqaruv shakli hisoblanadi. Siyosiy boshqaruvning ikki asosiy shakli — *respublika* va *monarxiyaga* ajratiladi. Ma'lumki, bu ikkita boshqaruv shakli, birinchi navbatda, oliy davlat hokimiyatini shakllantirish va uzatish usullari bilan farqlanadi.

Jahonning siyosiy xaritasida 2022-yil boshi holatiga ko'ra, boshqaruv shakli respublika bo'lgan 151 ta davlat mavjud. Respublikalar asosan 3 ta turga bo'linadi: *prezidentlik, parlamentar* hamda *aralash (5-jadval)*.

5-jadval. ***Prezidentlik, parlamentar va aralash respublikalarning bosh xususiyatlari***

Prezidentlik respublikasi	Parlamentar respublika	Aralash respublika
• Hokimiyatning asosiy vakolatlari prezident qo'lida to'plangan, hukumat tarkibi prezident tomonidan shakllantiriladi. • Ba'zida prezident bir vaqtning o'zida ham davlat ham hukumat rahbari hisoblanadi.	• Hokimiyatning asosiy vakolatlari parlamentga tegishli bo'lib, hukumat tarkibi parlament saylovlari natijalari asosida siyosiy partiyalar tomonidan shakllantiriladi. • Prezidentning vakolatlari cheklangan.	• Prezident va parlament birgalikda hukumat tarkibini shakllantirib, uning faoliyatini nazorat qiladilar.

Prezidentlik respublikalariga AQSH, Meksika, Braziliya, Argentina, Indoneziya, Afg'oniston, Belarus, Qozog'iston, O'zbekiston kabi mamlakatlar misol bo'la oladi. Prezidentlik respublikasi shakli eng ko'p Afrika va Amerika qit'alarida tarqalgan. Germaniya, Avstriya, Italiya, Bolgariya, Latviya, Estoniya, Gretsiya, Isroil, Hindiston, Janubiy Afrika Respublikasi va boshqa bir qator davlatlar parlamentar respublikalar sirasiga kiradi. Parlamentar respublikalar ko'proq Yevropada joylashgan. Aralash respublikalar qatoriga esa Portugaliya, Ukraina, Xorvatiya, Jazoir, Misr va boshqa mamlakatlar mansub.

Hozirgi vaqtda dunyoda 43 ta monarxiya davlatlari mavjud bo'lib, ular *konstitutsion* va *mutlaq monarxiya*larga bo'linadi. Konstitutsion monarxiyalarda davlat rahbari (qirol, amir, knyaz va h.k.) ning siyosiy vakolatlari ma'lum darajada cheklangan bo'lib, davlat boshqaruvida parlament va hukumatning o'rni muhim hisoblanadi. Mutlaq monarxiya boshqaruv shakliga ega bo'lgan davlatlarda esa monarxning vakolatlari cheklanmagan bo'ladi. Hozirgi kunda monarxiya davlatlarining aksariyati (38 tasi) konstitutsion monarxiyalar hisoblanadi. Bunday davlatlardan 11 tasi Yevropada, 9 tasi Osiyoda, 3 tasi Afrikada, 9 tasi Amerikada, 6 tasi Avstraliya va Okeaniyada joylashgan *(3-rasm)*.

Konstitutsion monarxiyalardan 14 tasi *Britaniya Hamdo'stligi qirolliklari* bo'lib, ularda rasmiy ravishda davlat rahbari Buyuk Britaniya monarxi (qirol yoki qirolicha) hisoblanadi, lekin amalda bu davlatlarning siyosiy tizimida asosiy rol bosh vazirga tegishli. Ushbu toifadagi davlatlarga Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Papua-Yangi Gvineya va boshqalar kiradi.

Mutlaq monarxiyalarning umumiy soni 5 ta bo'lib, ulardan 4 tasi Osiyoda (Saudiya Arabistoni, Ummon, Qatar, Bruney), 1 tasi Yevropada (Vatikan)

joylashgan. Saudiya Arabistoni hamda Vatikan davlatlari *mutlaq teokratik monarxiyalar* hisoblanadi, chunki bu ikki davlatda monarx diniy rahbar vazifasini ham bajaradi.



Daniya qirolichasi Margrete II



Bruney sultoni Hassanal Bolqiya




Yaponiya imperatori Naruhito

3-rasm. **Ayrim davlatlarning monarxlari**

Har qanday mamlakatning ma’muriy-hududiy tizimi (davlat tuzilishi shakli) uning muhim siyosiy xususiyati hisoblanadi. Mazkur belgiga binoan, jahon mamlakatlari ikki turga, ya’ni *unitar* va *federativ* davlatlarga bo‘linadi. Unitar davlatlarda butun mamlakat hududida yagona qonunchilik tizimi amal qiladi, siyosiy boshqaruv esa markazlashgan holda amalga oshiriladi. Dunyo mamlakatlarining aksariyat qismi (167 tasi) unitar davlatlar qatoriga mansub.

Davlat tuzilishining birmuncha murakkab shakli federatsiyadir. Bunday davlatlarda qonunchilik, ijro va sud hokimiyati markaziy (federal) hamda hududiy (shtatlar, provinsiyalar, respublikalar va boshqalar doirasida) darajalardan tashkil topadi. Federativ davlatlarning soni, 2022-yil boshi holatiga ko‘ra, 27 ta bo‘lib, jumladan, Yevropada 6 ta, Osiyoda 6 ta, Afrikada 6 ta, Amerikada 7 ta hamda Avstraliya va Okeaniyada 2 ta federatsiyalar joylashgan *(4-rasm)*.




4-rasm. **Unitar va federativ davlatlar jahon siyosiy xaritasida**

So‘nggi yillarda ham ayrim davlatlarda boshqaruv va davlat tuzilishi shaklini o‘zgartirish holatlari ro‘y bermoqda. Masalan, 2008-yili Nepalda monarxiyadan voz kechilib, respublika boshqaruv shakliga o‘tildi, 2017-yili Turkiya parlamentar respublikadan prezidentlik respublikasiga aylandi, 2021-yili Barbadosda Britaniya Hamdo‘stligi qirolligi maqomidan voz kechilib, respublika boshqaruv shakli joriy etildi. Shuningdek, 2010-yildan so‘ng dunyoda federativ davlatlar safi Iroq, Nepal, Sudan, Janubiy Sudan hisobiga ko‘paydi.

Savol va topshiriqlar

1. Xaritada ko‘rsatilgan davlatlar nomini aniqlab, ularni boshqaruv shakliga ko‘ra: a) prezidentlik respublikalari; b) parlamentar respublikalar; d) aralash respublikalar; e) konstitutsion monarxiyalar; f) mutlaq monarxiyalarga ajrating.




2. Davlat boshqaruvining respublika va monarxiya shakllari bir-biridan qanday jihatlari bilan farqlanadi?
3. Jahon davlatlarining necha foizi respublika, necha foizi monarxiya, necha foizi unitar, necha foizi federativ ekanligini hisoblang.
4. Darslik hamda atlasdagi jahonning siyosiy xaritasidan foydalanib federativ davlatlar nomini daftaringizga yozib oling va yozuvsiz xaritada belgilang.
5. Jahonning siyosiy xaritasidan so‘nggi vaqtlarda federativ davlatlar safiga qo‘shilgan davlatlarni toping.

4-§. Amaliy mashg‘ulot
Jahon siyosiy xaritasi bilan ishlash

1-topshiriq. Quyidagi shaharlar xaritada qaysi raqam bilan ko‘rsatilgan davlatlar poytaxti ekanligini toping.

Manila	Rabot	Montevideo	Sofiya	Tegusigalpa	Kolombo
Reykyavik	Brazzavil	Ottava	Santyago	Bangkok	Vellington
Maputu	Amsterdam	Karakas	Sana	Stokgolm	Gavana
Islomobod	Rim	Panama	Dublin	Seul	Njamena



2-topshiriq. Berilgan ma’lumotlardan qaysi biri to‘g‘ri ekanligini aniqlang.

Avstriya, Belarus, Mongoliya dengizbo‘yi kontinental davlatlar hisoblanadi.

Mutlaq monarxiyalarning umumiy soni 5 ta bo‘lib, ulardan 4 tasi Yevropada joylashgan.


Avstraliya va Yangi Zelandiya rivojlanayotgan davlatlar guruhiga kiritiladi.

Qatar iqtisodiyoti xomashyo resurslariga asoslangani uchun iqtisodiy rivojlangan mamlakat hisoblanmaydi.

3-topshiriq. Quyidagilar orasidan bir-biriga mos keladigan juftliklarni toping.

Prezident va parlament hukumat tarkibini birgalikda shakllantiradi.	**Prezidentlik respublikasi**
Muayyan davrda mamlakat hududida yaratilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxidagi qiymati.	**Yalpi ichki mahsulot**
Butun mamlakat hududida yagona qonunchilik tizimi amal qiladi.	**Federativ davlat**
Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar, Quvayt, Bahrayn, Ummon, Bruney	**“Katta yettilik” davlatlari**
Hokimiyatning asosiy vakolati parlament qo‘lida bo‘ladi.	**Parlamentar respublika**

4-topshiriq. Jahonning siyosiy xaritasi, darslik matni va ilovasidagi ma’lumotlardan foydalanib rasmlarda qaysi davlatlar aks ettirilganini aniqlang hamda ularga tegishli geografik xususiyatlarni ajrating.



Geografik o‘rni: a orol; b yarimorol; d dengizbo‘yi kontinental; e ichki kontinental.

Joylashgan qit’a: f Yevropa; g Osiyo; h Afrika; i Amerika.

Boshqaruv shakli: j prezidentlik respublikasi; k parlamentar respublika; l konstitutsion monarxiya; m mutlaq monarxiya.

Davlat tuzilishi: n unitar; o federativ.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi: p “Katta yettilik” davlati; q tayanch rivojlanayotgan mamlakat; r neft eksport qiluvchi mamlakat; s o‘tish iqtisodiyotidagi davlat.

5-topshiriq. Yevrosiyodagi ichki kontinental davlatlar nomi va poytaxtini daftaringizga yozib oling hamda yozuvsiz xaritada belgilang.



2-bob. Jahon tabiiy resurslari

5-§. Mineral resurslar geografiyasi

Tabiiy resurslar, mineral resurslar, yoqilg‘i resurslar, rudali resurslar, noruda resurslar, zaxira, kon, havza, resurslar bilan ta’minlanganlik.

Mineral resurslarning davlatlar iqtisodiy salohiyatida tutgan o‘rnini misollar yordamida tushuntiring.

Insoniyat o‘z hayoti va ijtimoiy faoliyati davomida turli xil tabiiy boyliklar (resurslar)dan foydalanadi. *Tabiiy resurslar* deb, inson hayoti va faoliyati davomida bevosita foydalanadigan barcha turdagi tabiat ne’matlariga aytiladi. Sayyoramiz ko‘p va xilma-xil tabiiy resurslarga ega. Tabiiy resurslar asosan *mineral, yer, suv, biologik* va *iqlimiy resurslar*dan iborat.

Tabiatda minerallar holida uchraydigan tabiiy boyliklar **mineral resurslar (foydali qazilmalar)** deyiladi. Ular 3 guruhga, ya’ni *yoqilg‘i-energetika*, *rudali* va *noruda* mineral resurslariga bo‘linadi.

Inson juda qadim zamonlardanoq mineral resurslardan foydalanib kelgan. Davrlar o‘tishi bilan esa foydalaniladigan mineral resurslar turi va hajmi tobora ortib borgan. Hozirgi vaqtda mineral resurslarning 200 ga yaqin turlaridan xo‘jalik ehtiyojlari uchun foydalanilmoqda. Tugaydigan va tiklanmaydigan tabiiy resurs hisoblanadigan yerosti qazilma boyliklaridan foydalanish hajmi yildan yilga ko‘paymoqda. Mineral resurslardan eng katta hajmda iste’mol qilinadiganlar neft, tabiiy gaz, ko‘mir, temir rudalari va qurilish materiallaridir *(6-jadval).*

*6-jadval. **Eng muhim foydali qazilmalarning jahon bo‘yicha isbotlangan zaxiralari va qazib olinishi (2020-y. yakunlari bo‘yicha)***

Foydali qazilma turlari	O‘lchov birligi	Isbotlangan zaxiralari	Yillik qazib olinishi
Ko‘mir	mlrd t	1074,0	7,7
Neft	mlrd t	244,4	4,2
Tabiiy gaz	trln m^3	188,1	3,9
Temir rudasi	mlrd t	175,5	2,3

Mineral resurslar yer yuzasi bo‘ylab ancha notekis joylashgan. Buning sabablari turli hududlardagi yer po‘stining geologik tuzilishi va rivojlanish tarixi bilan bog‘liq.

Mineral yoqilg‘i-energetika resurslariga ko‘mir, neft, tabiiy gaz, torf, yonilg‘i slanes, uran kiradi. Yoqilg‘i mineral resurslar konlari qadimgi platformalarning chekka botiq qismlarida ko‘proq uchraydi.

Hozirgi vaqtda jahonda 3600 dan ziyod ko‘mir havzalari va konlari bor bo‘lib, ular jami quruqlikning 15% ini egallaydi. Yirik ko‘mir havzalari ko‘proq Shimoliy yarimsharda joylashgan. Ko‘mirning eng yirik zaxiralari AQSH, Rossiya, Avstraliya, Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Germaniya, Ukraina, Polsha va Qozog‘iston davlatlariga to‘g‘ri keladi.

Jahon bo‘yicha 600 ga yaqin neft va gaz havzalari aniqlangan. Neft va gaz konlarining ham asosiy qismi sayyoramizning Shimoliy yarimsharida joylashgan. Eng yirik neft-gaz zaxiralari Fors qo‘ltig‘i mamlakatlari (Saudiya Arabistoni, Eron, Iroq, BAA, Qatar, Kuvayt, Ummon), Venesuela, Shimoliy Amerika (AQSH, Kanada, Meksika), MDH mamlakatlari (Rossiya, Turkmaniston, Qozog‘iston, Ozarbayjon, O‘zbekiston), Shimoliy Afrika (ayniqsa, Liviya va Jazoir), Gvineya qo‘ltig‘i mamlakatlari (ayniqsa, Nigeriya) hamda Xitoyda joylashgan.

Jahon iqtisodiyotida rudali (metall) qazilma resurslarining ahamiyati nihoyatda kattadir. Yer yuzida rudali mineral resurslarga boy mintaqalar, masalan, Alp-Himolay, Tinch okeanbo‘yi mintaqalari mavjud. Xitoy, Rossiya, AQSH, Kanada, Avstraliya, Braziliya, JAR, Qozog‘iston, Hindiston, Chili, Peru jahonda qora va rangli metall xomashyolariga eng boy mamlakatlar hisoblanadi.

Noruda mineral boyliklardan eng muhimlari osh tuzi, kaliy tuzlari, fosforit, oltingugurt, olmos, qurilish materiallari hisoblanadi. Ularning konlari qadimiy platformalarda, burmali tog‘larda, sho‘r ko‘llarning botiqlarida ko‘p uchraydi. Turli mineral tuzlarning zaxiralari bo‘yicha dunyoda Rossiya, AQSH, Xitoy, Hindiston, Boliviya, Belarus, Avstraliya singari mamlakatlar yetakchilik qiladi. Olmosning katta zaxiralariga esa Rossiya, Avstraliya, Botsvana, JAR, Kongo Demokratik Respublikasi, Kanada, Angola va boshqa davlatlar ega.

Turli mamlakatlar mineral resurslar bilan turli darajada ta’minlangan. Mamlakatning ma’lum mineral resursi bilan ta’minlanganlik darajasi tegishli resursning zaxiralari necha yilga yetishi (resursning zaxiralarini yillik qazib olish hajmiga bo‘lib aniqlanadi) yoki resurs zaxiralarining aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan miqdori bilan ifodalanadi.

Mineral resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi nuqtayi nazaridan jahon mamlakatlari odatda uch guruhga bo‘linadi *(7-jadval).*

7-jadval. ***Jahon mamlakatlarining mineral resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi nuqtayi nazaridan guruhlanishi***

№	Mamlakatlar guruhlari	**Mamlakatlar**
1	Mineral resurslarning ko‘p turlari bilan yaxshi ta’minlangan mamlakatlar	Rossiya, Xitoy, AQSH, Kanada, Braziliya, Avstraliya, Hindiston, JAR, Qozog‘iston
2	Mineral resurslarning ayrim turlari bilan yaxshi ta’minlangan mamlakatlar	Jahon mamlakatlarining ko‘pchiligi, masalan, Saudiya Arabistoni neft va tabiiy gazga, Peru mis va kumush, Marokash fosforitga boy
3	Mineral resurslar bilan ta’minlanmagan mamlakatlar	Asosan hududiy jihatdan kichik mamlakatlar, masalan, Vatikan, Andorra, San Marino, Singapur, Sent Lyusiya, Tuvalu va boshqalar


Mineral resurslar sanoat uchun qimmatli xomashyo hisoblanadi. Shu sababli sanoat xom-ashyolari bilan ta’minlanish muammosi ko‘pchilik mamlakatlar uchun dolzarbdir. Mineral resurslarning shu vaqtgacha asosan iqtisodiy-texnik jihatdan qulay joylashuv va sharoitga ega konlari o‘zlashtirib kelindi. Yangi mineral konlarni izlash ishlari so‘nggi davrlarda asosan Rossiyaning shimoliy va sharqiy hududlari, AQSHning g‘arbiy tog‘li qismi va Alyaska, Kanadaning shimoli, Janubiy Amerika, Avstraliya, Afrikaning kam o‘zlashtirilgan cho‘l, tog‘li va o‘rmonli o‘lkalarida faol olib borilmoqda. Ammo yetib borish qiyin

bo‘lgan hududlardan qazib olinadigan mineral xomashyoning tannarxi ancha qimmatdir. Shu bois insoniyat uchun mineral ne’matlardan tejamkorlik bilan foydalanish juda muhim vazifa hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Mineral resurslarning yoqilg‘i-energetika, rudali va noruda turlariga boy bo‘lgan davlatlarga 5 tadan misol keltiring va ularni jahonning siyosiy xaritasidan ko‘rsating.
2. Quyidagi davlatlardan qaysi biri mineral resurslar bilan ta’minlanish darajasiga ko‘ra boshqa davlatlar bilan bir guruhga kirmaydi?

   Xitoy, Kanada, Avstraliya, Hindiston, Peru, Qozog‘iston
3. Rasmlarda ko‘rsatilgan hududlarning qaysi birida mineral resurslarni qazib olish eng qulay? Nima uchun? Javobingizni asoslang.

A 

B 

D 

E 

4. Quyidagi ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini tasdiqlang.
   - Yirik ko‘mir havzalari ko‘proq Shimoliy yarimsharda joylashgan.
   - Hozirgi vaqtda mineral resurslarning 100 ga yaqin turlaridan xo‘jalik ehtiyojlari uchun foydalanilmoqda.
   - Mineral resurslarning yer yuzasi bo‘ylab ancha notekis joylashganligi sababi iqlimiy sharoitning farqlanishidir.
   - Alp-Himolay, Tinch okean bo‘yi mintaqalari rudali resurslarga boy mintaqalar hisoblanadi.
   - Noruda mineral boyliklarning konlari qadimgi platformalarning chekka botiq qismlarida ko‘proq uchraydi.
   - Rossiya, Avstraliya, Botsvana, JAR, Kongo Demokratik Respublikasi, Kanada, Angola kabi davlatlar olmosning katta zaxiralariga ega.
   - Jahonda ko‘mir havzalari va konlari jami quruqlikning 30% ini egallaydi.
5. Mineral resurslar tugaydigan va tiklanmaydigan boylik bo‘lganligi sababli ulardan samarali foydalanish uchun nimalarga e’tibor berish kerak?

6-§. Tugamaydigan va tiklanadigan tabiiy resurslar geografiyasi

Agroiqlimiy resurslar, yer resurslari, suv resurslari, biologik resurslar, geotermal resurslar.

Tugamaydigan va tiklanadigan tabiiy boyliklardan foydalanishning qanday afzalliklari bor?

Agroiqlimiy resurslar. Hududlarning turli ekin yetishtirish imkoniyatlari ko‘p jihatdan iqlimga bog‘liq. Qishloq xo‘jaligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi iqlimiy resurslar *agroiqlimiy resurslar* deyiladi. Eng muhim agroiqlimiy ko‘rsatkichlar effektiv haroratlar (+10 °C dan yuqori) yillik yig‘indisi hamda namlanish koeffitsiyenti (yog‘inlar miqdorining mumkin bo‘lgan bug‘lanishga nisbati) hisoblanadi.

Iqlimning termik resurslari ekvatordan qutblarga tomon kamayib boradi. Ekvator atrofida effektiv haroratning yillik yig‘indisi 8000 °C dan yuqori bo‘lsa, arktika va subarktika iqlim mintaqalarida u 400 °C ga ham yetmaydi. Shuning uchun ham tropik, subekvatorial va ekvatorial iqlim mintaqalarida turli issiqsevar ekinlarni yetishtirish hamda yil davomida 2–3 marotaba hosil olish imkoniyati mavjud.

Lekin dehqonchilik uchun tabiiy namlik omili ham katta ahamiyatga ega. Yilning issiq paytida ham yog‘inlar yetarli darajada yog‘adigan hududlarda dehqonchilikni sun’iy sug‘orishsiz rivojlantirish mumkin va bu holat qishloq xo‘jaligida ancha mablag‘ning tejalishiga yordam beradi. Iqlimi issiq, ammo qurg‘oqchil bo‘lgan ichki kontinental o‘lkalar uchun esa tabiiy namgarchilikning ozligi hisobiga sug‘orma dehqonchilik xosdir. Issiq musson iqlimli hududlarda sun’iy sug‘orish asosan iliq va quruq qishda qo‘llanadi, sernam yoz faslida esa dehqonchilik yog‘ingarchilik hisobiga rivojlanadi.


Yer resurslari. Hozirgi vaqtda jahon yer fondining umumiy hajmi 13,4 milliard gektarga teng. Insoniyat uchun eng katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar jahon umumiy yer fondining 34% ini tashkil qiladi. Jumladan, ishlov beriladigan yerlar ulushi 11% ga, yaylovlarniki esa 23% ga teng. Ishlov beriladigan yerlar dunyoda yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining 88% ini, yaylovlar esa 10% ini yetkazib bermoqda. Demak, yer resurslarining eng qimmatli qismi ishlov beriladigan (ekin ekiladigan) maydonlardir. Yer fondi tarkibiga, shu bilan birga, o‘rmonlar (30%), aholi punktlari va muhandislik inshootlari bilan band bo‘lgan texnogen yerlar (3%) hamda kam foydalaniladigan yoki unumsiz yerlar (33%) kiradi *(5-, 6-rasmlar)*.

Dehqonchilikda foydalaniladigan yerlarning eng katta maydonlari AQSH, Hindiston, Rossiya, Xitoy, Braziliya, Argentina, Kanada, Nigeriya, Ukraina va Avstraliyaga to‘g‘ri keladi. XX asr davomida ishlov beriladigan maydonlar hajmi dunyo bo‘yicha ikki baravar kengaytirildi. Qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish, botqoqli va zaxkash yerlarni ishga solish, cho‘l yerlarga suv chiqarish yo‘li bilan ekin maydonlarini kengaytirish ishlari ayniqsa AQSH, Kanada, Avstraliya, Rossiya, Qozog‘iston, Xitoy, Braziliya, O‘zbekistonda keng ko‘lamda olib borildi.

Shu bilan birga yerlar asta-sekin ishdan ham chiqib bormoqda. Jumladan, *eroziya* (tuproq yuvilishi) jarayoni tufayli har yili qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan 6–7 mln gektar yer



5-rasm. **Yer resurslari**



6-rasm. **Jahon yer fondining tarkibi (2018-y.)**



7-rasm. **Dunyodagi eng yirik suv omborlaridan biri — Karuna daryosidagi Guri suv ombori (Venesuela)**

ishdan chiqmoqda. Bundan tashqari, yerlarning botqoqlanishi va sho‘r bosishi oqibatida ekin maydonlari 1–1,5 mln gektarga qisqarib ketmoqda. Shahar va qishloqlarning kengayishi, sanoat va transport qurilishlarining yildan yilga o‘sib borishi ham ekin maydonlarining qisqarishiga olib kelmoqda. Buning ustiga tuproq qatlamining tabiiy unumdorligi ham pasayib bormoqda. Bular yer resurslaridan foydalanishda katta muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Suv resurslari. Ma’lumki, chuchuk suv resurslari gidrosfera umumiy hajmining atigi 3% inigina tashkil qiladi. Lekin uning asosiy qismi sayyoramizning chekka, foydalanish qiyin bo‘lgan Antarktida, Arktika va baland tog‘lardagi qor va muzliklarda to‘plangan. Insoniyatning chuchuk suvga bo‘lgan ehtiyojini qondiradigan asosiy manba daryolar bo‘lib, ulardagi suvning umumiy miqdori atigi 47 ming km^3 dir. Bu suvning eng ko‘p qismi aholi ancha siyrak yashaydigan dunyoning shimoliy va ekvatorial mintaqa hududlari bo‘ylab oqadi va ulardan foydalanish ancha qiyin.

Yer yuzining ekvatorial va mo‘tadil mintaqalari chuchuk suv bilan nisbatan yaxshiroq ta’minlangan. Chuchuk suv bilan eng yaxshi ta’minlangan davlatlar qatoriga Braziliya, Rossiya, Kanada, AQSH, Venesuela, Peru, Kolumbiya, Kongo Demokratik Respublikasi va boshqalar kiradi.

Quruqlikning ⅓ qismini tashkil qiladigan qurg‘oqchil mintaqalarda suv tanqisligi juda keskin. Buning ustiga ularda qishloq xo‘jalik ishlari asosan sun’iy sug‘orish orqali olib boriladi. Shimoliy Afrika, Janubi-g‘arbiy Osiyo mamlakatlari shunday hududlar qatoriga kiradi.

Daryolar suvidan samaraliroq foydalanishga erishish uchun ko‘plab suv omborlari qurilgan *(7-rasm)*. Hozir jahonda qurilgan suv omborlarining soni 40 mingdan oshib ketdi. Yirik suv omborlarining soni bo‘yicha AQSH, Xitoy, Hindiston, Braziliya va Rossiya alohida ajralib turadi.

Dengiz suvini chuchitish texnologiyasini kengroq qo‘llash ham jahon chuchuk suv resurslaridan samarali foydalanishga olib keladi. Hozirgi paytda Fors qo‘ltig‘i, O‘rta dengizbo‘yi mamlakatlari, AQSH, Yaponiya, Karib dengizi mamlakatlarida dengiz suvini chuchitish ishlari kengayib bormoqda. Chuchitilgan dengiz suvidan foydalanish hajmiga ko‘ra eng katta davlat Kuvayt hisoblanadi.

Biologik resurslar deb Yer yuzasining o‘simlik va hayvonot boyliklariga aytiladi. Ayniqsa, o‘rmon resurslarining xo‘jalik va ekologik ahamiyati katta. Jahonda o‘rmonlar 40 mln km^2 (4 milliard gektar) ni, yoki butun quruqlikning 30% iga yaqinini tashkil qiladi. Lekin yog‘och materiallarini tayyorlash maqsadida daraxtlarning kesilishi, yangi yerlarni o‘zlashtirish, turli sanoat qurilishlarining ko‘payishi o‘rmonlarning kamayib borishiga olib kelmoqda. Darhaqiqat, keyingi 200 yil davomida sayyoramiz o‘rmonlari 2 baravarga kamaydi. So‘nggi yillarda esa jahon bo‘yicha o‘rmonli maydonlar yiliga o‘rtacha 25 mln gektardan qisqarib bormoqda.

Dunyoda kenglik bo‘ylab katta masofaga cho‘zilgan ikkita — Shimoliy va Janubiy o‘rmon mintaqalari mavjud. Shimoliy o‘rmon mintaqasi mo‘tadil va qisman subtropik iqlimli hududlar bo‘ylab joylashgan. Bu mintaqa o‘rmonlarining muhim xususiyati ularda asosan tik o‘sadigan sifatli, ignabargli daraxtlarning o‘sishidir *(8-rasm)*. Bunday o‘rmonlarga Rossiya, Kanada, AQSH, Finlyandiya davlatlari boy.

Janubiy o‘rmon mintaqasi asosan tropik va ekvatorial iqlim mintaqalarida joylashgan. Tropik o‘rmonlarda keng bargli daraxtlar qalin va ko‘p yarusli bo‘lib o‘sadi. Janubiy o‘rmon mintaqasida Braziliya, Peru, Kolumbiya, Venesuela, Kongo Demokratik Respublikasi, Hindiston, Myanma, Indoneziya kabi mamlakatlar eng katta o‘rmonli maydonlarga ega.



8-rasm. **Ignabargli tayga o‘rmonlari (yuqorida) va keng bargli tropik o‘rmonlar (pastda)**

Biologik resurslarning yana bir muhim qismi suv havzalarning hayvonot va o‘simlik olamidir. Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo aholisining oqsillarga bo‘lgan ehtiyojining 20% idan ko‘prog‘i dengiz hayvonlari va o‘simliklari hisobiga qoplanmoqda. Ayniqsa, Tinch okeanning Shimoli-g‘arbiy va Janubi-sharqiy qismlari, Atlantika okeanining shimoliy dengizlari baliqlarga juda boy. Biroq okean va dengizlarda yashaydigan baliq va boshqa hayvonlar tobora muhofazaga muhtoj bo‘lib bormoqda.

Geotermal resurslar. Yerning ichki energiyasi, ya’ni *geotermal resurslar* muhim noan’anaviy energiya manbalaridan biri hisoblanadi. Geotermal energiyaga asosan tektonik harakatlar faol davom etayotgan, iqlimi sernam bo‘lgan mintaqalar boydir. Islandiya *(9-rasm)*, Yaponiya, Yangi Zelandiya, Filippin, Papua-Yangi Gvineya, Italiya, Meksika, AQSH, Rossiya geotermal resurslarga boy.



9-rasm. **Islandiyadagi geotermal elektrstansiyalaridan biri**

Savol va topshiriqlar

1 Agroiqlimiy resurslarning qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuviga ta’sirini turli geografik mintaqalar va davlatlar misolida tushuntiring.

2 Ushbu davlatlarga mos keluvchi jadvalda berilgan barcha xususiyatlarni toping va daftaringizga belgilang.

A *AQSH* B *Xitoy* D *Braziliya* E *Rossiya* F *Avstraliya*

1	Chuchuk suv bilan eng yaxshi ta’minlangan.
2	Geotermal resurslarga boy.
3	Dehqonchilikda foydalaniladigan yerlarning eng katta maydonlari to‘g‘ri keladi.
4	Janubiy o‘rmon mintaqasida eng katta o‘rmonli maydonlarga ega.
5	Qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish, botqoq va zaxkash yerlarni ishga solish, cho‘l yerlarga suv chiqarish yo‘li bilan ekin maydonlarini kengaytirish ishlari keng ko‘lamda olib borilgan.
6	Yirik suv omborlarining soni bo‘yicha alohida ajralib turadi.
7	Shimoliy o‘rmon mintaqasi o‘rmonlariga boy.

3 Quyida ayrim resurslardan oqilona foydalanish usullari hamda nooqilona foydalanish va uning oqibatlariga misollar keltirilgan. Sizningcha, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun yana nimalarga ahamiyat berish kerak? Resurslardan nooqilona foydalanish yana qanday salbiy oqibatlarga olib keladi? Fikringizni asoslang.

Resurslar	Oqilona foydalanish usullari	Nooqilona foydalanish va uning oqibatlari
Ishlov beriladigan yerlar	Mahalliy o‘g‘itlardan foydalanish orqali tuproq unumdorligini oshirib borish	Sug‘orishni noto‘g‘ri amalga oshirish natijasida tuproq unumdor qatlamining yuvilishi
	...	...
Chuchuk suv resurslari	Qishloq xo‘jaligida tomchilatib sug‘orish, yomg‘irlatib sug‘orish kabi zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish	Turli sanoat korxonalarida ishlatilgan oqava suvlarning zararsizlantirmasdan suv havzalariga oqizilishi oqibatida chuchuk suvlarning ifloslanishi
	...	...
O‘rmon resurslari	O‘rmonlarni muhofaza qilish, ko‘paytirish, qayta tiklash	O‘rmonlarning keskin kamayishi natijasida cho‘llashish jarayonining kuchayishi
	...	...

4 Chuchuk suv bilan eng yaxshi ta’minlangan davlatlarni yozuvsiz xaritada belgilang.

7-§. Loyiha darsi. Global ekologik muammolar

Tabiatdan foydalanish, global, regional va lokal ekologik muammolar, ekologik siyosat, "issiqxona effekti", "ozon tuynuklari", cho'llashish, o'rmonsizlanish.

1. Quyida keltirilgan ma'lumotlar va qo'shimcha manbalardan foydalanib ushbu savollarga javob bering:

— Tabiatdan oqilona va nooqilona foydalanish qanday jihatlari bilan farqlanadi?

— Ekologik muammolarning mohiyati nimadan iborat va ularning sabablari nima bilan bog'liq?

— Global ekologik muammolar qanday xususiyatlari bilan ajralib turadi?

— Ekologik muammolarning salbiy oqibatlari nimalardan iborat?


— Nima uchun hozirgi sharoitda ekologik siyosat olib borish zarurati vujudga kelgan?

Tabiatdan foydalanish	**• tabiiy resurslardan foydalanish, ularni muhofaza qilish va qayta tiklash bilan bog'liq inson faoliyati**
Tabiatdan oqilona foydalanish	**•tabiiy boyliklardan me'yorida, ularni muhofaza qilish va qayta tiklashga, tabiiy muhitning sog'lom holatini saqlashga e'tibor bergan holda foydalanish.**
Tabiatdan nooqilona foydalanish	**• tabiiy muhit va uning resurslari holatining salbiy tomonga o'zgarib borishiga olib keladigan tabiatdan foydalanish.**
Ekologik muammolar	**•tabiatdan nooqilona foydalanish natijasida tabiiy muhit sifatining yomonlashishi**
Ekologik siyosat	**•tabiiy muhitni muhofaza qilish va uni sog'lomlashtirishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan harakatlar tizimi.**

2. Guruhlarga bo'linib turli global ekologik muammolar haqida taqdimot yoki axborotlar tayyorlang hamda ularni sinfda muhokama qiling. Topshiriqni bajarishda paragrafda keltirilgan ma'lumotlar va qo'shimcha manbalardan foydalangan holda quyidagi rejaga rioya qiling:


1. tanlangan ekologik muammoning mohiyati;
2. muammoning sabablari;
3. tegishli ekologik muammoning salbiy oqibatlari va uni yechishning dolzarbligi;
4. muammo eng ko'p tarqalgan hududlar;
5. xalqaro hamjamiyat tomonidan muammoni yechishga qaratilgan harakatlar.

"Issiqxona effekti" muammosi. Atmosferada is gazi (CO), karbonat angidrid (CO_2) oltingugurt oksidlari (SO_2, SO_3), azot (II) oksidi (NO_2) salmog'ining oshib borishi katta ekologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. "Issiqxona" gazlari deb ataladigan ushbu gazsimon moddalarning atmosferadagi zarrachalari yer sirtiga kelayotgan nurlanishni o'tkaza turib, undan qaytayotgan issiqlik radiatsiyasini atmosferaning pastki qatlamidan yuqoriga yaxshi o'tkazmaydi. Bu jarayon atmosfera pastki qatlami o'rtacha yillik haroratining asta-sekin ko'tarilishiga olib kelmoqda. Ushbu holat sayyoramiz qutblari atrofidagi va baland tog'lardagi ko'p yillik muzliklar maydonining qisqarishiga sabab bo'lmoqda.







Ozon qatlamining yemirilishi muammosi. Keyingi yillarda havoga ftor-xlorli birikmalar (freonlar)ning ko‘p chiqarib yuborilishi natijasida Yerdagi hayotning qalqoni hisoblangan ozon qatlamining tobora yupqalashib borishi kuzatilmoqda. “Ozon tuynugi” deb nomlangan ana shu holat dastlab Janubiy Amerikaning Antarktidaga yaqin hududlari, so‘nggi yillarda esa Yevrosiyoning shimoliy kengliklari ustida ham kuzatila boshlandi. Kanadaning Monreal shahrida 1987-yili bir nechta davlatlar freon gazlarini ishlab chiqarishga va ulardan foydalanishga cheklovlar to‘g‘risidagi xalqaro bitimni imzolagan. Bugungi kunga kelib, bu bitimga jahondagi aksariyat mamlakatlar qo‘shilgan. Mutaxassislarning fikricha, agar Monreal bitimi qat’iy ravishda bajariladigan bo‘lsa, ozon qatlamining me’yordagi qalinligi 2050-yilga kelib qayta tiklanadi.



Cho‘llashish muammosi. Cho‘llik xususiyatlariga ega bo‘lgan hududlar maydonining kengayib borish jarayoni cho‘llashish deb ataladi. Uning asosiy sabablari daraxt va butalarning kesilishi, chorva mollarining tartibsiz boqilishi, suv resurslaridan nooqilona foydalanilish hisoblanadi. Cho‘llashish Afrika, Janubi-g‘arbiy, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari uchun jiddiy xavf-xatarga aylanmoqda. Yer yuzasidagi cho‘llashish belgilari kuzatilayotgan hududlarda 2 milliard kishidan ortiq aholi istiqomat qiladi. BMT 1994-yili Cho‘llashishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyani qabul qildi. 1995-yildan boshlab har yili 17-iyun Butunjahon cho‘llashish va qurg‘oqchillikka qarshi kurashish kuni sifatida nishonlanadi.



O‘rmonsizlanish muammosi. Insoniyat butun tarixi davomida o‘rmonlarni kesib borib ular maydonining qisqarishiga sababchi bo‘lgan. Ammo keskin ravishda o‘rmonsizlanish jarayoni oxirgi 100 yilga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, ekvatorial o‘rmonlar hamda qurg‘oqchil hududlardagi tog‘ o‘rmonlari maydonining qisqarib borishi biosferadagi tabiiy muvozanat uchun jiddiy xavf solmoqda. Bu muammoga qarshi kurashishning asosiy yo‘llari o‘rmonlar kesilishini cheklash hamda daraxtlarni ekish bilan bog‘liqdir. Bu borada jahon bo‘yicha ijobiy misollar bor. Masalan, Buyuk Britaniyada oxirgi 50–60 yilda o‘rmonlarning maydoni 3 barobar ko‘paygan. Yaponiyada o‘rmonlarning kesilishi qat’iy cheklanganligi tufayli mamlakat hududining ⅔ qismi o‘rmonlar bilan band. O‘zbekistonda ham Orol dengizining qurigan tubini o‘rmonlashtirish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.



Chuchuk suv tanqisligi muammosi. Chuchuk suvning asosiy qismi Antarktida, Arktika va baland tog‘lardagi muzliklarda to‘plangan. Insoniyatning chuchuk suvga bo‘lgan ehtiyojini qondiradigan asosiy manba daryolar bo‘lib, ularning katta qismi aholi ancha siyrak yashaydigan sovuq va ekvatorial iqlimli hududlar bo‘ylab oqadi va ulardan keng miqyosda foydalanish qiyindir. Quruqlikning ⅓ qismidan ko‘prog‘ini egallaydigan qurg‘oqchil hududlarda suv tanqisligi mavjud. Xususan, Shimoliy va Janubiy Afrika, Janubiy va Janubi-g‘arbiy Osiyoda, shuningdek, O‘zbekiston, Turkmaniston, Qozog‘iston kabi Markaziy Osiyo davlatlarida bu muammo dolzarb hisoblanadi.



3-bob. Jahon aholisi


8-§. Dunyo aholisining soni, o‘sishi va joylashishi

Aholi soni, aholi sonining o‘sishi, aholi takror barpo bo‘lishi, tabiiy o‘sish, aholi joylashuvi, aholi zichligi.

Davlatlar aholisi soni qanday omillar hisobiga o‘zgaradi?

Jahon aholisining soni 2020-yil ma’lumotlariga binoan 7 milliard 770 mln kishidan ortiqdir. Sayyoramiz aholisi bu miqdoriy marraga yetganining o‘ziga xos tarixi mavjud.

Arxeologik tadqiqotlar Shimoli-sharqiy va Sharqiy Afrika, Janubiy Yevropa hamda Old Osiyo mintaqalarida ilk insonlar paydo bo‘lganini ko‘rsatib bermoqda. Vaqt o‘tishi bilan qadimiy insonlarning yangi yerlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan intilishi sababli o‘zlari istiqomat qilayotgan manzilgohlardan boshqa hududlarga qarab harakatlana boshlaganlar. Migratsion harakatlar natijasida avval Afrikaning shimoliy, markaziy va g‘arbiy qismlari, Osiyoning janubi-g‘arbiy, janubiy hamda sharqiy mintaqalariga aholi ko‘chib kelishi yuz berdi. Keyingi davrlarda esa Markaziy Osiyo, Yevropa, Avstraliya va Okeaniyaning tabiiy sharoiti qulay joylarida qadimgi manzilgohlar paydo bo‘lgan bo‘lsa, Amerika qit’asida inson faoliyati boshqalariga qaraganda biroz kechroq boshlangan *(10-rasm)*.



10-rasm. **Aholining jahon mintaqalari bo‘ylab tarqalishi (xaritadagi raqamlar migratsiyalar necha yil oldin ro‘y berganini anglatadi)**

Demografiya — *aholining takror barpo bo‘lishi va tarkibi, ularning o‘zgarib borishini o‘rganuvchi fan.*

Demografik portlash — *o‘lim darajasi pasayishi tufayli aholi sonining tez sur’atlar bilan ko‘payishi.*

Uzoq davrlar davomida Yevropa, Osiyo va Afrika qit’alari aholining asosiy qismi to‘plangan mintaqalar bo‘lib turdi. Bu yerlarda insoniyat tarixida katta iz qoldirgan turli davlatlar paydo bo‘lib, davrlar o‘tishi bilan inqirozga uchragan. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida qit’alar o‘rtasida aholi sonining qayta taqsimlanishi yuz berdi.

Moddiy va sanitar-gigiyenik shart-sharoitlarning qoniqarsiz ahvolda ekanligi, qolaversa, vaqti-vaqti bilan takrorlanib turgan ocharchilik va yuqumli kasalliklar epidemiyalari natijasida bosib o‘tilgan tarixiy davrlar davomida aholining tabiiy ko‘payish darajasi past bo‘lgan.

XIX asrda Yevropa va Amerikada ro‘y bergan sanoat inqilobi, tibbiy xizmatning rivojlanishi natijasida bu qit’alardagi aholining o‘rtacha umr ko‘rishi va tabiiy ko‘payish darajasi ortdi.


XX asr davomida esa jahon aholisi soni 1,6 milliard kishidan 6,1 milliard kishigacha yetgan bo‘lib, aholi soni o‘sishining eng yuqori sur’atlari 1950-yillardan keyingi davrlarga to‘g‘ri keldi. Bu holat Ikkinchi jahon urushidan keyingi vaqtda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlarining siyosiy mustaqillikka erishuvi, ularga BMT tomonidan insonparvarlik yordamlarining berilishi tufayli aholi orasida o‘lim darajasining sezilarli darajada pasayishi oqibatida yuzaga kelgan. Natijada 1960–1980 yillarda jahonda **“demografik portlash”** jarayoni yuz berdi *(8-jadval).*

8-jadval. ***Jahon aholisi soni dinamikasi***

Jahon aholisi soni	Yil	Yillar oralig‘i
1 milliard kishi	1804	...
2 milliard kishi	1927	123
3 milliard kishi	1960	33
4 milliard kishi	1974	14
5 milliard kishi	1987	13
6 milliard kishi	1999	12
7 milliard kishi	2011	12
8 milliard kishi	2023 (BMT prognozi)	12
9 milliard kishi	2037 (BMT prognozi)	14
10 milliard kishi	2055 (BMT prognozi)	18

So‘nggi yillarda jahon aholisining o‘sish sur’atlari pasaymoqda. Bunga bir qator omillar mavjud. Masalan, davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, urbanizatsiya jarayoni, ayollarning iqtisodiyotda bandlik darajasining ortishi va boshqalar. Aholi sonining o‘zgarishi tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari nisbati asosida shakllanuvchi tabiiy ko‘payish darajasi bilan bog‘liq. Tug‘ilish va o‘lim koeffitsiyentlari ma’lum davr oralig‘ida har 1000 kishiga to‘g‘ri keluvchi tug‘ilishlar hamda o‘lim miqdori bilan aniqlanadi (promilleda). 2020-yil ma’lumotlariga ko‘ra, jahon aholisi tug‘ilish koeffitsiyenti 19 ‰, o‘lim koeffitsiyenti 7 ‰, tabiiy ko‘payish esa 12 ‰ ga teng bo‘lgan. Tabiiy ko‘payish ko‘rsatkichi jahon bo‘yicha 1960-yilda 17 ‰, 1970-yilda esa 20 ‰ ga teng bo‘lganligiga e’tibor bersak, o‘sish sur’ati pasaya borayotganining guvohi bo‘lamiz.


Demografik inqiroz (depopulyatsiya) – *tug‘ilishning o‘lim darajasidan ko‘ra pastroq bo‘lganligi sababli aholi sonining kamayishi.*



11-rasm. **Jahon mamlakatlari aholisining tabiiy ko‘payishi (har 1000 kishiga nisbatan)**

11-rasmdagi xaritadan Osiyo va ayniqsa Afrikadagi ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi tabiiy ko‘payish koeffitsiyenti yuqori ekanligini ko‘rish mumkin. Aksincha, Yevropa, Shimoliy Amerika va Sharqiy Osiyodagi rivojlangan davlatlarda aholi tabiiy ko‘payishi ancha past darajaga ega. Hattoki, bir qator Yevropa davlatlari (masalan, Germaniya, Italiya, Ukraina, Serbiya, Bolgariya va boshqalar) hamda Yaponiyada tabiiy ko‘payishning manfiy holati — **demografik inqiroz (depopulyatsiya)** jarayoni yuz bermoqda.

Tabiiy ko‘payish darajasidagi tafovutlarga ijtimoiy-iqtisodiy, diniy va milliy omillar katta ta’sir ko‘rsatadi. Aholining turmush darajasi, shahar va qishloq aholisining nisbati, ayollarning ijtimoiy hayotda ishtirok etish darajasi, an’anaviy turmush tarzi va qadriyatlarning saqlanganligi singari omillar tug‘ilish hamda tabiiy ko‘payish darajasi va uning o‘zgarib borishiga olib keladi.




12-rasm. **Jahon aholisining qit’alar bo‘yicha taqsimlanishi (2020- va 2050-yil (prognoz) holatlariga ko‘ra, %)**

Tabiiy ko‘payish darajasidagi tafovutlar bilan bog‘liq ravishda jahon aholisining hududiy tarkibi o‘zgarib bormoqda. Xususan, mutaxassislar prognozlariga binoan, turli mintaqa va davlatlarda tabiiy ko‘payishning xususiyatlari ta’sirida istiqbolda jahon aholisining qit’alar bo‘yicha taqsimlanishi *(12-rasm)* hamda jahonning aholi soni bo‘yicha peshqadam davlatlari tarkibi va ketma-ketligining *(9-jadval)* o‘zgarishi kutilmoqda.

9-jadval. ***Aholi soni bo‘yicha jahon davlatlarining birinchi o‘ntaligi (mln kishi hisobida)***

№	Davlatlar	2020-yil	Davlatlar	2050-yil (BMT prognozi)
1	Xitoy	1434,2	Hindiston	1663
2	Hindiston	1400,1	Xitoy	1398,8
3	AQSH	329,9	Nigeriya	401,3
4	Indoneziya	271,7	AQSH	385,7
5	Pokiston	220,9	Pokiston	347,8
6	Braziliya	211,8	Indoneziya	328,7
7	Nigeriya	206,1	Braziliya	232,9
8	Bangladesh	169,8	Bangladesh	215,5
9	Rossiya	146,7	Kongo Demokratik Respublikasi	212,1
10	Meksika	127,8	Efiopiya	208,6



13-rasm. **Jahon aholisining zichligi (kishi/km²)**

Aholi soni bo‘yicha qit’alar orasida Osiyo alohida o‘ringa ega. Bu qit’aga, 2020-yil holatiga ko‘ra, jahon aholisining salkam 60% i to‘g‘ri kelgan. Jumladan, aholi soni bo‘yicha jahon davlatlarining birinchi o‘ntaligiga kiradigan 5 ta Osiyo davlati (Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Pokiston, Bangladesh)ning jahon aholisidagi salmog‘i 45% ni tashkil etgan. 2050-yilga kelib Osiyoning bu boradagi yetakchiligi saqlanadi, ammo jahon aholisi tarkibidagi uning ulushi birmuncha pasayishi kutilmoqda.

Shuningdek, keyingi davrlarda tabiiy ko‘payish koeffitsiyentining pasayishi hisobiga Yevropa va Amerika qit’alarining ham jahon aholisidagi salmog‘i tobora kamayib boradi. Ayni paytda tabiiy ko‘payish nisbatan yuqori darajada saqlanayotgan Afrikaning jahon aholisi hududiy taqsimlanishidagi ulushi sezilarli darajada ortadi *(12-rasm).* Hozirgi vaqtda aholi soni jihatidan jahon davlatlarining peshqadam o‘ntaligiga Afrika davlatlaridan faqat Nigeriya kirayotgan bo‘lsa, 2050-yilga kelib, Kongo Demokratik Respublikasi va Efiopiya ham shu reytingdan joy olishi kutilmoqda *(9-jadval).*

Ma’lumki, aholi quruqlik yuzasi bo‘ylab notekis tarqalgan. Bunda tabiiy geografik, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik omillarning ta’siri katta. Mo‘tadil va subtropik iqlimli tekisliklar, daryo vodiy va

deltalari hamda dengizbo‘yi hududlarida aholi zichligi eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Bu holat ayniqsa qadimdan intensiv darajada o‘zlashtirilgan Nil, Ganga, Hind, Yanszi, Xuanxe kabi daryolar vodiy va deltalarida, Hindiston yarimoroli, O‘rta dengizga tutash hududlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi *(13-rasm).*

10-jadval. ***Aholi zichligi eng yuqori va eng past bo‘lgan davlatlar (2020-yil holatiga ko‘ra)***

№	Davlatlar	Aholi zichligi (kishi/km²)	№	Davlatlar	Aholi zichligi (kishi/km²)
1	Monako	18861	185	Mavritaniya	4,5
2	Singapur	8067	186	Botsvana	4,0
3	Bahrayn	1965	187	Liviya	3,9
4	Vatikan	1875	188	Kanada	3,8
5	Maldiv Respublikasi	1812	189	Gayana	3,7
6	Malta	1628	190	Islandiya	3,6
7	Bangladesh	1179	191	Surinam	3,5
8	Barbados	685	192	Avstraliya	3,3
9	Mavrikiy	635	193	Namibiya	3,0
10	San Marino	551	194	Mongoliya	2,2

Statistik ma’lumotlar jahon bo‘yicha hozirgi vaqtda 1 km²ga o‘rtacha 57 kishi to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda. Aholi zichligi asosan “mitti” davlatlarda eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega *(10-jadval).* Ayni paytda hududi ko‘proq cho‘llardan iborat bo‘lgan Mongoliya, Namibiya, Avstraliya, Liviya, Botsvana, Mavritaniya, shuningdek, sovuq iqlimli Kanada va Islandiya hamda hududining katta qismi qalin ekvatorial o‘rmonlar bilan band bo‘lgan Gayana va Surinam jahonning aholi zichligi eng past bo‘lgan davlatlari qatoriga kiradi *(10-jadval).*

Savol va topshiriqlar

1. Buyuk geografik kashfiyotlar jahon aholisining mintaqalar bo‘ylab taqsimlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatdi? Aholining boshqa mintaqalarga ko‘chib o‘tishi sabablarini qanday izohlaysiz?
2. Nima sababdan uzoq tarixiy vaqt davomida dunyo aholisining tabiiy ko‘payish darajasi past bo‘lgan? XIX asrda Yevropa va Amerikada aholining o‘rtacha umr ko‘rishi va tabiiy ko‘payish darajasi ortishi qanday omillar bilan bog‘liq?
3. Darslik ilovasidagi jadval ma’lumotlari asosida Yevropa, Osiyo, Afrika, Amerika, Avstraliya va Okeaniyaning aholi soniga ko‘ra beshta peshqadam davlatlarini aniqlang va daftaringizga yozib oling.
4. Jahon aholisining hududiy joylashuviga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi? Ushbu rasmlarda tasvirlangan joylarga yaxshilab e’tibor bering va yashash uchun eng qulay hududlarni tanlab, sababini izohlang.









Sizningcha, bu hududlarda aholi yashashi uchun qulay sharoit yaratish maqsadida qanday ishlarni amalga oshirish lozim?

5. Atlasdagi dunyo aholisining zichligi xaritasidan foydalanib yozuvsiz xaritaga jahondagi aholisi eng zich hududlar hamda aholi zichligi 1 km²ga 250 kishidan ko‘p bo‘lgan davlatlarni belgilang.

Yosh va jinsiy tarkibi, yosh guruhlari, aholi qarishi, asosiy, oraliq va aralash irqlar, yevropeoid, mongoloid, negroid, avstraloid, metis, mulat, sambo.

Aholi tarkibi qanday jihatlarni o‘z ichiga oladi?


9-§. Jahon aholisining yosh, jinsiy va irqiy tarkibi

Aholining yosh tarkibi. Aholi, yosh tarkibiga ko‘ra, bolalar (0–14 yosh), mehnatga layoqatli yoshdagilar (15–64 yosh) hamda keksalar (65 yosh va undan kattalar) kabi yirik guruhlarga ajratiladi. Ushbu yosh guruhlari orasidagi nisbat o‘tgan tarixiy davrlar mobaynida o‘zgarib kelgan. Uzoq davrlar davomida jahon aholisi yosh tarkibida keksalar salmog‘i juda past ko‘rsatkichga ega bo‘lib kelgan bo‘lsa, XX asrga kelib, yildan yilga ushbu guruh vakillari miqdori orta boshladi *(11-jadval)*. Bunga, birinchi navbatda, tibbiy xizmatning rivojlanishi va turmush darajasining o‘sishi natijasida aholi o‘rtacha umr davomiyligining oshishi sabab bo‘ldi.

11-jadval. ***Jahon aholisi yosh tarkibining dinamikasi***

Yillar	Yosh guruhlari salmog‘i, %		
	0–14 yosh	15–64 yosh	65 yosh va undan yuqori
1950	34,5	60,4	5,1
1975	36,9	57,4	5,7
2000	31,0	62,2	6,8
2010	27,0	65,0	8,0
2020	26,0	65,0	9,0
2050 (prognoz)	21,0	63,0	16,0

Jahon mintaqalari aholisining yosh tarkibi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi *(14-rasm)*. Xususan, tabiiy ko‘payish darajasi eng yuqori bo‘lgan Afrika aholisining yosh tarkibida bolalar salmog‘i keksalarnikiga qaraganda ancha yuqoriligi ko‘zga tashlansa, demografik inqiroz ro‘y berayotgan Yevropada bu holatning aksi kuzatilmoqda. Jahon davlatlari orasida bolalar salmog‘i Niger (51%), Angola (48%), Chad (48%) kabi Afrika davlatlarida eng yuqori darajaga ega. Bu boradagi eng past ko‘rsatkichlar esa Italiya (13%), Monako (13%), Germaniya (14%) kabi Yevropa davlatlarida qayd qilingan.



14-rasm. **Jahon mintaqalari aholisining yosh tarkibi (%, 2020-y.)**

Aholining yosh tarkibida mehnatga layoqatli yoshdagilar (15–64 yosh) guruhi alohida ahamiyatga ega. 14-rasmdan ko‘rinib turibdiki, ushbu guruh dunyo va barcha mintaqalar aholisining umumiy tarkibida eng katta salmoqqa ega bo‘lib, jahon aholisining 65% ini tashkil etadi. Tug‘ilish darajasi eng yuqori bo‘lgan Afrikada bu guruh salmog‘i eng past bo‘lsa, Osiyo, Amerika va Yevropaning bu boradagi ko‘rsatkichlari o‘rtacha jahon darajasidan yuqoridir.


Aholining jinsiy tarkibi. Jahonda ayollar va erkaklar salmog‘i deyarli teng, ayollar salmog‘i yuqoriroq hamda erkaklar salmog‘i yuqoriroq bo‘lgan mintaqa va davlatlarni ajratish mumkin. Statistik ma’lumotlar jahon aholisining jinsiy tarkibida erkaklar salmog‘i 50,5%, ayollarniki esa 49,5% ekanligini ko‘rsatmoqda (mutlaq ko‘rsatkichda erkaklar soni ayollar soniga qaraganda 60 mln kishiga ko‘proq).

Afrika, Janubiy Amerika, Avstraliya va Okeaniyada jinslar salmog‘i deyarli bir-biriga teng bo‘lsa, Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida ayollar salmog‘i birmuncha ortiq. Osiyoda esa erkaklarning son jihatidan ustunligi kuzatilmoqda. Xususan, Sharqiy, Janubiy va Janubi-g‘arbiy Osiyo hamda Shimoliy Afrika davlatlarida erkaklar salmog‘i ayollarnikiga qaraganda birmuncha yuqoriligini (masalan, Qatarda 67%, Kuvaytda 61,4%, BAAda 57,5%) ko‘rish mumkin. Bunga hozirgi sharoitda tegishli mintaqalarda ayollar ijtimoiy mavqeining pastligi, yosh tarkibida keksalar salmog‘ining kamligi (ayollarning o‘rtacha umr davomiyligi erkaklarga nisbatan odatda uzoqroq bo‘lganligi sababli keksalar tarkibida ayollarning ulushi ancha katta bo‘ladi) hamda migratsion jarayonlar ta’sir ko‘rsatadi. Yevropa davlatlarining ko‘pchiligida esa tug‘ilish darajasining o‘ta pastligi, XX asrda ro‘y bergan ikkita Jahon urushidagi katta yo‘qotishlar kabi omillar sababli ayollar salmog‘i yuqori (masalan, Latviyada 53,7%, Ukrainada 53,5%, Rossiyada 53,1%).

Yosh-jins piramidalari. Aholining yosh va jinsiy tarkibini tahlil qilishda yosh-jins piramidalaridan foydalaniladi. Ular orqali ma’lum hudud aholisining yosh guruhlari hamda jinslar bo‘yicha taqsimlanishi aks ettiriladi *(15-rasm).* Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar yosh-jins piramidalarini qiyoslagan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1) rivojlangan davlatlarda aholi orasida tabiiy ko‘payish darajasining kamayishi oqibatida bolalar salmog‘i kamayib, mehnatga layoqatli va keksa yoshdagilar salmog‘i ortib bormoqda;

2) rivojlanayotgan davlatlarda tabiiy ko‘payish sur’atlarining yuqoriligi natijasida yosh-jins piramidasining quyi qismi katta salmoqqa ega bo‘lmoqda. Shu bilan birga, bu davlatlarda erkaklarning son jihatdan ustunligi ko‘zga tashlanadi.



15-rasm. **Rivojlangan (I) va rivojlanayotgan (II) davlatlar aholisining yosh-jins piramidalari**

Aholining irqiy tarkibi. Irqlar — insonlarning tashqi ko‘rinish belgilari (teri, soch, ko‘z ranglari, tana tuzilishi, yuz, burun, lab shakli va hokazo) bilan o‘zaro farq qiluvchi guruhlari. Irqlar mohiyati va paydo bo‘lish sabablari jihatidan biologik kategoriya hisoblanib, inson organizmining tashqi muhitga moslashishi natijasida shakllangan. Irqlar paydo bo‘lishi uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi.

Jahon aholisining katta qismi (70% iga yaqin) to‘rtta asosiy irqqa (yevropeoid, mongoloid, negroid katta irqlari va avstraloid kichik irqi), qolgan qismi esa oraliq va aralash irqlarga mansub.

Yevropeoid irqi vakillari hissasiga jahon aholisining 40% idan ortiq qismi to‘g‘ri kelib, ular Yevropa, Amerika, Avstraliya va Okeaniya aholisining asosiy qismini tashkil qiladi. Shu bilan birga, Janubiy, Janubi-g‘arbiy va Markaziy Osiyo hamda Shimoliy Afrikada ham katta miqdorda yevropeoidlar istiqomat qiladi. Shimoliy hududlarda istiqomat qiluvchi yevropeoidlarga och tusli teri, to‘lqinsimon yoki tekis, yumshoq soch, asosan moviy rang ko‘z, qirra burun, yupqa va o‘rta lab singari tashqi belgilar xos bo‘lib *(16-rasm)*, janubga borgan sari tabiiy muhit bilan bog‘liq tarzda tana, soch va ko‘z ranglari to‘qlashib boradi. Shu bois, yevropeoid irqi tarkibida 3 ta — shimoliy, O‘rta Yevropa va janubiy tarmoqlar ajratiladi.

Mongoloid irqi vakillari jigarrang tusli teri, tekis, qattiq, to‘q tusli soch, ko‘zning to‘q tusli ko‘rinishlari, qirra yoki o‘rta yapasqi burun, ko‘z usti qobig‘i, ensa sohasining kengayganligi bilan farqlanadi *(16-rasm)*. Mongoloidlar asosan Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo davlatlarida keng tarqalgan. Shuningdek, Rossiyaning Osiyodagi qismi hamda Amerika qit’asining tub xalqlari ham mongoloid irqiga mansub.



Yevropeoid irqi | *Mongoloid irqi* | *Negroid irqi* | *Avstraloid irqi*

16-rasm. **Asosiy irq vakillari**

Negroid irqi vakillari asosan Afrika hamda Amerika davlatlarida istiqomat qiladi. Qora tusli teri, tekis, qattiq, jingalak qora tusli soch, ko‘zning to‘q tusli ko‘rinishlari, jag‘ning ajralib chiqqanligi, yapaloq burun, do‘rdoq lab ularga xos asosiy belgilar hisoblanadi *(16-rasm)*. Afrika bu irq vakillarining asl ona vatani hisoblanib, ularning katta qismi XVI-XVIII asrlarda Amerikaning turli mintaqalariga majburiy tarzda qul qilib olib ketilgan.

Avstraloid irqi uzoq davr davomida negroid irqining bir ko‘rinishi sifatida hisoblanib kelingan. Lekin so‘nggi yillardagi tadqiqotlar ularning kelib chiqishi negroidlar bilan bog‘liq emasligini ko‘rsatmoqda. To‘q tusli teri (negroidlarnikidan birmuncha ochroq), kalta bo‘yin, juda keng yapaloq burun, to‘q jigarrang tusli soch va ko‘z, do‘rdoq lablarga ega mazkur irq vakillari *(16-rasm)* asosan Avstraliya va Okeaniyada tarqalgan.

Asosiy irqlar oralig‘ida tarixan paydo bo‘lgan oraliq irq vakillari ham mavjud. Ularga efiop, dravid, ural, farg‘ona-pomir irqlari misol bo‘la oladi. Jahon aholisi irqiy tarkibida metis, mulat, sambo ko‘rinishlaridagi aralash irq vakillari ham mavjud. Bu aralash irqlar Amerika qit’asida keng tarqalgan bo‘lib, metislar yevropeoid va amerikalik hindular, mulatlar yevropeoid va negroidlar, sambolar amerikalik hindu va negroidlarning aralashuvi natijasida shakllangan.

Irqlar haqida so‘z yuritganda, shuni ta’kidlash muhimki, tashqi belgilar kishilarning intellektual qobiliyatlari va insoniy sifatlariga ta’sir ko‘rsatmaydi. Shu bois barcha irq vakillari huquqiy jihatdan o‘zaro teng bo‘lishlari kerak. Mustamlakachilik va qulchilik sharoitida ayrim davlatlarda shakllangan irqchilik (irqlar orasida jismoniy va aqliy tengsizlik mavjudligini targ‘ib qiluvchi qarash) mafkurasiga qarshi kurashish maqsadida BMT tomonidan 1965-yili Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya qabul qilingan.

Savol va topshiriqlar

1. Aholining yosh tarkibiga tabiiy o‘sish darajasi qanday ta’sir ko‘rsatadi? Nimaga uzoq davrlar mobaynida jahon aholisi yosh tarkibida keksalar salmog‘i juda past ko‘rsatkichga ega bo‘lib kelgan?
2. Nima uchun rivojlangan davlatlarda bolalar salmog‘i qariyalarga nisbatan past? Bu holat qanday ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirishi mumkin?
3. Irqlar qanday omillar ta’sirida paydo bo‘lgan? Yevropeoid irqi vakillarining jahon bo‘ylab keng tarqalganligiga sabab nima?
4. Amerika qit’asida aralash irqlar shakllanishi sabablarini tushuntiring. Bunga Buyuk geografik kashfiyotlar qanday ta’sir ko‘rsatgan?
5. Quyidagi ma’lumotlardan to‘g‘rilarini ajrating:
   - Yevropeoid irqi tarkibida ikkita tarmoq ajratiladi;
   - Shimoliy Amerika davlatlarida ayollar salmog‘i birmuncha ortiq;
   - Mulatlar yevropeoid va amerikalik hindular aralashuvi natijasida shakllangan;
   - Afrika qit’asida tug‘ilish darajasi eng yuqori;
   - Mongoloidlar asosan Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo davlatlarida keng tarqalgan;
   - Angola bolalar salmog‘i eng yuqori bo‘lgan davlat hisoblanadi;
   - Jahon aholisining jinsiy tarkibida erkaklar salmog‘i 49,5%;
   - Yevropada demografik inqiroz kuzatilmoqda;



Etnos, qabila, millat, til oilalari va guruhlari, xalqaro so‘zlashuv tillari, din, sodda din, mahalliy din, buddizm, xristianlik, islom dini.

Biror davlatga safarga chiqmoqchi bo‘lgan insonga o‘sha davlat aholisining milliy va diniy tarkibini bilish nima uchun kerak?

10-§. Dunyo aholisining etnik va diniy tarkibi

Aholining milliy va diniy tarkibi davlatlarda yuz berayotgan demografik jarayonlarga katta ta’sir ko‘rsatadi. Oilaga, farzandlar soni va tarbiyasi bilan bog‘liq diniy qarashlar hamda milliy qadriyatlar ko‘p jihatdan aholining tabiiy ko‘payishi, yosh va jinsiy tarkibiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Aholining etnik (milliy) tarkibi. Jahon va alohida davlatlar aholisining muhim tavsiflaridan biri uning etnik, ya’ni milliy tarkibi hisoblanadi. “Etnos” so‘zi qadimgi yunon tilidan “xalq, millat” deb tarjima qilinadi va ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llaniladi.

Insonlarning eng qadimiy, oddiy ijtimoiy uyushmalari hisoblangan qabila va urug‘lar hozirgi kunda asosan Shimoliy Amerika va Yevrosiyoning shimoliy hududlarida, Okeaniya orollari, Afrikaning markaziy qismida saqlanib qolgan *(17-rasm).*

Elatlar qabila va urug‘lar hamda millatlar orasidagi birlashtiruvchi halqa vazifasini o‘tab keladi. Ular odatda kamsonli bo‘lib, ma’lum kichik hududlar doirasida istiqomat qiladi. Elatlar asosan Osiyo va Afrikada mavjud.

Millatlar yagona tili, yashash hududi, milliy iqtisodiyoti, madaniyati, mentaliteti va milliy o‘zligini anglash hissiyoti yuqori darajada shakllangan, ko‘p hollarda, o‘z davlatchiligi yoki muxtoriyatiga ega bo‘lgan etnoslardir. Millatlar jahonning barcha mamlakat va mintaqalarida keng tarqalgan.



17-rasm. **Jahonning turli mintaqalarida istiqomat qiluvchi qabilalar**

Etnoslar *— bir-birlaridan tili, yashash hududi, madaniy an’ana va urf-odatlari, turmush tarzi bilan ajralib turadigan va o‘zligini anglash hissi mavjud bo‘lgan insonlarning tarixan shakllangan ijtimoiy-madaniy guruhlari.*

Etnoslarning ***qabila va urug‘****,* ***elat*** *hamda* ***millat*** *ko‘rinishlari mavjud.*

Ilmiy manbalarga ko‘ra, jahonda 3–4 ming etnos mavjud bo‘lib, ularning ichida 14 tasining vakillari soni 100 mln kishidan ortiq, 13 tasi esa 50–100 mln kishiga teng. Jahondagi eng ko‘psonli millatlar qatoriga xitoyliklar (xanlar), hindlar, arablar, amerikaliklar, bengallar, braziliyaliklar, ruslar, meksikaliklar, yaponlar, panjobliklar, bixarlar, yavaliklar kiradi. Jahondagi bir necha mingta etnoslardan katta qismi kamsonli elat, qabila va urug‘lardan iborat.


Jahon davlatlari aholisining milliy tarkibi xususiyatlariga ko‘ra bir millatli (masalan, Yaponiya, Islandiya, Norvegiya), bir millat boshqalariga nisbatan katta salmoqqa ega bo‘lgan (masalan, AQSH, Fransiya, Turkiya), ikki millatli (masalan, Kanada, Belgiya), kelib chiqishi bir-biriga yaqin millatlardan iborat (masalan, Afg‘oniston, Pokiston), ko‘p millatli (masalan, Hindiston, Indoneziya) davlatlar guruhlariga ajratiladi.

Etnoslar shakllanishida tilning ahamiyati juda katta. Lekin jahonda mavjud bo‘lgan barcha etnoslar ham alohida tiliga ega emas. Masalan, amerikaliklar uchun ingliz, avstriyaliklar uchun nemis, braziliyaliklar uchun portugal tillari

muloqot va rasmiy til bo‘lib xizmat qiladi. Mutaxassislarning ma’lumotlariga qaraganda, bugungi kunda dunyoda, shevalarni hisoblamaganda, 3 mingdan ortiq til mavjud bo‘lib ular orasida eng ko‘p tarqalgan 40 tasi jahon aholisining ⅔ qismi uchun asosiy muloqot vositasi sanaladi.

Jahonda mavjud bo‘lgan tillar kelib chiqishining umumiyligi, leksik va grammatik tizimlarining o‘xshashligini hisobga olib 20 dan ortiq til oilalariga birlashtiriladi. Ular orasida hind-yevropa til oilasi so‘zlashuvchilar soniga ko‘ra yetakchilik qiladi. Jahon aholisining 45% qismi ushbu til oilasi tarkibiga kiruvchi tilda so‘zlashadi. Shuningdek, jahonda koreys, yapon, bask, ayn, burish singari hech qaysi til oilasiga kiritilmaydigan tillar ham mavjud.

Jahonda so‘zlashuvchilar soni bo‘yicha xitoy, ispan, ingliz, hind, arab, bengal, portugal, rus, yapon va yavan tillari yetakchilik qiladi. Xitoy, ingliz, ispan, fransuz, arab va rus tillari *BMT rasmiy tillari* hisoblanadi.



18-rasm. **Dinlar tasniflanishi**

Aholining diniy tarkibi. Dinlar sodda (primitiv), mahalliy va jahon dinlariga ajratiladi *(18-rasm).* Diniy e’tiqodning eng sodda ko‘rinishi bo‘lgan primitiv dinlar hozirda asosan qabila va urug‘lar orasida saqlanib qolgan. Ularning totemizm (Amerika hindulari, Avstraliya aborigenlari yashovchi hududlarda), animizm (Tropik Afrika, Amerika, Okeaniya), fetishizm (Tropik Afrika), shamanizm (Rossiyaning shimoliy hududlari) kabi ko‘rinishlari mavjud.

Mahalliy dinlar (*bitta yoki bir nechta qardosh millatlar orasida tarqalgan dinlar*) esa asosan bitta davlat yoki mintaqa doirasida tarqalgan *(12-jadval).* Mahalliy dinlar orasida induizm dini e’tiqodchilar soniga ko‘ra peshqadamlik qiladi. Sikxizm, konfutsiylik, iudaizm, sintoizm dinlari ham mahalliy dinlar sirasiga kiradi.

12-jadval. ***Mahalliy dinlarning tarqalish hududlari***

№	Mahalliy dinlar	E’tiqod qiluvchilarning asosiy qismi tarqalgan davlatlar
1	Induizm	Hindiston, Nepal, Shri Lanka
2	Sikxizm	Hindiston (Panjob shtati)
3	Konfutsiylik	Xitoy
4	Daosizm	Xitoy
5	Sintoizm	Yaponiya
6	Iudaizm	Isroil, AQSH

Buddizm, xristianlik va islom dinlari jahonning bir qancha davlat va mintaqalarida tarqalganligi, e’tiqod qiluvchilar soniga ko‘ra katta salmoqqa ega bo‘lgani uchun jahon dinlari sifatida e’tirof etiladi *(13-jadval).*

13-jadval. ***Jahon dinlarining tarqalish hududlari***

№	Jahon dinlari	E’tiqod qiluvchilarining asosiy qismi tarqalgan mintaqalar
1	***Buddizm***	Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo (Xitoy, Yaponiya, Mongoliya va boshqalar)
2	***Xristianlik***, jumladan:	Yevropa, Shimoliy Osiyo, Amerika, Avstraliya
2.1	*katolik*	G‘arbiy va Janubiy Yevropa, Janubiy Amerika
2.2	*protestantlik*	Shimoliy Yevropa, Shimoliy Amerika, Avstraliya
2.3	*pravoslav*	Sharqiy va Janubiy Yevropa, Shimoliy Osiyo
3	***Islom***, jumladan:	Janubiy, Janubi-g‘arbiy, Janubi-sharqiy va Markaziy Osiyo, Shimoliy Afrika
3.1	*sunniylik*	Ko‘pchilik musulmon davlatlar
3.2	*shialik*	Eron, Ozarbayjon, Iroq, Livan, Bahrayn

E’tiqodchilar soniga ko‘ra (2 milliard 400 mln kishidan ortiq) xristianlik yetakchilik qiladi. Bu din vakillari jahonning barcha mintaqalarida tarqalgan. Xristianlik dini katolik, protestantlik va pravoslavlik kabi 3 ta yirik mazhablarga ajraladi.


Paydo bo‘lish davriga ko‘ra jahon dinlari orasida eng yoshi hisoblangan islom dini 1 milliard 600 mln dan ortiq e’tiqodchilarga egadir. 50 ta davlat uchun davlat dini hisoblangan islom dini asosan Shimoliy Afrika, Janubi-g‘arbiy, Markaziy, Janubiy, Janubi-sharqiy Osiyo mintaqalarida keng tarqalgan. Uning sunniylik va shialik kabi ikkita yirik mazhablari mavjud. Sunniylik mazhabiga jami musulmonlarning 90% iga yaqin qismi mansubdir. Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O‘zbekistonda ham islomning sunniylik yo‘nalishi keng tarqalgan.

Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyoda (Xitoy, Yaponiya, Mongoliya, Myanma, Tailand va boshqalar) buddizm dini 700 mln dan ortiq e’tiqodchilariga ega. Buddizmning maxayana, xinayana, lamaizm kabi oqimlari bor.

Aholining milliy va diniy tarkibi nafaqat demografik jarayonlarga, balki davlatlarning siyosiy hayotiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Savol va topshiriqlar

1. Hozirgi kunda qabila va urug‘lar saqlanib qolgan hududlarni xaritadan ko‘rsating. Nima uchun qabila shaklidagi etnoslar aynan shu hududlarda saqlangan?
2. Jahon davlatlari aholisining milliy tarkibi xususiyatlariga ko‘ra qanday guruhlarga bo‘linadi? Aholining milliy tarkibi bo‘yicha turli tiplarga mansub bo‘lgan davlatlarga misollar keltiring.
3. Sizningcha, nimaga aynan xitoy, ingliz, ispan, fransuz, arab va rus tillari BMT rasmiy tillari hisoblanadi? Fikringizni asoslang.
4. Rasmda berilgan davlatlar nomini aniqlang va ularga tegishli tavsiflarni tanlang.



I II III IV

a) bir millatli davlat;
b) shialik mazhabi keng tarqalgan;
d) aholisi induizmga e’tiqod qiladi;
e) ko‘p millatli davlat.

5. Atlasdagi dinlar xaritasidan foydalanib jahon dinlari tarqalgan hududlarni yozuvsiz xaritaga belgilang.

11-§. Jahon mamlakatlarining urbanizatsiyasi

Shahar, urbanizatsiya, yuqori, o‘rta va past darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar, soxta urbanizatsiya, monoshahar, shahar aglomeratsiyasi, megalopolis.

Shahar va qishloq aholi punktlari orasidagi tafovutlarni izohlang.

Shahar — *aholisining asosiy qismi qishloq xo‘jaligidan boshqa tarmoqlarda band bo‘lgan aholi manzilgohi.*

Urbanizatsiya — *(lotincha “urbs” — “shahar”) — jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida shaharlar ahamiyatining oshishi, jumladan, shahar aholisi soni va salmog‘ining o‘sishi, shahar turmush tarzining tarqalishi jarayoni.*

Qishloq va shaharlar aholining asosiy istiqomat manzillari hisoblanadi. Hozirgi davrda shaharlar har bir davlatning asosiy ishlab chiqarish, boshqaruv, transport markazlariga aylanib borayotgani hech kimga sir emas.

Insoniyat tarixida ilk shaharlarning paydo bo‘lishi dehqonchilik va chorvachilik sohalari vakillarining o‘zaro mahsulot ayirboshlash markazlari bo‘lgan bozorlar faoliyati bilan bog‘liq. Qulay geografik o‘ringa ega bo‘lgan ushbu savdo hududlari keyinchalik hunarmand va savdogarlar yashash va mehnat qilish markazlariga aylandi. Vaqt o‘tishi bilan yirik mulk egalari yashovchi, katta karvon yo‘llarida qulay joylashgan aholi manzilgohlari ham shaharlarga aylana boshladi.

Ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishi ayniqsa sanoat inqilobining yuz berishi, zamonaviy transport yo‘llarining barpo etilishi jahonda shaharlar sonining keskin ortishiga sababchi bo‘ldi. Agar qadimiy davrlarda shaharlar paydo bo‘lishi asosan qulay geografik o‘rin, tabiiy sharoit bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, keyingi vaqtlarda yangi ma’dan konlarining ochilishi, sanoat korxonalari va transport yo‘llarining qurilishi, turizm va xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishi kabilar shahar hosil qiluvchi asosiy omillarga aylandi.

Shaharga xos turmush tarzi ko‘plab insonlarni o‘ziga jalb qiladi va ularni shahar aholi manzilgohlariga ko‘chib kelishga undaydi. Oqibatda XX asrda jahonda **urbanizatsiya** darajasi tez sur’atlarda o‘sib bordi.

Agar 1800-yili dunyo aholisining 3% i shaharlarda istiqomat qilgan bo‘lsa, oradan 100 yil o‘tib, mazkur ko‘rsatkich 14% ga yetdi. 2000-yilga kelib jahon urbanizatsiya darajasi (shahar aholisining salmog‘i) 47% ni tashkil qildi. 2020-yil holatiga ko‘ra, jahon aholisining 56% i shaharlarda istiqomat qilgan. Eng yuqori ko‘rsatkich (100%) Qatar, Monako, Singapur, Nauru kabi “mitti” davlatlarda kuzatiladi. Eng past ko‘rsatkichlar esa Burundi (13%), Niger (16%) Malavi (17%) kabi eng sust rivojlangan davlatlarga xos.


Urbanizatsiya darajasi ko‘rsatkichi bo‘yicha jahon mamlakatlari 3 ta guruhga ajratiladi:

1. Shahar aholisining ulushi 75% dan katta bo‘lgan *yuqori darajada urbanizatsiyalashgan* mamlakatlar (masalan, AQSH, Yaponiya, Belgiya va boshq.);
2. Shahar aholisining ulushi 50% dan 75% gacha bo‘lgan *o‘rtacha darajada urbanizatsiyalashgan* mamlakatlar (masalan, JAR, Peru, Xitoy va boshq.);
3. Shahar aholisining ulushi 50% dan kam bo‘lgan *past darajada urbanizatsiyalashgan* mamlakatlar (masalan, Misr, Bangladesh, Moldova va boshq.)

Mintaqalar orasida esa eng yuqori urbanizatsiya darajasi Shimoliy Amerikaga tegishli (82%). Bu ko‘rsatkich Lotin Amerikasida 79%, Yevropada 75%, Avstraliya va Okeaniyada 68%, Osiyoda 51% hamda Afrikada 43% ni tashkil qilmoqda *(19-rasm)*.

Shahar aglomeratsiyasi *— turli kattalikdagi shaharlarning ma’muriy, ishlab chiqarish, ijtimoiy, madaniy aloqalar natijasida birlashuvi.*

Megalopolis *— (yunoncha megalu — “katta”, polis — “shahar”) — yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalarining biribiriga qo‘shilib ketishi*



19-rasm. **Jahon mintaqalarida urbanizatsiya darajasining o‘zgarishi (% hisobida)**

19-rasmdagi diagrammalar jahonning barcha mintaqalarida urbanizatsiya darajasi vaqt o‘tishi bilan o‘sib borishini ko‘rsatmoqda. Yevropa, Shimoliy Amerika, Lotin Amerikasi, Avstraliya va Okeaniya mintaqalarida mazkur jarayon o‘zgarishlari nisbatan sekin yuz bermoqda. Osiyo va Afrikada esa aholining tabiiy o‘sish sur’atlarining tezligi, qishloqlardan shaharlarga tomon katta miqdordagi aholi migratsiyasi kabi omillar ta’sirida urbanizatsiya darajasi yildan yilga ortib bormoqda.

Rivojlanayotgan davlatlarda *soxta urbanizatsiya* holati keng tarqalgan *(20-rasm).* Soxta urbanizatsiya deb, yirik shaharlar chekkalarida zaruriy infratuzilmaga ega bo‘lmagan, qishloqlardan ko‘chib kelgan aholi tomonidan tartibsiz ravishda bunyod etilgan mavzelarning shakllanishiga aytiladi. Bu jarayon ayniqsa Braziliya va Hindistondagi yirik shaharlarda keng tarqalgan.



20-rasm. **Soxta urbanizatsiya ko‘rinishlari**

Zamonaviy sharoitda ko‘p tarmoqli ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari mavjud bo‘lgan, ma’muriy boshqaruv funksiyalarini bajaradigan shaharlar eng yuqori sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Aksincha, bitta yirik korxona yoki foydali qazilma koni negizida shakllangan, bitta ishlab chiqarish tarmog‘iga ixtisoslashgan shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko‘pincha muammoli tarzda kechadi. Bunday xususiyatga ega bo‘lgan shahar manzilgohlari *monoshaharlar* deb ataladi. Hozirgi vaqtda AQSH, Avstraliya, Yaponiya, Rossiya, Qozog‘iston va jahonning boshqa ko‘plab davlatlarida mineral resurslar zaxirasi tugaganligi, ishlab chiqarish korxonalarining yopilishi, ekologik holat keskinlashganligi bois aholisi butunligicha yoki juda katta qismi ko‘chib ketgan, chin ma’noda, “o‘lik” shaharlarga aylangan monoshaharlar mavjud *(21-rasm).*



Virjiniya Sity (AQSH)



Gunkajima (Yaponiya)

21-rasm. **“O‘lik” shaharlarga aylangan monoshaharlar namunalari**

Urbanizatsiya jarayoni natijasida nafaqat shaharlar va shahar aholisi soni ortadi, balki shahar manzilgohlari maydoni ham kengayishi yuz beradi. Shahar hududlari kengayishi natijasida *shahar aglomeratsiyalari* va *megalopolis*lar vujudga kelgan.

Shahar aglomeratsiyalari bir markazli (monosentrik) va ko‘p markazli (polisentrik) bo‘lishi mumkin. Tokio-Iokogama (aholisi soni 37,8 mln kishi), Jakarta (30,5 mln kishi), Dehli (25 mln kishi), Manila (24,1 mln kishi), Seul-Inchxon (23,5 mln kishi) jahonning eng yirik aglomeratsiyalari hisoblanadi.

14-jadval. ***Jahonning yirik megalopolislari***

Megalopolislar nomi	Joylashgan davlatlari	Tarkibidagi shahar aglomeratsiyalari		Umumiy uzunligi, km
		Soni	Eng yirigi	
Shimoliy-sharqiy (BosVash)	AQSH	40	Nyu York	800
Ko‘lbo‘yi (ChiPits)	AQSH	35	Chikago	900
Tinch okeanbo‘yi (SanSan)	AQSH	15	Los Anjeles	800
Ingliz	Buyuk Britaniya	30	London	400
Reyn	Niderlandiya, Belgiya, Germaniya, Fransiya	30	Reyn-Rur	500
Tokaydo	Yaponiya	20	Tokio	700

Jahondagi megalopolislardan eng yiriklari sirasiga AQSHdagi Shimoli-sharqiy, Ko‘lbo‘yi, Tinch okeanbo‘yi, Buyuk Britaniyadagi Ingliz, Yaponiyadagi Tokaydo hamda Niderlandiya, Germaniya, Belgiya va Fransiya hududlarida shakllangan Reyn megalopolislari kiradi *(14-jadval)*.



Savol va topshiriqlar

1 Quyidagi atamalarga mos ta’riflarni tanlab, daftaringizga yozib oling.

1) shahar; 2) urbanizatsiya; 3) shahar aglomeratsiyasi; 4) megalopolis.

A	*jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida shaharlar ahamiyatining oshishi, shahar aholisi soni va salmog‘ining o‘sishi, shahar turmush tarzining tarqalishi jarayoni.*
B	*yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalarining bir-biriga qo‘shilib ketishi.*
D	*turli kattalikdagi shaharlarning ma’muriy, ishlab chiqarish, ijtimoiy, madaniy aloqalar natijasida birlashuvi.*
E	*aholisining asosiy qismi qishloq xo‘jaligidan boshqa tarmoqlarda band bo‘lgan aholi manzilgohi.*

2 Urbanizatsiya darajasining XX asrga kelib tez sur’atlarda ortishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan?

3 Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi urbanizatsiya jarayonlari bir-biridan qanday jihatlari bilan farqlanadi? Soxta urbanizatsiya shakllanishiga sabab nima va u qanday muammolarni yuzaga keltirishi mumkin deb o‘ylaysiz?

4 Monoshaharlar deb qanday shaharlarga aytiladi? Sizningcha, monoshaharlarning vaqt o‘tishi bilan “o‘lik” shaharlarga aylanib qolmasligi uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim?

5 Atlasdagi urbanizatsiya xaritasidan foydalanib yuqori darajada urbanizatsiyalashgan davlatlarni yozuvsiz xaritaga belgilang.

6 Urbanizatsiya jarayonini aholi turmush tarziga va atrof-muhitga ta’siri nuqtayi nazaridan qanday baholash mumkin? Fikrlaringiz asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Urbanizatsiya jarayonining jihatlari:	
Ijobiy	**Salbiy**
…	…

12-§. Amaliy mashg‘ulot
Aholi harakati, tarkibi va joylashuviga oid masalalar

1 **Quyidagi ma’lumotlardan foydalanib davlatlar aholisi zichligini hisoblang:**

a **Kolumbiya:** maydoni — 1138,9 ming km², aholisining soni — 51,3 mln kishi;
b **Buyuk Britaniya:** maydoni — 243,8 ming km², aholisining soni — 67,2 mln kishi;
d **Qozog‘iston:** maydoni — 2724,9 ming km², aholisining soni — 18,7 mln kishi;
e **Gana:** maydoni — 238,5 ming km², aholisining soni — 31,1 mln kishi;

2 **Berilgan sonlar asosida noma’lum kattaliklarni hisoblab, quyidagi jadvalni to‘ldiring.**

Davlatlar	Jami aholisi, mln kishi	Shahar aholisi soni, mln kishi	Urbanizatsiya darajasi, %	Qishloq aholisi soni, mln kishi	Qishloq aholisi ulushi, %
Meksika	…	93,3	73	…	…
JAR	…	39,9	…	19,7	…
Myanma	54,7	…	…	38,3	…
Avstriya	8,9	…	59	…	…
Urugvay	…	3,3	…	…	5

3 **Quyidagi jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan foydalanib davlatlar aholisining 2020-yildagi tabiiy, migratsion va umumiy ko‘payishi hamda 1.01.2021-yil holatiga ko‘ra sonini hisoblang.**

Davlatlar	1.01.2020-y. holatiga ko‘ra aholi soni, ming kishi	2020-yilda tug‘ilganlar soni, ming kishi	2020-yilda o‘lganlar soni, ming kishi	2020-yilda ko‘chib kelganlar soni, ming kishi	2020-yilda ko‘chib ketganlar soni, ming kishi
Latviya	1907,7	17,5	28,9	8,8	12
Qirg‘iziston	6523,5	158,1	40	1	5,8

4 **Quyidagi ma’lumotlardan foydalanib berilgan davlatlar aholisining yosh tarkibidagi tafovutlarni aniqlang va bu tafovutlarning sabablarini izohlashga harakat qiling.**

Ko‘rsatkichlar	Davlatlar		
	Belgiya	Mozambik	Saudiya Arabistoni
0–14 yoshdagi aholining salmog‘i, %	17	46	25
15–64 yoshdagi aholining salmog‘i, %	64	51	72
65+ yoshdagi aholining salmog‘i, %	19	3	3
Tug‘ilish, 1000 kishiga nisbatan	10	39	15
O‘rtacha umr ko‘rish, yosh	82	55	78
Migratsion ko‘payish, 1000 kishiga nisbatan	4	–2	12



4-bob. Jahon xo‘jaligi geografiyasi

13-§. Jahon xo‘jaligi va xalqaro mehnat taqsimoti

Jahon xo‘jaligi, agrar, industrial va postindustrial davrlar, fan-texnika inqilobi, birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to‘rtlamchi sektorlar, xalqaro mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv.


Davlatlar nima sababdan o‘zaro savdo-sotiq qiladi?

***Jahon xo‘jaligi** — o‘zaro savdo-sotiq, kreditlar berish, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar barpo etish va boshqa shakldagi iqtisodiy aloqalar orqali bog‘langan jahon mamlakatlarining milliy iqtisodiyotlari majmui.*

Milliy xo‘jaliklar umumlashgan holda jahon xo‘jaligi sifatida shakllanishi XVI-XVII asrlar, ya’ni Buyuk geografik kashfiyotlar davriga borib taqaladi. Ushbu tarixiy davrda qimmatbaho toshlar, metallar, ziravorlar va qullar bilan xalqaro savdo tez rivojlangan edi.

Jahon xo‘jaligi shakllanishi va rivojlanishi ishlab chiqarish tarmoqlari rivoji bilan bog‘liq *(22-rasm)*. Ma’lumki, jahon iqtisodiyoti uchun XVIII asrgacha bo‘lgan davrda qishloq xo‘jaligi yetakchi tarmoq hisoblangan. Shu bilan birga kishilar uchun zarur bo‘lgan turli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi hunarmandchilik ham rivojlangan edi.

Yevropada boshlangan sanoat inqilobi sanoatlashuv davrining boshlanishi uchun zamin yaratgan. XVIII asrda J. Uatt tomonidan bug‘ mashinasining ixtiro qilinishi turli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yirik sanoat korxonalari — zavod va fabrikalarning ishga tushirilishiga sharoit yaratdi. Vaqt o‘tishi bilan sanoatlashuv jarayoni dunyoning barcha hududlariga yoyila boshladi.



22-rasm. **Jahon iqtisodiyoti sohalarining dinamikasi**


Fan-texnika inqilobi — *ilm-fan taraqqiyoti tezlashishi natijasida ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishning uzluksiz jarayoni.*

O‘tgan asrning ikkinchi yarmiga kelib *fan-texnika inqilobi*ning yuz berishi bilan jahon iqtisodiyotida uchinchi — postindustrial davr boshlandi. Bu davrda jahon iqtisodiyoti tarkibida xizmat ko‘rsatish sohalari katta ahamiyat kasb etadi.

Fan-texnika inqilobining ilk davrida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish inson mehnatini mashinalar bilan almashtirish orqali amalga oshgan bo‘lsa, ikkinchi davrda ishlab chiqarishga elektrlashgan murakkab jarayonlarning olib kirilishi mahsulotlar hajmining ortishi va yangi tarmoqlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Natijada, avtomobilsozlik sanoati yuzaga keldi, qora metallurgiya, kimyo kabi sanoat tarmoqlarida yangi yo‘nalishlar shakllandi, lazer va rentgen nurlaridan foydalanish imkoni paydo bo‘ldi. XX asr oxiri — XXI asr boshi uchinchi davr hisoblanib, bunda barcha ishlab chiqarish jarayonlarining to‘liq avtomatlashuvi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, biotexnologiya, yangi konstruktiv materiallar ishlab chiqarish, robotsozlik kabi tarmoqlar rivojlanishi ushbu davrning muhim yutuqlari hisoblanadi.

Fan-texnika inqilobi tufayli jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan o‘zgarishlarga qaramay rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlar orasidagi fan va texnologiyalarning rivojlanishi borasidagi tafovutlar hali ham kattaligicha qolmoqda. Masalan, butun jahonda bajariladigan ilmiy tadqiqot ishlarining ⅘ qismi 10 ta rivojlangan mamlakatga (Yaponiya, AQSH, Germaniya va boshqalar) to‘g‘ri keladi. Rivojlanayotgan davlatlar hissasiga esa jahondagi ilm-fanga yo‘naltirilgan xarajatlarning atigi 4–5% i to‘g‘ri keladi.


Jahon xo‘jaligining rivojlanishida uning asosiy tarmoqlari katta ahamiyatga ega. Ularni mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish xususiyatlariga qarab bir necha sektorlarga ajratish mumkin *(23-rasm)*.



23-rasm. **Jahon iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi**

Qishloq va o‘rmon xo‘jaligi, baliqchilik, ovchilik, tog‘-kon sanoati birlamchi sektor tarkibiga kiradi. Bu sektor tarmoqlari, asosan, sanoat uchun zaruriy xomashyoni yetkazib beradi. Ikkilamchi sektor tarmoqlari (qayta ishlovchi sanoat va qurilish) tayyor mahsulot yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, aholi va korxonalarga xizmat ko‘rsatish uchlamchi sektorning asosiy vazifasi hisoblanadi. To‘rtlamchi sektor tarmoqlari esa yangi bilim, ilmiy-texnik va texnologik ishlanmalarni yaratish va amaliyotga tatbiq qilish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni ta’minlab beradi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi davlatlarning tabiiy resurs imkoniyatlari hamda iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli jahonning iqtisodiy rivojlangan davlatlarida xizmat ko‘rsatish sohalari va sanoat (ayniqsa, uning fantalab zamonaviy tarmoqlari) milliy iqtisodiyotda asosiy o‘rin egallaydi. Rivojlanayotgan davlatlar uchun esa undiruvchi soha (qishloq xo‘jaligi va tog‘-kon sanoati) asosiy iqtisodiy sektor sifatida namoyon bo‘ladi *(24-rasm)*.



24-rasm. **Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiyotning tarmoqlar tarkibi, % hisobida, 2019-y.**

Xalqaro mehnat taqsimoti — *ayrim mamlakatlar xo‘jaligining ma’lum mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi va bu mahsulotlarni boshqa mamlakatlar bilan ayirboshlashi.*

Qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining iqtisodiyotda tutgan o‘rniga ko‘ra davlatlarni turli guruhlarga ajratish mumkin. Hozirda jahon davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatiga ko‘ra agrar (*iqtisodiyotning tarmoq tarkibida qishloq xo‘jaligi va u bilan bog‘liq ishlab chiqarish tarmoqlari salmog‘i yuqori bo‘lgan*), industrial (*iqtisodiyotning tarmoq tarkibida sanoat va qurilish sohalari salmog‘i yuqori bo‘lgan*) va postindustrial (*iqtisodiyotning tarmoq tarkibida uchlamchi va to‘rtlamchi sektor tarmoqlari salmog‘i yuqori bo‘lgan*) tiplarga ajratiladi. Shu bilan birga, iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi va sanoat salmog‘ining nisbatiga ko‘ra, agrar-industrial yoki industrial-agrar davlatlar ham ajratiladi. Senegal agrar, Braziliya industrial, Germaniya postindustrial, O‘zbekiston industrial-agrar, Kambodja agrar-industrial davlatlarga misol bo‘la oladi.

Jahon xo‘jaligining yagona tizim sifatida rivojlanishi *xalqaro mehnat taqsimoti*ga tayanadi. Davlatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘rniga ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik taraqqiyoti, iqtisodiy-geografik o‘rin xususiyatlari (birinchi navbatda, xalqaro ahamiyatdagi dengiz yo‘llariga nisbatan joylashuvi), tabiiy sharoiti va resurslari, aholining xo‘jalik an’analari, arzon va sifatli ishchi kuchi bilan ta’minlanganligi kabi omillar katta ta’sir ko‘rsatadi.





Xalqaro mehnat taqsimoti jarayonida mamlakatlarning xalqaro ixtisoslashuv tarmoqlari, ya’ni katta hajmda eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlar shakllangan. Masalan, Yaponiya jahonda radioelektronika, robototexnika, avtomobil va dengiz kemalari eksporti bo‘yicha peshqadam bo‘lsa, Saudiya Arabistoni, Liviya, Jazoir, Kuvayt kabi davlatlar yoqilg‘i xomashyosining asosiy eksportyorlari hisoblanadi. Peru, Zambiya va Kongo Demokratik Respublikasi mis rudasi va misni, Burundi va Uganda esa kofeni jahon bozoriga katta miqdorda olib kiradi.

Rivojlanayotgan davlatlar ko‘p hollarda qishloq xo‘jaligi, tog‘-kon sanoatiga, rivojlangan davlatlar esa fantalab qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari, xizmat ko‘rsatish sohalariga ixtisoslashgan. Marokash jahon bozoriga asosan fosforit, sitrus mevalar taklif qilsa, AQSH turli mashinalar (stanoklardan tortib uchuvchi apparatlargacha), plastmassa buyumlari kabi sanoat mahsulotlari hamda transport, axborot-kommunikatsion xizmatlar eksporti bilan alohida ajralib turadi.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi uning xalqaro ixtisoslashuviga katta ta’sir ko‘rsatadi, ixtisoslashuv tarmoqlari esa uning jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini ko‘rsatib beradi.

Savol va topshiriqlar

1. Jahon xo‘jaligi deganda nima tushuniladi? Jahon xo‘jaligining shakllanishi nima sababdan Buyuk geografik kashfiyotlar davriga to‘g‘ri kelishini izohlang.
2. Fan-texnika inqilobining mohiyati nima? Agar fan-texnika inqilobi bo‘lmaganda insoniyat qanday hayot kechirishi mumkin edi? Fikringizni misollar bilan tushuntiring.
3. Jahon xo‘jaligi qanday sektorlarga bo‘linadi? Turli mamlakatlar xo‘jaligida qaysi sektor tarmoqlari katta ahamiyat kasb etishi ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga qanchalik bog‘liq? Fikringizni asoslang.
4. Mos juftliklarni topib daftaringizga belgilang.

1) Agrar davlat	*A) iqtisodiyotning tarmoqlar tarkibida uchlamchi va to‘rtlamchi sektor tarmoqlari salmog‘i yuqori*
2) Industrial davlat	*B) iqtisodiyotning tarmoqlar tarkibida sanoat va qishloq xo‘jaligining salmog‘i yuqori*
3) Postindustrial davlat	*D) iqtisodiyotning tarmoqlar tarkibida qishloq xo‘jaligi va sanoatning salmog‘i yuqori*
4) Agrar-industrial davlat	*E) iqtisodiyotning tarmoqlar tarkibida qishloq xo‘jaligi va u bilan bog‘liq ishlab chiqarish sohalari salmog‘i yuqori*
5) Industrial-agrar davlat	*F) iqtisodiyotning tarmoqlar tarkibida sanoat va qurilish sohalari salmog‘i yuqori*

5. Davlatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi? Xalqaro mehnat taqsimoti jahon bo‘yicha ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish imkonini beradi degan fikrga qo‘shilasizmi? Nima uchun?




Jahon iqtisodiyoti markazlari, bir markazlilik, ikki markazlilik, ko‘p markazlilik, globallashuv, xalqaro va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya, transmilliy kompaniya.

Xalqaro integratsiya va globallashuv jarayonlari haqida nimalarni bilasiz?

14-§. Jahon iqtisodiyoti markazlari va xalqaro integratsiya jarayonlari

Jahon xo‘jaligi rivojlanishi uning muhim iqtisodiy markazlari faoliyati bilan bog‘liq. Iqtisodiy, ilmiy-texnologik va moliyaviy resurslari katta bo‘lgan hamda jahon xo‘jaligida alohida o‘rin egallagan davlat va mintaqalar jahonning asosiy iqtisodiy markazlari sifatida ajratib olinadi.

XVII-XIX asrlar mobaynida jahon iqtisodiyotida Angliya alohida o‘rin tutgan edi. O‘zining siyosiy va iqtisodiy qudratiga, shu bilan birga ko‘psonli mustamlaka hududlariga ega bo‘lgan mazkur davlat XVII asrdan boshlab asosiy iqtisodiy markaz sifatida tan olingan. O‘sha davrning rivojlangan davlatlari hisoblangan Niderlandiya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya kabilar Angliya bilan birgalikda Yevropaning jahon iqtisodiyotida peshqadam mintaqaga aylanishiga katta hissa qo‘shgan *(25-rasm)*.




25-rasm. **Jahon iqtisodiyoti markazlarining tarixiy almashinishi**

XX asrning boshiga kelib, Angliya o‘z mavqeini sekin-astalik bilan boshqa davlatlarga boy bera boshladi. 1810-yili jahon savdosining 21,6% i Angliya hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, oradan bir asr vaqt o‘tib, bu ko‘rsatkich 15,3% ga tushib qolgan. Bu davrga kelib, AQSH jahon iqtisodiyotining markazlaridan biri sifatida tan olina boshlandi. Birinchi Jahon urushida g‘oliblar tomonidan janglarda qatnashgan mazkur davlat o‘z mavqeini yanada mustahkamlab oldi. Birinchi Jahon urushidan keyingi davrlarda jahon iqtisodiyotida ikki markazlilik holati (Yevropa va AQSH) yuzaga kelgan.

Oradan o‘ttiz yilga yaqin vaqt o‘tgach, ya’ni Ikkinchi Jahon urushidan keyingi davrda jahon iqtisodiyotida ikki tizim — jahon kapitalistik va sotsialistik tizimi rivojlandi. 1945–1990-yillarda birinchi tizim davlatlarida erkin iqtisodiy munosabatlarga asoslangan turli xo‘jalik shakllari rivojlantirilgan bo‘lsa, ikkinchi guruh davlatlar iqtisodiyoti asosan davlat nazorati ostida faoliyat ko‘rsatdi. Ikki tizim o‘rtasidagi harbiy-siyosiy va iqtisodiy raqobat 1990-yillar boshigacha davom etdi. O‘sha davrga kelib, sotsializmdan voz kechgan ko‘plab davlatlarda erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni boshlandi. Shu bois jahon xo‘jaligida ikki tizimlilik holatiga barham berildi.

XXI asrda bir nechta davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnologik salohiyatining o‘sishi natijasida jahon iqtisodiyotida polisentrik — ko‘p markazlilik holati shakllana boshladi. Hozirgi kunda Yevropa Ittifoqi, Shimoliy Amerika kabi an’anaviy yirik markazlar bilan bir qatorda Xitoy, Yaponiya, Osiyoning yangi sanoatlashgan davlatlari, Fors qo‘ltig‘i davlatlari, Hindiston, Braziliya, Meksika, MDH davlatlari kabi iqtisodiy markazlar ham jahon iqtisodiyotida o‘ziga xos o‘ringa egaligi bilan ajralib turadi *(26-rasm)*.




26-rasm. **Jahon iqtisodiyotining asosiy markazlari**

Shimoliy Amerika bugungi kunda jahon yalpi milliy mahsuloti (YMM) ning ¼ qismini beruvchi muhim iqtisodiy markaz hisoblanadi *(27-rasm)*. Uning tarkibiga kiruvchi AQSH va Kanada “Katta yettilik” guruhiga kiruvchi davlatlari sifatida barchamizga ma’lum.

Yevropa Ittifoqi hozirgi kunda o‘z tarkibiga 27 ta davlatni birlashtiradi. Uning tarkibidagi 5 ta davlat (Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya va Niderlandiya) jahonning YIM hajmi bo‘yicha birinchi 20 taligiga kiradi.

Hozirgi vaqtda turli davlatlar iqtisodiyotini Xitoy bilan aloqalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bugungi kunda jahon mamlakatlari orasida ko‘plab mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmiga ko‘ra yetakchi bo‘lgan Xitoy jahonning deyarli barcha davlatlari bilan keng savdo-iqtisodiy aloqalarni amalga oshirmoqda.



27-rasm. **Yirik iqtisodiy markazlarning butunjahon YMM (nominal hisobda) dagi salmog‘i, % hisobida (2019-y.)**

Xalqaro iqtisodiy integratsiya — *davlatlarning o‘zaro mustahkam bozor aloqalari, yagona iqtisodiy siyosat va qonunchiligiga asoslangan iqtisodiy birlashish jarayoni.*

Transmilliy kompaniya — *ikki va undan ortiq mamlakatda faoliyat ko‘rsatadigan korxonalar hamda katta miqdorda xorijiy aktivlarga ega xalqaro kompaniya.*

Butunjahon iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning keskin ravishda kuchayishida namoyon bo‘layotgan *globallashuv* jarayoni barcha mintaqa hamda mamlakatlar xo‘jaligining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Globallashuv jarayoni, o‘z navbatida, *xalqaro iqtisodiy integratsiya* jarayonining rivojlanishiga sababchi bo‘ldi.

Integratsion uyushmalarning mintaqaviy (masalan, Yevropa Ittifoqi), tarmoq (masalan, Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti — OPEK) va xalqaro monopoliyalar ko‘rinishidagi turlari mavjud. Har bir integratsion uyushma jahon xo‘jaligi rivojlanishida ma’lum ahamiyat kasb etadi. Ular orasida xalqaro monopoliyalarning asosiy ko‘rinishi bo‘lgan *transmilliy kompaniyalar (TMK)* iqtisodiy imkoniyatlari yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida ko‘plab TMKlar ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat olib boradi. Ularning 60% idan ortig‘i sanoatda, ⅓ qismi xizmat ko‘rsatishda, 2–3% i qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritadi. Sanoatda avtomobilsozlik, neftni qayta ishlash, elektronika va elektrotexnika tarmoqlariga ixtisoslashgan kompaniyalar TMKlar orasida ko‘pchilikni tashkil qilsa, xizmat ko‘rsatish sohalari ichida savdo, telekommunikatsiya, kommunal soha kompaniyalarining salmog‘i yuqori.

Yillik daromadi, kompaniyalarning bozor qiymati kabi ko‘rsatkichlar TMKlarning jahon reytingidagi o‘rnini aniqlab beradi. Unga ko‘ra, AQSHning ko‘p tarmoqli Walmart kompaniyasi, Niderlandiya-Buyuk Britaniyaning Royal Dutch Shell, Xitoyning China Petroleum & Chemical Corp. (Sinopec Group) va China National Petroleum (PetroChina) kompaniyalari jahonning eng yirik TMKlari sifatida tan olinadi *(15-jadval)*. Jahondagi yetakchi 500 ta TMKlarning katta qismi AQSH, Xitoy, Yaponiya hududida ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Ko‘rinib turibdiki, jahon iqtisodiyoti ko‘p asrlik rivojlanish tarixiga ega va har bir davrda uning yangi iqtisodiy markazlari paydo bo‘lgan. So‘nggi yillarda shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv jarayoni jahon xo‘jaligida turli miqyosdagi xalqaro integratsion uyushmalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

15-jadval. ***Transmilliy korporatsiyalarning birinchi o‘ntaligi (2020-y.)***

№	Kompaniya nomi	Bosh idorasi joylashgan davlat	Yillik daromadi, milliard AQSH dollari
1	Walmart	AQSH	523,9
2	Sinopec Group	Xitoy	407
3	State Grid	Xitoy	383,9
4	China National Petroleum	Xitoy	379,1
5	Royal Dutch Shell	Niderlandiya-Buyuk Britaniya	352,1
6	Saudi Aramco	Saudiya Arabistoni	329,7
7	Volkswagen	Germaniya	282,7
8	BP plc	Buyuk Britaniya	282,6
9	Amazon	AQSH	280,5
10	Toyota Motor	Yaponiya	275,3

Savol va topshiriqlar

1. Yevropaning XVII asrdan boshlab XX asr boshigacha jahon xo‘jaligida yagona markaz bo‘lganligi qanday omillar bilan bog‘liq deb hisoblaysiz?
2. XX asrning ikkinchi yarmida jahon xo‘jaligi qanday ikki yirik tizimga ajralib rivojlandi? 1990-yillarga kelib ko‘plab sotsialistik davlatlar bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonini boshlab yuborganligi sabablarini izohlang.
3. O‘z fikr-mulohazalaringiz asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Davlatlar	Yirik iqtisodiy markaz sifatida shakllanishining asosiy omillari
Xitoy	……
Yaponiya	……
Braziliya	……

4. Zamonaviy jahon iqtisodiyotining o‘ziga xos jihatlari nimada? Sizningcha, kelajakda yana qaysi mintaqa va davlatlar jahon xo‘jaligi markazlari sifatida e’tirof etilishi mumkin? Fikringizni asoslang.
5. Transmilliy kompaniyalar deganda, qanday kompaniyalar tushuniladi? Qo‘shimcha manbalardan foydalanib O‘zbekistonda qanday xorijiy TMKlar faoliyat ko‘rsatishini aniqlang.

15-§. Amaliy mashg‘ulot
Jahon xo‘jaligi va uning tarkibini o‘rganish

1. Quyidagi rasmlarda keltirilgan iqtisodiy faoliyat namunalari iqtisodiyotning qaysi sektorlariga tegishli ekanligini izohlang.

a 

b 

d 

e 

f 


g 

h 

i 

j 

2. Xaritada belgilangan davlatlarga xos xususiyatlarni toping.



a Mis rudasi va misni katta miqdorda eksport qiladi;
b Jahon bozoriga asosan fosforit, sitrus mevalar taklif qiladi;
d Yoqilg‘i xomashyosining asosiy eksportyorlaridan biri;
e Sinopec Group transmilliy korporatsiyasining bosh idorasi joylashgan;
f Avtomobil eksporti bo‘yicha peshqadam;
g Kofeni jahon bozoriga katta miqdorda olib kiradi;
h Transport, axborot-kommunikatsion xizmatlar eksporti bilan alohida ajralib turadi.

3. Davlatlar iqtisodiyotining o‘zaro kuchli integratsiyalashuvi hamma vaqt ijobiy samarasini beradimi? Uning qanday salbiy jihatlari bo‘lishi mumkin? Fikrlaringiz asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya	
Afzalliklari	**Xavf-xatarlari**

4. Sizningcha, qanday omillar hisobiga turli mamlakatlar jahon iqtisodiyotining asosiy markazlariga aylangan? Har doim ham bu jarayonda tabiiy resurslar omili muhim rol o‘ynaydimi? Javobingizni asoslang.


16-§. Jahon energetikasi geografiyasi

Yoqilg‘i-energetika balansi, ko‘mir sanoati, gaz sanoati, neft sanoati, elektr energetika, issiqlik elektr energetikasi, gidro elektr energetika, atom elektr energetikasi, noan’anaviy energiya manbalari

Sanoat jahon, turli mintaqa va davlatlar iqtisodiyotining yetakchi tarmog‘i hisoblanadi. Uning tarmoqlari orasida yoqilg‘i-energetika tarmog‘i alohida o‘rin egallaydi. Elektr energetika sanoatning muhim tarmog‘i hisoblanib, boshqa sohalarning rivoji uchun asos yaratib beradi. Shu sababli mazkur tarmoq so‘nggi yillarda tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Neft, ko‘mir, gaz va elektr energetika sanoatlari yoqilg‘i-energetika majmuasining asosiy tarmoqlaridir.

Neft sanoati. So‘nggi 70 yil mobaynida jahonda neft qazishning yalpi hajmi 8,5 barobar ortgan *(28-rasm).* Neftga bo‘lgan talab yuqoriligi sababli dengiz sayozligidagi neft havzalari (masalan, Shimoliy dengiz, Meksika, Gvineya, Kaliforniya ko‘rfazlari) ham ishga tushirilmoqda. Norvegiya, Buyuk Britaniyada aynan shu hududlar qazib olinadigan neftning 100% ini, AQSHda esa 50% ini beradi.

Mamlakatlar iqtisodiy salohiyati va barqarorligida yoqilg‘i sanoati va elektr energetika qanday ahamiyat kasb etadi?



28-rasm. **Jahonda neft qazib olish yalpi hajmining dinamikasi (1950–2020-yillar, mln tonna)**


OPEK *— Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti. Tashkilotning bosh qarorgohi Avstriya poytaxti Vena shahrida joylashgan (30-rasm). 1.01.2022-yil holatiga ko‘ra, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining 13 davlati bu tashkilot a’zosi hisoblanadi (29-rasm).*

2020-yili jahon bo‘yicha jami 4,2 milliard tonna neft qazib olingan bo‘lib, uning katta qismi OPEK tashkilotiga a’zo davlatlar hissasiga to‘g‘ri kelgan *(29-rasm).*

OPEK davlatlari (Angola, Birlashgan Arab Amirliklari, Ekvatorial Gvineya, Eron, Gabon, Jazoir, Iroq, Kongo, Kuvayt, Liviya, Nigeriya, Saudiya Arabistoni, Venesuela) hududida jahon neft zaxiralarining ⅔ qismi to‘plangan bo‘lib, ular yillik neft qazishning ⅓ qismini ta’minlab bermoqda.



29-rasm. **OPEK tashkilotining eski** (chapda) **va yangi** (o‘ngda) **bosh qarorgohi**



30-rasm. **Jahon neft sanoati**

Hozirgi kunda Janubi-g‘arbiy Osiyo, Shimoliy Amerika va Yevropa (MDH bilan birga) mintaqalari jahonda qazib olinadigan “qora oltin”ning deyarli ⅔ qismini bermoqda. 2020-yil yakunlariga ko‘ra, davlatlar orasida neft qazib olish bo‘yicha AQSH (712,7 mln t), Rossiya (524,4 mln t), Saudiya Arabistoni (519,6 mln t), Kanada (252,2 mln t) hamda Iroq (202,0 mln t) yetakchilik qilgan. Mazkur davlatlar hissasiga jami qazib olingan neftning 53% iga yaqin qismi to‘g‘ri kelgan. Saudiya Arabistoni, Rossiya, BAA, Kuvayt, Iroq kabi davlatlar yirik neft eksportyorlari hisoblansa, AQSH, Xitoy, Yaponiya, G‘arbiy Yevropa davlatlari esa asosiy neft sotib oluvchi davlatlar guruhini tashkil etadi *(30-rasm)*.

Jahondagi yirik neftni qayta ishlash zavodlari yirik neft konlari asosida yoki iste’molchilarga yaqin hududlarda joylashgan. Jahon mintaqalari orasida Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo, davlatlar orasida esa AQSH, Xitoy, Rossiya neftni qayta ishlash bo‘yicha peshqadamlik qiladi.

Gaz sanoati. Tabiiy gaz yoqilg‘i sifatida boshqa yoqilg‘i turlaridan ekologik jihatdan nisbatan bezarar energiya manbai ekani bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, u qazib olish tannarxining arzonligi, issiqlik berish quvvatining yuqoriligi kabi xususiyatlarga ham ega. Ma’lumotlarga ko‘ra, gazning jahon bo‘yicha umumiy isbotlangan zaxirasi 188,1 trillion m^3 ni tashkil etadi. So‘nggi vaqtlarda gaz qazib olish hajmi yildan yilga oshib bormoqda. Agar 1950-yili u 200 milliard m^3, 2000-yili esa 2420 milliard m^3 ni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilga kelib, 3854 milliard m^3 ga yetdi. Gaz qazib olish bo‘yicha Osiyo, Shimoliy Amerika, Yevropa mintaqalari yetakchi bo‘lsa, davlatlar orasida AQSH (914,6 milliard m^3), Rossiya (638,5 milliard m^3), Eron (250,8 milliard m^3), Xitoy (194,0 milliard m^3), Qatar (171,3 milliard m^3) peshqadamlik qiladi.

Jahonning 30 taga yaqin davlatlarida suyultirilgan gaz ishlab chiqariladi. Qatar, Avstraliya, Malayziya kabi davlatlar ular orasida yetakchilik qiladi. Yaponiya, Xitoy, Koreya Respublikasi suyultirilgan gazning asosiy iste’molchilaridir *(31-rasm)*.



31-rasm. **Suyultirilgan tabiiy gazni saqlovchi rezervuarlar**

Suyultirilgan gaz – *tashish va saqlashda qulay bo‘lishi uchun sun’iy ravishda –160 °C haroratgacha sovitilgan tabiiy gaz. Tabiiy gaz suyuq holatga o‘tkazilishi jarayonida o‘rtacha hisobda 600 martagacha siqiladi. Bu maxsus gaz tashuvchi tankerlar yordamida uni qit’alararo eksport qilish imkonini beradi (31-rasm).*

Ko‘mir sanoati. Qo‘ng‘ir va toshko‘mir asosan elektr stansiyalarida yoqilg‘i sifatida, qora metallurgiya va kimyo sanoatlarida foydalaniladi. E’tiborlisi shundaki, qazib chiqarilayotgan ko‘mir asosan o‘sha davlatlarning o‘zida iste’mol qilinadi, eksportga esa ancha kam qismi chiqariladi.

Ishlab chiqarishda neft va tabiiy gazdan keng miqyosda foydalanish ko‘mirga bo‘lgan talabning kamayishiga sabab bo‘ldi. Ko‘mirning aniqlangan zaxiralari 1074,0 milliard tonnani tashkil etgan holda, jahon bo‘yicha yillik qazib olish miqdori 7,7 milliard tonnaga teng (2020-y.). Qazib olingan ko‘mirning 50%i Xitoy (3,9 milliard t) hissasiga to‘g‘ri keladi. Hindiston (756,5 mln t), Indoneziya (562,5 mln t), AQSH (484,7 mln t), Avstraliya (476,7 mln t) kabi davlatlar ham shu soha peshqadamlari hisoblanadi. Jahon mintaqalari orasida ko‘mir qazib olish hajmi Osiyo, Shimoliy Amerika va Avstraliyada yuqori.

Elektr energetika sanoati. Jahonda 2020-yili taxminan 27 trln kW·h elektr energiyasi ishlab chiqarilgan. Xitoy (7,8 trln kW·h), AQSH (4,3 trln kW·h), Hindiston (1,6 trln kW·h), Rossiya (1,1 trln kW·h), Yaponiya (1,0 trln kW·h) kabi davlatlar eng ko‘p elektr energiyasini ishlab chiqaradi. Elektr energiyasini ishlab chiqarishda an’anaviy (issiqlik, gidro va atom elektr stansiyalari) yo‘nalishlar ulushi deyarli 99% ni tashkil etadi. Muqobil energiya manbalarining (quyosh, shamol, suv qalqishi, geyzerlardan olinadigan energiya) salmog‘i esa ancha past.

Issiqlik elektr energetikasi elektr energetika sanoatining yetakchi tarmog‘i hisoblanib, ko‘mir, gaz va neft hamda ularning qoldiqlari asosida issiq bug‘ va elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Niderlandiya (97%), JAR (91%), Polsha (87%), Ruminiya (83%), Meksika (82%) kabi davlatlarida ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining asosiy qismi IESlarga to‘g‘ri keladi. Tuoketuo, Tayjun (Xitoy), Surgut GRES-2 (Rossiya) jahondagi eng yirik IESlar hisoblanadi *(32-rasm).*



Tuoketuo IESi (Xitoy)



“Uch dara” GESi (Xitoy)



Kasivadzaki-Kariva AESi (Yaponiya)

32-rasm. **Jahondagi eng yirik elektr stansiyalari**

Gidro elektr energetika suv oqimining energiyasini gidravlik turbinalar yordamida elektr energiyasiga aylantirishga tayanadi. GESlar asosan suvi ko‘p bo‘lgan tog‘ daryolariga, vodiylarining toraygan joylariga quriladi. Norvegiya (99%), Braziliya (92%), Albaniya (90%), Kolumbiya (70%) kabi davlatlarda elektr energiyasining asosiy qismi GESlarda ishlab chiqariladi.

Atom elektr energetikasi elektr energetikaning fan-texnika inqilobi davrida rivojlanishni boshlagan, murakkab texnologik jarayonlarni o‘zida mujassamlashtirgan tarmog‘i. Hozirgi kunda jahonning 30 tadan ortiq davlatida AESlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Eng yirik AESlar Yaponiya, AQSH, Fransiya, Germaniya, Rossiya kabi davlatlar hududida joylashgan. Fransiya (72%), Belgiya (61%), Koreya Respublikasi (54%) AESlar asosida olinuvchi elektr energiyasi ulushi eng yuqori bo‘lgan davlatlar hisoblanadi.

So‘nggi yillarda jahon mamlakatlarida ekologik jihatdan xavfsiz muqobil energiya manbalariga (quyosh, shamol, suv qalqishi, geotermal energiya) bo‘lgan talab ortib bormoqda. Ular asosida ishlovchi elektr stansiyalari atrof-muhitga deyarli salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Geotermal energiyadan foydalanish AQSH, Rossiya, Filippin, Italiya, Islandiya kabi davlatlarda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, Fransiya, Kanada, Rossiya, Xitoyda dengiz qalqishidan, Yevropaning bir qator davlatlari (masalan, Niderlandiya, Germaniya), AQSHda shamoldan, AQSH va Fransiyada esa quyoshdan elektr energiyasini olish faol rivojlanmoqda.

Savol va topshiriqlar

1. Elektr energetika sanoati nima sababdan boshqa sohalarning rivoji uchun asos bo‘lishini misollar yordamida tushuntiring.

2. Quyidagilar orasidan OPEKga a’zo bo‘lmagan davlatlarni aniqlang:
   a) Xitoy; b) Nigeriya; d) Indoneziya; e) Kuvayt; f) BAA; g) Bahrayn; h) Gabon; i) Rossiya; j) Ummon; k) Eron; k) Mali; l) Iroq.

3. Sizningcha, AQSH bir vaqtning o‘zida ham neft qazib olish bo‘yicha, ham neft sotib olish bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda turishini qanday omillar bilan izohlash mumkin?

4. Berilgan ma’lumotlar asosida tabiiy gaz qazib oluvchi davlatlarning jahon umumiy gaz qazib olish miqdoridagi salmog‘ini aniqlang.

T/r	Davlatlar	Gaz qazib olish miqdori, milliard m^3 (2020-yil)	Jahon umumiy gaz qazib olish miqdoridagi salmog‘i, %
1.	AQSH	914,6	?
2.	Rossiya	638,5	?
3.	Eron	250,8	?
4.	Xitoy	194,0	?
5.	Qatar	171,3	?
6.	Boshqa davlatlar	1684,8	?
Jahon bo‘yicha		**3854**	**100**

5. Jahon bo‘yicha yoqilg‘i zaxiralarining kamayib borishi va energetika sanoatining atrof-muhitga salbiy ta’siri kelajakda jahon yoqilg‘i-energetika balansida qanday inqiroz yuz berishiga olib kelishi mumkin deb hisoblaysiz? Sizningcha, qaysi yo‘l ushbu muammoning eng yaxshi yechimi bo‘ladi?

6. Atlasdagi elektr energetika xaritasidan foydalanib jahondagi yirik atom elektr stansiyalarini yozuvsiz xaritaga belgilang va ular ko‘proq qanday davlatlarda barpo etilganini tahlil qiling.

17-§. Amaliy mashg‘ulot
Jahon sanoati geografiyasi va uning o‘zgarib borishini o‘rganish

1. Jahon qora metallurgiya sanoatiga oid quyidagi jadval bilan tanishib chiqib, savollarga javob bering.

Jahon mamlakatlarining po‘lat eritish bo‘yicha yetakchi 10 taligi (2000–2018-yillar)

№	2000-y.		№	2010-y.		№	2018-y.	
	Davlatlar	mln t		Davlatlar	mln t		Davlatlar	mln t
1	Xitoy	128	1	Xitoy	639	1	Xitoy	928
2	Yaponiya	106	2	Yaponiya	110	2	Hindiston	109
3	AQSH	102	3	AQSH	80	3	Yaponiya	104
4	Rossiya	59	4	Hindiston	69	4	AQSH	87
5	Germaniya	46	5	Rossiya	67	5	Rossiya	74
6	Koreya Resp.	43	6	Koreya Resp.	59	6	Koreya Resp.	72
7	Ukraina	32	7	Germaniya	44	7	Germaniya	42
8	Braziliya	28	8	Ukraina	33	8	Turkiya	37
9	Hindiston	27	9	Braziliya	33	9	Braziliya	35

№	2000-y.		№	2010-y.		№	2018-y.	
	Davlatlar	mln t		Davlatlar	mln t		Davlatlar	mln t
10	Italiya	26	10	Turkiya	29	10	Ukraina	26
Jahon		**850**	**Jahon**		**1433**	**Jahon**		**1817**

— Qaysi davlatlarda 2000–2018-yillar oralig‘ida po‘lat eritish hajmi eng yuqori darajada o‘sgan?


— Po‘lat eritish bo‘yicha jahonning 10 ta yetakchi davlatlar reytingida 2000–2018-yillar mobaynida qaysi davlatlarning o‘rni ko‘tarildi, qaysilariniki esa pasayib ketdi? Sizningcha, bunga qaysi omillar sababchi bo‘ldi?

— 2000–2018-yillarda Xitoy, Hindiston va Yaponiyaning jahon bo‘yicha po‘lat eritishdagi ulushlari (% hisobida) qanday o‘zgardi?

2 Quyidagi jadval va diagrammalar bilan tanishib chiqib, jahon rangli metallurgiya sanoati geografiyasiga oid savollarga javob bering.

Boksit rudalari (alyuminiyning asosiy xomashyosi) va alyuminiy eritish bo‘yicha jahonning yetakchi davlatlari (2019-y.)

№	Davlatlar	Qazib olingan boksit rudalari, mln t	№	Davlatlar	Eritilgan alyuminiy, mln t
1	Xitoy	86,5	1	Xitoy	36
2	Avstraliya	81,7	2	Rossiya	3,7
3	Braziliya	30,7	3	Hindiston	3,6
4	Gvineya	19,7	4	Kanada	2,9
5	Hindiston	14,9	5	BAA	2,7
6	Yamayka	9,7	6	Avstraliya	1,6
7	Rossiya	6,6	7	Bahrayn	1,4
8	Qozog‘iston	4,2	8	Norvegiya	1,3
9	Gayana	1,6	9	AQSH	1,1
10	Surinam	1,5	10	Islandiya	0,85



Jahon bo‘yicha boksit rudalarini qazib olish (chapda) va alyuminiy eritishda (o‘ngda) mintaqalarning salmog‘i (2019-y.)

— Qaysi davlatlar boksit rudalarini ko‘p qazib turib, alyuminiy eritish bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda turmaydi? Qaysi davlatlar, aksincha, boksit rudalari qazib olish bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lmasdan alyuminiy eritish bo‘yicha peshqadam davlatlar qatoriga kiradi? Ushbu tafovutlarning sabablari nimadan iborat deb o‘ylaysiz?

— Boksit rudalarini qazib olishda Osiyo, Lotin Amerikasi, Avstraliya va Okeaniya hamda Afrika mintaqalarining salmog‘i qaysi davlatlar hisobiga yuqori?

— Alyuminiy eritishda Osiyo, Shimoliy Amerika, Yevropa hamda MDH davlatlari salmog‘i qaysi mamlakatlar hisobiga yuqori?

3 Quyidagi jadvallar bilan tanishib chiqib, jahon avtomobilsozlik sanoatiga oid savollarga javob bering.

Jahon davlatlarining avtomobillar ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi 10 taligi (2000–2018-yillar)


№	2000-y.		№	2010-y.		№	2018-y.	
	Davlatlar	mln dona		Davlatlar	mln dona		Davlatlar	mln dona
1	AQSH	12,8	1	Xitoy	18,3	1	Xitoy	27,8
2	Yaponiya	10,1	2	Yaponiya	9,6	2	AQSH	11,3
3	Germaniya	5,5	3	AQSH	7,8	3	Yaponiya	9,7
4	Fransiya	3,3	4	Germaniya	5,9	4	Hindiston	5,1
5	Koreya Resp.	3,1	5	Koreya Resp.	4,3	5	Germaniya	5,1
6	Ispaniya	3,0	6	Braziliya	3,6	6	Meksika	4,1
7	Kanada	2,9	7	Hindiston	3,5	7	Koreya Resp.	4,0
8	Xitoy	2,1	8	Ispaniya	2,4	8	Braziliya	2,9
9	Meksika	1,9	9	Meksika	2,3	9	Ispaniya	2,8
10	Buyuk Britaniya	1,8	10	Fransiya	2,2	10	Fransiya	2,3
Jahon		**58,4**	**Jahon**		**77,9**	**Jahon**		**96,9**

— 2000–2018-yillar oralig‘ida jahon bo‘yicha avtomobillar ishlab chiqarish hajmi qanday o‘zgardi? Bu o‘zgarishlarga qaysi davlatlarning ta’siri eng katta bo‘ldi?

— Ko‘rilayotgan davr mobaynida avtomobillarni eng ko‘p ishlab chiqaruvchi davlatlar reytingida qaysi davlatlarning o‘rni sezilarli darajada yaxshilandi, qaysilariniki, aksincha, tushib ketdi?

— Tegishli vaqt oralig‘ida avtomobilsozlik sanoati rivojlangan davlatlarda tez o‘sganmi yoki rivojlanayotgan davlatlardami? Bu jarayonga qanday omillar ta’sir ko‘rsatdi deb o‘ylaysiz?

4 Quyidagi grafik yordamida yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning geografiyasiga oid savollarga javob bering.



Yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda jahon mintaqalari salmog‘i (% da, 2002–2018-yillar)

— Yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda 2018-yil holatiga ko‘ra, qaysi mintaqalarning salmog‘i yuqori, qaysilariniki esa past?

— 2002–2018-yillar mobaynida yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda qaysi mintaqaning salmog‘i sezilarli darajada o‘sdi, qaysilariniki esa, aksincha, ancha pasaydi?

18-§. Jahon qishloq xo‘jaligi geografiyasi

Qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik, don ekinlari, moyli ekinlar, texnik ekinlar, chorvachilik, qoramolchilik, cho‘chqachilik, qo‘ychilik, parrandachilik, baliqchilik.

Qishloq xo‘jaligining qanday tarmoqlarini bilasiz? Mazkur sohaning boshqa tarmoqlar rivojlanishi va kishilar hayotidagi ahamiyatini misollar yordamida tushuntiring.

Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan hamda yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlarini xomashyo bilan ta’minlaydi. Shu bilan birga, bu tarmoq jahon miqyosida katta miqdordagi mehnat resurslarining (taxminan 1,4 milliard kishi) bandligini ta’minlab beradi. Ushbu tarmoq rivojlangan davlatlar YIMda katta salmoqqa ega bo‘lmasada, uning rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotidagi ulushi ancha yuqori (masalan, Somalida 65%). Ishlab chiqaradigan mahsulotlari xususiyatlariga ko‘ra, qishloq xo‘jalik tarmoqlari ikki guruhga: *dehqonchilik (ziroatchilik)* va *chorvachilikka* bo‘linadi.


Dehqonchilik — qishloq xo‘jaligining ekinlar yetishtirish bilan shug‘ullanadigan tarmog‘i hisoblanib, uning rivojlanishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

- haydaladigan, unumdor yerlar holati;
- iqlim sharoiti;
- qishloq xo‘jaligi ekinlarining biologik xususiyatlari.

Donchilik dehqonchilikning eng yirik tarmog‘idir. Don mahsulotlari aholi ozig‘ining asosi bo‘lib, donchilik tarmog‘ida bug‘doy, sholi va makkajo‘xori yetishtirish salmog‘i katta. Jahon yalpi don hosilining 90% i, umumiy donli ekinlar maydonining 83% i mazkur ekin turlariga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, arpa, suli, javdar, sorgo kabi don ekinlari ham mavjud.

Bug‘doy don ekinlari orasida eng ko‘p ekiladigan ekin turi hisoblanadi (umumiy don ekin maydonlarining 31% i). 2018-yil yakunlariga ko‘ra, jahonda 735 mln tonna bug‘doy yetishtirilgan bo‘lib, bu borada Xitoy (131 mln t), Hindiston (100 mln t), Rossiya (72 mln t), AQSH (51 mln t), Fransiya (36 mln t) yetakchilik qiladi. Peshqadam uch davlat hissasiga jahon bug‘doy hosilining 41% i to‘g‘ri keladi. Jahonning asosiy bug‘doy ekiladigan hududlari Shimoliy (AQSH, Kanada, Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston, Xitoy) va Janubiy (Avstraliya, Argentina, Braziliya) yarimsharlarning o‘rta kengliklariga to‘g‘ri keladi *(33-rasm).* Hozirgi kunda Rossiya, AQSH, Kanada kabi davlatlar katta miqdordagi bug‘doy eksportini amalga oshirsa, Misr, Indoneziya, Turkiya kabi davlatlar uning eng katta importyorlaridir.

Jahondagi ko‘plab mamlakatlar aholisining ovqatlanish ratsionida birinchi darajali ahamiyat **sholi**ga tegishli. Ko‘proq qo‘l mehnatiga asoslangan sholichilik rivojlanishi nafaqat agroiqlimiy resurslarga, katta miqdordagi ishchi kuchiga ham bog‘liq *(34-rasm).* Ushbu omillar jamlangan Sharqiy, Janubi-sharqiy va Janubiy Osiyo jahonning asosiy sholichilik hududlari hisoblanadi.



33-rasm. **Bug‘doyning madaniylashtirish (qizil rangda) va asosiy yetishtirish (yashil rangda) areallari**

Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Bangladesh, Vetnam kabi davlatlar sholi yalpi hosili bo‘yicha jahonda yetakchilik qiladi. Mazkur hududlarda sun’iy sug‘orish yordamida yiliga 2–3 marotaba hosil olinadi.




34-rasm. **Sholi plantatsiyalari**

Makkajo‘xori odatda doni va yem-xashak sifatida ishlatiladigan poyasi uchun ekiladi. AQSH, Xitoy, Braziliya, Argentina, Ukraina jahonning eng ko‘p makkajo‘xori yetishtiruvchi davlatlari hisoblanadi.

Aholi iste’moli uchun don ekinlari bilan bir qatorda moyli, ildizmevali, qandli, texnik va quvvat beruvchi ekinlar ham yetishtiriladi. Aholi tomonidan iste’mol qilinadigan moyning asosiy qismi **soya** (AQSH, Braziliya, Argentina), **kungaboqar** (Ukraina, Rossiya, Argentina), **yeryong‘oq** (Xitoy, Hindiston, Nigeriya), **zaytun** (Italiya, Ispaniya, Gretsiya kabi O‘rta dengiz bo‘yidagi davlatlar) kabi ekinlardan olinadi. Ildizmevalilardan **kartoshka** yetishtirishda Xitoy, Hindiston, Ukraina, Rossiya, AQSH yetakchi davlatlar hisoblanadi. Qandli ekinlardan **qandlavlagi** yetishtirishda Rossiya, Fransiya, AQSH, **shakarqamish** yetishtirishda esa Braziliya, Hindiston, Xitoy yetakchilik qiladi.


Quvvat beruvchi ekin turlari hisoblangan **choy** Xitoy, Hindiston, Keniya, **qahva** Braziliya, Vetnam, Indoneziya, **kakao** Kot-d’Ivuar, Gana va Indoneziya kabi davlatlarda katta miqdorda yetishtiriladi. Texnik ekinlar orasida **paxta** katta salmoqqa ega bo‘lib, Xitoy, Hindiston, AQSH, Braziliya, Pokiston kabi davlatlar uning yalpi hosili bo‘yicha peshqadam sanaladi. **Tabiiy kauchuk (geveya)** yetishtirishda Tailand, Indoneziya, Vetnam, Hindiston, Xitoy davlatlari katta salmoqqa ega.



35-rasm. **Qoramolchilikning ixtisoslashuvi va hududiy tarqalishi**

Chorvachilik qoramolchilik, qo‘ychilik, echkichilik, cho‘chqachilik, parrandachilik, yilqichilik, tuyachilik, darrandachilik, asalarichilik, pillachilik kabi tarmoqlarga bo‘linadi. Qoramolchilik, parrandachilik, qo‘ychilik va cho‘chqachilik chorvachilikning asosiy tarmoqlari hisoblanadi. Jahondagi jami go‘sht va sutning asosiy qismini **qoramolchilik** yetkazib beradi. Mo‘tadil mintaqaning o‘rmon va dasht zonalarida intensiv, jahonning qurg‘oqchil hududlarida esa ko‘chmanchi ekstensiv qoramolchilik rivojlangan *(35-rasm)*. Jahonda qoramollarning umumiy soni 1,48 milliard boshdan ortiq bo‘lib, ularning soniga ko‘ra, Hindiston (299 mln bosh), Braziliya (215 mln bosh), AQSH (94,3 mln bosh), Xitoy (90,5 mln bosh) va Pokiston (84,9 mln bosh) mamlakatlari alohida ajralib turadi (2018-y).

Qo‘ychilik asosan tog‘li hududlar, dasht va chalacho‘l zonalarida rivojlangan. Mayin va yarimmayin junli qo‘ychilik iqlimi yumshoq, namroq bo‘lgan dasht, chalacho‘l zonalarida, go‘sht va teri yetkazib beruvchi qo‘ychilik, jumladan, qorako‘l qo‘ychiligi esa qurg‘oqchil chalacho‘l va cho‘l zonalarida rivojlangan. Ma’lumotlarga ko‘ra, jahon bo‘yicha 1,2 milliard boshga yaqin qo‘y mavjud (2018-y.). Qo‘ylar bosh soni bo‘yicha jahonda yetakchi o‘rinlarni Xitoy, Avstraliya, Hindiston, Nigeriya va Sudan egallaydi *(36-rasm)*.



36-rasm. **Qo‘ylar soni bo‘yicha jahonning yetakchi davlatlari, mln bosh hisobida**

Cho‘chqachilik asosan donchilik va kartoshkachilik rivojlangan hududlarda hamda yirik shaharlar va oziq-ovqat sanoati markazlari yaqinida rivojlantiriladi. Cho‘chqalarning umumiy soni 1 milliard boshga yaqin bo‘lib, ularning salkam yarmi Xitoy hissasiga to‘g‘ri keladi (442 mln bosh). AQSH (74,6 mln bosh), Braziliya (41,4 mln bosh), Ispaniya (30,8 mln bosh), Vetnam (28,2 mln bosh) kabi davlatlar ham bu borada yetakchilardan hisoblanadi.

Parrandachilik aholi iste’moli uchun go‘sht va tuxum yetkazib beruvchi tarmoq hisoblanib asosan donchilik hududlarida rivojlangan. Xitoy (6,3 milliard bosh), Indoneziya (2,4 milliard bosh), AQSH (2,2 milliard bosh), Braziliya (1,5 milliard bosh), Eron (1,1 milliard bosh) kabi davlatlar parranda soniga ko‘ra jahonda yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Parranda go‘shtini eksporti bo‘yicha AQSH va Braziliya peshqadamlik qiladi.

Shuningdek, chorvachilikning asosan mo‘tadil mintaqa davlatlariga xos bo‘lgan **pillachilik** (Xitoy, Yaponiya, O‘zbekiston, Ispaniya, Italiya va boshq.), cho‘l va chalacho‘l mintaqasi davlatlari uchun ixtisoslashuv sohasi hisoblangan **tuyachilik** (Somali, Sudan, Mavritaniya va boshq.), jahonning ko‘plab



37-rasm. **Chorvachilik tarmoqlari**

mintaqalarida rivojlangan **yilqichilik** (Xitoy, Braziliya, Meksika va boshq.), shimoliy mintaqalardagi **bug‘uchilik** (Rossiya, Kanada, AQSH va boshq.), shimoliy kengliklar hamda daryo qayirlarida shakllangan **darrandachilik** (Rossiya, Kanada, Skandinaviya davlatlari) kabi sohalari ham jahon qishloq xo‘jaligida o‘z o‘rniga ega *(37-rasm)*.


Baliqchilik eng qadimiy xo‘jalik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Baliqchilik bo‘yicha okeanlar orasida Tinch okean (okeanlarda ovlanadigan baliqning 66% i), dengizlar orasida esa Bering, Yapon, Norveg dengizlari peshqadamlik qiladi. Davlatlar orasida esa Xitoy (jahon baliq ovlash hajmining ⅓ qismi to‘g‘ri keladi), Indoneziya, Hindiston yetakchi.

Savol va topshiriqlar

1. Sizningcha, nima sababdan rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligining ulushi ancha yuqori? Ko‘pchilik rivojlangan davlatlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari katta miqdorda yaratilsa ham nimaga ular yalpi ichki mahsuloti tarkibida agrar soha katta salmoqqa ega emas?
2. Qishloq xo‘jaligi sohasi rivojlanishi va ixtisoslashuviga tabiiy geografik hamda milliy-diniy omillarning ta’sirini ayrim davlatlar misolida tushuntiring.
3. Jadvalni to‘ldiring.

№	Ekin turi	Ekin turini yetishtiruvchi peshqadam davlatlar
1.	Bug‘doy	
2.	Makkajo‘xori	
3.	Qandlavlagi	
4.	Choy	
5.	Kakao	
6.	Paxta	

4. Quyidagi davlatlar chorvachilikning qaysi tarmog‘i rivojlanganligi bilan ajralib turishini toping va uning sababini izohlang.



5. Qishloq xo‘jaligi rivojlanishi sanoatning qaysi tarmoqlari bilan bog‘liqligini tushuntiring. Nimaga rivojlangan davlatlarda qishloq xo‘jaligi intensiv tashkil qilingan holda ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda mazkur soha hozirgacha ekstensiv yo‘l bilan rivojlanmoqda?
6. Atlasdagi qishloq xo‘jaligi xaritasidan foydalanib Yevropa va Osiyo davlatlari qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvini yozuvsiz xaritaga belgilang.

19-§. Jahon transporti geografiyasi

Transport, quruqlik transporti, avtomobil transporti, temir yo‘l transporti, quvur transporti, havo transporti, dengiz transporti, daryo transporti, terminal.

Sizda yo‘lovchi yoki yuk tashish faoliyati bilan shug‘ullanadigan kompaniya tashkil qilish imkoniyati bo‘lganida transportning qaysi turidan foydalanar edingiz? Nima uchun?

Transport iqtisodiyotning muhim tarmog‘i bo‘lib, yo‘lovchi, yuk, energiya va axborot tashishni ta’minlaydi. Bundan tashqari, transport davlatlararo mahsulot va xizmatlar almashinuvida, xalqaro iqtisodiy aloqalarning amalga oshirilishida asos bo‘lib xizmat qiladi. Harakatlanish xususiyatiga ko‘ra, **quruqlik** (temir yo‘l, avtomobil va quvur), **suv** (dengiz va daryo) hamda **havo** transporti turlariga ajratiladi.

Transport tarmoqlari rivojlanishi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jihatdan rivojlanganlik darajasi, hududining kattaligi va o‘zlashtirilganlik holati, tabiiy sharoiti, aholi zichligi kabi omillar bilan bog‘liq.

Transport tizim sifatida quyidagi tarkibiy unsurlardan tashkil topgan:

- yo‘l infratuzilmasi (avtomobil va temir yo‘llar, kanallar, quvur yo‘llari va boshq.);
- terminallar (temir yo‘l hamda avtobus vokzal va bekatlari, aeroportlar, dengiz va daryo portlari va boshq.);
- harakatlanish vositalari (avtomobil, poyezd, kema va boshq.);
- transport kompaniyalari.

Transport turlari orasida yuk tashish bo‘yicha dengiz, yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha esa avtomobil transportining ahamiyati katta.

Avtomobil transporti eng keng tarqalgan transport turi hisoblanadi. Bunga mazkur transport turida “eshikdan-eshikkacha” olib borib qo‘yish imkoniyatining mavjudligi sabab bo‘lgan. So‘nggi yillarda soha rivoji qattiq qoplamali yo‘llar uzunligining ortishi, avtomagistral yo‘llar to‘rining kengayishi, xalqaro magistral yo‘llar ahamiyatining ortib borayotganligi bilan tavsiflanadi *(38-rasm)*. Avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligiga ko‘ra AQSH, Xitoy, Hindiston, Braziliya, Rossiya kabi yirik hududga ega bo‘lgan davlatlar yetakchilik qiladi.

Temir yo‘l transporti katta hajmdagi yuklarni uzoq masofalarga yetkazib berish, harakatlanishining ob-havo sharoitiga uncha bog‘liq emasligi, tashish xizmatlari tannarxining nisbatan pastligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Temir yo‘llar umumiy uzunligi bo‘yicha AQSH, Xitoy, Rossiya, Hindiston, Kanada davlatlari peshqadam. Yo‘llar zichligiga ko‘ra esa Yevropa davlatlari (Chexiya, Belgiya, Germaniya, Shveysariya) yetakchilik qiladi. Osiyo ham bugungi kunda ushbu soha tez sur’atlarda rivojlanib borayotgan mintaqa hisoblanadi. Temir yo‘l transportining hozirgi davr rivojida turli tezyurar va magnit relslarda harakatlanuvchi poyezdlarning ahamiyati katta *(39-rasm)*.



38-rasm. **Avtomagistral yo‘l**



Magnit relsli poyezdlar — maglev (Xitoy)



TGV tezyurar poyezdi (Fransiya)

39-rasm. **Zamonaviy tezyurar poyezdlar**



40-rasm. **Quvur transporti**



41-rasm. **Shanxay porti**

Quvur transporti suyuq va gazsimon ko‘rinishdagi yuklarni uzoq masofaga yetkazib beradi *(40-rasm)*. U xizmatlari tannarxining pastligi, yuklarni bir maromda kerakli manzilga yetkazib berishi hamda atrof-muhitga salbiy ta’sirining pastligi bilan ajralib turadi. Quvurlarning katta qismi neft-gaz qazib oluvchi davlatlar hududiga to‘g‘ri keladi. Neft quvurlari uzunligi bo‘yicha AQSH, Rossiya, Kanada, Xitoy, Saudiya Arabistoni, gaz quvurlari uzunligi bo‘yicha esa AQSH, Rossiya, Kanada, Germaniya, Fransiya kabi davlatlar yetakchilik qiladi.

Suv transporti tabiiy (daryolar, ko‘llar, dengizlar, okeanlar) va sun’iy (kanallar, suv omborlari) suv yo‘llari orqali yuklar va yo‘lovchilarni tashiydi. U dengiz va daryo transporti turlarini o‘z tarkibida birlashtiradi.

Dengiz transporti orqali jahonda tashilayotgan yuklarning 60% idan katta qismi tashiladi. Unda yuk tashuv ishlari dengiz savdo floti tomonidan amalga oshiriladi. Uning yalpi sig‘imiga ko‘ra Panama, Liberiya, Marshall orollari, Xitoy, Singapur, Gretsiya kabi davlatlar yetakchilik qiladi.

Dengiz transportida umumiy yuk tashish hajmida eng katta ulush Tinch okeanga to‘g‘ri keladi. Dengiz transport vositalariga xizmat ko‘rsatuvchi 2 mingdan ortiq portlar mavjud bo‘lib, Shanxay, Singapur, Rotterdam portlari ular orasida yuk qabul qilish hajmiga ko‘ra oldingi o‘rinlarda turadi *(41-rasm)*. Dengiz transporti rivojiga xalqaro kanallar va dengiz bo‘g‘izlari katta ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro kanallar orasida Suvaysh va Panama kanallarining ahamiyati eng katta. Dengiz bo‘g‘izlari orasida esa eng katta transport ahamiyatiga Malakka, Bob-al-Mandeb, La Mansh, Xormuz, Gibraltar, Eresunn (Zond), Bosfor kabi bo‘g‘izlar egadir.

Ichki suv transporti daryo, ko‘l hamda kanallar yordamida davlatlarning ichki hududlariga yuk va yo‘lovchi tashishni amalga oshiradi. Ichki suv transport yo‘llari uzunligiga ko‘ra, Rossiya, Xitoy, AQSH, Braziliya, Kanada oldinda turadi. Ichki suv transportida Amazonka, Missisipi, Dunay, Reyn, Volga, Yanszi, Kongo kabi daryolardan ko‘p foydalaniladi. Ular

bilan bir qatorda kemalar qatnovida Qirg‘oqbo‘yi (AQSH), Buyuk (Xitoy), Volga-Boltiq (Rossiya), Reyn-Mayn-Dunay (Germaniya) va boshqa daryo kanallaridan foydalaniladi.

Havo transporti yo‘lovchilar, pochta va boshqa yuklarni eng yuqori tezlik bilan tashiydigan nisbatan qimmat transport turi hisoblanadi. Hozirgi kunda jahon yo‘lovchi tashish miqdorining 20% iga yaqini havo transportiga to‘g‘ri kelmoqda. Mazkur transport tarmog‘ining rivojlanishida aeroportlarning o‘rni beqiyos. Yo‘lovchilarni qabul qilish miqdoriga ko‘ra, Atlanta (AQSH), Pekin (Xitoy), Dubay (BAA) aeroportlari peshqadam hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Nima sababdan transport iqtisodiyotning muhim tarmog‘i hisoblanadi? Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida transport tizimining ahamiyatini izohlang.
2. Fan-texnika inqilobining transport tizimi rivojlanishiga ta’sirini izohlang.
3. Transport turlarining afzallik va kamchiliklarini tahlil qilib, quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Transport turlari	Afzalliklari	Kamchiliklari
Temir yo‘l		
Avtomobil		
Quvur		
Suv		
Havo		

4. Mavzu matnidagi ma’lumotlar asosida quyidagi davlatlar transportning qaysi turlari rivojlanishi bo‘yicha jahonda yetakchi o‘rinlarda turishini topib, mos javoblarni daftaringizga belgilang.

   a) AQSH; b) Chexiya; d) Gretsiya; e) Hindiston; f) Kanada; g) Liberiya; h) Rossiya; i) Braziliya; j) Saudiya Arabistoni;

   1) *gaz quvurlari uzunligi bo‘yicha;*
   2) *dengiz savdo floti sig‘imi bo‘yicha;*
   3) *temir yo‘llar zichligiga ko‘ra;*
   4) *ichki suv transporti yo‘llari uzunligiga ko‘ra;*
   5) *avtomobil yo‘llarining umumiy uzunligi bo‘yicha;*
   6) *temir yo‘llar umumiy uzunligi bo‘yicha;*
   7) *neft quvurlari uzunligi bo‘yicha.*

5. Atlasdagi transport xaritasidan foydalanib transport tarmoqlari bilan ta’minlanganlik darajasi eng yuqori (har 100 km^2 hududga 50 km dan ko‘p transport yo‘llari to‘g‘ri keladigan) va eng past (har 100 km^2 hududga 1 km dan kam transport yo‘llari to‘g‘ri keladigan) davlatlarni tegishli yozuvsiz xaritaga belgilang. Transport tarmoqlarining zichligiga qanday ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy omillar ta’sir etishini tushuntiring.


Xalqaro iqtisodiy aloqalar, xalqaro savdo, eksport, import, tashqi savdo aylanmasi, tashqi savdo balansi, xalqaro turizm.

Eksport va import tushunchalarining mohiyatini izohlang. Mamlakatimizdan chet davlatlarga qaysi mahsulotlar ko‘p eksport qilinadi?

***Tashqi savdo aylanmasi** — davlatning eksport va import yig‘indisi.*

20-§. Xalqaro iqtisodiy aloqalar geografiyasi

Xalqaro iqtisodiy aloqalar deb davlatlar o‘rtasidagi, xalqaro tashkilotlar va kompaniyalar ishtirokidagi xo‘jalik aloqalariga aytiladi. Bu aloqalarning bir nechta asosiy yo‘nalishlari mavjud *(42-rasm).* Ularning rivojlanishiga ilmiy-texnik taraqqiyot, davlatlar orasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar, jahon mintaqalaridagi siyosiy vaziyat, xalqaro iqtisodiy integratsiya kabi omillar ta’sir ko‘rsatadi.



42-rasm. **Xalqaro iqtisodiy aloqalarning asosiy ko‘rinishlari**

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning asosiy ko‘rinishlari orasida xalqaro savdo muhim ahamiyatga ega. Savdo juda uzoq tarixga ega bo‘lganligiga qaramay, uning xalqaro miqyosga chiqishi jahon xo‘jaligi shakllanish vaqtlariga borib taqaladi. Davlatlar tashqi savdo hajmi *tashqi savdo aylanmasi* orqali aniqlanadi. Ushbu ko‘rsatkich davlatning xalqaro mehnat taqsimotida qanday o‘rin tutishini aniqlab beradi. Xitoy, AQSH, Germaniya, Yaponiya, Fransiya tashqi savdo aylanmasi hajmiga ko‘ra jahonda yetakchilik qiladi *(16-jadval).*

16-jadval. ***Jahon davlatlari orasida eksport va import hajmi bo‘yicha peshqadam davlatlar (2020-y.)***

№	Davlatlar	Tashqi savdo aylanmasi, mlrd AQSH dollari	Eksport qiymati, mlrd AQSH dollari	Import qiymati, mlrd AQSH dollari
1	Xitoy	4646,2	2590,6	2055,6
2	AQSH	3835,6	1430,2	2405,4
3	Germaniya	2559,0	1385,8	1173,2
4	Yaponiya	1276,7	641,3	635,4
5	Fransiya	1071,3	488,5	582,8

Xalqaro savdoning tarkibida mahsulotlar bilan savdo-sotiq qilish xizmatlar savdosiga qaraganda katta salmoqqa ega. Uning ¾ qismini mahsulotlar savdosi tashkil qiladi. Mashina va jihozlar, transport vositalari, elektronika, kimyoviy mahsulotlar xalqaro savdoda katta talab mavjud bo‘lgan tayyor mahsulotlar hisoblanadi. Iqtisodiy imkoniyatlari yuqori bo‘lgan jahonning rivojlangan davlatlari xalqaro savdoning 60% dan ortig‘ini tashkil qiladi.

Tashqi savdoda davlatlar va mintaqalar orasida katta tafovutlar saqlanib qolmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, G‘arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo-Tinch okean mintaqasi hissasiga xalqaro savdoning deyarli 90% i to‘g‘ri kelmoqda. Ushbu mintaqalar asosan tayyor mahsulotlar va yuqori sifatli xizmatlarni

eksport qilsa, Afrika, Osiyo, Okeaniya va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan davlatlar jahon bozoriga asosan mineral resurslar, o‘rmon va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini olib chiqadi.

Muayyan davr oralig‘ida ma’lum bir davlatning eksporti va importi qiymatlarining ayirmasi *tashqi savdo balansi*ni ko‘rsatadi. Davlatlarda mazkur ko‘rsatkich musbat yoki manfiy ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Tashqi savdo balansida eksport miqdori yuqori bo‘lgan davlatlar orasida Xitoy, Germaniya, Rossiya kabi davlatlar alohida ajralib turadi.

So‘nggi yillarda xorijda ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish maqsadida kapital qo‘yilma kiritish hamda foyda olish jarayoni — *kapital eksporti* kuchayib bormoqda. Katta miqdordagi kapital rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotiga yo‘naltirilmoqda. AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy kabilar jahonning eng yirik kapital eksportyorlari hisoblanadi.

Xalqaro turizm xalqaro iqtisodiy aloqalarning asosiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, jahon YMMning deyarli 10% ini, xizmatlar eksportining esa ⅓ qismini beradi. Ispaniya, Gretsiya, Italiya, Misr kabi davlatlar mazkur sohani o‘z milliy iqtisodiyotlarining ixtisoslashgan tarmog‘iga aylantirgan. Jahon mintaqalari orasida Yevropa eng katta turistik oqimni qabul qilishi bilan ajralib turadi. Ushbu qit’a davlatlari orasida Fransiya, Ispaniya, Italiya, Germaniya, Buyuk Britaniya yillik tashrif buyuruvchi sayyohlar soniga ko‘ra jahonning birinchi o‘ntalik davlatlari orasidan o‘rin egallagan. So‘nggi yillarda Osiyoning ham xalqaro turizmdagi ahamiyati ortmoqda. Ayniqsa, Sharqiy, Janubi-sharqiy va Janubi-g‘arbiy Osiyo mamlakatlari katta miqdordagi sayyohlarni o‘ziga jalb qilmoqda. Unga mazkur hududlarga xos bo‘lgan go‘zal tabiiy sharoit, jahonga mashhur tarixiy yodgorliklar ko‘pligi, diniy ziyoratgohlarning mavjudligi katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Afrika qit’asi davlatlari orasida Shimoliy Afrika davlatlari alohida ajralib turadi. Qirg‘oqbo‘yida dam olishni xohlovchilar asosan Marokash, Tunis, Misrga tashrif buyursa, tarixiy turizm ixlosmandlarini Misr ehromlari, qadimiy Karfagen qoldiqlari o‘ziga jalb etadi. Afrikada yuzlab qo‘riqxona va milliy bog‘lar mavjud bo‘lib, ular ham muhim turistik obyektlar hisoblanadi. Tabiatsevarlarning katta qismi Keniya, Tanzaniya, Ruanda hududidagi milliy bog‘larga tashrif buyuradi *(43-rasm)*. JAR, Tunis, Misr va Marokash davlatlari sayyohlarning umumiy soniga ko‘ra qit’ada yetakchilik qiladi.



Qizil dengiz bo‘yidagi kurort (Misr) *Serengeti milliy bog‘ i (Tanzaniya)* *Qadimgi Karfagen qoldiqlari (Tunis)*

43-rasm. **Afrikaning ayrim turistik obyektlari**

Amerika qit’asi turizmida AQSH, Meksika, Karib havzasi davlatlari katta salmoqqa ega. Avstraliya va Okeaniya mintaqasi turizmida qirg‘oqbo‘yi hududlarda tashkil qilingan dam olish maskanlarining o‘rni katta.

Hozirgi kunda an’anaviy turistik turlari (dengizbo‘yi, diniy, tarixiy) bilan bir qatorda ekoturizm, agroturizm, ishbilarmonlik, sport, shoping (savdo), ekstremal turizm kabi ko‘rinishlari ham rivojlanmoqda.

Savol va topshiriqlar

1. Xalqaro iqtisodiy aloqalarning qanday yo‘nalishlari mavjud? Ularning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni izohlang.
2. Nima sababdan har bir davlat xalqaro savdo aloqalarida ishtirok etadi? Har bir mamlakat tashqi savdo balansi musbat bo‘lishiga harakat qilishining sabablarini tushuntiring.
3. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning xalqaro savdo aloqalarida ishtirok etish darajasi va xususiyatlari qanday farq qiladi? Mazkur tafovutlarga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
4. Quyidagi jadvalda qaysi atamalar ta’riflari keltirilganini topib, tegishli javoblarni daftaringizga belgilang.

A	Ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish maqsadida kapital qo‘yilma kiritish hamda foyda olish jarayoni.
B	Davlatning eksport va import yig‘indisi.
D	Davlatlar o‘rtasidagi, xalqaro tashkilotlar va kompaniyalar ishtirokidagi xo‘jalik aloqalari.
E	Ma’lum davr oralig‘ida ma’lum bir davlatning eksporti va importi qiymatlarining ayirmasi.


1 *xalqaro iqtisodiy aloqalar;* 2 *tashqi savdo aylanmasi;*
3 *tashqi savdo balansi;* 4 *kapital eksporti.*

5. Sizningcha, xalqaro turizmda Yevropa qit’asi salmog‘ining yuqoriligiga sabab nima? Sayyohlar oqimi qanday omillar bilan bog‘liqligini tushuntiring.



21-§. Umumlashtiruvchi dars

1. Xaritada belgilangan davlatlar unitar yoki federativ tuzilishga ega ekanligini aniqlang.



2. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar aholisining tabiiy ko‘payishi va yosh-jins tarkibi xususiyatlarini taqqoslab, uning farqli jihatlarini izohlang.

3. Quyidagi rasmlarda tasvirlangan hududlarga e’tibor bering. Ushbu hududlarda qaysi turdagi muqobil energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlari yuqori deb hisoblaysiz? Fikringizni asoslang.







4. Nima uchun jahonda tashiladigan yuklarning asosiy qismi dengiz transporti orqali amalga oshirilishini tushuntiring. Transportning ushbu turi jahon xo‘jaligi shakllanishi va rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatgan? Atlasdagi transport xaritasidan asosiy dengiz yo‘llari va eng yirik dengiz portlarini toping.

5. Darslikdagi ma’lumotlar hamda atlasdagi qishloq xo‘jaligi va uning tarmoqlariga doir xaritalardan foydalanib ushbu sohaning ixtisoslashuvi va rivojlanishiga iqlim sharoitining ta’sirini tahlil qiling. Sizningcha, agrar soha rivojida joyning relyef tuzilishi qanday ahamiyat kasb etadi? Fikringizni misollar bilan tushuntiring.



II bo‘lim. Jahonning regional tavsifi

5-bob. Yevropa mamlakatlari


Yevropa, qit’a, yangi mustaqil davlatlar, orol davlatlar, yarimorol davlatlar, respublika, monarxiya, federativ davlatlar.

Yevropada joylashgan dunyo miqyosida iqtisodiy taraqqiyoti jihatidan ajralib turadigan davlatlardan qaysilarini bilasiz?

22-§. Yevropaning geografik o‘rni, chegaralari va siyosiy xaritasi

Ma’lumki, Yevrosiyo materigi ikkita qit’a — Yevropa va Osiyoga bo‘linadi. Yevropa qit’asi Yevrosiyo materigining g‘arbiy qismida joylashgan. “Yevropa” so‘zi qadimiy assuriyaliklar tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “quyosh botishi”, ya’ni “g‘arb” ma’nosini anglatadi.

Yevropa ekvatorga nisbatan Shimoliy yarimsharda, bosh meridianga nisbatan esa asosan Sharqiy yarimsharda joylashgan *(44-rasm)*. Lekin Portugaliya, Irlandiya, Islandiya butunligicha, Ispaniya va Buyuk Britaniyaning katta qismlari hamda Fransiyaning chekka g‘arbiy hududlari G‘arbiy yarimsharda joylashgan. Qit’a maydoni 10 mln km^2 ga teng.



44-rasm. **Yevropaning geografik o‘rni**

Yevropa qirg‘oqlari shimolda Shimoliy Muz okeani, g‘arbda Atlantika okeani, janubda O‘rta va Qora dengiz suvlari bilan yuviladi. O‘rta dengiz va Gibraltar bo‘g‘izi uni Afrikadan ajratib turadi.

Sharqda Yevropa asosan quruqlik orqali Osiyo qit’asi bilan chegaradosh. Yevropa va Osiyoning chegarasi ko‘plab geografik adabiyotlarda Ural tog‘lari, Emba daryosi, Kaspiy dengizining Shimoli-g‘arbiy qirg‘oqlari, Rossiya janubidagi Kuma-Manich botig‘i, Azov va Qora dengizlari, Bosfor bo‘g‘izi, Marmar dengizi, Dardanell bo‘g‘izi va Egey dengizi orqali o‘tkaziladi. Ayrim manbalarda ikki qit’aning Kaspiy va Qora dengizlari orasidagi chegarasi Katta Kavkaz tizmasi orqali o‘tkaziladi.

Yevropaning hozirgi siyosiy xaritasida *(45-rasm)*, ikki qit’ada joylashgan Rossiya Federatsiyasini qo‘shganda, 44 ta mustaqil davlat mavjud. Yevropa kichik mamlakatlar qit’asidir. Qit’ada Andorra, San Marino, Malta, Monako, Vatikan, Lixtenshteyn singari “mitti” mamlakatlar joylashgan. Mazkur davlatlardan tashqari, Yevropadagi yana 12 ta davlatning maydoni 50 ming km^2 dan



45-rasm. **Yevropaning siyosiy xaritasi.**

Izoh: Rossiya Federatsiyasining Yevropadagi qismi to‘liq ko‘rsatilmagan

kichikroqdir. Shular qatoriga Lyuksemburg, Belgiya, Niderlandiya, Daniya, Chernogoriya, Shveysariya, Moldova, Slovakiya, Shimoliy Makedoniya, Sloveniya, Albaniya va Estoniya kiradi. Qit’adagi 10 ta mamlakat hududi 50 mingdan 100 ming km^2 gacha boradi. 12 ta davlatning maydoni 100 mingdan 500 ming km^2 gacha kattalikka ega. Faqat Fransiya, Ukraina va Ispaniyaning hududi 500 ming km^2 dan oshadi. Rossiya esa maydonining kattaligi bo‘yicha nafaqat Yevropa, balki butun dunyoda eng yirik davlatdir. Rossiya hududining 4,1 mln km^2 ga teng bo‘lgan qismi (24% i) Yevropa qit’asida joylashgan. Yevropa davlatlari orasida orol, yarimorol, dengizbo‘yi kontinental hamda ichki kontinental davlatlar mavjud *(46-rasm)*.

Orol davlatlar (4 ta): Buyuk Britaniya, Irlandiya, Islandiya, Malta


Yarimorol davlatlar (7 ta): Gretsiya, Daniya, Ispaniya, Italiya, Norvegiya, Portugaliya, Shvetsiya

Dengizbo‘yi kontinental davlatlar (19 ta): Albaniya, Belgiya, Bolgariya, Bosniya va Gersegovina, Estoniya, Finlandiya, Fransiya, Germaniya, Latviya, Litva, Monako, Niderlandiya, Polsha, Rossiya, Ruminiya, Sloveniya, Ukraina, Xorvatiya, Chernogoriya

Ichki kontinental davlatlar (14 ta): Avstriya, Andorra, Belarus, Lixtenshteyn, Lyuksemburg, Moldova, San Marino, Serbiya, Slovakiya, Vatikan, Vengriya, Shimoliy Makedoniya, Shveysariya, Chexiya

46-rasm. **Yevropadagi davlatlarning geografik o‘rni bo‘yicha tasniflanishi**

Yevropadagi 44 mamlakatdan 32 tasi respublika, 12 tasi monarxiya hisoblanadi. Andorra, Belgiya, Buyuk Britaniya, Daniya, Ispaniya, Lixtenshteyn, Lyuksemburg, Monako, Niderlandiya, Norvegiya, Shvetsiya davlatlari konstitutsion monarxiya, Vatikan davlati esa mutlaq teokratik monarxiya boshqaruv shakliga ega. Yevropadagi respublikalarning katta qismi parlamentar respublikalar hisoblanadi. Ma’muriy-hududiy jihatidan Yevropadagi 6 ta davlat federativ tuzilishga ega — Avstriya, Belgiya, Bosniya va Gersegovina, Germaniya, Rossiya, Shveysariya.



47-rasm. **Yevropaning subregionlarga bo‘linishi (Yevropa Ittifoqi tasnifi bo‘yicha)**

Yevropa qit’asi 4 ta subregionga bo‘linadi: Shimoliy Yevropa, G‘arbiy Yevropa, Janubiy Yevropa va Sharqiy Yevropa *(47-rasm).* Bu subregionlar Yevropa davlatlari orasidagi tabiiy, iqtisodiy va tarixiy-madaniy o‘xshashlik hamda tafovutlarni hisobga olgan holda ajratilgan.

Savol va topshiriqlar

1 Yevropa qaysi yarimsharlarda joylashgan? Xaritadan qit’a chegaralarini ko‘rsating.


2 Quyidagi savollarga mos variantlarni toping va daftaringizga belgilang.

№	Savollar	A	B	D	E
1	Yevropa qit’asining maydoni qancha?	*4,1 mln km²*	*12 mln km²*	*10 mln km²*	*5,9 mln km²*
2	Qaysi javobda Yevropadagi yarimorol davlatlar berilgan?	*Italiya, Islandiya*	*Ispaniya, Daniya*	*Gretsiya, Fransiya*	*Portugaliya, Irlandiya*
3	Yevropa qaysi tomonda asosan quruqlik orqali chegaralanadi?	*shimolda*	*g‘arbda*	*janubda*	*sharqda*
4	Yevropada nechta davlat federativ tuzilishga ega?	*6 ta*	*8 ta*	*4 ta*	*10 ta*
5	Berilgan davlatlardan qaysi biri konstitutsion monarxiya boshqaruv shakliga ega emas?	*Daniya*	*Vatikan*	*Shvetsiya*	*Norvegiya*

3 Atlasdagi jahonning siyosiy xaritasidan foydalanib quyidagi davlatlar juftligining qaysilari bir-biri bilan chegaradosh ekanligini aniqlang.

Italiya — Avstriya
Fransiya — Andorra
Belgiya — Daniya
Serbiya — Vengriya
Rossiya — Finlandiya
Germaniya — Slovakiya
Litva — Rossiya
Ruminiya — Estoniya
Polsha — Xorvatiya
Lyuksemburg — Niderlandiya
Albaniya — Bolgariya
Ukraina — Chexiya
Norvegiya — Shvetsiya
Belarus — Latviya
Lixtenshteyn — Sloveniya

4 4. Ushbu davlatlarning umumiy jihatini toping.




23-§. Amaliy mashg‘ulot
Yevropa siyosiy xaritasini o‘rganish

1. Ushbu davlatlarga mos ma’lumotlarni toping va daftaringizga belgilang.

I. Avstriya *II. Portugaliya* *III. Islandiya* *IV. Ruminiya*

a) *Ispaniya bilan chegaradosh;* b) *Sharqiy Yevropada joylashgan;* d) *ichki kontinental davlat;* e) *poytaxti Reykyavik shahri;* f) *Qora dengiz qirg‘oqlarini yuvadi;* g) *Janubiy Yevropada joylashgan;* h) *Federativ tuzilishga ega;* i) *orol davlat;* j) *G‘arbiy Yevropada joylashgan;* k) *dengizbo‘yi kontinental davlat;* l) *yarimorol davlati;* m) *Shimoliy Yevropada joylashgan*.

2. Quyidagi xaritalarda qaysi davlatlar aks ettirilganini toping va berilgan variantlar orasidan ushbu davlatlar poytaxtini tanlang.




A) Dublin B) Sofiya D) Berlin E) Oslo
F) Praga G) Rim H) Parij I) Afina

3. Darslik ilovasidagi ma’lumotlardan foydalanib Yevropadagi maydoni 100 ming km^2 dan yirik davlatlar nomini daftaringizga yozib oling.

4. Darslik va jahonning siyosiy xaritasidan foydalanib berilgan ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang.

1	Shimoliy Makedoniya dengizbo‘yi kontinental davlatlar guruhiga kiradi.
2	Daniya quruqlikda faqat Germaniya bilan chegaradosh.
3	Gretsiya Janubiy Yevropada joylashgan.
4	Yevropada faqat Buyuk Britaniya, Islandiya va Irlandiya orol davlatlar hisoblanadi.
5	Italiya Pireney yarimorolida joylashgan.
6	Belgiya poytaxti — Bryussel shahri.
7	Shvetsiya parlamentar respublika hisoblanadi.
8	Yevropa subregionlari ichida maydoni eng yirigi bu — Sharqiy Yevropa.
9	Bosniya va Gersegovina Yevropadagi federativ davlatlardan biri.
10	Fransiya ikkita okean akvatoriyasida joylashgan.

5. Quyidagi harflar bilan belgilangan Yevropadagi “mitti” davlatlar nomini toping.



Shimoliy dengiz, Boltiq dengizi, Kil kanali, parlamentar respublika, federal kansler, federal yerlar, GFR va GDRning birlashishi, tashqi migratsiya, lyuteran cherkovi.

Germaniya o‘zining qaysi mahsulotlari bilan dunyoga mashhur?


24-§. Germaniya Federativ Respublikasi

Yevropaning iqtisodiy jihatdan eng qudratli davlati — Germaniya Federativ Respublikasi qit’aning markazida joylashgan. Germaniya maydoni bo‘yicha qit’a mamlakatlari orasida 6-o‘rinda turadi. Qirg‘oqlari shimoli-g‘arbda Shimoliy dengiz, shimoli-sharqda esa Boltiq dengizi suvlari bilan yuviladi. Germaniya hududidan eng muhim xalqaro kanallardan biri — Shimoliy va Boltiq dengizlarini tutashtiruvchi Kil kanali o‘tadi. Quruqlikda jami 9 ta davlat bilan chegaradosh. iqtisodiy-geografik o‘rnining qulayligi Yevropaning turli qismlaridagi davlatlarni tutashtiruvchi yirik avtomobil, temir va suv (daryo va kanallar) yo‘llarining o‘tganligi bilan belgilanadi.

Boshqaruv shakli jihatidan parlamentar respublika. Davlat rahbari prezident bo‘lib, ammo ijro hokimiyatining rahbari va eng katta siyosiy vakolatlar egasi hukumat raisi, ya’ni federal kansler hisoblanadi. Siyosiy-hududiy tuzilishi jihatidan Germaniya federativ davlat bo‘lib, 16 ta federal yerga bo‘linadi. Mamlakat poytaxti — Berlin — uning sharqiy qismida joylashgan.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Germaniya hududining relyefi shimoldan janubga tomon ko‘tarilib boradi *(48-rasm).* Mamlakatning shimolida Shimoliy Germaniya pasttekisligi joylashgan, markaziy hududlari past va o‘rtacha balandlikdagi tog‘lardan iborat, janubida esa balandligi salkam 3000 metrga boradigan Alp tog‘lari joylashgan. Foydali qazilmalardan tosh va qo‘ng‘ir ko‘mir, temir rudasi, osh va kaliy tuzlarining konlari mavjud.

Mamlakat hududi mo‘tadil iqlim mintaqasida joylashgan. Shimoliy hududlarda dengiz, markaziy va janubiy hududlarda mo‘tadil kontinental tipidagi iqlim shakllangan. Ob-havo tez-tez o‘zgaradi, yog‘inlar ko‘p yog‘adi. Qish odatda yumshoq, qattiq sovuqlar kam bo‘ladi. Dengizbo‘yi hududlarida kuchli shamollar doimo kuzatiladi va bu omildan mamlakatda energetika maqsadlarida faol ravishda foydalaniladi.



Maydoni: **357,4** ming km²
Aholisi (2020): **83,3** mln
Poytaxti: **Berlin**

Germaniyada daryolar to‘ri ancha zich. Eng yirik daryolari Reyn, Dunay, Elba, Vezer va Oder. GFRdagi barcha yirik daryolar kanallar bilan o‘zaro bog‘langanligi tufayli uning ichki suv transport yo‘llari Dunay orqali Shimoliy va Boltiq dengizlari portlarini Qora dengiz portlari bilan bog‘laydi.

Aholisi. Germaniya 83,3 mln kishiga teng bo‘lgan aholisi (2020-yil ma’lumotlariga ko‘ra) bilan Yevropada Rossiyadan keyingi 2-o‘rinni egallaydi. Tug‘ilishning pastligi sababli



48-rasm. **Germaniyaning relyefi**


Germaniyada aholining tabiiy ko‘payishi 1972-yildan buyon manfiy qoldiqqa ega. Shuning uchun Germaniyada aholi ko‘payishining manbai faol tashqi migratsiya hisoblanadi.

Germaniya xorijiy migrantlar soni (13 mln kishidan ortiq, 2019-yil holatiga ko‘ra) jihatidan qit’ada 1-o‘rindagi davlat hisoblanadi. Xorijiy migrantlar tarkibida Polsha, Ruminiya, Italiya, Turkiya, Suriya, sobiq Yugoslaviya davlatlaridan ko‘chib kelganlar yetakchilik qilmoqda.

Germaniyaliklarning 80% ga yaqin qismi shaharlarda istiqomat qiladi. GFRning eng yirik shaharlari — Berlin, Gamburg, Myunxen, Kyoln, Frankfurt-Mayn, Bremen.

Mamlakat aholisining 85% dan ko‘proq qismi nemislarga to‘g‘ri keladi. GFRning shimoliy, markaziy va sharqiy hududlarida yashovchi nemislar orasida protestantlar (lyuteranlar) ko‘pchilikni tashkil etsa, mamlakatning janubida asosan katoliklar yashaydi.

Germaniya aholisi yirik daryolarning vodiylarida juda zich holda joylashgan. Bu borada ayniqsa Reyn vodiysi alohida ajralib turadi. Aholi eng yuqori darajada mujassamlashgan hudud — Rur sanoat rayoni aynan shu daryo havzasida joylashgan. Tog‘li hududlari hamda mamlakatning shimoli-sharqida esa aholi zichligi nisbatan kam *(49-rasm)*.



49-rasm. **Germaniya aholisi zichligi xaritasi (kishi/km²)**

Iqtisodiyoti. Germaniya iqtisodiy salohiyati va aholining turmush darajasi jihatidan jahondagi yetakchi mamlakatlardan biri, “Katta yettilik” guruhiga a’zo davlat. Yevropada esa Germaniya YIM va sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo‘yicha 1-o‘rinda turadi.

GFR turli sanoat mahsulotlarining yuqori sifati bilan butun dunyoga mashhur. Germaniya sanoatining yetakchi tarmoqlari qatoriga mashinasozlik, kimyo va farmatsevtika, ko‘mir, qora metallurgiya, oziq-ovqat sanoati kiradi. Mashinasozlik tarmoqlaridan esa stanoksozlik, avtomobilsozlik, elektrotexnika, mikroelektronika, kemasozlik, aviakosmik sanoati kabi tarmoqlar yuqori darajada rivojlangan.

Qishloq xo‘jaligining tayanch tarmoqlari sut-go‘sht qoramolchiligi va cho‘chqachilik. Mamlakatning shimoliy va markaziy qismlarida bug‘doy, arpa, makkajo‘xori, kartoshka, qandlavlagi ekiladi. Janubidagi



50-rasm. **Frankfurt-Mayn shahri**

tog‘ yonbag‘irlari va tog‘ oralig‘idagi vodiylarida uzum, tamaki hamda pivo ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan xmelni yetishtirish ham yaxshi rivojlangan.

Germaniya iqtisodiyotida transport, bank-moliya sektori, turizm va boshqa xizmat ko‘rsatish sohalari ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Yevropadagi eng yirik aeroportga ega Frankfurt-Mayn shahri qit’adagi asosiy bank-moliya markazlaridan biri hisoblanadi *(50-rasm)*.

Savol va topshiriqlar


1. Atlasdagi jahonning siyosiy xaritasidan foydalanib Germaniyaga chegaradosh davlatlar nomini daftaringizga yozib oling.
2. Germaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida uning tabiiy sharoiti va iqtisodiy-geografik o‘rni qanday ahamiyat kasb etishini tushuntiring.
3. Germaniyaga xorijiy migrantlar oqimining yuqoriligi qanday omillar bilan bog‘liq deb o‘ylaysiz? Xorijiy davlatlardan faol immigratsiyaning qanday ijobiy va salbiy tomonlari bo‘lishi mumkin? Aholisi faol ravishda ko‘chib ketayotgan mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga emigratsiya jarayonining ta’siri qanday? Fikrlaringiz asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Immigratsiya		Emigratsiya	
Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari	Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari
… … …	… … …	… … …	… … …

4. Germaniyaga oid quyidagi ma’lumotlar orasidan xatolarini toping va ularni tuzatib, daftaringizga yozib oling.
   - Maydoni bo‘yicha Yevropa mamlakatlari orasida 9-o‘rinda turadi;
   - “Katta yettilik” guruhiga a’zo davlat;
   - Siyosiy-hududiy tuzilishi jihatidan federativ davlat;
   - Qishloq xo‘jaligining tayanch tarmoqlari sut-go‘sht qoramolchiligi va parrandachilik hisoblanadi;
   - Eng yirik shaharlari — Berlin, Gamburg, Myunxen, Kyoln, Frankfurt-Mayn, Bremen;
   - Yevropadagi eng yirik dengiz portiga ega;
   - Mamlakat hududi mo‘tadil iqlim mintaqasida joylashgan;
   - Yevropada YIM va sanoat ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha 2-o‘rinda turadi;
   - Ichki suv transport yo‘llari Reyn orqali Shimoliy va Boltiq dengizlari portlarini Qora dengiz portlari bilan bog‘laydi;
   - Sanoatining yetakchi tarmoqlari qatoriga mashinasozlik, kimyo va farmatsevtika, ko‘mir, qora metallurgiya, oziq-ovqat sanoati kiradi.
5. Qo‘shimcha manbalardan foydalangan holda Germaniya va O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarining asosiy yo‘nalishlari va ko‘lami to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plang. Sizningcha, kelajakda mamlakatimiz va Germaniya o‘rtasida qaysi sohalarda hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari yuqori? Fikringizni asoslashga harakat qiling.

25-§. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi





Maydoni: **243,8** ming km²
Aholisi (2020): **67,2** mln
Poytaxti: **London**

Birlashgan Qirollik, Angliya, Shotlandiya, Uels, Shimoliy Irlandiya, konstitutsion monarxiya, La Mansh bo‘g‘izi, mo‘tadil dengiz iqlimi, anglikan cherkovi.

Birlashgan Qirollikning jahon iqtisodiy va siyosiy hayotidagi o‘rni to‘g‘risida nimalarni bilasiz?

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi Yevropaning shimoli-g‘arbidagi Britaniya orollarida joylashgan. Birlashgan Qirollik hududining asosiy qismi Buyuk Britaniya oroli va Irlandiya orolining shimoli-sharqidan iborat. Shuningdek, mamlakat tarkibiga bir nechta maydaroq orollar ham kiradi. Birlashgan Qirollik qirg‘oqlari Shimoliy dengiz, Irlandiya dengizi hamda Atlantika okeani suvlari bilan yuviladi. La Mansh bo‘g‘izi Buyuk Britaniyani Fransiyaning shimoli-g‘arbiy qirg‘og‘idan ajratib turadi. Quruqlikda faqat Irlandiya bilan chegaradosh.

Hozirgi vaqtda Buyuk Britaniyaning 15 taga yaqin dengizorti hududlari, ya’ni mustamlakalari bor. Ularning katta qismi Karib dengizidagi orollarda joylashgan. Yevropa qit’asidagi yagona mustamlaka hudud — Gibraltar ham Birlashgan Qirollikning dengizorti hududi hisoblanadi. Ammo rasman hech qaysi dengizorti hudud Birlashgan Qirollik tarkibiga kirmaydi.

Boshqaruv shakli — konstitutsion monarxiya. Buyuk Britaniya monarxi (qirol yoki qirolicha) ayni paytda rasmiy ravishda Britaniya Hamdo‘stligi Qirolliklari hisoblangan 14 ta mustaqil davlat, shu jumladan, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiyaning rahbari hisoblanadi.

Siyosiy-hududiy jihatdan Birlashgan Qirollik 4 ta o‘lka (mamlakat) — Angliya, Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiyadan iborat *(51-rasm)*. Angliyadan boshqa 3 ta o‘lka qisman muxtoriyatga ega. Buyuk Britaniyaning poytaxti — London shahri mamlakatning janubi-sharqida, Temza daryosining dengizga quyilish joyi yaqinida joylashgan.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Buyuk Britaniya Janubi-sharqiy qismini ko‘proq tekisliklar, Shimoli-g‘arbiy hududlarini esa asosan o‘rtacha tog‘lar egallaydi *(52-rasm)*. Ayniqsa, Shotlandiya va Uelsda qadimgi parchalangan tog‘lar keng tarqalgan. Mamlakatning eng baland tog‘i — Ben Nevis tog‘i Shotlandiyada joylashgan *(53-rasm)*.

Mamlakatda foydali qazilmalardan asosan neft, tabiiy gaz va ko‘mir qazib olinadi. Neft va gaz konlari Shimoliy dengizning tubida joylashgan. Ammo so‘nggi yillarda Buyuk Britaniya mineral yoqilg‘ining barcha turlari importyoriga aylangan, chunki qazib olinadigan resurslar milliy iqtisodiyotining energiya manbalariga bo‘lgan talabini qondira olmayapti.

Atlantika okeanidan yil bo‘yi esadigan nam shamollar hamda Golfstrim oqimi ta’sirida mo‘tadil dengiz iqlimi shakllangan. Yil davomida tez-tez yomg‘irlar yog‘adi, ayniqsa mamlakatning g‘arbida. Qish ancha yumshoq, yanvarning o‘rtacha havo harorati 0 °C atrofida.

Aholisi. Birlashgan Qirollik Yevropa mamlakatlari ichida aholisi soni bo‘yicha 3-o‘rinda turadi (2020-yil holatiga ko‘ra, 67 mln kishidan ziyod). Aholining tabiiy ko‘payishi juda past darajada bo‘lib, aholi soni asosan tashqi migratsiya hisobiga o‘smoqda. Ayniqsa, Janubiy Osiyo, Afrika, Karib dengizidagi orollardan ko‘chib kelganlar ko‘p.

Buyuk Britaniyada urbanizatsiya darajasi 85% ga yaqin. Mamlakatning eng yirik shaharlari qatoriga London, Birmingem, Manchester, Liverpul, Glazgo, Edinburg kiradi.



51-rasm. **Birlashgan Qirollikning tarkibidagi o‘lkalar**



52-rasm. **Birlashgan Qirollik hududining relyefi**

Mamlakat aholisining etnik tarkibida eng yirik millat inglizlardir. Shotlandiyaliklar, uelsliklar va irlandiyaliklar ham tub millatlar hisoblanadi. Eng keng tarqalgan din — anglikan cherkovi (protestant xristianligining mazhabi).


Aholi zichligi Markaziy va Janubiy Angliya, Janubiy Uels hamda O‘rta Shotlandiya pasttekisligida yuqori darajada bo‘lsa, Shotlandiyaning shimoli-g‘arbiy tog‘li hududlarida esa bu ko‘rsatkich ancha past *(54-rasm).* Birlashgan Qirollik aholisining deyarli 85% qismi Angliyada yashaydi. Shimoliy Irlandiyada esa mamlakat jami aholisining atigi 3% i istiqomat qiladi.

Iqtisodiyoti. Buyuk Britaniya Yevropa va jahon miqyosida iqtisodiy jihatdan eng qudratli davlatlardan biri bo‘lib, YIM hajmi bo‘yicha Yevropada Germaniyadan keyingi 2-o‘rinda turadi.


Buyuk Britaniya sanoat inqilobining vatani bo‘lib, XIX asr va XX asr boshida dunyoning yetakchi sanoatlashgan mamlakati hisoblangan. U davrda Birlashgan Qirollik sanoati ayniqsa to‘qimachilik, ko‘mir, qora metallurgiya, kemasozlik tarmoqlarining rivojlanganligi bilan alohida ajralib turgan. Hozirgi vaqtda esa Buyuk Britaniya sanoatining yetakchi tarmoqlari qatoriga avtomobilsozlik, aviasozlik, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, kimyo va farmatsevtika sanoati kiradi. Mamlakat elektr energetikasi IESlarga tayanadi.

Qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari sut-go‘sht qoramolchiligi, qo‘ychilik va cho‘chqachilik hisoblanadi. Asosiy qishloq xo‘jalik ekinlari: bug‘doy, arpa, kartoshka, qandlavlagi.

Buyuk Britaniya iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohalari ham juda katta ahamiyatga ega. Ulardan bank-moliya sohasi, turizm, axborot texnologiyalari,



53-rasm. **Ben Nevis tog‘i**




54-rasm. **Birlashgan Qirollikning aholi zichligi xaritasi (kishi/km²)**

tibbiyot va oliy ta’lim o‘zining xalqaro ahamiyati bilan alohida ajralib turadi. London shahri jahonning eng yirik moliyaviy markazi hisoblanadi. Buyuk Britaniyaga dunyoga mashhur ko‘plab tarixiy-madaniy yodgorliklarni ko‘rish uchun har yili bir necha o‘n million sayyoh tashrif buyuradi. Birlashgan Qirollik eng ko‘p sayyohlarni qabul qiladigan jahonning yetakchi 10 ta davlatlaridan biri.


Savol va topshiriqlar


1. Birlashgan Qirollik siyosiy-hududiy tuzilishini tavsiflang. U qisman federativ hisoblanishi mumkinmi? Nima uchun?
2. Buyuk Britaniya iqlimining muhim xususiyatlari va ularni keltirib chiqargan omillarni izohlang. Qo‘shimcha ma’lumotlar asosida ushbu davlat “Tumanli Albion” deb ham atalishining sababini toping.
3. Nima uchun Buyuk Britaniya aholisi asosan tashqi migratsiya hisobiga o‘sayotganini tushuntiring. Nima sababdan mamlakatga Janubiy Osiyo, Afrika, Karib dengizidagi orollardan ko‘chib kelganlar ko‘p?
4. Buyuk Britaniya elektr energetikasi IESlarga tayanishining asosiy sabablari haqida fikr yuriting. Buning iqtisodiy va ekologik jihatlarini qanday baholash mumkin? Ushbu mamlakatda noan’anaviy energiya manbalarining qaysi tarmoqlarini yanada rivojlantirish istiqbollari yuqori? Fikringizni asoslang.
5. Buyuk Britaniya dunyoda eng ko‘p xorijiy sayyohlarni qabul qiluvchi davlatlar o‘ntaligiga kirishiga ta’sir etuvchi quyidagi omillarga baho bering:
   a) tabiiy sharoiti va dengizbo‘yi landshaftlari;
   b) tarixiy obidalari;
   d) zamonaviy arxitekturasi;
   e) turizm infratuzilmasining rivojlanganligi;
   f) xizmat ko‘rsatish sifatining yuqoriligi.
6. Buyuk Britaniyadagi jahon miqyosida mashhur oliygohlardan qaysilarini bilasiz? Agar sizda xorijda ta’lim olish yoki sayohat qilish imkoniyati bo‘lsa, Buyuk Britaniyani tanlarmidingiz? Nimaga?



La Mansh bo‘g‘izi, Atlantika okeani, Korsika oroli, dengizorti hududlar, Parij aglomeratsiyasi, tashqi migratsiya, mintaqaviy tillar, “Katta yettilik”, turizm.

Fransiyaning dunyoga mashhur tovar brendlaridan qaysilarini bilasiz?





Maydoni: **547** ming km²
Aholisi (2020): **64,9** mln
Poytaxti: **Parij**

26-§. Fransiya Respublikasi

Yevropadagi eng yirik davlatlardan biri — Fransiya Respublikasi qit’aning g‘arbida joylashgan. Mamlakat qirg‘oqlari g‘arb va shimoli-g‘arbdan Atlantika okeani, janubi-sharqdan esa O‘rta dengiz suvlari bilan yuviladi. La Mansh bo‘g‘izi Fransiyani Buyuk Britaniyadan ajratib turadi. Quruqlikda 8 ta davlat bilan chegaradosh bo‘lib, eng uzun chegaralari Germaniya, Italiya, Ispaniya davlatlari bilan o‘tgan. O‘rta dengizdagi Korsika oroli Fransiyaga tegishlidir. Shuningdek, Fransiyaning 10 tadan ziyod dengizorti hududlari, ya’ni mustamlakalari ham mavjud. Ular asosan Tinch okean va Karib dengizida joylashgan.

Boshqaruv shakli — prezidentlik respublikasi. Siyosiy-hududiy jihatdan Fransiya unitar davlat bo‘lib, 18 ta hudud (region)ga bo‘linadi. Ulardan 12 tasi Fransiyaning asosiy kontinental qismida, 1 tasi O‘rta dengizdagi Korsika orolida joylashgan, qolgan 5 tasi dengizorti hududlardan iboratdir. Fransiya poytaxti Parij shahri mamlakatning shimoliy qismida, Sena daryosi vodiysida joylashgan.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Fransiya hududining ⅔ qismini tekisliklar egallaydi. Shu bilan birga, mamlakatning sharqiy, markaziy va janubiy hududlarida Alp, Pireney, Ardenna, Vogeza, Markaziy massiv *(55-rasm)*, Yura singari turli balandlikdagi tog‘lar mavjud. Alp va Pireneydan tashqari Fransiyadagi tog‘ tizmalari kuchli parchalangan keksa yoshdagi tog‘lar hisoblanadi. Foydali qazilmalardan temir, uran va boksit rudalari konlari mavjud.

Fransiyaning Atlantika okeaniga yaqin qismida mo‘tadil dengiz iqlimi, sharqiy hududlarida mo‘tadil kontinental, janubida esa O‘rta dengiz tipidagi subtropik iqlim shakllangan. Yozi issiq, qishi esa iliq va yomg‘irli bo‘ladi. Yog‘inlar yanvardan aprelgacha eng ko‘p kuzatiladi.

Fransiyada daryolar to‘ri ancha zich. Eng uzun daryosi — Luara *(56-rasm)*, eng sersuvi esa Rona. Shuningdek, Sena va Garonna ham yirik daryolar sirasiga kiradi.

Aholisi. Fransiya Yevropa mamlakatlari ichida aholisi soni bo‘yicha to‘rtinchi o‘rinda turadi. 2020-yil holatiga ko‘ra, Fransiya aholisi 65 mln kishiga yaqin. Aholining tabiiy ko‘payishi juda past, yillik hisobda 0,2% ga teng. Aholi soni o‘sishining muhim manbai tashqi migratsiya hisoblanadi. Migrantlar ichida o‘tmishda Fransiya mustamlakalari bo‘lgan turli Afrika davlatlaridan ko‘chib kelganlar ancha ko‘p.



55-rasm. **Markaziy massiv tog‘lari manzarasi**



56-rasm. **Luara daryosi**

Fransiyada hozirgi paytda shaharlashuv darajasi 80% dan ortgan. Parij atrofida qit’adagi eng yirik shahar aglomeratsiyalaridan biri shakllangan bo‘lib, uning aholisi 10 mln kishidan ziyod. Yirik mintaqaviy markazlar qatoriga Lion, Marsel, Lill, Tuluza, Bordo shaharlari kiradi.

Mamlakatning tub millatlari qatoriga fransuzlardan tashqari, basklar, bretonlar, elzasliklar, lotaringlar, katalonlar, oksitaniyaliklar va korsikaliklar kiradi. Fransiya Konstitutsiyasiga binoan bu 7 millatning tillari mintaqaviy tillar maqomiga ega. Mamlakat aholisining diniy tarkibida katoliklar yetakchilik qiladi. Aholi Parij aglomeratsiyasi, Belgiya va Germaniyaga chegaradosh hududlar hamda O‘rta dengiz sohilida eng zich joylashgan. Tog‘li hududlarda esa aholi zichligi birmuncha pastroq.


Iqtisodiyoti. Fransiya Respublikasi Yevropa va jahon bo‘yicha eng yirik iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lgan davlatlardan biri hisoblanadi. U “Katta yettilik” guruhiga mansub.

Fransiya sanoati tarkibida mashinasozlik, kimyo, qora va rangli metallurgiya hamda oziq-ovqat sanoatlari yetakchi ahamiyatga ega. Mamlakat avtomobil, kema, samolyot, dastgohlar, mineral o‘g‘itlar, soda, polimerlar, parfyumeriya, kosmetika, vino, pishloq va boshqa ko‘plab mahsulotlarni ishlab chiqarish va jahon bozoriga yetkazishda alohida ajralib turadi.

Fransiya elektr energetikasida AESlar birinchi darajali ahamiyatga ega. Atom elektr stansiyalarining mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi tarkibidagi ulushi deyarli 80% ga teng. Bu jihatdan Fransiya dunyoda birinchi o‘rinda turadi.

Qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i go‘sht-sut chorvachiligi hisoblanadi. Asosiy qishloq xo‘jalik ekinlari: bug‘doy, qandlavlagi, kartoshka, makkajo‘xori, uzum, zig‘ir. Ayniqsa, uzumchilik hamda vinochilik sohalarida Fransiya ishlab chiqarish hajmi va mahsulotlarning an’anaviy sifati bilan butun dunyoga mashhur *(57-rasm).* Dengiz sayozliklarida marikultura, ya’ni turli dengiz organizmlarini sun’iy ravishda ko‘paytirish yaxshi rivojlangan.

Fransiya jahon mamlakatlari ichida turistlar eng ko‘p tashrif buyuradigan davlat hisoblanadi. Ayrim yillari xorijiy sayyohlarning soni 75 mln kishidan ortadi. Turizmning bunday darajada rivojlanishiga tabiiy iqlim sharoiti, butun dunyoga mashhur dengizbo‘yi kurortlar (Nitstsa, Sen Trope, Kann va boshqalar), Fransiya shaharlari ayniqsa Parijda mashhur madaniy obyektlarning ko‘pligi bilan bog‘liq. Masalan, Parijdagi Luvr muzeyi dunyo bo‘yicha tashrif buyuruvchilar soni jihatidan yetakchi o‘rinni egallaydi *(58-rasm).*



57-rasm. **Fransiya uzumzorlari**



58-rasm. **Parijdagi Luvr muzeyi**

Savol va topshiriqlar

1. Atlasdagi jahonning siyosiy xaritasidan foydalanib quyidagilar orasidan Fransiyaga chegaradosh davlatlar poytaxtlari berilgan variantlarni toping.

   a) Amsterdam; b) Lyuksemburg; d) Bern; e) Vena; f) Madrid; g) Kopengagen; h) Berlin; i) Rim; j) Vaduts; k) Bryussel; l) Monako; m) Andorra la Velya;

2. Fransiya iqtisodiy-geografik o‘rnining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat? Uning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida unga chegaradosh bo‘lgan mamlakatlar qanday ahamiyat kasb etadi va o‘z navbatida, ushbu davlatlar taraqqiyotiga Fransiyaning ta’siri qanday? Sizningcha, mamlakatlar taraqqiyot darajasi ular joylashgan mintaqalardagi iqtisodiy-ijtimoiy vaziyat bilan qanchalik aloqador? Fikringizni misollar bilan tushuntiring.

3. Nima uchun Parij aglomeratsiyasida, Fransiyaning Belgiya va Germaniyaga chegaradosh hududlari

hamda O‘rta dengiz sohilida aholi zichligi eng yuqori? Muayyan hududda aholining juda zich joylashishi sabablari, uning afzalliklari va salbiy oqibatlari xususida fikr yuriting.

Aholining o‘ta zich joylashishiga ta’sir etuvchi omillar	Aholi zichligi yuqoriligining iqtisodiy rivojlanishga ta’siri	Aholi zichligi yuqoriligining salbiy oqibatlari
Yashash va mehnat qilish shart-sharoitlarining qulayligi	Tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabning yuqoriligi	Transport vositalarining ko‘payishi natijasida atmosfera ifloslanish darajasining ortib ketishi
... ...	... ...	... ...

4 Fransiyada sanoatning qaysi tarmoqlari yetakchi ahamiyatga ega? U nima uchun ko‘plab sanoat mahsulotlarini jahon bozoriga yetkazishda alohida ajralib turadi?

5 Fransiyada turizmning yuqori darajada rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni izohlang. Uning eng mashhur madaniy obyektlaridan qaysilarini bilasiz?




27-§. Italiya Respublikasi


Apennin yarimoroli, O‘rta dengiz, Sitsiliya, Sardiniya, Alp, anklav, O‘rta dengiz tipidagi iqlim, ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar, madaniy meros.

Nima uchun Italiya Yevropa madaniyatining beshiklaridan biri hisoblanadi?

Italiya Respublikasi Yevropaning janubida, O‘rta dengiz bo‘ylarida joylashgan. Mamlakat hududining katta qismini Apennin yarimoroli egallaydi. Italiyaga O‘rta dengizdagi ikkita eng yirik orol — Sitsiliya va Sardiniya tegishli. Shimolda Fransiya, Avstriya, Shveysariya va Sloveniya bilan chegaradosh. Italiyaning qo‘shnilari orasida San Marino hamda Vatikan “mitti” davlatlari alohida o‘ringa ega, chunki bu mamlakatlar har tomondan Italiya hududi bilan o‘ralgan va boshqa davlatlar yoki dengiz suvlari bilan chegaraga ega emas. Bunday geografik joylashuvga ega mamlakatlar **anklav** deb ataladi.

Boshqaruv shakli — parlamentar respublika. Siyosiy-hududiy jihatdan Italiya 20 ta hududdan iborat unitar davlat hisoblanadi. Poytaxti — Rim shahri mamlakatning markaziy qismida, Tibr daryosi vodiysida joylashgan.





Maydoni: **302,1** ming km²
Aholisi (2020): **60,3** mln
Poytaxti: **Rim**

Tabiiy sharoiti va resurslari. Italiya relyefi asosan tog‘lardan iborat *(59-rasm).* Mamlakatning shimolida Alp tog‘lari joylashgan. Yevropaning eng baland tog‘ cho‘qqisi — Monblan (4807 m) Italiyaning Fransiya bilan chegarasida joylashgan. Apennin yarimorolini shimoldan janubga tomon o‘rtacha balandlikdagi Apennin tog‘lari kesib o‘tgan (eng baland nuqtasi — Korno Grande cho‘qqisi, 2914 m). Alp va Apennin tog‘lari o‘rtasida Padan tekisligi joylashgan. Bu tekislikda g‘arbdan sharqqa tomon Italiyadagi eng yirik daryo — Po daryosi oqib o‘tadi.

Italiya seysmik va vulkanik jihatdan faol hududlardan biri. XXI asrning o‘zida 4 ta kuchli zilzila ro‘y bergan. Mamlakatda bir nechta harakatdagi vulqon, jumladan, Etna (Yevropadagi eng baland harakatdagi vulqon), Vezuviy va Stromboli *(60-rasm)* mavjud.

Italiyada turli foydali qazilmalar (neft, tabiiy gaz, ko‘mir, marganes, kaliy va osh tuzi)ning konlari bor, ammo aksariyat mineral resurslarni qazib olish hajmi katta emas va mamlakat iqtisodiyotining ehtiyojlarini qondira olmaydi.

Italiyada asosan O‘rta dengiz tipidagi subtropik iqlim hukmronlik qiladi. Yozi issiq, qishi esa iliq va yumshoq, yog‘ingarchilik ko‘proq qish oylariga to‘g‘ri keladi. Alp tog‘lari Italiya hududini sovuq havo massalari kirib kelishidan saqlaydi hamda dengizdan esadigan shamollar yo‘lini to‘sib, yog‘inlar tushishini kuchaytiradi.

Aholisi. Italiya Yevropaning aholisi eng ko‘p beshta davlatlaridan biri. 2020-yil ma’lumotlariga ko‘ra, Italiyada 60 mln kishidan ortiq aholi istiqomat qiladi. Aholining tabiiy ko‘payishi manfiy bo‘lib, yillik hisobda –0,4% ga teng. Aholi tarkibida xorijiy migrantlarning ulushi o‘sib bormoqda. Migrantlar ichida ruminlar, albanlar hamda Shimoliy Afrikadan ko‘chib kelgan arablar ustunlikka ega.

Italiyada shahar aholisining ulushi 70% dan ortiq. Milan, Rim, Turin va Neapol mamlakatdagi eng yirik shaharlar hisoblanadi.

Davlat tili — italyan tili. Aholining diniy tarkibida katoliklar yetakchilik qiladi. Italiya katoliklar soni bo‘yicha Yevropada birinchi o‘rinda turadi.


Aholi Italiyada ancha notekis joylashgan. Bu ko‘rsatkich Po daryosi oqib o‘tadigan Padan tekisligida eng yuqori. Shuningdek, mamlakat janubidagi dengizbo‘yi hududlarida ham aholi zichligi yuqori. Tog‘li hududlarda hamda Sardiniya orolida esa aholi nisbatan siyrak joylashgan *(61-rasm).*



59-rasm. **Italiya relyefi**



60-rasm. **Stromboli vulqoni**



61-rasm. **Italiya aholisining zichligi (kishi/km²)**

Iqtisodiyoti. Italiya Yevropadagi “Katta yettilik” guruhiga kiradigan 4 ta davlatdan biridir. Biroq mamlakat turli qismlarining iqtisodiy rivojlanganligida katta farqlar kuzatiladi. Italiyaning eng yirik va rivojlangan iqtisodiy markazlari uning shimolida joylashgan (Milan va Turin aglomeratsiyalari). Janubiy hududlari esa qoloq agrar iqtisodiyot bilan ajralib turadi.

Italiya sanoatining yetakchi tarmoqlari sifatida mashinasozlik (ayniqsa, avtomobilsozlik va maishiy texnika ishlab chiqarish), kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoatlari ajralib turadi. Mamlakat yengil avtomobil, mototsikl, muzlatkich, velosiped, jun gazlamalari, kiyim-kechak, poyabzal, zaytun moyi, pishloq, vino, meva va tomat konservalari kabi mahsulotlarning jahondagi eng ko‘zga ko‘ringan eksportchilaridan biridir. Ammo Italiyada yoqilg‘i resurslari va metall rudalarining kam miqdorda qazib olinishi hisobiga energiya manbalari va sanoat xomashyosining ko‘p turlari boshqa davlatlardan keltiriladi. Shuningdek, Italiya jahondagi elektr energiyani eng ko‘p hajmda import qiluvchi davlatlardan biridir.

Qishloq xo‘jaligi ko‘proq subtropik dehqonchilikka ixtisoslashgan. Italiya Yevropa va jahon miqyosida sitrus mevalari, uzum, pomidor va zaytun yetishtirish bo‘yicha ajralib turadi *(62-rasm)*. Milliy iqtisodiyotining eng daromadli tarmoqlaridan biri xalqaro turizm hisoblanadi. Italiyaga yiliga o‘rtacha hisobda 50 mln xorijiy sayyoh tashrif buyuradi. Turizmning bunday keng miqyosda rivojlanishiga mamlakatning iqlim sharoiti, tabiatining go‘zalligi va juda boy madaniy merosi sababdir. Italiyaning Rim, Milan, Neapol, Venetsiya, Florensiya, Genuya, Parma, Piza, Verona va boshqa shaharlari chin ma’noda “osmon ostidagi muzeylar” sifatida butun dunyoda mashhur. YUNESKO tomonidan tuzilgan Butunjahon meros obyektlari ro‘yxatiga aynan Italiyadagi tabiiy va tarixiy-madaniy yodgorliklar eng ko‘p miqdorda kiritilgan *(63-rasm)*.



62-rasm. **Italiyadagi zaytun plantatsiyalar**



63-rasm. **Neapol shahrining tarixiy markazi**

Savol va topshiriqlar

1. Italiyaga chegaradosh davlatlar orasida Vatikan hamda San Marino qanday xususiyatlari bilan ajralib turadi? Aynan shu kabi holat yana qaysi davlatga xos?
2. Tabiiy geografiya kurslaridan olgan bilimlaringizga asoslanib, Italiya nima uchun seysmik va vulkanik jihatdan faol hududlardan biri ekanini tushuntiring. Tabiiy ofatlarning ta'sirini kamaytirish uchun nimalarga ahamiyat berish kerak deb o'ylaysiz?
3. Italiyaning shimoliy va janubiy qismlari iqtisodiy rivojlanishidagi farqlar nimalardan iborat? Sizningcha, mamlakatlar turli hududlari rivojlanishida katta tafovutlar kuzatilishi qanday ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi? Buning oldini olish uchun qanday chora-tadbirlarni qo'llash lozim?
4. Nima uchun Italiya qishloq xo'jaligida Yevropaning ko'plab davlatlaridan farqli ravishda dehqonchilik ustun turadi?
5. Italiyada turizmning yuksak darajada rivojlanishi qanday omillarga bog'liq? Qo'shimcha manbalar asosida Italiyadagi jahonga mashhur tarixiy-madaniy yodgorliklar to'g'risida ma'lumotlar to'plang va qisqacha axborot tayyorlang.



Sharqiy Yevropa, Shimoliy Osiyo, federatsiya, eksklav, agroiqlimiy resurslar, tabiat zonalari, Baykal ko‘li, ko‘p konfessiyali mamlakat, “Sankt-Peterburg – Sochi – Irkutsk” uchburchagi.

Rossiyaning geografik o‘rni qanday o‘ziga xos xususiyatlarga ega? Ushbu xususiyatlar mamlakat rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?





Maydoni: **17098** ming km²
Aholisi (2020): **146,7** mln
Poytaxti: **Moskva**

28-§. Rossiya Federatsiyasi

Rossiya Federatsiyasi maydoni jihatidan jahonning eng yirik davlati hisoblanadi. U Sharqiy Yevropa va Shimoliy Osiyoda joylashgan. Rossiya qirg‘oqlari Shimoliy Muz, Tinch va Atlantika okeanlariga tegishli 12 ta dengiz suvlari bilan yuviladi. Dunyoda faqat 3 ta mamlakat — Rossiya, AQSH va Kanada birdaniga uchta okeanga chiqish imkoniyatiga ega.

Rossiya Federatsiyasi jami 16 ta mustaqil davlat bilan chegaradosh. Jumladan, Yaponiya va AQSH bilan chegara faqat suv orqali o‘tadi. Eng uzun chegara chiziqlari Qozog‘iston, Mongoliya va Xitoy bilan o‘tgan. Chegaradosh davlatlar soni bo‘yicha Rossiya jahon mamlakatlari ichida 1-o‘rinda turadi.

Konstitutsiyasiga binoan, Rossiya 85 ta turli maqomdagi regionlar federatsiyasi hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasining regionlari orasida respublika, oblast, o‘lka, avtonom okrug, avtonom oblast va federal ahamiyatdagi shaharlar mavjud. Boltiq dengizi bo‘yidagi Kaliningrad oblasti Rossiyaning asosiy hududidan alohida ajralgan holda joylashgan bo‘lib, **eksklav** geografik o‘rniga ega.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Rossiya hududi shimoldan janubga tomon 4000 km dan ortiq, g‘arbdan sharqqa esa salkam 10000 km masofaga cho‘zilganligi uchun mamlakatning tabiiy sharoiti juda xilma-xil *(64-rasm)*. Mamlakat hududining 70% i tekisliklar bilan band. Eng katta maydonlarni Sharqiy Yevropa va G‘arbiy Sibir tekisliklari egallaydi. Baland tog‘lar (Kavkaz, Oltoy, Sayan, Sixote-Alin va boshq.) Rossiyaning sharqiy va chekka janubiy qismlarida joylashgan.

Rossiyada neft, tabiiy gaz, ko‘mir, uran, temir rudasi, oltin, olmos va boshqa foydali qazilmalarning yirik zaxiralari mavjud. Mamlakat iqtisodiyoti uchun ayniqsa neft va tabiiy gaz resurslari katta ahamiyatga ega. Neft va gazning yirik konlari asosan G‘arbiy Sibir tekisligida joylashgan.

Rossiya asosan mo‘tadil, subarktika va arktika iqlim mintaqalarida joylashgan. Faqatgina Qora dengiz bo‘yidagi hududlari subtropik iqlimga ega. Mamlakat hududining 70% dan ortiq qismi dehqonchilik uchun agroiqlimiy resurslar bilan yetarli darajada ta’minlanmagan. Asosiy tabiat zonalari — tayga, tundra, aralash va keng bargli o‘rmonlar, dasht va o‘rmon-dasht. Rossiya o‘rmon va yer resurslari bilan eng yaxshi ta’minlangan davlatlardan biri.



Tayga (Arxangelsk oblasti)



Dasht (Orenburg oblasti)



Cho‘l (Astraxan oblasti)

64-rasm. **Rossiyadagi ayrim tabiat zonalari**

Rossiya, ayniqsa, uning Osiyodagi qismi suv va gidro energetika resurslariga ham juda boy. Uning eng yirik daryolari — Yenisey, Lena, Ob, Amur, Volga. Sibirda joylashgan Baykal ko‘li Yer yuzidagi eng chuqur va eng ko‘p chuchuk suv yig‘ilgan ko‘l hisoblanadi.


Aholisi. Rossiya Federatsiyasi aholisi soni bo‘yicha jahonda 9-o‘rinda turadi. Aholining tabiiy ko‘payishi manfiy bo‘lib, yillik hisobda –0,2% ga teng. Mamlakat aholisi dinamikasiga tashqi migratsiya sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda.

Rossiyada shahar aholisining ulushi 75% ga yaqin. Eng yirik shaharlari — Moskva (12,6 mln kishidan ortiq) va Sankt-Peterburg (5,3 mln kishidan ortiq). Rossiyada hozirgi vaqtda jami 15 ta “millioner” shahar mavjud.

Rossiya ko‘p millatli davlat hisoblanadi. Aholisining 81% i ruslarga to‘g‘ri keladi. Umuman olganda, Rossiya hududida 100 tadan ortiq tub millat va elatlar vakillari yashaydi. Ruslardan tashqari, tatarlar, ukrainlar, boshqirdlar, chuvashlar, chechenlar va armanlarning soni 1 mln kishidan oshadi. Shuningdek mamlakatning shimoliy o‘lkalarida o‘nlab kam sonli elatlar ham mavjud.



Moskvadagi Xristos Xaloskor cherkovi



Grozniydagi “Chechenistan yuragi” masjidi



Elistadagi budda ibodatxonasi

65-rasm. **Rossiya — ko‘p konfessiyali davlat**

Rossiya ko‘p konfessiyali davlatdir *(65-rasm).* Mamlakatdagi eng ko‘p sonli din pravoslav xristianlik hisoblanadi. Unga ruslardan tashqari, ukrainlar, chuvashlar, mordvalar, osetinlar va boshqa bir qancha millat vakillari e’tiqod qiladi. Tatarlar, boshqirdlar, Shimoliy Kavkazdagi ko‘plab xalqlar islom diniga mansub. Buryatlar, qalmiqlar hamda tuvaliklar esa buddizm diniga e’tiqod qiladi. Bundan tashqari, Rossiyada katoliklar, yahudiylar, protestantlar ham istiqomat qiladi.

Rossiyada aholi zichligining o‘rtacha ko‘rsatkichi ancha past (1 km^2 ga 8 kishi), aholining hududiy joylashuvi esa juda notekis. Bunga asosan iqlim sharoiti katta ta’sir ko‘rsatgan. Aholi ko‘proq Rossiyaning g‘arbiy va janubiy qismida — shartli ravishda ajratiladigan “Sankt-Peterburg — Sochi — Irkutsk” geografik uchburchagida mujassamlashgan.



Savol va topshiriqlar

1. Hududining katta qismi Osiyo qit’asida joylashganiga qaramay Rossiya nima sababdan Yevropa davlatlari safiga kiritiladi deb o‘ylaysiz? Ikkita qit’ada joylashgan yana qaysi davlatlarni bilasiz?
2. Atlasdagi Rossiya xaritasidan foydalanib Rossiyaga chegaradosh davlatlarni aniqlang va daftaringizga yozib oling.
3. Rossiyaning uchta okean akvatoriyasida joylashgani qanday ahamiyat kasb etadi? Bevosita Dunyo okeaniga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lgan hamda quruqlik ichkarisida joylashgan davlatlar iqtisodiy-geografik o‘rni xususiyatlari qanday farqlanadi? Sizningcha, ichki kontinental davlatlar iqtisodiy-geografik o‘rnini yaxshilash uchun qanday ishlarni amalga oshirishi kerak?
4. Rossiya mineral resurslarga eng boy davlatlardan biri bo‘lishiga asosiy sabab nima? Tabiiy resurslar uning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o‘rnida qanday ahamiyatga ega?
5. Nima uchun Rossiya hududining katta qismi agroiqlimiy resurslar bilan yaxshi ta’minlanmagan? Shu kabi holatni yana qaysi davlatlar va mintaqalarda kuzatish mumkin?
6. Quyida nomlari keltirilgan millatlar qaysi dinga e’tiqod qilishini toping va mos ravishda daftaringizga belgilang.

a) mordvalar;
b) qalmiqlar;
d) ukrainlar;
d) tatarlar;
e) ruslar;
f) boshqirdlar;
g) osetinlar;
h) tuvaliklar;
i) buryatlar;
k) chuvashlar;
l) Shimoliy Kavkazdagi ko‘plab xalqlar.

I. Pravoslav xristianlik diniga; II. Islom diniga; III. Buddaviylik diniga.

7. Rossiyada aholining hududiy joylashuvi juda notekis ekani qanday omillar bilan bog‘liq? Aholi Rossiyaning ko‘proq qaysi qismida mujassamlashgan? Nimaga?



29-§. Rossiya Federatsiyasi xo‘jaligi

Yalpi ichki mahsulot, sanoat, yoqilg‘i-energetika majmuasi, metallurgiya, mashinasozlik, donchilik, temir yo‘l transporti, iqtisodiy rayonlar.

Rossiyaning iqtisodiy rivojlanishiga hududining kattaligi qanday salbiy ta’sir ko‘rsatadi deb o‘ylaysiz?

Rossiya Federatsiyasi YIM hajmi bo‘yicha jahonda 6-o‘rinda turadi (2018-y.). Mamlakat iqtisodiyoti industrial xarakterga ega.

Sanoati. Rossiyada sanoatning ko‘plab tarmoqlari yaxshi rivojlangan, ammo sanoat va butun iqtisodiyotining tayanchi yoqilg‘i-energetika majmuasi hisoblanadi. Rossiya neft zaxiralari bo‘yicha dunyoda 6-o‘rinni, ko‘mir zaxiralari bo‘yicha 2-o‘rinni, tabiiy gaz zaxiralari bo‘yicha esa 1-o‘rinni egallaydi (2020-y.). Bir necha yillardan buyon Rossiya neft va tabiiy gaz qazib olish hajmi bo‘yicha jahonning yetakchi 3 ta mamlakati qatoridan joy olgan. Ko‘mir va uranni qazib olishda ham dunyoda ancha yuqori o‘rinlarda turadi. Yoqilg‘ining umumiy eksporti bo‘yicha esa Rossiya jahondagi yetakchi davlat hisoblanadi. Neft va tabiiy gaz eksporti Rossiyaning davlat byudjeti uchun eng yirik daromad manbaidir. Mamlakat yoqilg‘i sanoatining eng yirik rayoni G‘arbiy Sibir hisoblanadi.

Elektr energiyasini ishlab chiqarish bo‘yicha Rossiya dunyoda Xitoy, AQSH va Hindistondan keyin to‘rtinchi o‘rinda turadi (2020-yilda 1 trln 85 milliard kW•h). Elektr energiyasining eng katta qismi issiqlik stansiyalarida ishlab chiqariladi (64%). Shu bilan birga GESlarning ulushi 17% ga, atom elektr stansiyalarining hissasi 19% ga teng.

Qora metallurgiya ham Rossiya sanoatining tayanch tarmoqlaridan biridir. Rossiya dunyoda temir rudasini qazib olish bo‘yicha 5-, cho‘yan eritish bo‘yicha 4-, po‘lat eritish bo‘yicha 5-, po‘lat eksporti bo‘yicha esa 3-o‘rinda turadi. Yiliga 70 mln tonnadan ortiq po‘lat eritilib, 30 mln tonnadan ko‘proq qismi eksport qilinadi (2018-y.). Qora metall ishlab chiqarish asosan uchta yirik temir rudasi havzalari — Kuznetsk, Magnitogorsk va Kursk magnit anomaliyasiga tayanadi. Tarmoqning yirik markazlari: Magnitogorsk, Chelyabinsk, Novokuznetsk, Cherepoves, Stariy Oskol, Lipetsk.

Rossiya yuqori darajada rivojlangan rangli metallurgiya sanoatiga ham ega. Uning asosiy mahsulotlari — alyuminiy, nikel, mis, oltin, kumush, rux va qo‘rg‘oshin. Jumladan, u dunyoda alyuminiy va nikelni eritish bo‘yicha 2-o‘rinda, ularning eksporti bo‘yicha 1-o‘rinda, oltin qazishda esa 3-o‘rinda turadi (2018-y.). Rangli metallurgiyaning eng yirik korxonalari Sharqiy Sibirda joylashgan *(66-rasm).* Bunda Yenisey va Angara daryolarida qurilgan yirik GESlarning ahamiyati katta.

Mashinasozlik sanoati Rossiyada ko‘p tarmoqli tarkib va keng geografiyasi bilan ajralib turadi. Mamlakat mashinasozligi aviakosmik texnika, energetika qurilmalari, poyezd, kema, yengil va yuk avtomobillar, qishloq xo‘jaligi uchun mashinalar, turli dastgohlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Avtomobilsozlikning eng yirik korxonalari Tolyatti, Nijniy Novgorod, Moskva, Naberejniye Chelni, Ulyanovsk shaharlarida joylashgan. Mamlakatning eng katta avtomobil zavodi — Tolyatti shahridagi “AvtoVAZ” korxonasidir *(67-rasm).*



66-rasm. **“Norilsk nikel” korxonasi**



67-rasm. **Tolyatti shahridagi “AvtoVAZ” korxonasi**


Kimyo sanoatining eng muhim mahsuloti turli mineral o‘g‘itlar hisoblanadi. Barcha turdagi mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarish bo‘yicha Rossiya jahonda Xitoydan keyingi 2-o‘rinni egallaydi, azot va kaliy

o‘g‘itlarini eksport qilishda ham dunyo mamlakatlari orasida 2-o‘rinda turadi (2018-y.). Mineral o‘g‘itlar sanoatining tayanch markazlari Voskresensk, Kingisepp, Dzerjinsk, Novomoskovsk, Solikamsk, Berezniki shaharlari hisoblanadi.

Sellyuloza-qog‘oz sanoati Rossiyaning ko‘plab shimoliy regionlarida rivojlangan. Tarmoqning eng yirik korxonalari Arxangelsk, Irkutsk, Kirov oblastlari, Krasnoyarsk va Perm o‘lkalarida joylashgan.

Qishloq xo‘jaligi. Rossiya dunyo mamlakatlari orasida eng katta yer fondiga ega, biroq qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar uning 10% dan ziyodroq qismini tashkil etadi, xolos (qishloq xo‘jaligi yerlarining maydoni bo‘yicha Rossiya jahonda Xitoy va AQSHdan keyingi 3-o‘rinni egallaydi).

Mamlakatning har bir rayonida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari turining ma’lum to‘plami joylashgan bo‘lib, u ushbu rayon ixtisosligini belgilaydi. Farqli tomonlari tabiiy sharoitga (o‘simliklarning yorug‘lik, issiqlik va namlik bilan ta’minlanganligiga) bog‘liqdir.



68-rasm. **Rossiya don eksportining dinamikasi (1992–2017-yillar, mln tonna)**

Dehqonchilikning eng muhim tarmog‘i donchilik hisoblanadi. Donchilik asosan mamlakat janubi va janubi-g‘arbini egallagan dasht va o‘rmon-dasht zonasida yaxshi rivojlangan. Don ekinlarining yalpi hosili bo‘yicha Rossiya jahonning yetakchi 5 ta davlatlari qatoriga kiradi va don, xususan, bug‘doy eksporti bo‘yicha dunyo miqyosida ajralib turadi *(68-rasm).* Don ekinlaridan tashqari Rossiyada qandlavlagi, kartoshka, kungaboqar, zig‘ir ham muhim qishloq xo‘jalik ekinlari sanaladi.

Chorvachilikning asosiy tarmoqlari qoramolchilik, cho‘chqachilik, parrandachilik, qo‘ychilik hisoblanadi. Shimoliy hududlarida bug‘uchilik, dasht, cho‘l va tog‘li o‘lkalarida esa yilqichilik rivojlangan. Baliq ovlash asosan Bering, Oxota, Yapon, Barens, Boltiq va Kaspiy dengizlarida rivojlangan.

Transporti. Rossiyada transportning barcha turlari yaxshi rivojlangan, lekin transport yo‘llarining zichligi mamlakatning turli qismlarida keskin farq qiladi. Buning asosiy sabablari tabiiy-iqlim sharoiti va aholi zichligi bilan bog‘liq. Yuk aylanmasida eng katta ulush temir yo‘l va quvur transportlariga to‘g‘ri keladi. Temir yo‘llarining uzunligi bo‘yicha Rossiya dunyoda AQSH va Xitoydan keyingi 3-o‘rinni, elektrlashtirilgan temir yo‘llarining uzunligi bo‘yicha esa Xitoydan keyingi 2-o‘rinni egallaydi. Jahondagi eng uzun temir yo‘l Moskvani Vladivostok bilan bog‘laydigan Transsibir magistrali hisoblanadi.

Mamlakatning ayrim rayonlarida, ayniqsa, shimoliy o‘lkalarida daryo transportining ahamiyati yuqori. Lekin daryolar bir necha oy davomida muzlashi hisobiga kemalar asosan yozda harakat qiladi. Volga daryosi Rossiyaning Yevropa qismida daryo transporti tarmoqlarining o‘zagi bo‘lib xizmat qiladi. U turli irmoq va kanallar orqali Boltiq, Oq va Azov dengizlari bilan bog‘langan.

Rossiyaning 7 ta shahrida (Moskva, Sankt-Peterburg, Nijniy Novgorod, Samara, Yekaterinburg, Novosibirsk va Qozon) metropoliten faoliyat ko‘rsatmoqda.

Iqtisodiy rayonlari. Rossiya Federatsiyasi rasman 12 ta iqtisodiy rayonlarga bo‘linadi. Ulardan eng yiriklari Markaziy, Shimoli-g‘arbiy, Ural, Volgabo‘yi, G‘arbiy Sibir, Sharqiy Sibir, Uzoq Sharq rayonlaridir. Mamlakat iqtisodiy rayonlari orasidagi tafovutlar asosan tabiiy sharoit va resurslar hamda tarixiy rivojlanishining xususiyatlari bilan bog‘liq.

Savol va topshiriqlar

1. Rossiyaning davlat byudjeti uchun neft va tabiiy gaz eksporti eng yirik daromad manbai ekanligini qanday baholash mumkin? Odatda xomashyo eksporti iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko‘ra qaysi guruhga mansub davlatlar iqtisodiyoti uchun yuqori ahamiyatga ega bo‘ladi?
2. Rossiya iqtisodiyotning turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha jahon mamlakatlari orasida nechanchi o‘rinlarda turishini topib, tegishli javoblarni daftaringizga belgilang.

1.	Qishloq xo‘jaligi yerlarining maydoni bo‘yicha
2.	Temir rudasini qazib olish bo‘yicha
3.	Elektrlashtirilgan temir yo‘llarining uzunligi bo‘yicha
4.	Elektr energiyasini ishlab chiqarish bo‘yicha
5.	Yalpi ichki mahsulot hajmi bo‘yicha
6.	Tabiiy gazning zaxiralari bo‘yicha

A) 1-o‘rin B) 2-o‘rin D) 3-o‘rin E) 4-o‘rin F) 5-o‘rin G) 6-o‘rin

3. Rossiyada dehqonchilikning eng muhim tarmog‘i donchilik ekani qanday omillar bilan bog‘liq deb o‘ylaysiz? Rossiya va mamlakatimizda yetishtiriladigan asosiy ekin turlaridagi farqlarni aniqlang va sababini tushuntiring.
4. Rossiyada transportning qaysi turlari yaxshi rivojlangan? Nima uchun? Mamlakatning qaysi hududlarida daryo transportidan foydalanish muhim ahamiyatga ega? Rossiyaning eng yirik daryolarini xaritadan ko‘rsating.
5. O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik aloqalari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?



30-§. Umumlashtiruvchi dars

1. Yevropa davlatlarining iqtisodiy-geografik o‘rni va tabiiy sharoitini qanday baholash mumkin? Qit’a davlatlarining aksariyati iqtisodiy rivojlangan davlatlar guruhiga mansub ekanligiga qanday omillarning ta’siri yuqori deb hisoblaysiz?

2. Yevropaning “Katta yettilik”ka kiruvchi davlatlari sanoatining yetakchi tarmoqlarini solishtiring. Qaysi tarmoqlar ularning barchasida yuqori ahamiyatga ega? Ushbu mamlakatlar xalqaro mehnat taqsimotida qaysi turdagi tovarlar ishlab chiqarish bilan alohida ajralib turadi?

3. Quyidagi savollarga “Ha” yoki “Yo‘q” deb javob bering.
   1. Fransiya hududining kattaligi bo‘yicha Yevropadagi eng yirik davlatlardan biri hisoblanadimi?
   2. San Marino anklav davlatmi?
   3. Yevropa hududi beshta subregionga bo‘linadimi?
   4. Rossiya ikkita qit’ada joylashganmi?
   5. Lissabon shahri Portugaliya davlati poytaxtimi?
   6. Yevropa qirg‘oqlarini Hind okeani suvlari yuvib turadimi?
   7. Ispaniya “Katta yettilik” davlatlari guruhiga kiradimi?
   8. Italiya va Germaniya davlatlari chegaradoshmi?
   9. Malta yarimorol davlati hisoblanadimi?
   10. Buyuk Britaniya YIM hajmi bo‘yicha Yevropada 1-o‘rinda turadimi?

4. Qo‘shimcha manbalar asosida quyidagi dunyoga mashhur tovar brendlari Yevropaning qaysi davlatlariga tegishli ekanini toping.



5. Quyidagi ta’riflar qaysi davlatlarga tegishli ekanini toping.
   A) yarimorolda joylashgan, katoliklar soni bo‘yicha Yevropada birinchi o‘rinda turadi, qishloq xo‘jaligi subtropik dehqonchilikka ixtisoslashgan;
   B) mo‘tadil dengiz iqlimi shakllangan, aholisi asosan tashqi migratsiya hisobiga o‘smoqda, sanoat inqilobi vatani;
   D) Yer yuzidagi eng ko‘p chuchuk suv yig‘ilgan ko‘li bor, kimyo sanoatining eng muhim mahsuloti turli mineral o‘g‘itlar hisoblanadi, rasman 12 ta iqtisodiy rayonga bo‘linadi;
   E) shimoli-sharqda Boltiq dengizi suvlari bilan yuviladi, aholisi yirik daryolarning vodiylarida juda zich joylashgan, turli sanoat mahsulotlarining yuqori sifati bilan dunyoga mashhur;
   F) hududining ⅔ qismini tekisliklar egallaydi, elektr energetikasida AESlar birinchi darajali ahamiyatga ega, jahon mamlakatlari ichida turistlar eng ko‘p tashrif buyuradigan davlat hisoblanadi.



6-bob. Osiyo mamlakatlari

31-§. Osiyo qit’asining geografik o‘rni, chegaralari va siyosiy xaritasi

Osiyo, qit’a, yangi mustaqil davlatlar, orol davlatlar, ichki kontinental davlatlar, respublika, monarxiya, federativ davlatlar.

Osiyoda joylashgan hududi katta, ammo aholisi soni va zichligi kichik bo‘lgan davlatlardan qaysilarini bilasiz?

Jahondagi eng yirik qit’a Osiyo deb atalishi uning geografik o‘rni bilan bog‘liq. Qadimiy assuriyaliklar tilida u “quyosh chiqishi”, ya’ni “sharq” ma’nosini anglatadi.

Osiyoning orollar bilan birgalikdagi umumiy maydoni 44,5 mln km^2 ni tashkil qiladi, aholisi esa, 2020-yil ma’lumotlariga ko‘ra, 4,6 milliard kishidan ziyod, ya’ni Osiyoda insoniyatning deyarli 60% i yashaydi. Bu holat Osiyoning zamonaviy dunyoning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotidagi o‘rnini aks ettiradi.

Osiyo qit’asi ekvatorga nisbatan asosan Shimoliy yarimsharda, bosh meridianga nisbatan esa asosan Sharqiy yarimsharda joylashgan *(69-rasm)*.

Osiyo to‘rtta okean bilan yuviladigan yagona qit’adir. Uning qirg‘oqlari shimolda (Rossiyaning hududi) Shimoliy Muz okeani, janubda Hind okeani, sharqda Tinch okean va g‘arbda Atlantika okeani havzasiga tegishli O‘rta va Qora dengiz suvlari bilan yuviladi. Suvaysh kanali Osiyoni Afrikadan, Bering bo‘g‘izi esa Shimoliy Amerikadan ajratadi.

Osiyoning hozirgi siyosiy xaritasida *(70-rasm)* Rossiya Federatsiyasini hisobga olmaganda, 47 ta mustaqil davlat mavjud. Bu davlatlarning ko‘pchiligi siyosiy mustaqilligiga Ikkinchi Jahon urushidan keyingi davrda erishgan. Qit’aning eng yosh davlatlari qatoriga 1991-yili sobiq Ittifoq parchalanishi natijasida mustaqillikni qo‘lga kiritgan O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Gruziya va Armaniston davlatlari hamda 2002-yili mustaqil davlatga aylangan Sharqiy Timor kiradi.

Osiyo davlatlari hududining maydoni bo‘yicha bir-biridan ancha farq qiladi. Rossiya, Xitoy, Hindiston va Qozog‘iston jahonning 10 ta eng yirik davlatlari guruhiga kiradi. Yana 4 ta davlat — Saudiya Arabistoni, Indoneziya, Eron va Mongoliyaning maydoni 1 mln km^2 dan katta. Shuningdek, hududi 500 ming km^2 dan ziyod bo‘lgan Pokiston, Turkiya, Afg‘oniston, Myanma, Yaman va Tailand ham katta mamlakatlar hisoblanadi. Shu bilan birga, Osiyoda maydoni 1 ming km^2



69-rasm. **Osiyoning geografik o‘rni**



70-rasm. **Osiyoning siyosiy xaritasi**

Izoh. *Rossiya Federatsiyasining Osiyodagi qismi to‘liq ko‘rsatilmagan*

dan kichikroq bo'lgan 3 ta davlat mavjud — Bahrayn, Singapur va Maldiv Respublikasi. Lekin, umuman olganda, Osiyoda Yevropaga nisbatan katta va yirik davlatlar sezilarli darajada ko'p.

Osiyo davlatlaridan 35 tasida dengizga bevosita chiqish imkoniyati mavjud. Bu holat ularning dengiz savdo yo'llariga to'g'ridan to'g'ri chiqishiga imkon beradi. Osiyo davlatlarining bir qismi serqatnov dengiz yo'llari, bo'g'izlar ustida (Turkiya, Malayziya, Singapur, Koreya Respublikasi kabilar) joylashgani ularning iqtisodiy taraqqiyotida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Osiyo davlatlaridan 10 tasi orollarda joylashgan — Indoneziya, Filippin, Sharqiy Timor, Singapur, Bruney, Yaponiya, Shri Lanka, Maldiv Respublikasi, Kipr va Bahrayn. Shu bilan birga Osiyoda 12 ta davlat quruqlik ichkarisida joylashgan. Dunyoning ichki kontinental davlatlaridan eng yirik ikkitasi (Qozog'iston va Mongoliya) aynan Osiyoda joylashgan.

Osiyo mamlakatlarining siyosiy tuzumida ham katta tafovutlar mavjud. Qit'adagi 47 ta davlatdan 34 tasi respublika, 13 tasi monarxiya boshqaruv shakliga ega. Osiyoda dunyodagi 5 ta mutlaq monarxiyadan 4 tasi (Saudiya Arabistoni, Ummon, Qatar, Bruney) joylashgan.

Ma'muriy-hududiy jihatdan Osiyodagi 6 ta davlat federativ tuzilishga ega — Hindiston, Pokiston, Iroq, Malayziya, Nepal va Birlashgan Arab Amirliklari.

Osiyo 5 ta subregionga bo'linadi: Markaziy, Janubi-g'arbiy, Janubiy, Janubi-sharqiy va Sharqiy Osiyo. O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston Respublikalari Markaziy Osiyo subregionini tashkil qiladi *(17-jadval)*.

17-jadval. ***Osiyo subregionlari tarkibi haqida ma'lumot***

Osiyo subregionlari	Davlatlar
Janubi-g'arbiy Osiyo	Afg'oniston, Armaniston, Bahrayn, BAA, Gruziya, Eron, Iordaniya, Iroq, Isroil, Kipr, Livan, Ozarbayjon, Qatar, Kuvayt, Saudiya Arabistoni, Suriya, Turkiya, Ummon, Yaman
Markaziy Osiyo	Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston
Janubiy Osiyo	Bangladesh, Butan, Hindiston, Maldiv Respublikasi, Nepal, Pokiston, Shri Lanka
Sharqiy Osiyo	KXDR, Koreya Respublikasi, Mongoliya, Xitoy, Yaponiya
Janubi-sharqiy Osiyo	Bruney, Filippin, Indoneziya, Kambodja, Laos, Malayziya, Myanma, Sharqiy Timor, Singapur, Tailand, Vetnam

Savol va topshiriqlar

1. Osiyoning tabiiy va siyosiy xaritalarini solishtiring. Qaysi davlatlarda tog'li relyef ustunlik qiladi? Ushbu holat mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Quyidagi ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini tasdiqlang.

1.	Osiyoda maydoni 1 ming km^2 dan kichikroq bo'lgan 2 ta davlat mavjud — Singapur va Maldiv Respublikasi.
2.	Osiyo to'rtta okean bilan yuviladigan yagona qit'a.
3.	Rossiya, Xitoy, Saudiya Arabistoni va Qozog'iston jahonning 10 ta eng yirik davlatlari guruhiga kiradi.
4.	Osiyoda Yevropaga nisbatan kichik davlatlar sezilarli darajada ko'p.
5.	KXDR, Koreya Respublikasi, Mongoliya, Xitoy, Yaponiya Sharqiy Osiyo subregionida joylashgan.
6.	Indoneziya Osiyoning eng yosh davlatlari qatoriga kiradi.
7.	Dunyoda ichki kontinental davlatlardan eng yirik ikkitasi Turkmaniston va Mongoliya hisoblanadi.
8.	Iroq mutlaq monarxiya boshqaruv shakliga ega.
9.	Osiyo qit'asi bosh meridianga nisbatan asosan Sharqiy yarimsharda joylashgan.
10.	Osiyo subregionlari ichida Janubi-sharqiy Osiyo davlatlar soni bo'yicha yetakchilik qiladi.

3 Mavzu matni hamda darslik ilovasidan foydalangan holda Osiyodagi monarxiya davlatlarini toping hamda ularni yozuvsiz xaritaga tushiring.

4 Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti jihatidan jahon bo‘yicha alohida ajralib turadigan Osiyo davlatlaridan qaysilarini bilasiz? Sizningcha, ularning yuqori iqtisodiy o‘sishga erishishida iqtisodiy-geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari qanday ahamiyat kasb etgan?

5 Osiyoning orollarda joylashgan davlatlarini xaritadan topib, ularning nomlari va poytaxtlarini daftaringizga yozib oling.

32-§. Amaliy mashg‘ulot
Osiyo siyosiy xaritasini o‘rganish

1. Atlasdagi jahonning siyosiy xaritasidan foydalanib quyidagi Osiyo davlatlari orasidan quruqlik ichkarisida joylashganlarini toping.


Gruziya	Kambodja	Suriya	Nepal
Afg‘oniston	Livan	Mongoliya	Armaniston
Butan	Iroq	Laos	Qozog‘iston
Bruney	Iordaniya	Qatar	Bangladesh

2. Osiyo qirg‘oqlarini yuvib turuvchi okean, dengiz, qo‘ltiq va bo‘g‘izlar nomlarini daftaringizga yozib oling.

3. Atlasdagi jahon va Osiyoning siyosiy xaritalari hamda darslik ilovasidagi ma’lumotlar asosida quyidagi davlatlarning poytaxtlari to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri berilganini aniqlab, xatolarni tuzating.

Tailand — Bangkok
Yaponiya — Tokio
Turkiya — Bag‘dod
Sharqiy Timor — Dili
Filippin — Male
Gruziya — Boku
Eron — Islomobod
Vetnam — Xanoy
Tojikiston — Dushanbe
Bahrayn — Manama
Yaman — Sana
Qirg‘iziston — Bishkek
Qatar — Abu Dabi
Shri Lanka — Dakka
Indoneziya — Jakarta

4. Rasmda berilgan davlatlar nomini aniqlang va ularning umumiy o‘xshash jihatini toping.



5. Quyidagi xaritada ajratib ko‘rsatilgan davlatlar nomini toping va ularga tegishli ma’lumotlarni to‘g‘ri tanlang.



a) federativ tuzilishga ega;

b) jahonning 2 ta eng yirik ichki kontinental davlatlaridan biri;

d) jahonning 10 ta eng yirik davlatlari qatoriga kiradi;

e) Osiyoning eng yosh davlatlaridan biri;

f) mutlaq monarxiya boshqaruv shakliga ega;

g) poytaxti Tximpxu shahri.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, yalpi ichki mahsulot (YIM), “Katta yettilik” guruhi, yangi industrial davlatlar, industrial-agrar davlatlar, agrar-industrial davlatlar, agrar davlatlar.

Osiyoning iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlariga misollar keltiring.

33-§. Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanganligi

Osiyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, dunyo iqtisodiyotida tutgan o‘rni, xalqaro ixtisoslashuvi nuqtayi nazaridan ham bir-biridan ancha farq qiladi. Qit’a mamlakatlari iqtisodiy rivojlanganligi va xo‘jaligining ixtisoslashuviga ko‘ra bir nechta guruhlarga bo‘linadi.

1. Yaponiya — “Katta yettilik” guruhiga kiradigan yagona Osiyo davlati. Yaponiya yalpi ichki mahsulot hajmi bo‘yicha 2020-yil holatiga ko‘ra, jahonning to‘rtinchi davlati hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyoti innovatsion texnologiyalarga tayanadigan fantalab ishlab chiqarish tarmoqlariga ixtisoslashgan. Aholining turmush darajasi borasida ham Yaponiya dunyoning peshqadam davlatlaridan biri.

2. Isroil — “ko‘chirilgan kapitalizm” tipidagi rivojlangan davlat. Aholi jon boshiga YIM hajmi bo‘yicha Osiyodagi peshqadam davlatlardan biri hisoblanadi. Isroil iqtisodiyoti yuqori texnologiyalarga tayanadigan mashinasozlikning turli tarmoqlariga ixtisoslashgan.

3. Xitoy va Hindiston — tabiiy resurslar, aholi soni va YIM hajmi bo‘yicha ulkan salohiyatga ega bo‘lib, tayanch rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiradi. Ular so‘nggi 20 yilda iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan davlatlarga aylandi. Hozirgi vaqtda Xitoy YIM hajmiga ko‘ra dunyoda birinchi, Hindiston esa uchinchi o‘rinni egallaydi. Ammo aholi jon boshiga hisoblanadigan iqtisodiy ko‘rsatkichlari ayniqsa Hindistonda hali rivojlangan davlatlar darajasidan ko‘ra birmuncha past qolmoqda. Ikkala davlatga ijtimoiy taraqqiyot borasida ham dolzarb muammolar xos.

4. Osiyoning yangi industrial davlatlari — Koreya Respublikasi, Singapur, Malayziya, Tailand. 1980-yillardan buyon amalga oshirilgan chuqur iqtisodiy islohotlar tufayli bu guruhdagi davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda keskin yuksalishlarga erishdi. Shu tufayli ular G‘arbda “Osiyo yo‘lbarslari” yoki “Osiyo ajdarholari” deb nom oldi. Koreya Respublikasi va Singapur davlatlari rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shildi. Yangi industrial davlatlarning iqtisodiyoti mikroelektronika, elektrotexnika, avtomobilsozlik, kemasozlik kabi mashinasozlik tarmoqlariga ixtisoslashgan. Yangi ishlab chiqarish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaratish va eksport qilishda ham bu guruhdagi davlatlar katta yutuqlarga erishgan.

18-jadval. ***Osiyodagi yirik industrial-agrar davlatlarning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (2020-y.)***

№	Davlatlar	YIM, milliard AQSH doll.	Jahon davlatlari orasidagi o‘rni	Aholi jon boshiga YIM, AQSH doll.	Jahon davlatlari orasidagi o‘rni
1	Indoneziya	3302	7	12221	103
2	Turkiya	2546	11	30449	51
3	Eron	1326	19	15764	83
4	Pokiston	1209	24	5541	139
5	Vetnam	1061	26	10897	113
6	Filippin	919	29	8452	122

5. Yirik industrial-agrar davlatlar — Indoneziya, Pokiston, Filippin, Vetnam, Turkiya, Eron. Bu davlatlar hududining maydoni va aholisi soni bo‘yicha yirik hisoblanib, katta tabiiy va mehnat resurslari salohiyatiga ega. Bu davlatlarning iqtisodiyoti yengil, oziq-ovqat, tog‘-kon sanoati, mashinasozlik hamda ko‘p tarmoqli qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan. Ushbu davlatlar YIM hajmi bo‘yicha dunyoning yetakchi 30 ta davlati qatoriga kirsa ham aholi jon boshiga hisoblangan ko‘rsatkichlari birmuncha pastroq *(18-jadval).*

6. Neft eksport qiluvchi davlatlar — Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari va Bruney. Bu mamlakatlar hozirgi vaqtda aholi jon boshiga YIM darajasiga ko‘ra nafaqat Osiyo, balki butun jahon miqyosida yetakchi o‘rinlarda turadi. Buning asosiy sababi neftni ko‘plab qazib chiqarish va uni eksport qilish hisobiga tushadigan katta miqdordagi daromad va aholi sonining nisbatan kamligi (Saudiya Arabistonini

hisobga olmaganda). So‘nggi vaqtlarda Fors qo‘ltig‘i arab davlatlarida kimyo, metallurgiya kabi sanoat tarmoqlari, turizm, tranzit savdo, bank-moliya sektori ham yaxshi rivojlanib bormoqda.

7. O‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar. Osiyoda joylashgan sobiq Sovet Ittifoqi respublikalari — Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya hamda 1990-yillarning boshida sotsialistik tuzumdan voz kechgan Mongoliya qit’a mamlakatlarining alohida ijtimoiy-iqtisodiy guruhini tashkil etadi. Bu davlatlar iqtisodiyoti asosan xomashyoni yetkazuvchi tarmoqlarga (neft-gaz sanoati, tog‘-kon sanoati, ko‘p tarmoqli qishloq xo‘jaligi) ixtisoslashgan. Bu guruhdagi davlatlar orasida eng yuqori iqtisodiy ko‘rsatkichlar Qozog‘istonga, eng past darajadagilari esa Qirg‘iziston va Tojikistonga tegishli *(19-jadval).*

19-jadval. ***Osiyoning o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (2020-y.)***

№	Davlatlar	YIM, milliard AQSH doll.	Jahon davlatlari orasidagi o‘rni	Aholi jon boshiga YIM, AQSH doll.	Jahon davlatlari orasidagi o‘rni
1	Qozog‘iston	501	41	26551	59
2	O‘zbekiston	265	61	7821	126
3	Ozarbayjon	146	76	14512	88
4	Turkmaniston	99,7	92	16458	80
5	Gruziya	54,8	108	14754	87
6	Mongoliya	40,5	118	12074	105
7	Armaniston	39,5	120	13323	95
8	Tojikiston	36,8	124	3879	156
9	Qirg‘iziston	32,6	134	5007	148

8. Turizm va xizmatlar sohasiga ixtisoslashgan davlatlar — Kipr, Livan, Maldiv Respublikasi. Bu hududiy jihatdan kichik, boy rekreatsion resurslarga ega davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hozirgi sharoitda turizm hamda xizmatlar sohasi ayniqsa bank-moliya sektori bilan bog‘liqdir.


9. Sust rivojlangan agrar-industrial davlatlar. Bu guruhga Kambodja, Bangladesh, Shri Lanka, Iordaniya, Iroq, Suriya, KXDR kabi davlatlar kiradi. Ular asosan qishloq xo‘jaligi, tog‘-kon, yengil yoki oziq-ovqat sanoatlariga ixtisoslashgan.

10. Iqtisodiyoti eng qoloq agrar davlatlar. Ular Afg‘oniston, Nepal, Yaman, Myanma, Sharqiy Timor, Laos, Butan kabi davlatlardir. Ularda barcha sanoat tarmoqlari juda sust rivojlangan, shuningdek, qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi ancha past.



Savol va topshiriqlar

1. Xitoy va Hindistonning so‘nggi yillarda iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan davlatlarga aylanishida qanday omillarning ahamiyati katta deb o‘ylaysiz? Ushbu davlatlar hozirgi vaqtda YIM hajmi bo‘yicha jahonda yetakchi o‘rinlarda tursa ham iqtisodiy rivojlangan davlatlar guruhiga kiritilmasligiga sabab nima?
2. Quyidagi davlatlar nomini aniqlang va ular orasidan iqtisodiyoti eng qoloq agrar davlatlarni toping. Ushbu davlatlardan qaysilari iqtisodiy taraqqiyoti sustligiga tabiiy sharoiti va relyef tuzilishidagi murakkabliklar katta ta’sir ko‘rsatadi?



3. Nima uchun o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar xo‘jaligi asosan xomashyoni yetkazuvchi tarmoqlarga ixtisoslashgan? Sizningcha, xomashyo eksporti foydaliroqmi yoki ularni qayta ishlab, tayyor mahsulotlarni sotishmi? Fikringizni misollar bilan tushuntiring.
4. Osiyoning turizm va xizmatlar sohasiga ixtisoslashgan davlatlarini xaritadan ko‘rsating. Iqtisodiyotning juda tor ixtisoslashganligi qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin? Nima uchun so‘nggi yillarda turizm eng ko‘p zarar ko‘rgan sohalardan biri bo‘ldi?

34-§. Qozog‘iston Respublikasi

Iqtisodiy geografik o‘rin, keskin kontinental qurg‘oqchil iqlim, mineral resurslar, milliy tarkib, ko‘p tarmoqli sanoat, lalmi va sug‘orma dehqonchilik, donchilik.

Qozog‘iston qanday geografik xususiyatlari bo‘yicha jahon miqyosida ajralib turadi?

Qozog‘iston Respublikasi Markaziy Osiyoda hududiy jihatdan eng yirik davlat bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha jahon mamlakatlari ichida 9-o‘rinni egallaydi. Qozog‘iston beshta davlat — Rossiya, Xitoy, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Turkmaniston bilan chegaradosh. Qozog‘istonning Rossiya bilan chegarasi uzunligi (7548 km) bo‘yicha dunyoda AQSH va Kanada o‘rtasidagi chegaradan keyingi 2-o‘rinda turadi. Janubi-g‘arbda Kaspiy dengizi bilan chegaralanadi.

Qozog‘iston iqtisodiy-geografik o‘rnining asosiy xususiyatlari Osiyo va Yevropa davlatlarini bog‘lovchi temir yo‘l va avtomobil magistrallarining o‘tganligi, katta transport ahamiyatiga ega Kaspiyga tutashligi, Rossiya va Xitoydek yirik davlatlarga chegaradoshligi bilan belgilanadi.

Boshqaruv shakli — prezidentlik respublikasi. Ma’muriy-hududiy jihatdan unitar davlat bo‘lib, 17 ta viloyat va 3 ta respublika ahamiyatidagi shahar (Nur Sulton, Almati (Olmaota), Shimkent (Chimkent))dan iborat. Mamlakat poytaxti — Nur Sulton shahri *(71-rasm).*





Maydoni: **2724,9** ming km²
Aholisi (2020): **18,7** mln
Poytaxti: **Nur Sulton**

Tabiiy sharoiti va resurslari. Qozog‘iston relyefida tekisliklar hukmronlik qiladi, faqat respublikaning janubi-sharqiy qismida tog‘ tizmalari joylashgan, markaziy rayonlari relyefi esa kuchli parchalangan yassitog‘likdan iborat.

Qozog‘iston foydali qazilmalarga dunyodagi eng boy davlatlardan biri hisoblanadi. Neft va tabiiy gazning yirik konlari Kaspiy dengiziga yaqin hududlarda, toshko‘mirning asosiy zaxiralari (Qarag‘anda, Ekibastuz havzalari) esa markaziy mintaqada mujassamlangan. Shuningdek, Qozog‘istonning markaziy va sharqiy viloyatlari temir, marganes, xrom, uran, mis, volfram, rux, qo‘rg‘oshin va boshqa metallarning katta zaxiralariga ega. Noruda mineral boyliklaridan fosforit va oltingugurt alohida e’tiborga loyiq.


Iqlimi mo‘tadil keskin kontinental va qurg‘oqchil, qishda shimoliy hududlarida havo harorati –50 °C dan ham past bo‘ladi. Qurg‘oqchil iqlim tufayli Qozog‘istonning bepoyon tekisliklarida dasht *(72-rasm),* chalacho‘l va cho‘l tabiat zonalari shakllangan. Yog‘inlarning ozligi, hududining aksariyat qismini tekisliklar ishg‘ol qilgani mamlakatning katta qismida suv resurslari tanqisligini keltirib chiqargan. Asosiy daryolari hisoblanadigan Irtish, Ili, Sirdaryo, Ural respublikaning chekka qismlaridan oqib o‘tadi, to‘yinish manbalari esa qo‘shni mamlakatlar hududida joylashgan. Eng katta ko‘llari: Kaspiy, Balxash, Olako‘l, Tengiz, Zaysan.



71-rasm. **Nur Sulton shahri**



72-rasm. **Qozog‘iston dashtlari**



73-rasm. **Qozog‘iston aholisining milliy tarkibi (1.01.2020-y.)**



74-rasm. **Milliy libosdagi qozoqlar**



75-rasm. **Temirtau shahridagi metallurgiya kombinati**

Aholisi. 2020-yil ma’lumotlariga ko‘ra, Qozog‘iston Respublikasi aholisi 18,7 mln kishi. Aholining tabiiy ko‘payishi Markaziy Osiyo davlatlari orasida eng past darajada bo‘lib, yillik hisobda 1,4% ga teng.

Urbanizatsiya darajasi 59% (2020 y.). Mamlakatda hozirgi paytda 3 ta “millioner” shahar mavjud: Almati (Olmaota), Nur Sulton va Shimkent (Chimkent). Yirik shaharlari qatoriga Qarag‘anda, Aktobe, Taraz, Pavlodar va boshqalar ham kiradi.

Qozog‘istonda aholi zichligining o‘rtacha ko‘rsatkichi juda past bo‘lib, 1 km^2 ga 7 kishiga teng. Aholi respublika janubida sug‘orma dehqonchilik rivojlangan daryo vodiylarida va tog‘oldi tekisliklarda hamda mamlakat shimolidagi sanoatlashgan hududlarda birmuncha zichroq joylashgan.

Aholisining milliy tarkibi ancha murakkab *(73-rasm).* Qozoqlar ulushi 68% dan ortiqroq *(74-rasm).* Shuningdek, mamlakatda ruslar, o‘zbeklar, uyg‘urlar, ukrainlar, nemislar va boshqa millat vakillari ko‘p. Ruslar mamlakatning shimoliy va sharqiy hududlarida keng tarqalgan bo‘lsa, o‘zbeklar asosan respublika janubidagi Turkiston va Jambil viloyatlari hamda Chimkent shahrida istiqomat qiladi.

Iqtisodiyoti. Qozog‘iston Markaziy Osiyodagi 5 ta davlat ichida iqtisodiy salohiyati jihatidan yetakchi hisoblanadi. Sanoatining asosiy tarmoqlari qatoriga neft-gaz, ko‘mir, qora va rangli metallurgiya *(75-rasm),* kimyo va mashinasozlik kiradi. Qozog‘iston neft qazish hajmi bo‘yicha jahonning yetakchi 20 ta davlatlari qatoriga, ko‘mir, mis, ruxni qazish hajmi bo‘yicha esa birinchi o‘ntalikka kiradi. Ayniqsa, hozirda uranni qazib chiqarishda Qozog‘istonning dunyodagi ahamiyati yuqori, chunki u 2009-yildan buyon ushbu sohada jahonda birinchi o‘rinni egallab kelmoqda va jami qazib olinayotgan uranning 40% igacha qismini ta’minlamoqda. Elektr energiyasining 90% idan ortiq qismi IESlarda ishlab chiqariladi.

Dehqonchilikning yetakchi tarmog‘i donchilik. U ayniqsa mamlakatning shimoliy viloyatlaridagi lalmi yerlarda yaxshi rivojlangan. Janubiy viloyatlarida dehqonchilik sug‘orish yordamida rivojlantirilib, bu yerda uning asosiy tarmoqlari sabzavotchilik, sholichilik, polizchilik va bog‘dorchilik hisoblanadi. Chorvachilikning yetakchi tarmoqlari: qo‘ychilik, qoramolchilik, yilqichilik, tuyachilik.

Savol va topshiriqlar

1. Qozog‘iston iqtisodiy-geografik o‘rnini Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan solishtiring. Bu borada Qozog‘istonning ustun jihatlarini izohlang.
2. Qozog‘istonning Markaziy Osiyo davlatlari ichida iqtisodiy salohiyati jihatdan yetakchi ekanligini izohlang. Bunda uning iqtisodiy-geografik o‘rni va tabiiy boyliklari, xususan, mineral resurslari qanday ahamiyatga ega? Mineral resurslarning juda yirik zaxiralariga ega bo‘lgan hamda iqtisodiyotida mineral xomashyoni qayta ishlash va eksport qilish muhim ahamiyat kasb etadigan davlatlarga misollar keltiring.
3. O‘zbeklar Qozog‘istonning qaysi qismida keng tarqalgan? Ruslar-chi? Nimaga? Qozog‘iston aholisi zichligining o‘ta past bo‘lishi sababini tushuntiring.
4. Qozog‘iston sanoatining asosiy tarmoqlariga nimalar kiradi? Mamlakat elektr energetikasida IESlar salmog‘i yuqori ekanining asosiy sababi nima?
5. O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi iqtisodiy-ijtimoiy hamkorlik aloqalarining istiqbollarini qanday baholaysiz? O‘zbekiston qanday sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda va qishloq xo‘jaligi ekinlarining qaysi turlarini yetishtirishda Qozog‘istondan nisbiy ustunlikka ega? O‘z navbatida, O‘zbekiston Qozog‘iston uchun qanday mahsulotlarni import qilishda qulay hamkor hisoblanadi? Fikringizni asoslang.



Tyanshan tog‘lari, tog‘ oralig‘idagi vodiylar, tog‘-kon sanoati, Qumtor koni, gidro energetika, tog‘-yaylov chorvachiligi, turizm, Issiqko‘l.

Qirg‘iz Respublikasi hududidagi qanday yirik tog‘, daryo, ko‘l va suv omborlarini bilasiz?





Maydoni: **199,9** ming km²
Aholisi (2020): **6,6** mln
Poytaxti: **Bishkek**

35-§. Qirg‘iz Respublikasi

Qirg‘iz Respublikasi (Qirg‘iziston) Yevrosiyo materigining o‘rta qismida asosan Tyanshan tog‘li o‘lkasi hududida joylashgan. Dunyo okeaniga chiqish imkoniyatiga ega emas. Shimolda Qozog‘iston, g‘arbda O‘zbekiston, janubda Tojikiston, sharqda Xitoy bilan chegaradosh.

Mamlakatning iqtisodiy-geografik o‘rni ancha noqulay hisoblanadi, chunki xalqaro ahamiyatga ega transport magistrallari uning hududidan deyarli o‘tmaydi. Bu holat Qirg‘izistonning murakkab relyef sharoiti bilan bog‘liq.

Qirg‘iziston 2021-yili prezidentlik respublikasi boshqaruv shakliga o‘tdi. Ma’muriy-hududiy tuzilishi 7 ta viloyat va 2 ta respublika ahamiyatidagi shahar (Bishkek va O‘sh) dan iborat. Poytaxti — Bishkek shahri mamlakatning shimolida, Chuy daryosi vodiysida joylashgan.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Qirg‘iziston tabiatining asosiy xususiyatlari uning tog‘liligi bilan bog‘liq *(76-rasm).* Mamlakat hududining deyarli 90% i tog‘ tizmalari bilan band. Qirg‘izistonning Xitoy bilan chegarasida Tyanshanning eng baland tog‘i — G‘alaba cho‘qqisi joylashgan, u mamlakatning eng baland nuqtasi hisoblanadi.

Qirg‘izistonning asosiy yer osti boyliklari oltin, surma, simob, volfram, uran, qalayidan iborat. Mamlakat yoqilg‘i zaxiralari bilan past darajada ta’minlangan hamda tegishli ehtiyojlarini import hisobiga qondiradi.

Tyanshan tog‘larida yirik muzliklarning mavjudligi hisobiga Qirg‘iziston suv-energetika resurslari bilan yaxshi ta’minlangan. Eng katta daryolari Norin *(77-rasm)*, Chuy va Talas. Eng katta ko‘li — Qirg‘iziston va uning xalqi uchun beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan Issiqko‘ldir.

Aholisi. Qirg‘iziston Markaziy Osiyoda aholi tabiiy ko‘payishining nisbatan yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Bu ko‘rsatkich mamlakatda yillik hisobda 2,2% ga teng. Migratsiya saldosi -0,1% ni tashkil etadi.


Aholisining 34% igina shaharlarda istiqomat qilib, deyarli ⅔ qismi qishloq aholisidan iborat. Mamlakatning eng yirik shahri — Bishkekning aholisi soni 2020-yil boshida 1 mln 50 ming kishidan ortiq bo‘lgan. Yirikligi jihatidan ikkinchi shahar hisoblanadigan O‘shda 280 mingdan ko‘proq aholi yashaydi *(78-rasm).*



76-rasm. **Qirg‘iziston hududining kosmik fotosurati**



77-rasm. **Norin daryosi**



78-rasm. **O‘shdagi Sulaymontog‘ ziyoratgohi**



79-rasm. **Qirg‘izlar**

Aholisining milliy tarkibida qirg‘izlarning ulushi 75% ni tashkil etadi *(79-rasm)*. Mamlakat aholisining 15% ga yaqin qismi o‘zbeklardan iborat bo‘lib, ular asosan Qirg‘izistonning respublikamizga qo‘shni janubiy hududlarida istiqomat qiladi. Shuningdek, ruslar, dunganlar, uyg‘urlar va tojiklar ham aholining etnik tarkibida muhim o‘ringa ega.

Qirg‘iziston aholisi tog‘li relyef sharoitida juda notekis joylashgan bo‘lib, aksariyat qismi tog‘ oralig‘idagi vodiy va botiqlarda jamlangan. Aholi eng zich ravishda Farg‘ona va Chuy vodiylarida yashaydi. Bu holat o‘sha hududlarning dehqonchilik uchun qulay tabiiy sharoiti bilan bog‘liq.

Iqtisodiyoti. Qirg‘iziston iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi sanoatga nisbatan ko‘proq ahamiyatga ega bo‘lgani uchun agrar-industrial davlat hisoblanadi.



80-rasm. **Issiqko‘l**


Sanoati hozirgi vaqtda asosan tog‘-kon tarmog‘iga ixtisoslashgan. Eng muhim sanoat mahsuloti oltin hisoblanadi va u mamlakat eksportida eng katta ulushga ega. Qirg‘iziston sobiq Ittifoq davlatlari orasida oltin qazib olish hajmi bo‘yicha Rossiya va O‘zbekistondan keyingi 3-o‘rinda turadi. Oltin asosan Markaziy Tyanshanning baland tog‘larida joylashgan Qumtor konidan qazib olinadi. Qumtor dunyodagi 10 ta eng yirik oltin konlaridan biri hisoblanadi. Sanoatning boshqa tarmoqlaridan yengil, oziq-ovqat va mashinasozlik sanoatlari katta ahamiyatga ega. Qirg‘izistonda elektr energetika asosan GESlarga tayanadi. Eng yirik GESlar Norin daryosida qurilgan.

Asosiy qishloq xo‘jalik ekinlari qatoriga bug‘doy, paxta, kartoshka, sabzavot, kungaboqar, tamaki kiradi. Dehqonchilik tog‘ oralig‘idagi vodiylarida rivojlangan. Qirg‘iziston tog‘lari serhosil yaylovlarga boy bo‘lganligi tufayli respublikada chorvachilikning qo‘ychilik, echkichilik, qoramolchilik, yilqichilik singari tarmoqlari yaxshi rivojlangan.

Mamlakat iqtisodiyotida turizm ham muhim ahamiyatga ega. Respublikaga yiliga 3 mlndan ortiq xorijiy sayyohlar tashrif buyuradi. Ularning asosiy qismi Issiqko‘l atrofida dam olish uchun keladi *(80-rasm)*.

Savol va topshiriqlar

1. Qirg‘izistonning iqtisodiy-geografik o‘rni qanday baholanadi? Uning salbiy jihatlariga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi? Sizningcha, uning YIM hajmi bo‘yicha dunyodagi yetakchi davlat — Xitoy bilan qo‘shni ekani qanday iqtisodiy ahamiyat kasb etadi?
2. Quyidagilar orasidan Qirg‘izistonning asosiy yer osti boyliklari qatoriga kiradigan foydali qazilmalarni anglatuvchi shartli belgilarni toping.



3. Nima uchun Qirg‘iziston elektr energetikasida GESlarning ahamiyati yuqori? Bunday manbalardan elektr energiyasi olish iqtisodiy va ekologik jihatdan qanday afzalliklarga ega? GESlar hisobiga elektr energiyasining asosiy qismini hosil qiladigan yana qaysi davlatlarni bilasiz?
4. Qirg‘izistonda qishloq xo‘jaligining rivojlanishi va uning hududiy tarkibiga mamlakatning relyef sharoiti qanday ta’sir ko‘rsatadi? Mamlakatimiz va Qirg‘iziston qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlarini solishtirib, umumiy jihatlari va farqli tomonlarini aniqlang.
5. Qirg‘iziston va Qozog‘istonning tabiiy sharoiti va resurslarini solishtirib, tabiiy geografik tafovutlari iqtisodiyotning rivojlanishi va ixtisoslashuviga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlang.
6. Qirg‘iziston aholisi sonidan kelib chiqib, ushbu mamlakatga tashrif buyuruvchi turistlar sonini qanday baholash mumkin? O‘zbekistonliklar uchun Qirg‘izistonga sayohat qilishning qanday qulayliklari bor deb hisoblaysiz? Sayohat uchun bu mamlakatni tanlagan bo‘lar edingizmi?



36-§. Turkmaniston Respublikasi

Kaspiy dengizi, Qoraqum cho‘li, Kopetdog‘, yoqilg‘i resurslari, Qoraqum kanali, axalteki otlari, “Avaza” turistik zonasi.

Turkmaniston Markaziy Osiyoning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan. Shimolda Qozog‘iston, shimoli-sharqda O‘zbekiston, janubi-sharqda Afg‘oniston, janubda Eron bilan chegaradosh. G‘arbda Kaspiy dengiziga tutash.

Turkmanistonning iqtisodiy-geografik o‘rni qulay hisoblanadi, chunki respublika hududidan Markaziy va Janubi-g‘arbiy Osiyo mamlakatlarini bog‘lovchi temir yo‘l va avtomobil magistrallari o‘tgan. Shuningdek, Kaspiy dengizi orqali Turkmaniston Rossiya va Kavkaz davlatlari bilan bog‘langan.

Turkmaniston — prezidentlik respublikasi. Ma’muriy-hududiy jihatdan 5 ta viloyat va 1 ta respublika ahamiyatidagi shahardan iborat. Davlat poytaxti Ashxobod shahri mamlakat janubida, Kopetdog‘ tog‘ tizmasi etagida joylashgan *(81-rasm)*.





Maydoni: **491,2** ming km²
Aholisi (2020): **6** mln
Poytaxti: **Ashxobod**

Tabiiy sharoiti va resurslari. Turkmaniston hududini asosan keng tekisliklar ishg‘ol etadi va uning 80% idan ortig‘i Qoraqum cho‘liga to‘g‘ri keladi *(82-rasm)*. Tog‘lar faqat chegarabo‘yi janubiy va sharqiy hududlarida joylashgan. Janubiy tog‘ va tog‘ oldi hududlari seysmikligi bilan ajralib turadi. Ashxobod shahrida 1948-yilda sodir bo‘lgan zilzila mintaqada XX asr mobaynida ro‘y bergan eng falokatli zilzilalardan biri hisoblanadi.

Turkmanistonning eng muhim mineral boyliklari tabiiy gaz, neft va turli kimyoviy tuzlardan iborat. Turkmaniston tabiiy gaz zaxiralari bo‘yicha jahon mamlakatlari orasida 4-o‘rinda turadi.

Cho‘lli tekisliklar katta maydon egallagani uchun Turkmaniston suv resurslariga boy emas. Respublikadagi eng yirik suv manbai Amudaryo hisoblanadi. Amudaryodan to‘yinadigan Qoraqum kanali (Qoraqumdaryo) dunyodagi eng yirik sug‘orish kanalidir.



81-rasm. **Turkmaniston poytaxti — Ashxobod shahri**



82-rasm. **Turkmaniston hududining kosmik surati**

Aholi. Turkmaniston aholi soni jihatidan Markaziy Osiyoda oxirgi o‘rinni egallaydi. Mamlakatda aholi tabiiy ko‘payishi yillik hisobda 1,6% ga teng. Markaziy Osiyo davlatlaridan faqat Qozog‘istonda bu ko‘rsatkich biroz pastroq darajada kuzatilmoqda. Migratsiya balansi salbiy bo‘lib,–0,1% ga teng.

Turkmaniston aholisining 52% i shahar joylarida istiqomat qiladi. Ashxobod shahri aholisi 1 mln kishidan ortiq. Poytaxtdan tashqari, Turkmanobod, Dashog‘uz, Mari, Turkmanboshi shaharlari respublikaning eng katta shaharlari hisoblanadi.

Turkmaniston va O‘zbekiston tabiiy sharoitining o‘xshash jihatlari nimalardan iborat?



83-rasm. **Turkmanlar**

Aholining milliy tarkibida turkmanlarning ulushi 85% dan yuqori bo‘lib *(83-rasm),* aholining 10% ga yaqin qismini o‘zbeklar tashkil qiladi. O‘zbeklar asosan mamlakatimiz bilan chegaradosh bo‘lgan Dashog‘uz va Lebap viloyatlarida yashaydi.

Aholi joylashuvi mamlakatning tabiiy geografik xususiyatlari bilan belgilanadi. Aholi asosan Amudaryo, Murg‘ob va Tajan daryolarining vodiylarida, Kopetdog‘ etagidagi tekislikda va Kaspiy sohilida istiqomat qiladi.

Iqtisodiyoti. Turkmaniston iqtisodiyotining asosini yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati tashkil etadi. Turkmaniston tabiiy gazni qazish va eksport qilish bo‘yicha jahonning yetakchi 10 ta mamlakati qatoriga kiradi. Gaz sanoati davlat byudjeti uchun eng katta daromad manbaidir. Neft va neftni qayta ishlash sanoati ham Turkmanistonda yaxshi rivojlangan. Yoqilg‘i resurslari bilan yaxshi ta’minlangani va suv resurslarining taqchilligi tufayli respublikada elektr energiyasi faqat IESlarda ishlab chiqariladi. Turkmaniston kimyo sanoati mineral o‘g‘itlar, mirabilit, oltingugurt, yod va boshqa mahsulotlarni katta hajmda ishlab chiqaradi. Shuningdek, Turkmanistonda to‘qimachilik, tikuvchilik, gilamdo‘zlik sanoati ham ancha yaxshi rivojlangan bo‘lib, mamlakatning xalqaro ixtisoslashuviga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari donchilik, paxtachilik (xususan, qimmatbaho ingichka tolali navlar yetishtiriladi), uzumchilik, qorako‘lchilik, yilqichilik, tuyachilik hisoblanadi. Turkmanistonda boqiladigan Axalteki zotli otlari butun dunyoga mashhur bo‘lib, turkmanlarning ramzi va faxridir *(84-rasm).* Hatto respublika gerbida ham axalteki oti tasvirlangan.

Turkmanistonda turizmni rivojlantirishga ham katta e’tibor berilmoqda. Jumladan, so‘nggi yillarda Kaspiy dengizi sohilida “Avaza” yirik turistik zonasi barpo etildi *(85-rasm).*



84-rasm. **Axalteki oti**



85-rasm. **“Avaza” turistik zonasi**

Savol va topshiriqlar

1. Turkmaniston va Qirg‘izistonning geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslarini taqqoslab, asosiy farqlarini aniqlang. Nima sababdan Turkmanistonning iqtisodiy-geografik o‘rni qulayroq hisoblanadi? Uning geografik o‘rni va xo‘jaligiga Kaspiy dengizi qanday ta’sir ko‘rsatadi?

2 Turkmaniston tabiiy sharoitining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Mamlakat iqtisodiy salohiyati va xo‘jalik ixtisoslashuvida uning tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari qanday ahamiyat kasb etadi?

3 Nima sababdan Turkmaniston maydoni bo‘yicha Markaziy Osiyoda ikkinchi o‘rinda tursa ham aholi soni bo‘yicha so‘nggi o‘rinni egallaydi? Mamlakat aholisining joylashuvida qanday omillarning ta’siri katta?


4 Turkmanistonda turizmni rivojlantirishga katta e’tibor berilayotganining sababi nimada deb o‘ylaysiz? Mamlakatimiz va Turkmanistonning rekreatsion resurslari va turizmni rivojlantirish istiqbollarini taqqoslang. Kelajakda ikki davlat o‘rtasida o‘zaro sayyohlik aloqalarini yuksaltirish imkoniyatlarini qanday baholaysiz?



Iqtisodiy geografik o‘rin, Pomir tog‘lari, suv va gidro energetika resurslari, Sarez ko‘li, tog‘ oralig‘idagi vodiylar, yer resurslari, rangli metallurgiya.

Tojikiston geografik sharoiti jihatidan Markaziy Osiyodagi boshqa qaysi davlatga o‘xshaydi?





Maydoni: **141,4** ming km²
Aholisi (2020): **9,4** mln
Poytaxti: **Dushanbe**

37-§. Tojikiston Respublikasi

Tojikiston Respublikasi Markaziy Osiyoning janubi-sharqida, Hisor-Oloy va Pomir tog‘lari hududida joylashgan. Shimolda Qirg‘iziston, shimoli-g‘arb va g‘arbda O‘zbekiston, janubda Afg‘oniston, sharqda Xitoy bilan chegaradosh.


Geografik o‘rni bevosita Dunyo okeaniga chiqish imkoniyatining yo‘qligi, baland tog‘ tizmalari sharoitida quruqlik transportini rivojlantirishning ancha murakkabligi, harbiy-siyosiy vaziyati notinch bo‘lgan Afg‘oniston bilan qo‘shniligi hisobiga ancha noqulay hisoblanadi.

Boshqaruv shakli jihatidan Tojikiston prezidentlik respublikasidir. Ma’muriy-hududiy tuzilishi 2 ta viloyat, 1 ta muxtor viloyat (Tog‘li Badaxshon), respublikaga bo‘ysunuvchi 1 ta shahar (Dushanbe) va 13 ta tumandan iborat. Poytaxti — Dushanbe shahri mamlakatning janubi-g‘arbidagi Hisor vodiysida joylashgan *(86-rasm).*

Tabiiy sharoiti va resurslari. Tojikiston tog‘li mamlakat hisoblanadi. Hududining 90% idan ko‘prog‘ini baland tog‘ tizmalari egallaydi. Sharqida o‘rtacha balandligi 4000 metrdan yuqori bo‘lgan Pomir tog‘ o‘lkasi joylashgan. Eng baland nuqtasi Ismoil Somoniy cho‘qqisi — 7495 m., *(87-rasm).* Seysmik jihatdan faol mintaqada joylashgani bois respublikada kuchli zilzilalar sodir bo‘lib turadi.

Tojikiston zamini turli ma’dan zaxiralariga boy. Xususan, respublika hududida uran, oltin, kumush, surma, polimetall rudalarining yirik konlari mavjud. Ammo Tojikiston yoqilg‘i-energetika resurslariga boy emas.

Tojikiston Respublikasi suv va gidro energetika resurslari bilan eng yaxshi ta’minlangan davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakat hududidan Panj, Vaxsh, Sirdaryo, Zarafshon kabi daryolar oqib o‘tadi. Qorako‘l, Sarez, Iskandarko‘l respublikaning eng katta ko‘llaridir. Ulardan ayniqsa Pomirda joylashgan, 1911-yili kuchli zilzila natijasida Murg‘ob daryosi o‘zanida vujudga kelgan yirik to‘g‘onli ko‘l — Sarez ko‘li mashhur.



86-rasm. **Dushanbe shahri**



87-rasm. **Ismoil Somoniy cho‘qqisi**

Aholisi. Tojikiston Qirg‘iziston singari Markaziy Osiyo davlatlari orasida aholining yuqori tabiiy o‘sish sur’atlari (yiliga 2,2%) bilan ajralib turadi.

Shuningdek, Tojikiston mintaqadagi shahar aholisining ulushi eng past bo‘lgan davlat hisoblanadi (26%, 2020-y.). Poytaxt aholisi 850 ming kishidan ortiq. Katta shaharlar toifasiga Xo‘jand, Boxtar (sobiq Qo‘rg‘ontepa) va Ko‘lob shaharlari mansub.

Aholisining 85% ga yaqin qismini tojiklar tashkil qiladi *(88-rasm)*. Aholining milliy tarkibida ikkinchi o‘rinda Tojikistondagi umumiy soni 1 mln kishidan ortadigan o‘zbeklar turadi. Ular asosan O‘zbekiston bilan chegaradosh rayonlarda istiqomat qiladi. Tog‘li Badaxshon muxtor viloyatida tojiklar bilan birga ularga qardosh bo‘lgan bir guruh mahalliy kichik millatlar (vaxanlar, rushanlar, ishkashimlar, yozg‘ulamlar va boshqalar) vakillari hamda qirg‘izlar yashaydi.


Tog‘li relyef sharoiti tufayli dehqonchilik uchun qulay yerlarning yetishmovchiligi aholi asosiy qismining tog‘ oralig‘idagi vodiy va botiqlarda mujassamlashuviga olib kelgan. Aholisining yuqori zichligi bilan mamlakat shimolidagi Farg‘ona vodiysi, janubi-g‘arbida joylashgan Hisor hamda Vaxsh vodiylari alohida ajralib turadi. Pomir tog‘larida esa aholi daryo vodiylari va tog‘ yonbag‘irlaridagi mayda qishloqlarda siyrak holda joylashgan.



88-rasm. **Milliy liboslardagi tojiklar**

Iqtisodiyoti. Tojikiston Respublikasiga Markaziy Osiyo davlatlari orasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning nisbatan past ko‘rsatkichlari xos bo‘lib, iqtisodiyoti agrar-industrial yo‘nalishga ega.

Mamlakat sanoatining yetakchi tarmoqlari tarkibiga rangli metallurgiya, tog‘-kon, kimyo, qurilish materiallari va yengil sanoat kiradi. Mamlakatning eng katta sanoat korxonasi Tursunzoda shahridagi Tojikiston alyuminiy zavodi hisoblanadi *(89-rasm)*. Bu korxona Rossiyadan keltiriladigan xomashyo asosida yirik GESlar ishlab chiqaradigan elektr energiyadan foydalangan holda faoliyat ko‘rsatadi. Alyuminiy Tojikiston eksporti tarkibida yetakchi o‘ringa ega. Tojikiston elektr energetikasi Qirg‘iziston singari GESlarga asoslangan. Eng yirik GESlar Vaxsh daryosida barpo qilingan va ular orasida Norak GESi alohida iqtisodiy ahamiyatga ega *(89-rasm)*. Yengil sanoat tarmoqlari orasida to‘qimachilik sanoati muhim o‘rin tutadi.





89-rasm. **Tojikistonning muhim iqtisodiy obyektlari — Tursunzoda shahridagi Tojikiston alyuminiy zavodi va Vaxsh daryosidagi Norak GESi**

Tojikistonda dehqonchilikning asosiy tarmoqlari: donchilik, paxtachilik, bog‘dorchilik va uzumchilik. Paxta va turli mevalar respublikaning muhim eksportbop mahsulotlari qatorida turadi. Sug‘orma dehqonchilik tog‘ oralig‘idagi vodiylarda yaxshi rivojlangan, ammo hududining aksariyat qismini tog‘lar egallagani hamda aholi zichligining yuqoriligi haydaladigan maydonlarning taqchilligini keltirib chiqarmoqda. Tog‘-yaylov chorvachiligi qoramolchilik va qo‘ychilikka ixtisoslashgan. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari ichida pillachilik ham katta ahamiyatga ega.

Savol va topshiriqlar

1. Tojikiston iqtisodiy-geografik o‘rnining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat? Uning geografik o‘rni Markaziy Osiyoning qaysi davlati bilan ko‘p jihatdan o‘xshashliklarga ega?
2. Tojikistonda aholining hududiy joylashuviga katta ta’sir ko‘rsatadigan omillarni izohlang. Mamlakatda yer resurslari taqchilligi qanday muammolarni yuzaga keltiradi? Sizningcha, bunday muammolarni qanday hal qilish mumkin?
3. Tojikistonning Markaziy Osiyoda urbanizatsiya darajasi eng past davlat ekanligiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan deb hisoblaysiz? Turli mamlakatlarda ushbu ko‘rsatkichning yuqori yoki past bo‘lishi ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan qanchalik aloqador? Sizningcha, shahar aholisi salmog‘ining o‘sib borishi mamlakat taraqqiyotida qanday ahamiyat kasb etadi?
4. Tojikistonda alyuminiy rudalari qazib olinmasa ham yirik alyuminiy zavodi mavjudligining asosiy iqtisodiy-geografik omilini izohlang. Mazkur zavod qaysi hududda atmosfera havosining ifloslanishi bilan bog‘liq ekologik muammolar yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan? Atrof-muhitni yuqori darajada ifloslaydigan sanoat korxonalarini joylashtirishda qanday omillarni e’tiborga olish zarur?
5. Quyidagi geografik nomlar qanday geografik obyektlarga tegishli ekanligini topib, daftaringizga jadval shaklida yozib oling.

Zarafshon, Xo‘jand, Pomir, Qorako‘l, Dushanbe, Panj, Ko‘lob, Vaxsh, Sarez, Sirdaryo, Boxtar, Hisor-Oloy

Tog‘	Daryo	Ko‘l	Shahar
... ...	... ...	... ...	... ...



38-§. Amaliy mashg‘ulot
Markaziy Osiyo mamlakatlarining qiyosiy geografik tavsifi

1. Darslik va atlasdagi Markaziy Osiyo davlatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanib daftaringizda quyidagi ko‘rinishdagi jadvalni to‘ldiring:

Markaziy Osiyo davlatlariga qiyosiy geografik tavsif

Geografik tavsiflar	Qozog‘iston	Qirg‘iziston	Turkmaniston	Tojikiston
Iqtisodiy geografik o‘rni: qulay va noqulay jihatlari				
Maydoni (ming km^2)				
Aholisi (mln kishi)				
Aholisi zichligi ($kishi/km^2$)				
Aholisi joylashuvining xususiyatlari				
Relyefi				
Asosiy foydali qazilmalari				
Suv resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi va asosiy manbalari				
Elektr stansiyalarning asosiy turi				
Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari				
Sanoatining asosiy tarmoqlari				

2. Qirg‘iziston va Tojikiston geografik sharoitining umumiy xususiyatlarini aniqlang va sabablarini tushuntiring.

3. Qozog‘iston va Turkmanistonning o‘xshash jihatlarini aniqlang va izohlang.


4. Markaziy Osiyo mamlakatlarini qanday ikkita guruhga ajratish mumkin? Fikringizni asoslang.

5. Markaziy Osiyo davlatlari geografik sharoitining o‘zaro to‘ldiruvchi jihatlarini ko‘rsating hamda subregion mamlakatlari o‘zaro hamkorligining zarurati va muhim yo‘nalishlarini asoslang.

Qulay iqtisodiy-geografik o‘rin, tog‘li relyef, subtropik iqlim, industrial-agrar iqtisodiyot, rekreatsion resurslar, xalqaro turizm.

Nima sababdan Turkiya Yevrosiyodagi davlatlarning transport va savdo aloqalarida muhim o‘rin tutadi?





Maydoni: **783,6** ming km²
Aholisi (2020): **83,7** mln
Poytaxti: **Anqara**

39-§. Turkiya Respublikasi

Turkiya Respublikasining eng muhim o‘ziga xos jihatlaridan biri — uning geografik o‘rni. Hududining 97% i Janubi-g‘arbiy Osiyoda, 3% qismi esa Sharqiy Yevropada joylashgan. Osiyodagi hududi asosan Kichik Osiyo yarimoroliga to‘g‘ri keladi, Yevropa qismi esa Bolqon yarimorolida joylashgan bo‘lib, Sharqiy Frakiya deb ataladi. Turkiya Respublikasining turli qit’alarda joylashgan qismlarini Qora va O‘rta dengizlarini o‘zaro bog‘laydigan Marmar dengizi, Bosfor va Dardanell bo‘g‘izlari ajratib turadi. Mamlakat qirg‘oqlari shimoldan Qora dengiz, g‘arbdan Egey dengizi, janubdan O‘rta dengiz suvlari bilan yuviladi.

Mamlakat iqtisodiy-geografik o‘rnining qulayligi uning bir nechta dengizga tutashligi, hududidan Yevropa va Osiyoni, O‘rta va Qora dengiz havzalarini bog‘laydigan xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan transport yo‘llarining o‘tganligi bilan belgilanadi.

Turkiya unitar tuzilishga ega bo‘lgan prezidentlik respublikasi. Poytaxti — Anqara shahri. Eng katta shahri esa Bosfor bo‘g‘izi qirg‘oqlarida joylashgan, o‘zining bir necha asrlik mashhur tarixiga ega Istanbuldir. Istanbul aholisi 13 mln kishidan ortiq bo‘lib, Yevrosiyodagi eng yirik shaharlardan biri hisoblanadi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Relyefi asosan tog‘li bo‘lib, katta qismini Kichik Osiyo va Armaniston tog‘liklari, Tavr hamda Pont tog‘lari egallaydi. Tekisliklar ko‘proq dengizlar bo‘yida uchraydi. Turkiya hududi yuqori seysmiklik bilan tavsiflanadi. Xrom, simob, volfram rudalarining zaxiralari bilan dunyo miqyosida alohida ajralib turadi.

Iqlimi subtropik bo‘lib, dengizga tutash hududlarida sernam, yumshoq, mamlakatning markaziy va sharqiy hududlarida esa quruq va keskin, ya’ni yozi issiq, qishi ancha sovuq. Relyefi tog‘li bo‘lgani tufayli Turkiya suv va gidro energetika resurslariga boy *(90-rasm)*. Eng yirik daryolari Frot, Dajla, Qizilirmoq, eng katta ko‘llari esa Van hamda Tuz ko‘llaridir.

Aholisi. Aholi soni jihatidan Turkiya Respublikasi dunyoning birinchi yigirmataligiga kiradi. 2020-yil ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakat aholisi 83 mln kishidan ortiq. Aholining yillik ko‘payishi hozirgi paytda 1,2%, lekin tug‘ilish darajasi jahon va Osiyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlardan pastroq.

Urbanizatsiya darajasi 76% ga teng (2020-y.). Yirik shaharlari qatoriga Istanbul va Anqaradan tashqari, Izmir, Bursa, Adana, Gaziantep, Antalya va boshqalar mansub. Yirik shaharlarining aksariyati g‘arbiy va janubiy dengizbo‘yi hududlarida joylashgan.




90-rasm. **Frot daryosidagi GES to‘g‘oni**

Aholisining etnik tarkibida turklar ko‘pchilikni tashkil etadi (75% dan ortiq). Jami aholining 15% idan ko‘proq qismini tashkil etadigan kurdlar mamlakat janubi-sharqida istiqomat qiladi. Asosiy din islom hisoblanadi.

Aholi Turkiya hududi bo‘ylab ancha notekis joylashgan *(91-rasm)*. Mamlakatning Marmar dengiziga tutash shimoli-g‘arbiy qismida aholi zichligi juda yuqori. Jumladan, mamlakat aholisining ⅕ qismi Sharqiy Frakiyada istiqomat qiladi. Markaziy va sharqiy tog‘li hududlarida aholi ancha siyrak. Bunday tafovutlarga hududlarning tabiiy sharoiti va iqtisodiy-

geografik o‘rnining qulayligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasidagi farqlar katta ta’sir ko‘rsatgan.



91-rasm. **Turkiya aholisi zichligi (kishi/km²)**

Iqtisodiyoti. Turkiya YIM hajmi bo‘yicha dunyoning yetakchi 15 ta davlati qatoridan joy olgan bo‘lib, yirik sanoat va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga ega. Sanoatining xalqaro ixtisoslashuvini to‘qimachilik, tikuvchilik, charm-poyabzal, avtomobilsozlik, elektrotexnika, kon-metallurgiya, qurilish materiallari, oziq-ovqat, farmatsevtika kabi tarmoqlari belgilaydi. Bunday ixtisoslashuv mehnat resurslari, xomashyo, tashqi savdo aloqalari va transport omillari ta’sirida shakllangan. Sanoat mamlakatning g‘arbida yaxshi rivojlangan bo‘lsa, uning ichki hududlari agrar iqtisodiyotga ega.

Agroiqlimiy va suv resurslariga boy Turkiya turli qishloq xo‘jalik mahsulotlarini (meva, yong‘oq, uzum, sabzavot, choy, shakarqamish, zaytun, tamaki, paxta) yetishtirish bo‘yicha jahon miqyosida alohida ajralib turadi. Dunyo mamlakatlari orasida agrar mahsulotlarining eng yirik eksportyorlaridan biridir.


Turkiya hududi tabiiy va tarixiy-madaniy rekreatsion resurslarga, noyob yodgorliklarga boy *(92-rasm)* bo‘lib, uning iqtisodiyotida turizm katta ahamiyatga ega. Mamlakat eng ko‘p xorijiy sayyohlarni qabul qiladigan jahonning yetakchi 10 ta davlatidan biridir.



92-rasm. **Turkiyaning mashhur tarixiy yodgorliklari: Istanbuldagi Ayo Sofiya majmuasi (chapda) va Izmir yaqinidagi qadimgi Efes shahri vayronalari (o‘ngda)**

Savol va topshiriqlar

1. Turkiya iqtisodiy-geografik o‘rnining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Mazkur omil mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Shu kabi juda qulay iqtisodiy-geografik o‘ringa ega bo‘lgan mamlakatlarga misollar keltiring va ularni xaritadan ko‘rsating.
2. Turkiyaning tabiiy sharoiti aholi joylashuvi va xo‘jalik ixtisoslashuviga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Nima uchun mamlakatning shimoli-g‘arbiy qismida aholi juda zich joylashgan? Sanoat Turkiyaning ko‘proq qaysi hududlarida rivojlangan? Nega?
3. Turkiya aholisining milliy tarkibi qaysi diagrammada to‘g‘ri aks ettirilganini toping.



4. Ma’lumki, Turkiya yengil sanoat mahsulotlari, birinchi navbatda, to‘qimachilik va tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilishda alohida ajralib turadi. Sizningcha, bunday natijaga erishishda qanday omillar muhim rol o‘ynaydi? Mamlakatimizda Turkiya mahsulotlariga talab qay darajada deb o‘ylaysiz?
5. Turkiyada xalqaro turizmning yuqori darajada rivojlanganligi qanday omillar bilan bog‘liq? O‘zbekistonliklar uchun Turkiyaga sayohat qilishning qanday afzalliklari bor deb o‘ylaysiz? O‘z navbatida, turkiyaliklarni Markaziy Osiyo davlatlariga, jumladan, O‘zbekistonga sayohat qilishga chorlovchi qanday muhim omillar mavjud?
6. Qo‘shimcha manbalar asosida O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalarining asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida ma’lumotlar yig‘ing va axborot tayyorlang.



40-§. Amaliy mashg‘ulot
Eron, Afg‘oniston va Pokistonning qiyosiy geografik tavsifi

ERON





Maydoni: **1648** ming km²
Aholisi (2020): **84,2** mln
Poytaxti: **Tehron**

Eron qirg‘oqlari janubda Arabiston dengizi va Fors qo‘ltig‘i, shimoli-g‘arbda Kaspiy dengizi suvlari bilan yuviladi. iqtisodiy-geografik o‘rni Janubi-g‘arbiy, Janubiy va Markaziy Osiyo davlatlarini bog‘laydigan transport yo‘llari o‘tgani hisobiga qulay.


Eronning davlat tuzumi islom respublikasidir. Davlat boshlig‘i — Oliy rahbar, shia musulmonlarining oliy martabali ruhoniysi (Oyatullo). Prezident esa davlatdagi ikkinchi shaxs hisoblanadi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Eron hududining relyefi bir nechta tog‘ tizmalari va ular orasidagi botiqlardan iborat *(93-rasm)*. Mamlakat mineral boyliklari orasida yirik neft va gaz zaxiralari eng katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Neft va gaz konlari asosan Fors qo‘ltig‘i va Kaspiy dengiziga yaqin hududlarda joylashgan. Iqlim Shimoli-g‘arbiy hududlarida yumshoq va nam subtropik, markaziy va sharqiy hududlarida quruq subtropik, Fors qo‘ltig‘i bo‘yida esa issiq va quruq tropik.

Aholisi. Tabiiy ko‘payishi o‘rtacha darajada bo‘lib, yiliga 1,2% ga teng bo‘lmoqda. Shaharlarda mamlakat aholisining 75% i istiqomat qiladi. Eng yirik shaharlari — Tehron, Mashhad, Karaj, Isfahon, Tabriz. Aholi mamlakatning g‘arbiy hududlarida zich joylashgan, markaziy va sharqiy qismidagi ayrim cho‘l hududlarida esa doimiy aholi umuman yo‘q. Aholisining 60% idan ko‘prog‘ini forslar tashkil etadi. Shuningdek, ozarbayjonlar, kurdlar, arablar, turkmanlar, armanlar va boshqa millatlar yashaydi. Eron aholisining diniy tarkibida shia musulmonlari yetakchilik qiladi.

Iqtisodiyoti. Ko‘p tarmoqli sanoat va qishloq xo‘jaligiga asoslanadi. Sanoatining yetakchi tarmoqlari: neft va neftni qayta ishlash, gaz, metallurgiya, mashinasozlik, to‘qimachilik va oziq-ovqat.

Davlat byudjeti uchun eng katta daromad manbai neft va gaz eksporti hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari donchilik, bog‘dorchilik, qo‘ychilik, echkichilik va qoramolchilik. Kaspiyda baliqchilik yaxshi rivojlangan. Qora ikra eksporti bo‘yicha Eron jahon bo‘yicha yetakchi o‘rinda turadi.



93-rasm. **Eron relyef xaritasi**





Maydoni: **652,8** ming km²
Aholisi (2020): **38,9** mln
Poytaxti: **Kobul**


AFG‘ONISTON

Afg‘oniston Janubi-g‘arbiy Osiyoda joylashgan, bevosita Dunyo okeaniga chiqish imkoniyati yo‘q. Mamlakat hududida Osiyoning turli qismlaridagi davlatlarni bog'lovchi transport yo'llari qurilsa, uning iqtisodiy geografik o'rni ancha yaxshilanishi mumkin.

Afg‘onistondagi siyosiy vaziyat juda murakkab va beqaror bo‘lib, o‘tgan asrning 70-yillaridan buyon davom etayotgan fuqarolik urushi holati bilan tavsiflanadi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Afg‘oniston hududining katta qismi, ayniqsa, markazi va sharqi baland tog‘lardan iborat *(94-rasm)*. Mamlakatda kuchli zilzilalar tez-tez ro‘y beradi. Afg‘oniston turli mineral resurslarga (ko‘mir, neft, temir, mis, marganes va boshqalar) boy, ammo ular juda kam miqdorda qazib olinadi. Afg‘onistonga quruq kontinental subtropik tipdagi iqlim xos. Tog‘ muzliklaridan ko‘plab daryolar boshlanadi, ayrim daryolar to‘laligicha sug‘orishga sarflanadi. Tog‘ daryolarining energetik salohiyatidan deyarli foydalanilmaydi.


Aholisi. Yillik tabiiy ko‘payish darajasi 2,5% dan yuqori. Aholi asosan tog‘ oldi tekisliklarida va tog‘ oralig‘idagi vodiylarda yashaydi. Shahar joylarida aholining ¼ qismi yashaydi, xolos. Mamlakatdagi eng katta shahar — Kobul aholisi 3 mln kishi. Hirot, Qandahor hamda Mozori Sharif nisbatan yirik shaharlar hisoblanadi. Etnik tarkibi asosan pushtunlar, tojiklar, o‘zbeklar, xazorliklar, balujlar, turkmanlardan iborat. O‘zbekistonga chegaradosh shimoliy hududlarida 2 millionga yaqin o‘zbeklar istiqomat qiladi.




94-rasm. **Afg‘oniston relyef xaritasi**

Iqtisodiyoti. Afg‘oniston iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan agrar davlat. Qishloq xo‘jaligining asosini sug‘orma dehqonchilik tashkil etadi. Dehqonchilikda don ekinlari va paxta ekish, meva va uzum yetishtirish muhim rol o‘ynaydi. Chorvachilik tarmoqlaridan qo‘ychilik (jumladan, qorako‘lchilik) va echkichilik yetakchi ahamiyatga ega. Qorako‘l terilarni tayyorlashda Afg‘oniston jahon bo‘yicha 1-o‘rinda turadi. Sanoat ishlab chiqarishi juda sust rivojlangan.

POKISTON






Maydoni: **803,9** ming km²
Aholisi (2020): **220,9** mln
Poytaxti: **Islomobod**

Pokiston Janubiy Osiyoda, asosan Hind daryosi havzasida joylashgan. Qirg‘oqlari janubda Arabiston dengizi suvlari bilan yuviladi. Geografik o‘rnining ijobiy xususiyatlari xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan dengiz va quruqlikdagi transport yo‘llari o‘tganligi bilan belgilansa, salbiy jihatlari siyosiy vaziyati beqaror mintaqada joylashganligidan iborat. Mamlakatning amaldagi siyosiy geografik holati Hindiston bilan Kashmir hududi borasidagi ko‘p yillik ziddiyat ta’sirida shakllangan. Pokiston ma’muriy-siyosiy tuzilishi jihatidan federativ davlat bo‘lib, 4 ta provinsiya va 2 ta federal hududni o‘z ichiga oladi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Pokistonning shimoliy va g‘arbiy qismlari baland tog‘lar bilan band bo‘lsa, sharqiy va janubiy hududlari tekislik relyefiga ega *(95-rasm)*. Mamlakatning katta qismini qo‘shni Hindistondan boshlanadigan va Arabiston dengiziga quyiladigan Hind daryosining vodiysi egallaydi. Tekislik hududlari neft, tabiiy gaz, ko‘mir, tuz zaxiralariga ega, tog‘li qismi esa turli metall rudalariga boy. Pokistonning asosiy hududida issiq tropik iqlim hukmronlik qiladi, shuning uchun tekislik qismida cho‘l va chalacho‘llar katta maydonlarni egallaydi.

Aholisi. Pokistonda aholining tabiiy ko‘payish sur’atlari 2% dan baland, ya’ni yiliga 4–4,5 mln kishiga teng. Urbanizatsiya darajasi 37%. Mamlakatdagi eng yirik shaharlar — Karachi, Laxor, Faysalobod, Ravalpindi. Aholisining 45% ga yaqin qismi panjobliklardan iborat bo‘lib, bundan tashqari, pushtunlar, sindlar, balujlarning ulushi ham sezilarli.

Iqtisodiyoti. Pokiston iqtisodiyoti tez o‘sayotgan industrial-agrar davlat. Sanoatining yetakchi tarmog‘i yengil sanoat, ayniqsa, to‘qimachilik sanoati. Metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, oziq-ovqat, charm sanoati ham rivojlanib bormoqda. Qishloq xo‘jaligi bug‘doy, sholi, shakarqamish, paxta yetishtirishga ixtisoslashgan. Mamlakat eksporti tarkibida gazlamalar, sholi, paxta, charm mahsulotlari, gilamlar yetakchi o‘rinlarga ega.



95-rasm. **Pokiston relyef xaritasi**

Eron, Afg‘oniston va Pokiston davlatlari haqida berilgan ma’lumotlar hamda Atlasdagi xaritalardan foydalangan holda quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Eron, Afg‘oniston va Pokistonning iqtisodiy-geografik o‘rnini taqqoslang. Qaysi davlatlarning iqtisodiy-geografik o‘rni qulay hisoblanadi? Aksincha, qaysi davlatda biroz noqulay? Nima uchun? Fikringizni xarita yordamida tushuntiring.

2. Jadvalni to‘ldiring va quyidagi savollarga javob topib, topshiriqlarni bajaring.

Davlatlar	Maydoni, ming km^2	Aholisi, mln kishi	Aholi zichligi, kishi/km^2	Urbanizatsiya darajasi, %	Shahar aholisi soni, mln kishi	Qishloq aholisi ulushi, %	Qishloq aholisi soni, mln kishi
Eron	1648	84,2	... ...	75	... ...	... ...	... ...
Afg‘oniston	652,8	38,9	... ...	24	... ...	... ...	... ...
Pokiston	803,9	220,9	... ...	37	... ...	... ...	... ...

a) ushbu davlatlardan qaysi biri aholi zichligi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichga ega? Bunga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan deb o‘ylaysiz?

b) qaysi davlatda qishloq aholisining ulushi eng ko‘p? Bu mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan nechog‘lik aloqador?

3. Darslik matni va atlasdagi jahonning siyosiy xaritasidan foydalanib Eron, Afg‘oniston va Pokistonga mos ma’lumotlarni toping va tegishli javoblarni daftaringizga belgilang.

A) Eron B) Afg‘oniston D) Pokiston

1) Janubiy Osiyoda joylashgan;
2) Kaspiy dengizi suvlari qirg‘oqlarini yuvadi;
3) Ichki kontinental davlat;
4) Aholisining diniy tarkibida shia musulmonlari yetakchi;
5) Sanoatining yetakchi tarmog‘i yengil sanoat;
6) Qorako‘l terilarni tayyorlashda jahonda 1-o‘rinda turadi;
7) Ma’muriy-siyosiy tuzilishi jihatidan federativ davlat;
8) Davlat byudjeti uchun eng katta daromad manbai neft va gaz eksporti hisoblanadi;
9) Mamlakatning katta qismini Hind daryosining vodiysi egallaydi;
10) Shahar joylarida aholining ¼ qismi yashaydi;
11) Sanoat ishlab chiqarishi juda sust rivojlangan;
12) Aholisining 60% idan ko‘prog‘ini forslar tashkil etadi;
13) Qishloq xo‘jaligi bug‘doy, sholi, shakarqamish, paxta yetishtirishga ixtisoslashgan;
14) Qora ikra eksporti bo‘yicha jahonda yetakchi o‘rinda turadi;
15) Aholisining yillik tabiiy ko‘payish darajasi 2,5% dan yuqori.

4. Afg‘oniston iqtisodiyotini rivojlantirishda qanday omillarga tayanishi mumkin va ulardan unumli foydalanilishi uchun qanday sharoitlar yaratilishi lozim? Mazkur davlatda siyosiy vaziyatning barqaror bo‘lishi mamlakatimiz va butun Markaziy Osiyo mintaqasi iqtisodiy-geografik o‘rniga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

41-§. Xitoy Xalq Respublikasi

Sharqiy Osiyo, Tinch okean, sotsialistik davlat, Buyuk Xitoy tekisligi, Tibet tog‘ligi, gidro energetika resurslari, ko‘p millatli davlat, urbanizatsiya.

Xitoy Xalq Respublikasi Sharqiy Osiyoda joylashgan. Qirg‘oqlari sharqdan Tinch okean dengizlari suvlari bilan yuviladi. U quruqlikda 14 ta davlat bilan chegaradosh. Xitoy jahon mamlakatlari orasida hududining kattaligi bo‘yicha 3-, aholisi soni va YIM hajmi bo‘yicha esa 1-o‘rinni egallaydi. Umuman olganda, Xitoy zamonaviy dunyoning iqtisodiy va siyosiy tizimida muhim rol o‘ynaydigan davlatlardan biri.

Xitoy iqtisodiy-geografik o‘rnining qulayligi Tinch okean qirg‘oqlariga bevosita chiqish imkoniyatiga ega ekani bilan belgilanadi.

Xitoy jahonning hozirgi siyosiy xaritasidagi sanoqli sotsialistik davlatlardan biri. Uning boshqaruv tizimi va siyosiy hayotida hal qiluvchi ahamiyat Xitoy Kommunistik partiyasiga tegishli bo‘lib, partiya yetakchisi ayni paytda davlat rahbari — Xitoy Xalq Respublikasi raisi ham hisoblanadi. Ma’muriy-hududiy jihatdan Xitoy tarkibida 23 ta provinsiya, 5 ta muxtor (avtonom) rayon, 4 ta markazga bo‘ysunuvchi shahar va 2 ta maxsus ma’muriy rayon (Gonkong va Makao) ajratiladi. Buyuk Britaniyaning sobiq mustamlakasi Gonkong (Syangan) 1997-yili, Portugaliya mustamlakasi maqomiga ega bo‘lgan Makao (Aomin) 1999-yili Xitoy tarkibiga kirdi.







Maydoni: **9599** ming km²
Aholisi (2020): **1434,2** mln
Poytaxti: **Pekin**

Tabiiy sharoiti va resurslari. Xitoy hududi shimoldan janubga 4 ming km, g‘arbdan sharqqa 4,5 ming km ga cho‘zilganligi sababli tabiiy sharoiti, xususan, relyefining xilmaxilligi bilan tavsiflanadi *(96-rasm).* Sharqda tekislik va yassi tog‘liklar keng tarqalgan bo‘lsa, g‘arbiy hududlarini baland tog‘lar va cho‘llik xususiyatiga ega tog‘ oralig‘idagi botiqlar egallaydi *(97–98-rasmlar).* Mamlakat iqlimida ham sezilarli hududiy tafovutlar mavjud.

Xitoy yoqilg‘i-energetika resurslaridan ko‘mir, neft, gaz va yonuvchi slanesga boy. Mamlakat turli qora va rangli metall rudalari bilan ham yaxshi ta’minlangan. Xitoyda Yanszi, Xuanxe, Amur singari yirik daryolar oqadi. U gidro energetika resurslari hajmiga ko‘ra dunyoda birinchi o‘rinda turadi.



96-rasm. **Xitoyning relyef xaritasi**



97-rasm. **Buyuk Xitoy tekisligi**



98-rasm. **G‘arbiy Xitoydagi cho‘l landshafti**

Aholisi. 2020-yil ma’lumotlariga ko‘ra, Xitoy aholisi soni bo‘yicha jahonda eng yirik mamlakat. Hozirgi vaqtda Xitoyda jahon aholisining 18% idan ortiq qismi yashaydi. U jahonning eng yirik mehnat resurslariga ega bo‘lgan mamlakati hamdir.

Xitoyda aholining tabiiy ko‘payishi 2020-yilga kelib 0,3% gacha tushib ketgan. Natijada mamlakat aholisining yosh tarkibi keskin o‘zgarib, qariyalar ulushi tobora ortib borishi kuzatilmoqda. Ushbu jarayon ta’sirida Xitoy hukumati

Xitoyning jahon iqtisodiyoti va siyosatidagi o‘rni qanday omillar bilan belgilanadi?

mamlakatda uzoq yillar davomida amalga oshirilgan “bir oilaga bir bola” tamoyiliga asoslangan davlat siyosatini yumshatib, oilalarga 2016-yili 2 nafar, 2021-yili esa 3 nafar farzand ko‘rishga ruxsat berdi.

Aholisining etnik tarkibiga ko‘ra, Xitoy ko‘p millatli davlat hisoblanadi. Mamlakat aholisining 90% dan ko‘prog‘ini xitoyliklar — xanlar tashkil qiladi. Ammo, rasmiy ma’lumotlarga binoan, mamlakatda xanlardan tashqari 55 ta mahalliy millat va elatlar yashaydi. Bulardan eng yiriklari chjuanlar, uyg‘urlar, mo‘g‘ullar, tibetliklar, dunganlar, manjurlar *(99-rasm).*

Dinlar orasida xitoyliklarning milliy dinlaridan biri — konfutsiylik eng keng tarqalgan. Shu bilan birga, daosizm, buddizm, islom, xristian dinlariga e’tiqod qiluvchilar soni ham ko‘p. Musulmonlar asosan Shinjon-Uyg‘ur muxtor rayonida yashaydi.



Xitoyliklar (xanlar)



Uyg‘urlar



Tibetliklar

99-rasm. **Xitoy — ko‘p millatli davlat**

Mamlakat aholisi hududiy jihatdan notekis taqsimlangan. Aholining o‘rtacha zichligi har 1 km^2 maydonga 150 kishini tashkil qilgan holda, bu ko‘rsatkich Xuanxe va Yanszi daryolari oralig‘idagi tekislikda 800–1000 kishi/km^2 ni, Tibet tog‘ligida esa 1–2 kishi/km^2 ni tashkil etadi. Aholining 90% i mamlakat hududining ⅓ qismida istiqomat qiladi.

Xitoyda 2011-yili shahar aholisining ulushi 50% dan ortdi, 2020-yilga kelib esa urbanizatsiya darajasi 61% ga yetdi. Bu ko‘rsatkich tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Mamlakatdagi eng yirik shaharlar qatoriga Shanxay, Pekin, Gonkong, Chendu, Guanchjou, Tyanszin, Uxan va boshqalar kiradi.

Savol va topshiriqlar

1. Xitoy iqtisodiy-geografik o‘rnining ijobiy va salbiy tomonlarini izohlang. Atlasdagi jahonning siyosiy xaritasidan Xitoy bilan chegaradosh davlatlarni aniqlang va daftaringizga yozib oling. U qaysi davlatlar bilan eng uzun davlat chegaralariga ega?
2. Qo‘shimcha manbalar asosida bozor iqtisodiyotiga asoslangan hamda sotsialistik davlatlar iqtisodiy tizimidagi asosiy farqlarni aniqlang. Xitoy iqtisodiyotini aralash iqtisodiyot deb atash mumkinmi? Davlatning iqtisodiyotdagi roli qanday bo‘lishi kerak deb hisoblaysiz?
3. Nima sababdan Xitoy hukumati mamlakatda uzoq yillar mobaynida amalga oshirilgan demografik siyosatni yumshatdi? Tug‘ilish darajasining juda yuqoriligi yoki o‘ta pastligi istiqbolda qanday ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni kuchaytirishi mumkin?
4. Xitoy tabiiy sharoiti aholi zichligiga qanday ta’sir ko‘rsatgan? Mamlakatning qaysi qismida aholi zichligi nihoyatda yuqori? Aksincha, qaysi hududida ushbu ko‘rsatkich juda past?
5. Xitoyda urbanizatsiyaning tez sur’atlarda ortib borishi qanday omillar bilan bog‘liq? Mamlakatdagi eng yirik shaharlarni xaritadan toping. Ular Xitoyning qaysi qismida joylashgan?

42-§. Xitoy iqtisodiyoti va iqtisodiy rayonlari

Yalpi ichki mahsulot, sanoat, yoqilg‘i-energetika majmuasi, metallurgiya, mashinasozlik, “Uch dara” GESi, dehqonchilik, iqtisodiy zonalar.

Fikringizcha, Xitoy qanday omillar hisobiga jahon sanoatidagi yetakchiligiga erishdi?

Xitoy YIM hajmi bo‘yicha jahon mamlakatlari orasida birinchi o‘rinni egallaydi. Ammo YIMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ko‘rsatkichi rivojlanayotgan davlatlar darajasida.

Sanoati. Xitoyda sanoatning barcha tarmoqlari yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, u sanoat mahsulotlarining ko‘plab turlarini ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda birinchi yoki ikkinchi o‘rinlarda turadi. Jumladan, ko‘mir qazib olish, elektr energiyasi ishlab chiqarish, po‘lat, cho‘yan, alyuminiy, mis, rux, qo‘rg‘oshin, nikel, oltin hamda boshqa qora va rangli metallarni eritish, avtomobil, turli elektrotexnika va elektronika mahsulotlari, ammiak, mineral o‘g‘itlar, sement, qog‘oz, gazlamalar, kiyim-kechak, poyabzal mahsulotlarini ishlab chiqarishda Xitoy jahonda birinchi o‘rinni egallaydi.

Xitoyda yiliga 4 milliard tonnaga yaqin ko‘mir qazib chiqarilmoqda. Uning asosiy konlari mamlakatning Shimoli-sharqiy va sharqiy hududlarida joylashgan. Xitoy 2012-yildan buyon elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmiga ko‘ra jahonda birinchi o‘rinni egallamoqda. 2020-yili mamlakatda 7,8 trln. kW·h dan ziyod elektr energiyasi ishlab chiqarildi (jahonda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining 28% idan ortiq qismi). Tarmoqda IESlar salmog‘i 70% atrofida bo‘lib, ularda ishlatiladigan yoqilg‘ining 95% i ko‘mirdan iborat. Energetikaning jadal sur’atlar bilan o‘sishi Xitoyning yirik shaharlaridagi ekologik vaziyatning keskinlashishiga olib keldi *(100-rasm)*. So‘nggi yillarda mamlakatda GES, AES va qayta tiklanadigan resurslarga asoslangan elektr stansiyalarini ko‘paytirishga katta e’tibor berilmoqda. Jumladan, Yanszi daryosida dunyodagi eng yirik — “Uch dara” (Sansya) GESi qurilgan *(101-rasm)*.



100-rasm. **Pekinda havoning ifloslanishi**



101-rasm. **Yanszi daryosidagi “Uch dara” (Sansya) GESi**

Mashinasozlik sanoati Xitoyda ayniqsa tez rivojlanmoqda. Mamlakatda televizorlar, maishiy xizmat texnikasi uskunalari, avtomobillar, kompyuterlar, turli o‘lchov va elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

Yengil va oziq-ovqat sanoati yetakchi sanoat tarmoqlari hisoblanadi. Ayniqsa, to‘qimachilik va charm-poyabzal sanoati katta hajmdagi mahsulotni ishlab chiqaradi.

Qishloq xo‘jaligi. Xitoy qishloq xo‘jaligining asosi dehqonchilikdir. Jami ekin maydonlarining asosiy qismi donli ekinlar, ayniqsa, sholi bilan band *(102-rasm)*. Xitoy jahon mamlakatlari orasida bug‘doy, sholi, kartoshka, sabzavot, meva, poliz mahsulotlari, uzum, choy, yeryong‘oqning yalpi hosili, qo‘y, echki,

cho‘chqa, parranda bosh soni, go‘sht, jun, tuxum, asal tayyorlash, baliq ovlash hajmi bo‘yicha birinchi o‘rinni egallaydi *(20-jadval)*.


20-jadval. ***Xitoyning jahon bo‘yicha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi o‘rni (2018-yil yakunlari bo‘yicha)***

№	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	O‘lchov birligi	Yetishtirish	Jahondagi ulushi (%)	Jahon bo‘yicha o‘rni
1	Bug‘doy	mln tonna	131,4	17,9	1
2	Sholi	mln tonna	214,1	27,4	1
3	Makkajo‘xori	mln tonna	257,3	22,4	2
4	Kartoshka	mln tonna	90,3	26,3	1
5	Shakarqamish	mln tonna	108,1	5,7	3
6	Sabzavot	mln tonna	549	52,3	1
7	Meva	mln tonna	240,8	24,3	1
8	Choy	mln tonna	2,6	41,2	1
9	Go‘sht	mln tonna	88,1	25,7	1
10	Tuxum	mln tonna	27	39,6	1
11	Jun	ming tonna	417	19,9	1

Xitoy o‘zining asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘z kuchi hisobiga qondiradi. Dunyodagi jami ekin maydonlarining 9% iga ega bo‘lib turib, insoniyatning 18% idan ko‘proq qismini tashkil etadigan aholisini o‘z resurslari hisobiga oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlay olayotgani qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligining yuqoriligini aks ettiradi.



102-rasm. **Xitoydagi sholi dalalari**



103-rasm. **Xitoyning iqtisodiy zonalari**

Iqtisodiy rayonlari. Xitoyda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va ixtisoslashuvi bilan bir-biridan farq qiladigan 3 ta yirik — Sharqiy, Markaziy va G‘arbiy iqtisodiy rayonlar (zonalar) ajratiladi *(103-rasm)*. Shulardan Sharqiy iqtisodiy rayon o‘zining tabiiy, ijtimoiy, demografik va iqtisodiy salohiyatiga ko‘ra har tomonlama yetakchilik qiladi. Bu o‘rinda ayniqsa dengizbo‘yi hududlari, Shanxay, Pekin, Tyanszin, Guanchjou kabi yirik shaharlar alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan mintaqaviy siyosat tabiiy resurslarga boy Markaziy va G‘arbiy iqtisodiy zonalarni rivojlantirish, ularning milliy iqtisodiyotdagi ulushlarini ko‘tarishga yo‘naltirilgan.

Savol va topshiriqlar

1 Xitoyda sanoatning barcha tarmoqlari yuqori darajada rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan? Sizningcha, Xitoy mahsulotlari qaysi jihatlari bilan jahonning ko'plab mamlakatlarida o'z xaridorlariga ega?

2 So'nggi yillarda Xitoyda qanday elektr stansiyalarini ko'paytirishga katta e'tibor berilmoqda? Nimaga? Qo'shimcha manbalar asosida Xitoy atmosferasining ifloslanishi haqida ma'lumotlar to'plang.

3 Xitoyning turli sohalarda jahon miqyosidagi o'rnini topib, tegishli javoblarni daftaringizga belgilang.

A) 1-o'rinda **B) 2-o'rinda** **D) 3-o'rinda**

1) avtomobil ishlab chiqarishda;
2) shakarqamish yetishtirishda;
3) meva yetishtirishda;
4) ko'mir qazib olishda;
5) makkajo'xori yetishtirishda;
6) asal tayyorlashda;
7) elektr energiyasi ishlab chiqarishda;
8) choy yetishtirishda;
9) baliq ovlash hajmi bo'yicha;
10) sholi yetishtirishda.

4 Quyidagi savdo brendlari asosida faoliyat yurituvchi Xitoy kompaniyalari to'g'risida nimalarni bilasiz?

a Hisense

b Alibaba.com

d HUAWEI

e UnionPay 银联


f xiaomi


5 Xitoyning Sharqiy, Markaziy va G'arbiy iqtisodiy zonalari orasidagi tafovutlarga qanday iqtisodiy-geografik omillar ta'sir ko'rsatgan? Nima uchun Sharqiy iqtisodiy zona o'z salohiyatiga ko'ra har tomonlama peshqadamlik qiladi? Kam o'zlashtirilgan hududlarni rivojlantirishda mamlakat mintaqaviy siyosatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat bo'lishi kerak deb hisoblaysiz?




Yarimorol mamlakat, qadimgi platforma, tog‘li relyef, aholi zichligi, bir millatli davlat, yangi industrial mamlakat, iqtisodiy o‘sish.

Koreya Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi yutuqlari haqida nimalarni bilasiz?





Maydoni: **100,2** ming km²
Aholisi (2020): **51,8** mln
Poytaxti: **Seul**



106-rasm. **Koreya Respublikasi aholisining joylashuvi (mamlakatning turli rang bilan bo‘yalgan har bir qismida aholisining ¼ qismi yashaydi)**

43-§. Koreya Respublikasi

Koreya Respublikasi Sharqiy Osiyoda, Koreya yarimorolining janubiy qismida joylashgan. Qirg‘oqlari sharqda Yapon dengizi (Koreyada Sharqiy dengiz deb ataladi), g‘arbda Sariq dengiz (Koreyada G‘arbiy dengiz deb nomlanadi), janubda Koreya bo‘g‘izi va Sharqiy Xitoy dengizi (Koreyada Janubiy dengiz deb ataladi) suvlari bilan yuviladi, shimolda Koreya Xalq Demokratik Respublikasi (KXDR) bilan chegaradosh. Boshqaruv shakli — prezidentlik respublikasi. Mamlakat poytaxti — Seul shahri *(104-rasm)*.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Koreya Respublikasi qadimgi platformada joylashgan bo‘lib, relyefi asosan kuchli parchalangan o‘rtacha balandlikdagi tog‘lardan iborat *(105-rasm)*. Relyefining tog‘liligi hisobiga mamlakatda dehqonchilikka yaroqli yerlar ko‘p emas va bu holat koreyaliklarni yerdan intensiv ravishda foydalanishga undaydi. Ko‘mir, volfram, temir, rux, qo‘rg‘oshin, oltin konlari bor, lekin zaxiralari nisbatan kam bo‘lgani tufayli mamlakat turli xomashyolarga bo‘lgan ehtiyojini import hisobiga qondiradi.

Iqlimi asosan mo‘tadil bo‘lib, musson shamollari ta’sirida shakllanadi. Yozi issiq va nam bo‘lib, uzoq davom etadi, qishi esa uncha sovuq emas, lekin quruq. Daryolari sersuv, energetik imkoniyatlarga boy. Eng yirik daryolari — Naktongan va Xangan. Katta maydonni o‘rmonlar egallagan.



104-rasm. **Seul shahri**



105-rasm. **Koreya Respublikasidagi tog‘ manzarasi**

Aholisi. Koreya Respublikasi aksariyat Osiyo mamlakatlaridan aholisi tabiiy ko‘payishining past darajasi bilan farqlanadi (oxirgi yillarda deyarli 0 ga tenglashdi). Tug‘ilish va tabiiy ko‘payishning pastligi aholining yosh tarkibiga ta’sir ko‘rsatmoqda. 2020-yil holatiga ko‘ra, mamlakat aholisi tarkibida 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarning ulushi 12%, 65 yosh va undan kattalarning ulushi esa 16% ni tashkil qilgan. Bunday vaziyat mamlakatda ishchi kuchi bilan ta’minlanganlik hamda pensiya tizimining barqarorligi bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Koreya Respublikasi yuqori urbanizatsiyalashgan davlat bo‘lib, aholisining 80% idan katta qismi shaharlarda istiqomat qiladi. Eng yirik shaharlari qatoriga Seuldan tashqari, Pusan, Tegu, Inchxon, Kvanchju va Tedjon kiradi.

Koreya Respublikasi aholisining etnik tarkibi jihatidan bir millatli davlat hisoblanadi. Jami aholisining deyarli 99% ini koreyaliklar tashkil qiladi. Keng tarqalgan dinlar xristianlik va buddizmdir.

Koreya Respublikasida aholi zichligining o‘rtacha ko‘rsatkichi ancha yuqori bo‘lib, 1 km^2 maydonga 500 kishidan ko‘proq aholi to‘g‘ri keladi. Mamlakatning relyefi nisbatan tekis bo‘lgan g‘arbiy va janubiy dengizbo‘yi hududlarida aholi zichligi juda yuqori. Umuman olganda, mamlakatda aholining hududiy taqsimlanishi juda notekis *(106-rasm)*.

Iqtisodiyoti. Koreya Respublikasi 1980-yillardan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ulkan yutuqlarga erishdi. Bu o‘sish ayniqsa sanoat sohasida ko‘zga tashlanadi, shuning uchun ham Koreya Respublikasi yangi industrial (sanoatlashgan) mamlakatlar guruhiga kiritiladi.

Sanoatning eng muhim tarmoqlari avtomobilsozlik, kemasozlik, elektrotexnika, elektronika, atom energetikasi, metallurgiya, kimyo va neft-kimyo, yengil sanoat hisoblanadi *(107-rasm)*. Xususan, kemalarni ishlab chiqarish bo‘yicha mamlakat jahonda birinchi o‘rinda turadi, cho‘yan, rux, qo‘rg‘oshinni eritish, yengil avtomobillar, polimer mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoning birinchi beshtaligiga kiradi. Koreya Respublikasi “Samsung Electronics”, “Hyundai”, “Posco” va boshqa dunyoga mashhur transmilliy korporatsiyalarning mavjudligi bilan ajralib turadi.

Dehqonchiligida sholichilik, sabzavotchilik, mevachilik va uzumchilik muhim ahamiyatga ega. Chorvachiligida sut-go‘sht, qoramolchiligi va cho‘chqachilik rivojlangan.



107-rasm. **Koreya Respublikasi kemasozlik va atom energetikasi sohalarida dunyodagi yetakchi davlatlardan biri**

Koreya Respublikasi eksport hajmi bo‘yicha jahonning yetakchi 10 ta mamlakatlari qatoriga kiradi. Koreya Respublikasi O‘zbekiston uchun ham muhim savdo hamkori hisoblanadi. Koreya Respublikasi 2020-yil yakunlariga ko‘ra, tashqi savdo aylanmasi bo‘yicha O‘zbekistonning savdo hamkorlari orasida Xitoy, Rossiya va Qozog‘istondan keyingi 4-o‘rinni egallagan. O‘zbekistonda Koreya Respublikasi kapitali ishtirokida 900 dan ortiq korxona faoliyat yuritmoqda.

Savol va topshiriqlar

1. Jahonning siyosiy xaritasi yordamida Koreya Respublikasining iqtisodiy-geografik o‘rniga tavsif bering va ijobiy jihatlarini asoslang.
2. Koreya Respublikasining geografik o‘rni tabiiy iqlim sharoitiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Mamlakat relyefiga bog‘liq holda qanday resurslar taqchil? Nima sababdan u turli xomashyolarga bo‘lgan ehtiyojini import hisobiga qondiradi?
3. Mamlakat aholisining yosh tarkibiga qanday jarayon katta ta’sir ko‘rsatmoqda? Quyidagi jadvalni daftaringizga chizib oling va mavzu matnida berilgan ma’lumotlardan foydalanib to‘ldiring.

	14 yoshgacha bo‘lgan bolalar	15—64 yosh-dagilar	65 yosh va undan kattalar
Ulushi, %	...	...	...
Soni, mln kishi	...	...	...

4. Koreya Respublikasining jahon sanoatida tutgan o‘rnini izohlang. U nima uchun yangi industrial davlatlar safiga kiritiladi? Sizningcha, Koreya Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ulkan yutuqlarga erishishida qanday omillarning ahamiyati katta?
5. Mamlakatimiz va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar qaysi yo‘nalishlarda rivojlanmoqda? Qo‘shimcha manbalar asosida ikki davlat o‘rtasidagi savdo aylanmasi hajmi va uning tovarlar tarkibi to‘g‘risida ma’lumotlar toping.



44-§. Yaponiya

Orol mamlakat, imperator, Tinch okean seysmik mintaqasi, Fudziyama, Kanto tekisligi, bir millatli davlat, sintoizm, buddizm, Tokaydo megalopolisi.

Yaponiya nima sababdan "Kunchiqar mamlakat" deb ataladi?

Yaponiya Sharqiy Osiyoda joylashgan orol mamlakat. Jami orollari soni 6800 tadan ortiq bo‘lib, hududining 97% i 4 ta yirik orol — Xonsyu, Xokkaydo, Kyusyu va Sikokuga to‘g‘ri keladi. Mamlakat qirg‘oqlari shimolda Oxota, g‘arbda Yapon, janubi-g‘arbda Sharqiy Xitoy dengizi, sharq va janubda Tinch okean suvlari bilan yuviladi.

Yaponiya — konstitutsion monarxiya, davlat rahbari imperator maqomiga ega bo‘lgan jahonning hozirgi siyosiy xaritasidagi yagona mamlakat *(108-rasm)*. Amaldagi siyosiy boshqaruv tizimida yetakchi rol bosh vazirga tegishli. Yaponiya 47 ta prefekturaga bo‘linadigan unitar davlat. Yaponiya poytaxti — Tokio mamlakatning eng yirik oroli Xonsyuning sharqida, Kanto tekisligida joylashgan.


Tabiiy sharoiti va resurslari. Tinch okean seysmik mintaqasida joylashgani bois, Yaponiyada zilzila va sunamilar tez-tez sodir bo‘ladi. Bu tabiiy xususiyat aholi turmush tarziga katta ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun ham yaponiyaliklarga bolalik davridanoq zilzila vaqtida o‘zini to‘g‘ri tutish qoidalari o‘rgatiladi. Mamlakat hududining ¾ qismi tog‘ va qirlar bilan band. Yaponiyaning eng baland tog‘ cho‘qqisi — Fudziyama vulqoni yapon xalqi uchun muqaddas qadamjo hisoblanadi *(109-rasm)*. Relyefining tog‘liligi qishloq xo‘jaligi yerlarining yetishmovchiligiga olib kelgan.




108-rasm. **Yaponiya imperatori Naruxito qasamyod qilish vaqtida (2019-y.)**



109-rasm. **Fudziyama vulqoni**





Maydoni: **377,9** ming km²
Aholisi (2020): **126** mln
Poytaxti: **Tokio**

Yaponiya foydali qazilmalarga boy emas. Mamlakatda asosan yod (zaxiralari bo‘yicha dunyoda 1-o‘rinda), oltingugurt, shuningdek, oz miqdorda neft, tabiiy gaz, oltin, kumush va boshqa mineral resurslar qazib olinadi. Yerosti boyliklarining ozligi Yaponiyani yoqilg‘i va metallarni eng ko‘p import qiluvchi davlatlardan biriga aylantirgan.

Yaponiya asosan mo‘tadil va subtropik iqlim mintaqalarida joylashgan. Iqlimi, umuman olganda, musson shamollari ta’sirida shakllangan bo‘lib, unga yuqori darajadagi namlik xos. Yillik yog‘in miqdori 1700–4000 mmga teng. Shuningdek, Yaponiya iqlimiga tayfunlarning tez-tez takrorlanishi xos. Mamlakat hududi sersuv daryolarga boy bo‘lib, ulardan sug‘orma dehqonchilik va gidro energetikada keng foydalaniladi.


Aholisi. Tug‘ilishning o‘ta pastligi sababli aholining tabiiy kamayishi kuzatilmoqda. Yaponiya aholi yosh tarkibida qariyalarning ulushi eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan mamlakat hisoblanadi (29%, 2020-y.).

Yaponiyada shahar aholisi ulushi 90% dan yuqori. Tokio dunyoning eng katta shaharlaridan biri hisoblanib, uning aglomeratsiyasida 30 mln kishidan ortiq aholi istiqomat qiladi *(110-rasm)*. Iokogama, Osaka, Nagoya, Sapporo, Kobe,

Kioto ham mamlakatning eng yirik shaharlari hisoblanadi. Xokkaydo orolida joylashgan Sapporodan boshqa barcha yirik shaharlar Xonsyu orolining janubi-sharqida joylashgan. Mamlakatning bu qismida bir nechta yirik shahar aglomeratsiyalari tutashib ketgani hisobiga Tokaydo megalopolisi shakllangan *(111-rasm).*



110-rasm. **Tokiodagi chorrahalardan biri**



111-rasm. **Tokaydo megalopolisi**

Yaponiya Koreya Respublikasi kabi bir millatli davlat hisoblanadi. Aholisining 98% idan ko‘pini yaponlar tashkil qiladi. Asosiy dinlari sintoizm (yaponiyaliklarning milliy dini) va buddizmdir. Qiziqarli jihati, yaponiyaliklarning aksariyati ham sintoizm, ham buddizm an’analariga rioya qiladi.

Aholi joylashuviga mamlakat relyefi katta ta’sir ko‘rsatgan. Yaponiya aholisining asosiy qismi hududining 10% ida yashaydi. Kanto tekisligida aholi zichligi eng yuqori.

Iqtisodiyoti. XX asrning 60-yillaridan boshlab Yaponiya “iqtisodiy mo‘jiza”si jahonni hayratga sola boshladi. Buning mohiyati Ikkinchi Jahon urushida yengilib, atom bombasining dahshatlarini o‘z boshidan o‘tkazgan mamlakatning tezlik bilan qaddini rostlagani va misli ko‘rilmagan sur’atlarda tez rivojlanishga erishganidan iborat. Mutaxassislar fikriga ko‘ra, Yaponiya “iqtisodiy mo‘jiza”sining asosiy manbai yapon millatining yuqori darajadagi mehnatsevarlik va mehnat intizomi, uyushqoqlik va sabr-toqat, ishga mas’uliyat hissi va tejamkorlik kabi ijtimoiy xususiyatlari bilan bog‘liq.

Yaponiya iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakat. YIMning umumiy hajmiga ko‘ra dunyoda Xitoy, AQSH va Hindistondan keyingi to‘rtinchi o‘rinni egallaydi. Yaponiya sanoati eng zamonaviy texnologiyalarga asoslangan tarmoqlar — elektronika, elektrotexnika, dastgohsozlik, kemasozlik, avtomobilsozlik, asbobsozlik, kimyo va neft-kimyo sanoatiga ixtisoslashgan. Mamlakatning eng mashhur transmilliy korporatsiyalari qatoriga “Toyota”, “Honda”, “Sony”, “Mitsubishi” va boshqalar kiradi.

Yaponiya dehqonchiligining yetakchi tarmog‘i sholikorlikdir. Sholi jami ekin maydonlarining yarmiga ekiladi. Shuningdek, bug‘doy, soya, turli sabzavot va bog‘dorchilik tarmoqlari ham yaxshi rivojlangan.

Yaponiyada transportning barcha turlari yuqori darajada rivojlangan. Ayniqsa, mamlakatning asosiy shaharlarini bog‘laydigan “Sinkansen” tezyurar poyezdlari alohida e’tiborga sazovor *(112-rasm).* Yaponiyada ayrim orollar orasida suv osti tunnellari ham o‘tkazilgan. Ulardan eng uzuni Xonsyu va Xokkaydo orollarini bog‘laydigan Seykan tunnelidir (54 km). Yaponiyada xalqaro turizm ham yaxshi rivojlangan. Mamlakatga yiliga 30 mln atrofida xorijiy sayyoh tashrif buyuradi. Yaponiyaning eng muhim turistik resurslari uning boy va betakror tarixiy-madaniy merosi hisoblanadi *(113-rasm).*

Xonsyu orolining sharqida shakllangan Tinch okean sanoat mintaqasi iqtisodiy jihatdan Yaponiyaning eng rivojlangan hududi hisoblanadi. Bu mintaqa Tinch okean bo‘ylab 600 kmdan ortiq masofaga cho‘zilgan. Kyusyu orolining janubiy qismi, Sikoku oroli va, ayniqsa, Xokkaydo oroli iqtisodiy jihatdan nisbatan sust darajada rivojlangan.



112-rasm. **“Sinkansen” tezyurar poyezdi**



113-rasm. **Kioto shahridagi mashhur budda ibodatxonasi**

Savol va topshiriqlar

1. Yaponiya geografik o‘rnining o‘ziga xos xususiyatlarini izohlang. Yaponiyaning yoqilg‘i va metallarni eng ko‘p import qiluvchi davlatlardan biri ekanligiga sabab nima?
2. Quyidagi jadvalni daftaringizga chizib oling va to‘ldiring.

Yaponiyaning tabiiy sharoiti va resurslari	
Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari
… … …	… … …

3. Quyida keltirilgan geografik nomlar qaysi obyektlarga tegishli ekanligini aniqlang.

a) Kanto; b) Tokaydo; d) Seykan; e) Sapporo; f) Fudziyama; g) Xonsyu

1) *Yaponiyadagi eng yirik orol;*
2) *Xokkaydo orolida joylashgan yirik shahar;*
3) *Yaponiya poytaxti joylashgan tekislik;*
4) *Yaponiyadagi eng uzun suv osti tunneli;*
5) *Yaponiyaning eng baland tog‘ cho‘qqisi;*
6) *Yaponiyada shakllangan jahondagi eng yirik megalopolislardan biri.*

4. Yaponiya va Koreya Respublikasi aholisining tabiiy harakati, tarkibi hamda joylashuvi o‘rtasida qanday o‘xshashlik va tafovutlar mavjud?
5. Yaponiya “iqtisodiy mo‘jiza”sini tavsiflang. U qanday omillar bilan bog‘liq? Ushbu mamlakat qaysi jihatlari bilan rivojlanayotgan davlatlar uchun o‘rnak bo‘la oladi, deb hisoblaysiz?
6. Mamlakat sanoati qanday tarmoqlarga ixtisoslashgan? Bu uning iqtisodiy salohiyatini qanday aks ettiradi? Uning eng mashhur transmilliy korporatsiyalariga misollar keltiring.
7. Yaponiyaning xalqaro iqtisodiy aloqalarida quyidagi transport turlaridan qaysilari asosiy ahamiyatga ega, deb hisoblaysiz? Fikringizni asoslang.

a 

b 

d 

e 

Janubiy Osiyo, federativ davlat, Himolay tog‘lari, Ganga, agroiqlimiy resurslar, etnik rang-baranglik, induizm, rivojlanayotgan mamlakat.

Hindiston qaysi sohalarning rivojlanishi bilan mashhur?

45-§. Hindiston Respublikasi

Hindiston Respublikasi Janubiy Osiyodagi eng yirik davlat, jahon mamlakatlari orasida maydoni bo‘yicha 7-, aholisi soni bo‘yicha esa 2-o‘rinda turadi. Hududi asosan Hindiston yarimorolida joylashgan. Hindistonga Lakkadiv, Andaman va Nikobar orollari ham tegishli. Yevropa va Osiyo mamlakatlarini bog‘laydigan serqatnov dengiz yo‘llari bo‘yida joylashgani mamlakatning iqtisodiy-geografik o‘rni qulayligini belgilaydi.


Hindiston boshqaruv shakli jihatidan parlamentar respublika, davlat tuzilishiga ko‘ra federatsiya hisoblanadi. Tarkibida 28 ta shtat va 8 ta ittifoqdosh hududlari mavjud. Federatsiya birliklari asosan etnik tamoyil bo‘yicha ajratilgan.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Hindistonning tabiiy sharoiti xilma-xil, tabiiy resurslari esa ancha boy. Mamlakat hududida sayyoramizdagi eng baland tog‘lar, qalin o‘rmonlar, savannalar bilan qoplangan parchalangan yassi tog‘liklar, bepoyon qumli cho‘llarni uchratish mumkin *(114-rasm)*.

Hindistonda temir, marganes, xrom, titan, uran, toriy rudalari, ko‘mir, olmos, turli qimmatbaho toshlarning zaxiralari ancha katta. Hindistonning turli hududlari va dengiz sayozligidan neft ham topilgan.

Hindiston hududida qish fasli deyarli kuzatilmaydi (Himolay tog‘laridan tashqari). Shu sababli ayrim ekinlardan yiliga 2–3 marta hosil yig‘ib olinadi. Yog‘ingarchilik mavsumiy xarakterga ega bo‘lib, asosan iyun-oktyabr oylarida ko‘p yog‘in bo‘ladi. Hindiston hududida sersuv daryolar ko‘p. Ulardan eng yiriklari Himolaydan boshlanib, Bengaliya qo‘ltig‘iga quyiladigan Ganga va Braxmaputra daryolaridir. Shu bilan birga, Godavari, Maxanadi, Kaveri, Krishna, Narmada va Tapti ham yirik daryolar hisoblanadi.





Maydoni: **3287,2** ming km²
Aholisi (2020): **1400,1** mln
Poytaxti: **Dehli**


Aholisi. Hindiston aholisi soni jihatidan dunyo bo‘yicha Xitoydan keyingi ikkinchi o‘rinni egallaydi (2020-y.). Lekin Hindiston aholisining tabiiy o‘sish sur’atlari (yillik hisobda 1,4%) Xitoyga nisbatan ancha yuqoriligi sababli ikki mamlakat aholisi soni orasidagi farq tobora qisqarib bormoqda. Mutaxassislarning fikricha, yaqin yillarda Hindiston jahonning aholisi eng ko‘p bo‘lgan davlatiga aylanadi.



Himolay tog‘lari



Dekan yassitog‘ligidagi savanna




Tar cho‘li

114-rasm. **Hindiston tabiatining xilmaxilligi**

Hindiston jahondagi eng ko‘pmillatli davlatdir. Mamlakatdagi millat, elat va qabilalar turli til oilalariga mansub. Hindlar, bengallar, bixarlar, telugular, panjobliklar, tamillar eng ko‘psonli millatlar hisoblanadi. Hindlarning jami aholidagi ulushi 40% dan biroz ko‘proq. Umummilliy rasmiy tillari — hind va ingliz. Shuningdek, turli shtatlarda yana 19 ta til rasmiy maqomga ega.

Mamlakat aholisining diniy tarkibi ham murakkab. Aholining 80% i induizm diniga mansub. Ikkinchi o‘rinda jami aholining 14% ini tashkil qiladigan musulmonlar turadi. Hindistonda xristianlar, sikxlar, buddistlar va boshqa din vakillari ham yashaydi.


Hindiston tarixida Temuriylar sulolasining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari beqiyos iz qoldirgan. Mamlakatda Boburiylar saltanati davridan ko‘plab tarixiy-madaniy yodgorliklar qolgan, ulardan eng mashhuri Agra shahridagi Toj Mahal majmuasidir *(115-rasm).*



115-rasm. **Toj Mahal**

Mamlakatning urbanizatsiya darajasi 35% ni tashkil etadi. Shaharlari orasida Mumbay (Bombey), Kolkata (Kalkutta), Dehli, Bangalor, Chennay (Madras), Haydarobod, Ahmadobod eng yiriklari hisoblanadi.

Hindiston aholisi ancha notekis joylashgan. Aholi zichligi Ganga daryosi vodiysi va dengizbo‘yi pasttekisliklarida juda yuqori bo‘lsa (1 km^2 ga 1000 kishidan ko‘proq), baland Himolay tog‘i yonbag‘irlari, Shimoli-g‘arbiy va markaziy qurg‘oqchil hududlarida esa, aksincha, ancha siyrak joylashgan *(116-rasm).*



116-rasm. **Hindistonda aholi zichligi (kishi/km²)**

Iqtisodiyoti. Hindiston jahonda yalpi ichki mahsuloti hajmiga ko‘ra Xitoy va AQSHdan keyingi 3-o‘rinda turadi (2020-y.) va tayanch rivojlanayotgan mamlakatlardan biri sanaladi. Ayni paytda Hindistonni ko‘pincha “tafovutlar mamlakati” deyishadi, chunki unda boylik bilan kambag‘allik, eng zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari bilan natural ishlab chiqarishga asoslangan oddiy xo‘jaliklar uyg‘unlashib ketgan *(117-rasm).*

Hindiston yengil va oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashgan mamlakatdan tobora zamonaviy texnologiyalarga asoslangan sanoat tarmoqlari rivojlangan mamlakatga aylanib bormoqda. Mamlakat iqtisodiyotining asosini metallurgiya, mashinasozlik va kimyo sanoati tashkil etadi. Hindiston ko‘mir va temir rudalari, osh tuzini qazishda, po‘lat, cho‘yan, mis, alyuminiy eritishda, sement, ip-gazlama, poyabzal ishlab chiqarishda jahon mamlakatlarining birinchi beshtaligiga kiradi. Mamlakatda avtomobilsozlik va kemasozlik ham tez rivojlanmoqda. Bangalor shahri butun dunyoga mashhur zamonaviy axborot texnologiyalarining markazi hisoblanadi.



Bangalor shahridagi texnoparklardan biri




Ipak matolarini qo‘lda to‘qish

117-rasm. **Hindiston — “tafovutlar mamlakati”**

Qishloq xo‘jaligida mamlakatdagi jami band aholining 40% iga yaqini mehnat qiladi. Tabiiy sharoiti qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun ancha qulayligi sababli Hindiston hududining yarmidan ko‘pi ekin maydonlariga aylantirilgan. Ekin maydonlarining kattaligiga ko‘ra u jahonda AQSHdan keyingi 2-o‘rinda turadi. Mamlakat ekin maydonlarining ⅖ qismi sug‘orishni talab qiladi. Sug‘oriladigan maydonlar hajmiga ko‘ra Hindiston faqat Xitoydan keyin turadi. Hozirgi vaqtda Hindiston sholi, bug‘doy, kartoshka, shakarqamish, yeryong‘oq, sabzavot, meva, paxta, choy, murch, turli dorivor ekinlar yetishtirish bo‘yicha jahon mamlakatlarining birinchi uchligiga kiradi.

Savol va topshiriqlar

1. Hindistonning iqtisodiy-geografik o‘rnini izohlang. Mazkur omil uning iqtisodiy taraqqiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
2. Mamlakat tabiiy sharoitining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat? Tabiiy resurslar Hindiston sanoati va qishloq xo‘jaligi rivojlanishida qanday ahamiyat kasb etadi?
3. Hindiston aholisining qanday xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi? Hindiston va Xitoyning aholi tabiiy harakati, milliy va diniy tarkibini taqqoslang.
4. Quyidagi xaritada belgilangan Hindistonning yirik shaharlari nomini aniqlang.



5. Hindiston to‘g‘risidagi ma’lumotlar orasidan xatolarini toping va ularni to‘g‘rilang.
   - Yirik industrial-agrar mamlakatlar guruhiga kiradi;
   - Siyosiy-hududiy tuzilishiga ko‘ra federativ davlat hisoblanadi;
   - Aholi zichligi markaziy va g‘arbiy qismlarida juda yuqori;
   - Aholisining asosiy qismi buddizm diniga e’tiqod qiladi;
   - Mashhur Toj Mahal majmuasi Agra shahrida joylashgan;
   - Eng yirik daryolari Ganga va Hind daryolari;
   - Ekin maydonlarining kattaligiga ko‘ra jahonda Xitoydan keyingi ikkinchi o‘rinda turadi;
   - YIM hajmi bo‘yicha jahonda uchinchi o‘rinda turadi;
   - Mumbay shahri butun dunyoga mashhur zamonaviy axborot texnologiyalarining markazi hisoblanadi;
   - Ayni paytda Hindistonni ko‘pincha “tafovutlar mamlakati” deyishadi.
6. Atlasdagi Hindistonning iqtisodiy xaritasidan foydalanib mamlakat qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvini tahlil qiling. Unga qanday omillar ta’sir etgan? Yozuvsiz xaritaga mamlakatning asosiy sanoat markazlari hamda qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvini tushiring.

46-§. Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari

Fors qo‘ltig‘i, Arabiston yarimoroli, monarxiya, tropik cho‘llar, dengiz suvini chuchuklashtirish, neft sanoati, din turizmi.

Fors qo‘ltig‘i arab mamlakatlarining jahon iqtisodiyotidagi ahamiyatini qanday omil belgilab beradi?

Fors qo‘ltig‘i atrofida 8 ta davlat joylashgan bo‘lib, ulardan 6 tasi — Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), Ummon, Qatar, Kuvayt, Bahrayn — tabiiy geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, demografik va milliy-madaniy jihatdan bir-biriga ancha o‘xshaydi. Bu mamlakatlar guruhi **Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari** deb ataladi. Fors qo‘ltig‘idagi kichik orollarda joylashgan Bahrayndan tashqari, shu guruhdagi barcha davlatlar Arabiston yarimorolida joylashgan. Mintaqa iqtisodiy-geografik o‘rnining qulayligi uchta qit’a — Osiyo, Afrika va Yevropa tutashgan hududda, xalqaro ahamiyatdagi dengiz yo‘llari bo‘yida joylashganligi bilan belgilanadi. Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari maydoni va aholisi soniga ko‘ra bir-biridan farq qiladi *(21-jadval).* Mintaqadagi hududiy va demografik salohiyati bo‘yicha eng yirik davlat Saudiya Arabistonidir.

21-jadval. ***Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari haqida umumiy ma’lumot***

Davlat	Poytaxt	Maydoni (ming km²)	Aholisi (mln kishi, 2020-y.)
Bahrayn	Manama	0,8	1,5
Birlashgan Arab Amirliklari	Abu Dabi	83,6	9,8
Kuvayt	Al Kuvayt	17,8	4,7
Qatar	Doxa	11,6	2,8
Saudiya Arabistoni	Ar Riyod	2149,7	35
Ummon	Maskat	309,5	4,7

Fors qo‘ltig‘i arab davlatlarining barchasi monarxiya boshqaruv shakliga ega. Saudiya Arabistoni, Qatar, Ummon mutlaq monarxiya, Kuvayt, Bahrayn konstitutsion monarxiya hisoblanadi. BAA esa har biri mutlaq monarxiya hisoblanadigan yettita amirliklar federatsiyasi bo‘lib, davlat tuzumida mutlaq va konstitutsion monarxiya elementlari uyg‘unlashgan.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Arabiston yarimoroli qadimgi platformada joylashganligi sababli relyefida tekislik va yassitog‘liklar asosiy o‘rin egallaydi. Iqlimi tropik, yil bo‘yi issiq va quruq. Yozda kunduzi havo harorati odatda +50 °C dan yuqori bo‘ladi, kechasi esa 0 °C gacha tushishi mumkin. Yillik yog‘in miqdori 100 mm ga yetmaydi. Fors qo‘ltig‘i mintaqasida asosiy tabiat zonasi tropik cho‘llardir *(118-rasm).*



118-rasm. **Arabiston yarimorolidagi cho‘l landshafti**

Fors qo‘ltig‘i arab davlatlarining asosiy tabiiy boyligi ulkan neft va gaz zaxiralari hisoblanadi. Neft zaxiralari bilan ayniqsa Saudiya Arabistoni, Kuvayt va BAA, tabiiy gaz zaxiralari bilan esa Qatar, Saudiya Arabistoni va BAA ajralib turadi.

Iqlimning qurg‘oqchilligi tufayli suv resurslarining taqchilligi mavjud. Doimiy oqar suvlar yo‘qligi sababli qadimdan asosiy suv manbai sifatida yerosti suvlari xizmat qilgan. Hozirgi sharoitda suv bilan ta’minlanishda dengiz suvini chuchuklashtirish katta ahamiyat kasb etadi *(119-rasm).* Daryolar faqatgina yomg‘irlar yog‘adigan paytlarda suvga to‘ladigan o‘zanlar — vodiylar ko‘rinishiga ega.



119-rasm. **Dengiz suvini chuchuklashtiradigan korxona**



120-rasm. **Al Kuvayt shahri**

Aholisi. Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari aholisining muhim xususiyati xorijiy migrantlar ulushining kattaligidir. Ummonda xorijiy ishchilar aholining 25% ini, Saudiya Arabistonda 30% ini tashkil etsa, boshqa davlatlarda bu ko‘rsatkich 50% dan yuqori, BAAda esa 90% ga yaqin. Xorijiy migrantlarning asosiy qismini Janubiy Osiyo va Shimoliy Afrika mamlakatlari fuqarolari tashkil etadi.



121-rasm. **Makka shahridagi muqaddas Ka’ba**

Mintaqa davlatlarida aholining tabiiy o‘sishi nisbatan yuqori emas. Ummonda bu ko‘rsatkich yiliga 2% atrofida, qolgan davlatlarda esa 0,9–1,2% ga teng.

Fors qo‘ltig‘i arab davlatlariga shahar aholisi ulushining yuqoriligi xos. Xususan, Ummon, Saudiya Arabistoni, BAA va Bahraynda urbanizatsiya darajasi 80% dan ortiq, Kuvayt va Qatarda esa 100% ga teng. Mintaqadagi eng yirik shaharlar — Ar Riyod, Jidda, Dubay, Makka, Madina, Abu Dabi, Al Kuvayt *(120-rasm)*.

Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar, Kuvaytda sunniy, Bahraynda shia, Ummonda ibodiy musulmonlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Saudiya Arabistonidagi Makka va Madina shaharlari butun dunyo musulmonlari uchun muqaddas shaharlar hisoblanadi *(121-rasm)*.

Iqtisodiyoti. Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YIM hajmi bo‘yicha mintaqa mamlakatlari jahonda yetakchi o‘rinlarda turadi.


Iqtisodiyotning tayanch tarmog‘i — neft va gaz sanoati. Neft va gaz eksporti mintaqa davlatlari daromadining eng muhim manbai hisoblanadi. Energiya manbalari bilan yaxshi ta’minlangani hisobiga mintaqa davlatlarida kimyo va neft-kimyo, qora va rangli metallurgiya sanoati rivojlanmoqda.

Dehqonchilikning rivojlanishi suv resurslari yetishmovchiligi bilan cheklangan. So‘nggi vaqtlarda tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini keng qo‘llashga e’tibor qaratilmoqda. An’anaviy ravishda asosiy qishloq xo‘jalik ekini xurmo palmasi hisoblanadi. Chorvachilikning asosiy tarmoqlari qo‘ychilik, echkichilik va tuyachilik.

Mintaqa davlatlarida, shuningdek, bank-moliya sektori, tranzit savdo va turizm ham yaxshi rivojlanmoqda.

Savol va topshiriqlar

1. Fors qo‘ltig‘i arab davlatlarining iqtisodiy-geografik o‘rnini izohlang.
2. Atlasdagi jahonning siyosiy xaritasi yordamida quyidagi xaritada Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari qaysi harflar bilan ko‘rsatilganini toping.



3 Ushbu davlatlar tabiiy sharoitining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat? Mintaqa qanday resurslar zaxiralari bilan jahon bo‘yicha ajralib turadi? Aksincha, qanday tabiiy resurslar nihoyatda taqchil?

4 Mintaqa davlatlari aholisi tarkibida xorijiy migrantlar ulushi katta ekanligini qanday izohlash mumkin? Sizningcha, ushbu davlatlarda shahar aholisi salmog‘ining yuqori ekani qanday omillar bilan bog‘liq?

5 Jadvalni to‘ldiring. Mintaqadagi aholi zichligi eng yuqori va eng past davlatlarni aniqlang.

Davlat	Maydoni (ming km²)	Aholisi (mln kishi, 2020-y.)	Aholi zichligi (kishi/km²)
Bahrayn	0,8	1,5	... ...
Birlashgan Arab Amirliklari	83,6	9,8	... ...
Kuvayt	17,8	4,7	... ...
Qatar	11,6	2,8	... ...
Saudiya Arabistoni	2149,7	35	... ...
Ummon	309,5	4,7	... ...

6 Yozuvsiz xaritaga Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvi va asosiy sanoat markazlarini belgilang.

47-§. Umumlashtiruvchi dars

1 Darslik matnidagi ma’lumotlar asosida quyidagi davlatlar qanday ko‘rsatkichlar bo‘yicha jahonda oldingi o‘rinlarda turishini topib jadvalni to‘ldiring.

Davlatlar	Jahon bo‘yicha egallagan o‘rni				
	I	II	III	IV	Yetakchi 10 talikka kiradi
Qozog‘iston					
Turkmaniston					
Turkiya					
Xitoy					
Koreya Respublikasi					
Yaponiya					
Hindiston					

2 Quyidagi testlarning javobini daftaringizga yozing.

I variant

1 Turkmanistonda elektr energiyasi qaysi manbadan olinadi?

a) IES b) GES

2 Xitoy quruqlikda nechta davlat bilan chegaradosh?

a) 16 ta b) 12 ta d) 14 ta

3 “Sony” kompaniyasi qaysi davlatga tegishli?

a) Koreya Respublikasi b) Xitoy d) Yaponiya e) Singapur

4 “Osiyo yo‘lbarslari” guruhiga mansub davlatni toping.

a) Yaponiya b) Malayziya d) Isroil e) Xitoy f) BAA

II variant

1 Quyidagilar orasidan iqtisodiyoti uchun turizm muhim ahamiyatga ega bo‘lgan davlatni toping.

a) Qirg‘iziston b) Qozog‘iston

2 Qaysi shahar Turkiyaning eng yirik shahri hisoblanadi?

a) Anqara b) Istanbul d) Izmir


3 Jahondagi eng ko‘pmillatli davlatni toping.

a) Xitoy b) Pokiston d) Eron e) Hindiston

4 2020-yil yakunlariga ko‘ra, Koreya Respublikasi tashqi savdo aylanmasi bo‘yicha O‘zbekistonning savdo hamkorlari orasida nechanchi o‘rinni egallagan?

a) 2-o‘rinni b) 5-o‘rinni d) 1-o‘rinni e) 4-o‘rinni f) 3-o‘rinni

3. Xaritada turli harflar bilan belgilangan davlatlarga mos tushuncha va nomlarni toping va ularni izohlang.



1) “Sinkansen”;
2) Balxash;
3) “Uch dara”;
4) yangi industrial mamlakat;
5) Nikobar;
6) Makka;
7) ibodiy musulmonlari;
8) Norak;
9) “Avaza”;
10) Issiqko‘l;
11) Sharqiy Frakiya;
12) Oyatullo;
13) Karachi;
14) Hirot.

4 6-bobdagi har bir mavzudan 2 tadan test topshiriqlari tuzing.



7-Bob. Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Amerika mamlakatlari

48-§. Afrikaning geografik o‘rni, siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari

Afrika, qit’a, materik, Gibraltar bo‘g‘izi, Suvaysh kanali, mustamlakachilik, “Afrika yili”, Sahroyi Kabir, cho‘llashish, Saxel.

Afrika geografik o‘rnining asosiy xususiyatlarini tavsiflang.

Afrika qit’asi shu nomdagi materik va unga tutash orollardan iborat. Qadimgi finikiyaliklar “afarik” so‘zi bilan Karfagendan g‘arbda yashovchi qabilalarni ataganlar (“afar” so‘zi finikiyaliklar tilida “chang” ma’nosini anglatgan). Rimliklar Karfagen shahri va uning atroflarini bosib olganlaridan so‘ng bu hududga Afrika nomini berdilar. Keyinchalik esa bu nom butun materikka nisbatan qo‘llana boshlagan.

Afrikaning orollar bilan birgalikdagi maydoni 30,3 mln km^2 ni tashkil etadi. Aholisi 2020-yil ma’lumotlariga ko‘ra 1,34 milliard kishiga yaqin (dunyo aholisining 17,2% i).

Afrikaning o‘rtasidan ekvator chizig‘i, g‘arbidan esa bosh meridian o‘tgan. Shu tufayli Afrika ham Shimoliy, ham Janubiy, ham Sharqiy, ham G‘arbiy yarimsharlarda joylashgan *(122-rasm).*



122-rasm. **Afrika qit’asi**

Afrika qirg‘oqlari shimolda O‘rta dengiz, shimoli-sharqda Qizil dengiz, sharqda Hind okeani, g‘arbda Atlantika okeani suvlari bilan yuviladi. Qizil dengiz, Suvaysh kanali va Bob al Mandob bo‘g‘izi Afrikani Osiyodan, O‘rta dengiz va Gibraltar bo‘g‘izi esa Yevropa qit’asidan ajratadi *(123-rasm).*

Qit’a siyosiy xaritasining shakllanish tarixi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlab Afrikaning aksariyat hududlari Yevropa davlatlarining mustamlakalariga aylandi. 1914-yilga kelib Afrikada faqatgina 2 ta mustaqil davlat qolgan edi: bir necha ming yillik davlatchilik tarixiga ega Efiopiya hamda 1847-yili AQSH yordamida barpo etilgan Liberiya davlati. Qit’aning qolgan qismlari Buyuk Britaniya, Fransiya, Portugaliya, Belgiya, Germaniya, Italiya va Ispaniya tomonidan o‘zaro bo‘lib olingan edi *(124-rasm).*

Afrika mamlakatlarining mustaqillikka erishish jarayoni 1950-yillarda boshlandi. BMT tomonidan “Afrika yili” deb e’lon qilingan 1960-yili qit’adagi



123-rasm. **Gibraltar bo‘g‘izining Yevropadagi qirg‘og‘idan Afrika qirg‘og‘ining ko‘rinishi**



124-rasm. **Afrika siyosiy xaritasining 1914-yildagi holati**



126-rasm. **Cho‘llashish kuchli rivojlanayotgan Saxel o‘lkasi hududi**

17 ta mamlakat mustaqillikka erishdi va jahon hamjamiyati tomonidan tan olindi. Ko‘plab mamlakatlar 1960–1980-yillar mobaynida davlat mustaqilligini qo‘lga kiritdi. Qit’adagi eng yosh davlatlar — 1990-yili mustaqillikka erishgan Namibiya, 1993-yili Efiopiyadan ajralib chiqqan Eritreya va 2011-yili mustaqilligini e’lon qilgan Janubiy Sudan hisoblanadi. Afrikaning hozirgi siyosiy xaritasida 54 ta mustaqil davlat mavjud *(125-rasm)*.

Afrikadagi ko‘plab davlatlarning chegaralari mustamlakachilik davrida shakllangan bo‘lib, aksariyat hollarda tabiiy va etnik chegaralarga mos kelmaydigan sun’iy ko‘rinishlarga ega. Buning ta’sirida qit’ada haligacha turli harbiy mojarolar va etnik ziddiyatlar tez-tez sodir bo‘lib turadi.

Afrika siyosiy xaritasining o‘ziga xos jihatlaridan biri yirik maydonli davlatlarning ko‘pligidir. Dunyodagi hududi 1 mln km^2 dan katta 29 ta davlatdan 12 tasi Afrikada joylashgan (Jazoir, KDR, Sudan, Liviya, Chad, Niger, Angola, Mali, JAR, Efiopiya, Mavritaniya, Misr) bo‘lsa, maydoni 1 ming km^2 dan oshmaydigan 24 ta davlatdan esa faqatgina 1 tasi — Seyshel orollari Afrikaga tegishli.

Afikada jami 6 ta orol mamlakat joylashgan. Ular Madagaskar, Kabo Verde, Komor orollari, Mavrikiy, San Tome va Prinsipi hamda Seyshel orollaridir. Dengizlarga chiqish imkoniyati yo‘q davlatlarning soni bo‘yicha Afrika qit’alar orasida yetakchilik qiladi. Afrikadagi jami 16 ta davlat quruqlik ichkarisida joylashgan. Ular qatorida Chad, Niger, Mali, Efiopiya, Zambiya, Botsvana kabi yirik davlatlar ham bor. Efiopiya dunyoning quruqlik ichkarisida joylashgan 44 ta davlati orasida aholi soni bo‘yicha yetakchisi hisoblanadi.

Afrika janubida joylashgan Lesoto davlati geografik o‘rnining o‘ziga xosligi uning hamma tomondan JAR hududi bilan o‘ralganligidir. Binobarin, Lesoto Yevropadagi San Marino va Vatikan kabi “mitti” davlatlar singari anklav davlat hisoblanadi.

Afrika davlatlaridan 51 tasi respublika, 3 tasi (Marokash, Lesoto, Esvatini) monarxiya boshqaruv shakliga ega. Qit’adagi respublikalarning aksariyati prezidentlik respublikalar hisoblanadi. Ma’muriy-hududiy jihatidan Afrikadagi 6 ta davlat federativ tuzilishga ega — Nigeriya, Efiopiya, Sudan, Janubiy Sudan, Somali, Komor orollari.

Afrika davlatlari boy va xilma-xil tabiiy resurslari, ayniqsa, mineral boyliklari bilan ajralib turadi. Neft va tabiiy gaz zaxiralariga Nigeriya, Jazoir, Liviya, Angola, Gabon, Kongo, Ekvatorial Gvineya kabi davlatlar boy. Qit’ada eng katta ko‘mir zaxiralari bilan JAR ajralib turadi. JAR, Namibiya, Botsvana, Zambiya, KDR, Niger kabi Afrika davlatlari rangli, qimmatbaho va radioaktiv metallar, olmosning yirik konlari bilan mashhur.




125-rasm. **Afrikaning siyosiy xaritasi**

Afrikada eng keng tarqalgan tabiat zonalari savanna, chalacho‘l, cho‘l hamda nam ekvatorial o‘rmonlar hisoblanadi. Shimoliy Afrikada sayyoramizdagi eng yirik cho‘l — Sahroyi Kabir joylashgan. Uning janubiy chegarasi bo‘ylab cho‘zilgan Saxel deb ataluvchi chalacho‘l xususiyatli tabiiy geografik o‘lka jahon bo‘yicha aholisi va qishloq xo‘jaligi cho‘llashish jarayonidan eng jiddiy zarar ko‘rayotgan hudud hisoblanadi. Saxel Sudan, Chad, Niger, Mali, Mavritaniya kabi davlatlar hududini qamrab oladi *(126-rasm)*.

Savol va topshiriqlar

1 Atlasdagi jahonning siyosiy xaritasi yordamida quyidagi yozuvsiz xaritada raqamlar bilan qaysi davlatlar ko‘rsatilganini toping va tegishli javoblarni daftaringizga belgilang.



2 Afrika siyosiy xaritasining tarixiy shakllanishi va zamonaviy holatining xususiyatlarini izohlang. Nima sababdan qit’ada etnik ziddiyatlar tez-tez sodir bo‘lib turadi?

3 Jahonning siyosiy xaritasidan Afrikaning orol mamlakatlarini topib, nomlari va poytaxtlarini daftaringizga yozib oling.

4 Afrika geografik o‘rnining o‘ziga xos xususiyatlari uning tabiiy sharoitiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?

5 Atlasdagi o‘rmon resurslari xaritasidan foydalanib Afrikaning qaysi mamlakatlari o‘rmonlarga boy ekanligini aniqlang va uning sababini izohlang.

6 Saxel hududi qanday xususiyatlari bilan ajralib turadi? Cho‘llashishga qarshi kurashishda qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaysiz? Sizningcha, Markaziy Osiyo mintaqasi uchun cho‘llashish muammosi qanchalik dolzarb?

49-§. Afrika mamlakatlarining aholisi va xo‘jaligi


Aholi zichligi, tabiiy ko‘payish, urbanizatsiya, janubiy yevropeoidlar, negroidlar, aholining etnik va diniy tarkibi, xomashyoni yetkazib beruvchi xo‘jalik tarmoqlari, ekin yakkahokimligi.

Afrikaning aksariyat davlatlari iqtisodiy rivojlanishining qanday xususiyatlari bilan jahon bo‘yicha ajralib turadi?

Afrikada 2020-yil holatiga ko‘ra 1,34 milliardga yaqin kishi yashaydi. Bu jahon aholisining 17,2% ini tashkil etadi. Qit’a davlatlari orasida aholi soni jihatidan alohida ajralib turadigan davlat Nigeriya hisoblanadi. Uning aholisi 2020-yil ma’lumotlariga ko‘ra 206,1 mln kishiga teng bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha dunyo mamlakatlari orasida 7-o‘rinda turadi.

Aholisi soni jihatidan Nigeriyadan keyingi yetakchi o‘rinlarni Efiopiya (115 mln kishi), Misr (100,8 mln kishi), Kongo Demokratik Respublikasi (89,6 mln kishi), Tanzaniya (59,7 mln kishi), Janubiy Afrika Respublikasi (59,6 mln kishi) va Keniya (53,5 mln kishi) kabi davlatlar egallaydi (2020-y.).

Afrika aholisi qit’a bo‘yicha ancha notekis joylashgan *(127-rasm).* Bunga tabiiy omillar, ayniqsa, iqlim va suv resurslari katta ta’sir ko‘rsatgan. Nil vodiysi va deltasi, O‘rta dengiz va Gvineya qo‘ltiqbo‘yi hududlari, Sharqiy Afrikaning tog‘ oralig‘idagi botiqlari va JARning sanoatlashgan hududlarida aholi zichligi eng yuqori darajaga ega. Ayni paytda, Sahroyi Kabir, Kalaxari, Namib kabi tropik cho‘llarda aholi zichligi juda past.



127-rasm. **Afrikada aholi zichligi (kishi/km²)**

Afrika aholisi eng yuqori sur’atlar bilan o‘sayotgan qit’a hisoblanadi. Dunyo aholisi oxirgi yillarda o‘rtacha yillik hisobda 1,1% ga ko‘payib borayotgan bo‘lsa, Afrikada bu ko‘rsatkich 2,6% ni tashkil etadi (2020-y.). Afrikaning aksariyat mamlakatlariga tug‘ilish va aholi tabiiy ko‘payishining yuqori sur’atlari, o‘rtacha umr ko‘rishning nisbatan past ko‘rsatkichlari, aholining yosh tarkibida bolalarning ustunligi xos *(22-jadval).*


Bu holat faqat Tunis, Marokash, Botsvana, JAR, Kabo-Verde, Mavrikiy va Seyshel orollari kabi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi birmuncha yuqoriroq bo‘lgan davlatlarda qit’adagi umumiy vaziyatdan farq qiladi.

Afrika qit’alar orasida urbanizatsiya darajasi (43%, 2020-y.) jihatidan eng oxirgi o‘rinda turadi. Shahar aholisi salmog‘i asosan O‘rta dengiz bo‘yidagi davlatlar, JAR, kichik orol mamlakatlari va neft sanoati rivojlangan davlatlarida yuqori. Niger, Ruanda, Burundi, Malavi singari davlatlarda esa urbanizatsiya darajasi 20% ga ham yetmaydi.


22-jadval. ***Afrikadagi ayrim davlatlar hamda Germaniya va Yaponiyaning demografik ko‘rsatkichlari (2020-yil holatiga ko‘ra)***

Ko‘rsatkichlar	Afrikaning ayrim davlatlari		Jahonning rivojlangan davlatlari	
	Niger	KDR	Germaniya	Yaponiya
1 ayolga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha farzand soni	7,1	6,2	1,6	1,3
Aholining yillik tabiiy ko‘payishi, %	3,8	3,5	-0,2	-0,4
Erkak va ayollarning o‘rtacha umr ko‘rishi, yosh	E. — 58 A. — 60	E. — 58 A. — 62	E. — 78 A. — 83	E. — 81 A. — 87
Aholining yosh tarkibida 14 yoshgacha bolalarning ulushi, %	51	46	14	12
Aholining yosh tarkibida 64 yoshdan katta qariyalarning ulushi, %	3	3	22	29
1 yoshgacha bo‘lgan go‘daklar o‘limi, 1000 nafar tug‘ilgan bolaga nisbatan	69	68	4	2

Aholining irqiy, etnik va diniy tarkibi jihatidan Afrika qit’asi ikkita katta qismga bo‘linadi *(128-rasm)*. Birinchisi, Misr, Liviya, Sudan, Jazoir, Tunis, Marokash, Mavritaniya kabi davlatlardan iborat Shimoliy Afrika mintaqasi. Bu yerdagi aholi tarkibida janubiy yevropeoid irqiga mansub arab va barbarlar ustunlik qiladi, asosiy din islom hisoblanadi, etnik va diniy tarkibi yaxlitligi bilan ajralib turadi. Qit’adagi boshqa davlatlar esa Tropik Afrika mintaqasini tashkil qiladi. Bu davlatlar aholisining etnik tarkibi juda rang-barang bo‘lib asosan negroid irqiga mansub yuzlab millat va elatlardan iborat. Dinlardan esa islom, xristianlik va turli xil mahalliy dinlar keng tarqalgan bo‘lib, regionning har xil davlatlarida ularning nisbati turlicha *(129-rasm)*.



128-rasm. **Shimoliy va Tropik Afrika davlatlari aholisining qiyosiy tavsifi**



129-rasm. **Afrikada turli dinlarning tarqalishi**

Afrika davlatlarining jahon xo‘jaligidagi o‘rni asosan tog‘-kon sanoati va tropik dehqonchilik bilan belgilanadi. Ya’ni qit’adagi davlatlar iqtisodiyotida ko‘proq xomashyo yetkazadigan tarmoqlar ustunlik qiladi. Buning asosiy sabablari ixtisoslashuvning mustamlakachilik davrida shakllanganligi, ishlab chiqarishning texnik va texnologik qoloqligi bilan bog‘liq.

Nigeriya, Jazoir, Angola, Liviya, Gabon, Kongo, Ekvatorial Gvineya neft va tabiiy gaz, Namibiya va Niger uran, Gvineya boksit rudalari, Zambiya va KDR mis rudalari, Marokash va Misr fosforit, Gana oltin, KDR, Botsvana, Angola, Zimbabve, Namibiya, Serra Leone olmos, JAR esa toshko‘mir, temir, marganes, oltin, platina, olmos kabi mineral resurslarni qazib olish va eksport qilish hajmi bilan ajralib turadi.

Yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari qit’aning Misr, Jazoir, Tunis, Marokash, JAR kabi mamlakatlarida yaxshi rivojlangan. Afrika mamlakatlarida yirik sanoat rayonlari va markazlari asosan mineral resurslar qazib olinadigan hududlar hamda port shaharlari atrofida shakllangan.

Aksariyat Afrika mamlakatlari qishloq xo‘jaligi uchun ma’lum bir ekin turining yakkahokimligi xosdir. Masalan, Sudan, Mali, Chad va Burkina Fasoda asosiy ekin paxta, Kot d’Ivuar, Gana, Kamerunda kakao, Senegal va Gambiyada yeryong‘oq, Efiopiya va Ugandada kofe, Keniyada esa choy hisoblanadi. Ko‘ptarmoqli qishloq xo‘jaligi JAR hamda O‘rta dengiz bo‘yidagi davlatlarda shakllangan.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi nuqtayi nazaridan Afrika 3 ta qismga bo‘linadi. JAR qit’a davlatlari orasida iqtisodiy jihatdan eng qudratlisi bo‘lganligi uchun alohida ajratiladi. Misr, Liviya, Jazoir, Tunis va Marokash — birmuncha yuqori darajada rivojlanayotgan davlatlar Shimoliy (O‘rta dengizbo‘yi) Afrika iqtisodiy-geografik mintaqasi sifatida ajratiladi. Qit’aning qolgan barcha davlatlari Tropik Afrika mintaqasini hosil qiladi. Tropik Afrikadagi 33 ta davlat BMT tomonidan jahonning eng sust rivojlangan davlatlari guruhiga kiritilgan (2021-y.).

Savol va topshiriqlar

1. Afrika davlatlari aholisining ko‘payishi va yosh tarkibining o‘ziga xos xususiyatlarini izohlang. Tabiiy ko‘payish va aholining yosh tarkibi orasidagi bog‘liqlikni tushuntiring.
2. Afrika mamlakatlarining jahon xo‘jaligidagi o‘rnini qaysi tarmoqlar belgilab bermoqda? Nima uchun?
3. Xaritada ajratib ko‘rsatilgan davlatlarning qaysilariga quyidagi xususiyatlar xos ekanligini aniqlang:




- a) aholisi tarkibida janubiy yevropeoid irqiga mansub arab va barbarlar ustunlik qiladi;
- b) Afrikada aholi soni bo‘yicha yetakchi ikki davlat;
- d) mis qazib olish va eksport qilish hajmi bilan ajralib turadi;
- e) yeryong‘oq asosiy ekin hisoblanadi;
- f) urbanizatsiya darajasi 20% ga ham yetmaydi.

4. Afrika davlatlari qishloq xo‘jaligi uchun qanday jihat xos? Bu xususiyatni ayrim davlatlar misolida tavsiflang.
5. Atlasdagi Afrika iqtisodiy xaritasidan foydalanib yozuvsiz xaritaga qit'adagi neft, temir va mis rudalari konlarini belgilang hamda ular joylashgan davlatlarning nomlarini yozib qo'ying.

Xalqaro dengiz yo‘llari, tropik cho‘llar, subtropik iqlim, Drakon va Kap tog‘lari, Veld platosi, mineral boyliklar, afrikanerlar, afrikaans tili, tog‘-kon sanoati.

Janubiy Afrika Respublikasi o‘zining qanday tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari bo‘yicha Afrika qit’asi va jahon miqyosida ajralib turadi?





Maydoni: **1219,9** ming km²
Aholisi (2020): **59,6** mln
Poytaxti: **Pretoriya**

50-§. Janubiy Afrika Respublikasi

Janubiy Afrika Respublikasi (JAR) Afrika qit’asining chekka janubiy qismida joylashgan. Qirg‘oqlari janubi-g‘arbda Atlantika okeani, janubi-sharqda Hind okeani suvlari bilan yuviladi. JAR muhim va serqatnov xalqaro dengiz yo‘llari bo‘yida joylashgan. Uning Keyptaun shahri Janubiy yarimshardagi eng yirik port-shaharlardan biri.

Mamlakat boshqaruv shakli jihatidan parlamentar respublika. Poytaxti — Pretoriya. Lekin u yerda faqat prezident va hukumatning qarorgohlari joylashgan. JAR parlamenti Keyptaunda, Oliy sudi esa Blumfonteyn shahrida faoliyat ko‘rsatadi.


Tabiiy sharoiti va resurslari. Janubiy Afrika Respublikasining relyefi xilma-xil. Sharqiy qismida Drakon tog‘lari *(130-rasm),* janubida esa Kap tog‘lari joylashgan. Mamlakatning shimoliy va markaziy qismlari Veld platosi bilan band, g‘arbiy rayonlari esa tekislik relyefi bilan ajralib turadi. JAR yirik mineral boyliklarga ega. Mamlakatda ko‘mir, marganes, xrom, uran, oltin, olmos, platina, vanadiy va turli nodir metallarning katta zaxiralari mavjud.

Janubiy Afrika Respublikasining markaziy va g‘arbiy hududlarida issiq va qurg‘oqchil tropik iqlim shakllangan. Mamlakat janubi va sharqidagi dengizbo‘yi hududlarida esa nam subtropik iqlim tipi kuzatiladi. JARning shimoli-g‘arbida Kalaxari cho‘li *(131-rasm),* Atlantika okeani sohilida esa Namib cho‘li joylashgan. Mamlakatning qurg‘oqchil iqlimli qismida suv resurslari taqchilligi mavjud. JARdagi eng yirik daryo — Oranj.

Aholisi. Janubiy Afrika Respublikasi qit’a mamlakatlari orasida aholisi soni bo‘yicha 6-o‘rinda turadi. Aholining tabiiy ko‘payishi sur’atlari aksariyat Afrika davlatlariga nisbatan pastroq bo‘lib, yillik hisobda 1,1% ni tashkil etadi. JAR aholisi qo‘shni davlatlardan ko‘chib keluvchilar hisobiga ham ko‘paymoqda.



130-rasm. **Drakon tog‘lari**



131-rasm. **Kalaxari cho‘li**

Shahar aholisining ulushi 67% bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich Afrikadagi ko‘p davlatlarga nisbatan yuqori hisoblanadi *(23-jadval).* Mamlakatning eng yirik shahri va iqtisodiy poytaxti — Yohannesburg. Undan tashqari, Keyptaun *(132-rasm)* va Durban ham mamlakatdagi yirik shaharlar qatoriga kiradi.

Aholisining salkam 80% ini turli mahalliy millat va elat vakillari tashkil qiladi. Mamlakatdagi yevropaliklarning katta qismini afrikanerlar — XVII–XIX asrlarda ko‘chib kelgan gollandlarning avlodlari tashkil etadi. Ular niderland tili asosida shakllangan afrikaans tilida so‘zlashadi. JAR konstitutsiyasiga binoan 11 ta til, jumladan, afrikaans, ingliz va mahalliy millatlarning 9 ta tili rasmiy maqomga ega. Eng ko‘p tarqalgan din — xristianlik.

23-jadval. ***Aholiga oid ayrim ko‘rsatkichlarning JARda va Afrika davlatlari bo‘yicha o‘rtacha qiymatlari (2020-y.)***

№	Ko‘rsatkichlar	JAR	Afrika davlatlari bo‘yicha o‘rtacha qiymat
1	Tabiiy ko‘payish (%)	1,1	2,6
2	Migratsiya saldosi (1000 kishiga nisbatan)	4	-1
3	Go‘daklar o‘limi (1000 tirik tug‘ilganlarga nisbatan)	22	49
4	Aholi tarkibida 15 yoshdan kichik bolalarning ulushi (%)	29	41
5	Aholi tarkibida 64 yoshdan kattalarning ulushi (%)	6	3
6	Shahar aholisining salmog‘i (%)	67	43

Aholining joylashuviga iqlim sharoiti, suv resurslari hamda sanoatning rivojlanganligi katta ta’sir ko‘rsatgan. Mamlakatning shimoli-sharqidagi sanoat rayonlari hamda janubi-sharqiy va janubiy dengizbo‘yi hududlarida aholi zichligi yuqori bo‘lsa, g‘arbiy va shimoli-g‘arbiy cho‘l hududlarida aholi juda siyrak joylashgan.

Iqtisodiyoti. JAR Afrikaning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlatidir. Iqtisodiyoti tog‘-kon sanoati, mashinasozlik, ko‘ptarmoqli qishloq xo‘jaligi va turizmga ixtisoslashgan. JARda tog‘-kon sanoati yuqori darajada rivojlangan. JAR ko‘mir, temir, marganes, oltin, platina, palladiy rudalari, olmos va boshqa mineral resurslarni qazib olish bo‘yicha jahonda yetakchi o‘rinlarni egallaydi. U jahondagi eng yirik ko‘mir eksportyorlaridan biri. Mamlakatda elektr energiyasi asosan ko‘mirda ishlaydigan IESlarda ishlab chiqariladi.

Qishloq xo‘jaligi suv resurslari taqchilligi tufayli JAR hududining 15% ida intensiv rivojlangan, xolos. Ammo shunga qaramay, dehqonchilik va chorvachilikning turli tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Dehqonchilik bog‘dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan. Chorvachilikning asosiy tarmoqlari — qoramolchilik, qo‘ychilik (shu jumladan, qorako‘lchilik), echkichilik. Chorvachilikning noodatiy tarmog‘i — tuyaqushlarni ko‘paytirish ham rivojlangan *(133-rasm).*

JARning janubiy dengizbo‘yi qismida hamda mamlakat ichkarisidagi yirik shaharlarda turizm yaxshi rivojlangan.



132-rasm. **Keyptaun shahri**



133-rasm. **Tuyaqush fermasi**

Savol va topshiriqlar

1. Janubiy Afrika Respublikasi iqtisodiy-geografik o‘rniga baho bering. Uning ijobiy jihatlari nimalardan iborat?
2. Mamlakat tabiiy sharoiti va resurslari uning xo‘jalik ixtisoslashuvi va rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? U qaysi turdagi mineral resurslarni qazib olish bo‘yicha jahonda yetakchi o‘rinlarni egallaydi?
3. JAR aholisining ko‘payishi va tarkibi, urbanizatsiya darajasi bo‘yicha Tropik Afrika mamlakatlaridan qanday farqlanadi? Sizningcha, bunga qanday omillar ta’sir etgan?
4. Matndagi xatolarni toping va ularni tuzating.

JARning g‘arbiy qismida Drakon tog‘lari joylashgan. Eng yirik daryosi — Zambezi. Aholisi soni bo‘yicha qit’a mamlakatlari orasida 8-o‘rinda turadi. Aholining tabiiy ko‘payishi sur’atlari yillik hisobda 1,4%. Urbanizatsiya darajasi 80%. Mamlakatning eng yirik shahri va iqtisodiy poytaxti Keyptaun hisoblanadi. JAR konstitutsiyasiga binoan 9 ta til rasmiy maqomga ega. Eng ko‘p tarqalgan din — buddaviylik. Qishloq xo‘jaligi mamlakat hududining 10% qismida intensiv rivojlangan. Dehqonchilikning eng muhim tarmoqlari bog‘dorchilik va polizchilik hisoblanadi.

5. JAR iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari nimalardan iborat? Mamlakat qishloq xo‘jaligining qit’adagi boshqa ko‘plab davlatlardan farqli ravishda ko‘p tarmoqlarga ixtisoslashganligi qanday iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyat kasb etadi?



51-§. Nigeriya Federativ Respublikasi

G‘arbiy Afrika, Tropik Afrika, Gvineya qo‘ltig‘i, Niger deltasi, Lagos, xausa, yoruba, igbo, neft va neftni qayta ishlash sanoati.


Fikringizcha, Afrika davlatlari orasida aynan Nigeriyani o‘rganishning qanday ahamiyati bor?

Nigeriya Federativ Respublikasi G‘arbiy Afrikada joylashgan. Janubdan qirg‘oqlari Atlantika okeanining Gvineya qo‘ltig‘i suvlari bilan yuviladi.


Boshqaruv shakli — prezidentlik respublikasi. Nigeriya federativ davlat bo‘lib, 36 ta shtat va federal poytaxt hududidan iborat. Shtatlar asosan aholining etnik tarkibi bo‘yicha ajratib qo‘yilgan. Mamlakat poytaxti — Abuja shahri uning markazida joylashgan *(134-rasm)*.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Nigeriya shimolida relyef asosan yassi tog‘liklardan iborat, mamlakatning janubiy qismi esa pasttekisliklar bilan band *(135-rasm)*. Nigeriyaning eng katta tabiiy boyligi — neft zaxiralari. Neft konlari ko‘proq janubda joylashgan.


Mamlakat asosan subekvatorial va ekvatorial iqlim mintaqalarida joylashgan. Yil bo‘yi issiq harorat saqlanadi. Yog‘in miqdori janubiy dengizbo‘yi hududlaridan shimolga tomon kamayib boradi. Ekvatorial iqlimli hududlarida yillik yog‘in miqdori 3000 mm atrofida. Doimiy va fasliy nam o‘rmonlar hamda savannalar asosiy tabiat zonalari hisoblanadi.




134-rasm. **Nigeriya poytaxti — Abuja shahri**



135-rasm. **Nigeriya relyefi**






Maydoni: **923,8** ming km²
Aholisi (2020): **206,1** mln
Poytaxti: **Abuja**

Daryolardan eng yirigi Niger bo‘lib, u uzunligi jihatidan Afrikada Nil va Kongodan keyingi uchinchi daryodir. Niger Gvineya qo‘ltig‘iga quyilishda katta deltani hosil qilgan. Niger deltasi mamlakatning muhim iqtisodiy rayoni hisoblanadi.

Aholisi. Nigeriya dunyoning aholisi eng ko‘p 10 ta davlati ichida aholisining eng yuqori sur’atlarda o‘sayotganligi bilan ajralib turadi. Aholi tabiiy ko‘payishi yillik hisobda 2,5% ga teng (2020-y.) bo‘lib, mamlakat aholisi yiliga 4,5–5 mln kishiga ko‘paymoqda.

Nigeriya aholisining 51% i shaharlarda yashaydi. Mamlakatda 10 ta “millioner” shahar mavjud (2020-y.). Gvineya qo‘ltig‘i sohilida joylashgan Lagos shahri nafaqat Nigeriyada,



136-rasm. **Lagos — Nigeriya va butun Afrikaning eng yirik shahri**

balki butun Afrikada eng yirik shahar hisoblanadi *(136-rasm).* Lagos 1991-yilgacha mamlakat poytaxti bo‘lgan, lekin uning aholisi juda ko‘pligi sababli poytaxt Abuja shahriga ko‘chirilgan.

Nigeriya Tropik Afrikaning aksariyat mamlakatlari singari ko‘pmillatli davlat, aholisi 250 tadan ziyod mahalliy millat va elatlardan iborat. Eng yirik millatlar — xausa, yoruba va igbo (har biri jami aholining taxminan 20% ini tashkil qiladi). Davlat tili — ingliz. Nigeriyaning shimoliy shtatlarida islom dini, janubiy shtatlarida esa xristian dini ko‘proq tarqalgan.

Nigeriyada aholi zichligi o‘rtacha hisobda 1 km^2 ga 220 kishidan ziyodroq bo‘lsa, qirg‘oqbo‘yi hududlarida bundan 3–4 barobar yuqori.

Iqtisodiyoti. Nigeriya YIMning umumiy hajmi bo‘icha Afrikada 1-o‘rinda turadi, ammo YIMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdori yuqori emas — 5200 AQSH dollari atrofida (2020-y.). Ammo bu Tropik Afrikadagi ko‘p davlatlarga nisbatan ancha yuqori ko‘rsatkichdir (mintaqa bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 2800 AQSH dollariga teng).

Iqtisodiyotining asosi va davlat byudjeti daromadlarining bosh manbai — neft eksporti. Neftni qazish va qayta ishlash sanoati Nigeriya sanoatining eng rivojlangan tarmog‘i *(137-rasm).* Mamlakatda o‘rmon, to‘qimachilik, oziq-ovqat va tog‘-kon sanoati ham birmuncha rivojlangan.




137-rasm. **Nigeriyadagi neftni qayta ishlash zavodlaridan biri**

Qishloq xo‘jaligi — aholi bandligining asosiy sohasi. Nigeriyada yeryong‘oq, makkajo‘xori, sholi, sorgo, paxta, turli sabzavot va meva ekinlari yetishtiriladi. Qoramolchilik, qo‘ychilik, echkichilik, cho‘chqachilik chorvachilikning asosiy tarmoqlari hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Nigeriya ma’muriy-hududiy tuzilishining federativ shakli qanday omil bilan bog‘liq? Shu kabi holatni yana qaysi davlatlarda kuzatish mumkin?
2. Jahonning siyosiy xaritasi yordamida Nigeriya va quyidagi davlatlarning geografik joylashuvida qanday umumiy jihat borligini aniqlang.




3. Nima sababdan Nigeriya poytaxti Lagosdan Abujaga ko‘chirilgan? Sizningcha, mamlakat poytaxtini tanlashda qanday omillarni hisobga olish kerak? Fikringizni asoslang.
4. Nigeriyaning qaysi qismida aholi zichligi eng yuqori? Mamlakatda aholi tarqalishiga ta’sir etuvchi omillarni izohlang.
5. Atlasdagi Afrika iqtisodiy xaritasidan foydalanib yozuvsiz xaritaga mamlakat qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvi va yirik sanoat markazlarini belgilang.



Suvaysh kanali, Sinay yarimoroli, Nil daryosi, Asvon suv ombori, tropik va subtropik iqlim, aholi zichligi, sug‘orma dehqonchilik, tarixiy-madaniy meros.

Misr hududida eng qadimiy sivilizatsiyalardan biri shakllanishiga qanday tabiiy geografik omillar ta’sir ko‘rsatgan?





Maydoni: **1001,4** ming km²
Aholisi (2020): **100,8** mln
Poytaxti: **Qohira**

52-§. Misr Arab Respublikasi

Misr Arab Respublikasi Afrikaning shimoli-sharqida hamda uning oz qismi Osiyo qit’asidagi Sinay yarimorolida joylashgan. Qirg‘oqlari shimolda O‘rta dengiz, sharqda Qizil dengiz suvlari bilan yuviladi. Misr hududidan o‘tadigan Suvaysh kanali bu ikki dengizni tutashtiradi va ayni paytda Afrika va Osiyoning chegarasi hisoblanadi. Suvaysh kanali o‘tganligi, Osiyo va Afrika tutashgan hududda joylashgani Misr iqtisodiy-geografik o‘rnining juda qulayligini belgilaydi.

Boshqaruv shakli — prezidentlik respublikasi. Misr poytaxti Qohira shahri mamlakat shimolida, Nil deltasida joylashgan. U Afrikadagi eng yirik shaharlardan biridir *(138-rasm)*.


Tabiiy sharoiti va resurslari. Misr hududi asosan tekisliklardan iborat. Faqat Qizil dengizga yaqin qismi hamda Sinay yarimorolida tog‘lar mavjud. Mamlakatda foydali qazilmalardan neft, tabiiy gaz, temir rudalari, fosforit konlari mavjud.

Misr hududining katta qismi tropik, O‘rta dengiz sohili esa subtropik mintaqada joylashgan. Yoz juda issiq, qish esa iliq. Yog‘in juda kam yog‘adi, yillik miqdori odatda 200 mm dan oshmaydi. Shuning uchun mamlakat hududi asosan tropik cho‘llar bilan band.

Issiq va quruq iqlim sharoitida Misr uchun suv resurslari yetishmovchiligi xos. Mamlakatning yagona daryosi — uning hududini janubdan shimolga kesib o‘tib, O‘rta dengizga quyiladigan Nil — cho‘llar orasidan oqib o‘tadigan tranzit daryo *(139-rasm)*. Aynan Nil daryosi Misrning bir necha ming yillik tarixi davomida asosiy suv manbai bo‘lgan. Nilda jahondagi eng yirik suv omborlaridan biri — Asvon suv ombori barpo etilgan *(140-rasm)*.



138-rasm. **Qohira shahri**



139-rasm. **Nil daryosi**

Aholisi. Misr Afrika mamlakatlari orasida aholisi soni bo‘yicha Nigeriya va Efiopiyadan keyingi uchinchi o‘rinda turadi. Aholining tabiiy ko‘payishi nisbatan yuqori darajada saqlanmoqda. Mamlakat aholisi yiliga 1,8% ga, ya’ni deyarli 2 mln kishiga ko‘payadi.

Misrda shahar aholisi ulushi 45% atrofida va bu ko‘rsatkich Shimoliy Afrikaning boshqa davlatlariga nisbatan pastroq darajada. Eng yirik shaharlari qatoriga Qohira, Iskandariya va Giza kiradi.

Misr aholisi etnik tarkibida arablar ko‘pchilikni tashkil qiladi. U arab davlatlari orasida aholi soni bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. Keng tarqalgan din — islom, lekin misrliklarning 10% ga yaqin qismi xristian diniga mansub.

Misr Arab Respublikasida aholi juda notekis joylashgan. Misrliklarning 90% idan ziyod qismi aholi zichligi bilan jahon miqyosida ajralib turadigan Nil vodiysi

va deltasida yashaydi. Shuningdek, Suvaysh kanali bo‘ylarida, O‘rta va Qizil dengiz sohillarida aholi zichligi birmuncha yuqori.

Iqtisodiyoti. Misr Afrika qit’asidagi davlatlar orasida eng katta iqtisodiy salohiyatga ega davlatlardan biri. Mamlakat iqtisodiyoti agrar-industrial xarakterga ega. Sanoati asosan neft-gaz, to‘qimachilik, oziq-ovqat va kimyo tarmoqlariga ixtisoslashgan. Shuningdek, Misrda metallurgiya, mashinasozlik, qurilish materiallari sanoati ham rivojlanib bormoqda.

Qishloq xo‘jaligi sug‘orma dehqonchilikka tayanadi. Asosiy ekinlar — paxta, bug‘doy, sholi, makkajo‘xori, meva, sabzavot va poliz ekinlari. Misr Afrika mamlakatlari orasida don ekinlari, sabzavot va mevalarning yalpi hosili bo‘yicha 1-o‘rinni egallaydi. Lekin donga bo‘lgan ehtiyojini import hisobiga qoplaydi va jahon bo‘yicha donni chetdan eng ko‘p xarid qiladigan davlatlardan biri sanaladi. Chorvachilikning asosiy tarmog‘i qoramolchilik.

Misrning davlat byudjeti uchun Suvaysh kanali orqali kemalar tranzitidan tushadigan bojlar muhim daromad manbaidir *(141-rasm).*



140-rasm. **Asvon suv ombori to‘g‘onining koinotdan ko‘rinishi**



141-rasm. **Suvaysh kanali**


Bundan tashqari, Misr iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri turizmdir. Turizm rivojlanishiga Misr dengizbo‘yi hududlarining tabiiy sharoiti hamda mamlakatning juda boy tarixiy-madaniy merosi katta ta’sir ko‘rsatadi *(142-rasm).*



142-rasm. **Misr ehromlaridan biri va Katta Sfinks haykali**


Savol va topshiriqlar

1. Misr Arab Respublikasi iqtisodiy-geografik o‘rnining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Nima uchun ko‘plab Afrika davlatlarida Misrning janubiy va g‘arbiy chegaralari singari to‘g‘ri chiziq shaklidagi chegaralar uchraydi?
2. Misr iqlimi qanday tavsiflanadi? Mamlakat uchun Nil daryosining ahamiyatini tushuntiring.
3. Misr Afrikada aholisi soni bo‘yicha yetakchi davlatlardan biri ekanligining sabablarini qanday izohlaysiz? Mamlakat aholisining joylashuviga qanday omillar katta ta’sir ko‘rsatadi? Aholisining asosiy qismi yirik daryo vodiylarida yashaydigan davlatlarga misollar keltiring.
4. Nima sababdan Suvaysh kanali Misr uchun muhim ahamiyatga ega? Jahonning siyosiy xaritasi yordamida ushbu kanalning xalqaro dengiz transportidagi ahamiyatini izohlang.
5. Misrda xalqaro turizmni rivojlantirish uchun qanday resurs va sharoit mavjud? Sayohat uchun ushbu mamlakatni tanlagan bo‘lar edingizmi? Nimaga?
6. Atlasdagi Afrika iqtisodiy xaritasidan foydalanib yozuvsiz xaritaga Misrning yirik sanoat markazlarini belgilang.



53-§. Amaliy mashg‘ulot
Afrikaning siyosiy xaritasi, tabiiy va iqtisodiy geografik sharoitini o‘rganish

1. Quyidagi Afrika davlatlari nomlari va ularning umumiy jihatini aniqlab, bu yerda yana qaysi davlatlar bo‘lishi kerakligini toping.



2. Jadvalni to‘ldiring.

Davlatlar	Maydoni, ming km²	Aholisi, mln kishi	Aholi zichligi, kishi/km²
Chad	1284	16,9	…
Keniya	582,6	53,5	…
Angola	1246,7	32,5	…
Senegal	196,2	16,7	…

3. Quyidagi davlatlar juftligi orasidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bir-biriga yaqin bo‘lganlarini toping.

JAR — Burundi; Tunis — Uganda; Jazoir — Malavi;
Misr — Marokash; Botsvana — Mavrikiy; Mavritaniya — Ruanda.

4. Quyidagi fikrlarni davom ettiring.

Afrika mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar:

Ijobiy tomondan	Salbiy tomondan
Issiqlik resurslari bilan yetarli darajada ta’minlanganligi	Ko‘p mamlakatlarda suv resurslarining yetishmasligi
… … …	… … …

5. Quyidagi davlatlarga tegishli ma’lumotlarni topib, mos javoblarni daftaringizga belgilang.

1) JAR; 2) Misr; 3) Nigeriya.

a) Asosan subekvatorial va ekvatorial iqlim mintaqalarida joylashgan;
b) Aholisi qo‘shni davlatlardan ko‘chib kelayotganlar hisobiga ham ko‘paymoqda;
d) Afrika mamlakatlari orasida aholi soni bo‘yicha uchinchi o‘rinda turadi;
e) Ko‘mir, marganes, xrom, uran, oltin, olmos, platina, vanadiy va turli nodir metallarning katta zaxiralari mavjud;
f) Afrika mamlakatlari orasida don ekinlari, sabzavot va mevalarning yalpi hosili bo‘yicha birinchi o‘rinni egallaydi;
g) Iqtisodiyotining asosi va davlat byudjeti daromadlarining bosh manbai neft eksporti;
h) Turizm rivojlanishiga dengizbo‘yi hududlarining tabiiy sharoiti hamda mamlakatning juda boy tarixiy-madaniy merosi katta ta’sir ko‘rsatadi;
i) 10 ta “millioner” shahri mavjud;
j) Tropik Afrika mamlakatlaridan yevropaliklarning nisbatan yuqori ulushi bilan ajralib turadi.

6. Atlasdagi Afrika iqtisodiy xaritasi yordamida Shimoliy Afrika va Tropik Afrika davlatlari qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvini taqqoslang.



54-§. Avstraliya Ittifoqi

Materik, Britaniya Hamdo‘stligi qirolligi, federativ davlat, tashqi migratsiya, avstraliyalik inglizlar, avstraliyalik aborigenlar, Sidney, Melburn, tog‘-kon sanoati.

Avstraliya tabiatiga xos xususiyatlar haqida nimalarni bilasiz?

Avstraliya Ittifoqi bir butun materikni to‘liq egallagan dunyodagi yagona davlat. Tarkibiga Avstraliya materigidan tashqari Tasmaniya va boshqa orollar kiradi. Qirg‘oqlari shimol, g‘arb va janubdan Hind okeani, uning dengiz va qo‘ltiqlari, sharqdan esa Tinch okean dengizlari suvlari bilan yuviladi. Maydoni jihatidan jahonda 6-o‘rinda turadi. Iqtisodiy-geografik o‘rni uning Janubiy yarimsharda, boshqa materik va mamlakatlardan ancha olisda joylashganligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, zamonaviy dengiz va havo transporti mamlakatni jahonning barcha mintaqalari bilan doimiy aloqada bo‘lib turishini ta’minlaydi.

Avstraliya Ittifoqi Britaniya Hamdo‘stligi qirolligi hisoblanib, uning rasmiy davlat rahbari Buyuk Britaniya hukmdori hisoblanadi. Amalda siyosiy boshqaruv tizimida asosiy rol bosh vazirga tegishli. Avstraliya 6 ta shtat va 2 ta hududdan tashkil topgan federativ davlat. Davlat poytaxti — Kanberra shahri Avstraliyaning janubi-sharqida joylashgan.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Avstraliya relyefi asosan tekisliklar va kuchli parchalangan platolardan iborat. Faqat sharqda o‘rtacha balandlikdagi Katta Suvayirg‘ich tizmasi mavjud. Unda Avstraliyaning eng baland nuqtasi — Kossyushko cho‘qqisi (2228 metr) joylashgan *(143-rasm).*

Avstraliya xilma-xil foydali qazilmalarga boy. Mamlakat temir, mis, nikel, uran, boksit, oltin rudalari, ko‘mir, olmos zaxiralari bilan jahon miqyosida alohida ajralib turadi. Ko‘mir konlari ko‘proq mamlakatning janubiy va janubi-sharqiy qismida, neft va tabiiy gaz esa sharqiy va g‘arbiy hududlarida hamda okean shelfida joylashgan.



143-rasm. **Kossyushko tog‘i**



144-rasm. **Avstraliya cho‘llari**





Maydoni: **7692,0** ming km²
Aholisi (2020): **25,8** mln
Poytaxti: **Kanberra**

Avstraliya hududi asosan subekvatorial, tropik va subtropik iqlim mintaqalarida joylashgan bo‘lib, iqlimining eng muhim xususiyati uning qurg‘oqchilligidan iborat. Mamlakat hududining katta qismini cho‘l, chalacho‘l va savannalar egallaydi *(144-rasm).* Tabiatining eng katta kamchiligi suv resurslarining taqchilligidir. Asosiy daryosi Murrey va uning irmog‘i Darlingning suvi mavsumlar bo‘yicha keskin o‘zgarib turadi.

Aholisi. Avstraliyada aholining tabiiy ko‘payishi past, yillik hisobda 0,5% atrofida. Aholi sonining ortib borishiga tashqi migratsiya ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi. Aholining migratsion ko‘payishi yiliga 0,8–1,0% ga teng. Umuman olganda, Avstraliyaning hozirgi aholisi migratsiya hisobiga shakllangan. Materikning tub aholisi — avstraliyalik aborigenlar mamlakat aholisining atigi 1% ini tashkil etadi. Asosiy millat — avstraliyalik inglizlar.


Avstraliya Ittifoqi yuqori urbanizatsiyalashgan davlatlar qatoriga mansub. Unda shahar aholisining ulushi 86% ga teng (2020-y.). Eng yirik shaharlari — Sidney *(145-rasm)*, Melburn, Brisben, Pert, Adelaida.

Avstraliya Ittifoqi aholi zichligi eng past davlatlardan biri. Bu yerda 1 km^2 hududga o‘rtacha hisobda 3 kishi to‘g‘ri keladi. Avstraliya aholisi asosan mamlakatning janubi-sharqiy va sharqiy hududlarida mujassamlashgan, ichki hududlarida esa aholi juda siyrak joylashgan *(146-rasm)*.

Iqtisodiyoti. Avstraliya Ittifoqi iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan davlat hisoblanadi. YIMning hajmi jihatidan Avstraliya jahonning yetakchi 20 ta davlatlari qatoriga kiradi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YIM miqdori esa unda aksariyat Yevropa davlatlaridan ham yuqori.



145-rasm. **Sidney shahri**



146-rasm. **Avstraliyada aholi zichligi (kishi/km²)**

Xo‘jaligining xalqaro ixtisoslashuviga mamlakatning tabiiy resurslari katta ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, Avstraliyaning jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini ko‘p jihatdan tog‘-kon va yoqilg‘i sanoati belgilaydi. U ko‘mir, uran, temir, olmos, boksit, oltin, nikel, rux, qo‘rg‘oshin qazib olish bo‘yicha jahondagi yetakchi 5 ta davlat qatoriga kiradi. Ko‘mir, suyultirilgan gaz, uran, qora va rangli metallarning asosiy qismi Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo davlatlariga eksport qilinadi.

Qishloq xo‘jaligi ham Avstraliya iqtisodiyotining muhim sohasidir. Chorvachiligining asosiy tarmoqlari — qo‘ychilik va qoramolchilik. Avstraliya jahonda qo‘ylar soni va jun ishlab chiqarish bo‘yicha 2-o‘rinda, jun eksporti bo‘yicha esa 1-o‘rinda turadi *(147-rasm)*. Dehqonchiligi donchilik, bog‘dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan.

Avstraliyaning asosiy iqtisodiy rayoni uning janubi-sharqiy hududi hisoblanadi. Bu yerda mamlakat aholisining 70% i istiqomat qiladi hamda Avstraliyaning 2 ta eng yirik shahri — Sidney va Melburn joylashgan.



147-rasm. **Qo‘ychilik — Avstraliya qishloq xo‘jaligining an’anaviy tarmog‘i**

Savol va topshiriqlar

1. Avstraliya Ittifoqi iqtisodiy-geografik o‘rnining ijobiy va salbiy jihatlarini taqqoslang.
2. Avstraliyaning hozirgi aholisi qanday shakllangan? Shunga o‘xshash holatlar yana qaysi davlatlarga xos?
3. Nima uchun Avstraliya Ittifoqi aholi zichligi eng past davlatlardan biri hisoblanadi? Dunyoning tabiiy xaritasi yordamida aholi zichligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tushuntiring.
4. Avstraliya xo‘jaligining xalqaro ixtisoslashuvida qanday omillar muhim o‘rin tutadi? Mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini sanoatning qaysi tarmoqlari belgilaydi? Nima uchun Avstraliya qishloq xo‘jaligida chorvachilik ustun turadi?
5. Atlasdagi Avstraliya iqtisodiy xaritasidan foydalanib yozuvsiz xaritaga mamlakat qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvi va yirik sanoat markazlarini belgilang.

Amerika, Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Panama kanali, Karib dengizi, Lotin Amerikasi, qit’a, materik, mustamlaka, orol davlatlar, Britaniya Hamdo‘stligi qirolligi.

Amerika qit’asida jahon siyosati va iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadigan qaysi davlatlar joylashgan?

55-§. Amerikaning siyosiy xaritasi

Amerika G‘arbiy yarimsharda joylashgan ikkita materik — Shimoliy va Janubiy Amerikani hamda ularga yaqin orollarni qamrab olgan qit’adir. Uning umumiy maydoni 42,5 mln km² ga teng. Shimoliy va Janubiy Amerika materiklarini Panama kanali ajratadi *(148-rasm)*.

Qit’a qirg‘oqlari shimoldan Shimoliy Muz, sharqdan Atlantika, g‘arbdan Tinch okean suvlari bilan yuviladi. Amerika janubda Dreyk bo‘g‘izi orqali Antarktidadan, shimoli-g‘arbda esa Bering bo‘g‘izi bilan Osiyodan ajralib turadi.

Ma’lumki, Amerika qit’asi 1492-yili ispan dengizchisi Xristofor Kolumb ekspeditsiyasi tomonidan kashf qilingan. Qit’aning nomlanishi esa Kolumb ochgan yerlar alohida qit’a ekanligini asoslab bergan italiyalik sayyoh Amerigo Vespuchchiga atab qo‘yilgan.

Buyuk geografik kashfiyotlar davrigacha Amerika aholisi hindular va eskimoslardan iborat bo‘lgan. XVI asr boshidan XVIII asrgacha Amerikaning barcha hududlari Ispaniya, Portugaliya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya singari Yevropa davlatlari tomonidan mustamlakalarga aylantirilgan.

XVIII asr oxirida qit’adagi birinchi mustaqil davlat — Amerika Qo‘shma Shtatlari vujudga keldi. Amerikaning hozirgi siyosiy xaritasidagi ko‘plab davlatlar o‘z mustaqilligini XIX asrda qo‘lga kiritgan. XX asr boshida davlat mustaqilligiga Kuba va Panama erishdi. Beliz, Surinam, Gayana hamda Karib dengizidagi qator “mitti” orol davlatlari XX asrning 60–80-yillaridagina mustaqil davlatlar sifatida jahonning siyosiy xaritasidan joy oldi.



148-rasm. **Panama kanali**

Amerika siyosiy xaritasida hozirgacha mustamlaka hududlar saqlanib qolgan. Bunday hududlardan eng yirigi Grenlandiyadir. U Daniya qirolligi tarkibidagi avtonom hudud hisoblanadi. Mustamlakalar asosan Karib dengizidagi orollarda joylashgan. Janubiy Amerika materigidagi yagona mustamlaka Fransiya Gvianasi hisoblanadi.

Amerikaning zamonaviy siyosiy xaritasida 35 ta mustaqil davlat mavjud *(149a-, 149b-rasmlar)*. Ular o‘z hududiy kattaligi jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi. Qit’adagi 4 ta mamlakat dunyoning 10 ta eng



149a-rasm. **Shimoliy Amerikaning siyosiy xaritasi**



149b-rasm. **Janubiy Amerikaning siyosiy xaritasi**

yirik davlatlari qatoridan joy olgan — Kanada, AQSH, Braziliya va Argentina. Ulardan tashqari, Boliviya, Kolumbiya, Peru va Meksikaning maydoni 1 mln km^2 dan oshadi. Venesuela va Chili davlatlarining hududi esa 500 ming km^2 dan ortiq. Shu bilan birga, Amerikadagi 7 ta davlat maydoni 1 ming km^2 dan kam. Ularning barchasi Karib dengizidagi orollarda joylashgan.

Qit'ada faqatgina 2 ta davlat — Boliviya va Paragvay dengizga chiqish imkoniyatiga ega emas. Meksika, Gvatemala, Gonduras, Nikaragua, Kosta-Rika, Panama va Kolumbiya qirg'oqlari ikkita, ya'ni Atlantika va Tinch okean suvlari bilan yuviladi. AQSH va Kanada esa uchta — Atlantika, Tinch va Shimoliy Muz okeanlariga chegaradosh. Karib dengizi va Atlantika okeanining unga tutash qismida jami 13 ta orol davlatlar joylashgan *(150-rasm).* Ulardan maydoni jihatidan eng kattasi Kubadir.

Amerikadagi 35 ta davlatdan 26 tasi respublika, 9 tasi Britaniya Hamdo'stligi qirolliklari, ya'ni konstitutsion monarxiyalar hisoblanadi. Konstitutsion monarxiyalardan 2 tasi — Kanada va Beliz Shimoliy Amerika materigida joylashgan bo'lsa, qolgan 7 tasi Karib dengizidagi orol mamlakatlardir.

Orol davlatlar	**Antigua va Barbuda, Bagam orollari, Barbados, Dominika, Dominikana Respublikasi, Gaiti, Grenada, Kuba, Sent Kits va Nevis, Sent Lyusiya, Sent Vinsent va Grenadin, Trinidad va Tobago, Yamayka**
Dengizbo'yi kontinental davlatlar	**Amerika Qo'shma Shtatlari, Argentina, Beliz, Braziliya, Ekvador, Gayana, Gonduras, Gvatemala, Kanada, Kolumbiya, Kosta Rika, Meksika, Nikaragua, Panama, Peru, Salvador, Surinam, Urugvay, Venesuela, Chili**
Ichki kontinental davlatlar	**Boliviya, Paragvay**

150-rasm. **Amerikadagi davlatlarning geografik joylashuvi jihatidan tasniflanishi**


Amerikada 7 ta federativ davlat joylashgan — AQSH, Argentina, Braziliya, Kanada, Meksika, Venesuela hamda Sent Kits va Nevis. Sent Kits va Nevis davlati 2 ta mayda oroldan iborat bo'lib, Amerika qit'asidagi eng kichik davlat, shuningdek, jahondagi eng kichik federativ davlat hisoblanadi.

Amerika 2 ta yirik siyosiy-geografik mintaqa — Shimoliy Amerika va Lotin Amerikasiga bo'linadi. Shimoliy Amerikada AQSH va Kanada joylashgan. Amerikadagi AQSHdan janubda joylashgan barcha davlatlar Lotin Amerikasi mintaqasini tashkil qiladi. Jahonning ushbu yirik mintaqasi Lotin Amerikasi deb atalishi ko'p davlatlarida aholi qadimgi lotin tilidan kelib chiqqan ispan, portugal va fransuz tillarida so'zlashishi bilan bog'liq.

Shimoliy Amerika va Lotin Amerikasi davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda aholining milliy-madaniy xususiyatlari bilan farq qiladi. AQSH va Kanada "Katta yettilik" guruhi tarkibiga kiruvchi rivojlangan davlatlar bo'lsa, Lotin Amerikasi davlatlari rivojlanayotgan mamlakatlar turkumiga kiradi.

Savol va topshiriqlar

1. Amerika qit’asi qaysi hududlarni birlashtiradi? Atlasdagi dunyoning siyosiy xaritasidan qit’a chegaralarini aniqlang.
2. Atlasdagi Shimoliy va Janubiy Amerika siyosiy xaritalaridan foydalanib quyidagi xaritada belgilangan davlatlar nomini aniqlang va ularning poytaxtlarini to‘g‘ri tanlang.



a) Karakas;
b) Managua;
d) Ottava;
e) Paramaribo;
f) Gavana;
g) San-Xose;
h) Santyago;
i) Mexiko;
j) Kito;
k) Asunson;
l) Belmopan;
m) Buenos-Ayres;
n) Port-o-Prens;
o) Vashington;
p) Jorjtaun;
q) Sukre;
r) Santo-Domingo;
s) Montevideo;
t) Gvatemala;
u) Lima.

3. Atlasdagi dunyoning tabiiy va siyosiy xaritalari yordamida Amerika qit’asi davlatlari relyef tuzilishini solishtiring va hududining katta qismi tog‘lardan iborat bo‘lgan mamlakatlarni aniqlang.
4. Amerika qit’asida joylashgan qaysi mamlakatlarning iqtisodiy-geografik o‘rni nisbatan noqulay deb baholanishi mumkin?
5. Shimoliy Amerika materigi va Shimoliy Amerika siyosiy-geografik mintaqasi o‘rtasidagi farqni izohlang.
6. Lotin Amerikasi regioni nima sababdan shunday nomlanishini tushuntiring.

56-§. Amerika Qo‘shma Shtatlari

Shimoliy Amerika, kontinental shtatlar, Alyaska, Gavayi orollari, Kolumbiya federal poytaxt okrugi, Kordilyera, Denali, Ajal vodiysi, tornado, megalopolis.

Tarix darslarida o‘rganganlaringizni esga olib, AQSH davlatining shakllanishi haqida gapiring.

Amerika Qo‘shma Shtatlari jahon mamlakatlari orasida maydoni jihatidan 4-, aholisi soni bo‘yicha esa 3-o‘rinda turadi. Shuningdek, AQSH iqtisodiy, harbiy-siyosiy va ilmiy-texnologik qudrati bo‘yicha zamonaviy dunyoning yetakchi davlatlaridan biri.

AQSH hududi 3 qismdan iborat: Shimoliy Amerika materigining o‘rta qismidagi kontinental shtatlar, Shimoliy Amerikaning shimoli-g‘arbida joylashgan Alyaska hamda Tinch okeandagi Gavayi orollari.

AQSH 3 ta — Atlantika, Tinch okean va Shimoliy Muz okeaniga chiqish imkoniyatiga ega. U quruqlikda faqat Kanada va Meksika bilan chegaradosh. AQSH va Kanadaning chegarasi jahon bo‘yicha ikkita davlat o‘rtasidagi eng uzun chegara hisoblanadi. Bering bo‘g‘izi orqali AQSH Rossiya bilan chegaradosh.

AQSH — prezidentlik respublikasi: prezident davlat va hukumat rahbari hisoblanadi. Siyosiy-hududiy tuzilishi nuqtai nazaridan, AQSH 50 ta shtat va Kolumbiya federal poytaxt okrugidan iborat federatsiyadir. 48 ta shtat hamda Kolumbiya okrugi (Vashington shahri) kontinental shtatlar hududida joylashgan, 49-shtat Alyaska, 50-shtat esa Gavayi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. AQSH hududi yirikligi uchun tabiiy sharoiti juda xilma-xil. Kontinental shtatlarning sharqiy va markaziy qismlari asosan tekisliklardan iborat, g‘arbiy qismidan esa Kordilyera tog‘larining bir nechta tarmoqlari o‘tgan. Alyaska va Gavayi shtatlarining relyefi ham asosan tog‘li. Alyaska hududida Shimoliy Amerika materigining eng baland nuqtasi — balandligi 6194 metr bo‘lgan Denali (oldingi nomi — Mak Kinli) cho‘qqisi joylashgan *(151-rasm).* Materikning eng past nuqtasi — Ajal vodiysi (-86 metr) ham AQSHda, Kaliforniya shtatida joylashgan *(152-rasm).*





151-rasm. **Denali tog‘i**



152-rasm. **Ajal vodiysi**

AQSH ko‘mir, neft, tabiiy gaz, temir, turli rangli metallar rudalari, mineral tuzlarning yirik zaxiralariga ega. Ayniqsa, mamlakatning g‘arbiy tog‘li hududlari mineral resurslarga boy. Ammo AQSHda sanoat ishlab chiqarish hajmining yirikligi tufayli mamlakat mineral xomashyoning ko‘p turlarini import qiladi. Kontinental shtatlar hududi asosan mo‘tadil va subtropik, Alyaskaning katta qismi subarktika va arktika, Florida yarimoroli hamda Gavayi orollari esa tropik iqlim mintaqasida joylashgan. Meksika ko‘rfaziga tutash hududlarda tropik dovullar (tornado) ko‘p sodir bo‘ladi. AQSHning asosiy tabiat zonalari — aralash va keng bargli o‘rmonlar, dasht va o‘rmon-dasht. Mamlakat g‘arbida chalacho‘l va cho‘llar ham ko‘p uchraydi.





Maydoni: **9519,4** ming km²
Aholisi (2020): **329,9** mln
Poytaxti: **Vashington**

AQSH suv va gidro energetika resurslariga boy. Mamlakatning eng yirik daryolari — Missisipi, Missuri, Rio Grande, Kolorado, Kolumbiya. Kanada bilan chegarasida Yuqori, Michigan, Eri, Guron va Ontario ko‘llaridan iborat Buyuk ko‘llar tizimi joylashgan.

Aholisi. AQSHning tub aholisi amerikalik hindular hisoblanadi. Lekin hozirgi davrda hindular mamlakat aholisining juda kichik qismini tashkil etadi. Amerikaliklar tarkibida Yevropa mamlakatlaridan turli davrlarda ko‘chib kelganlarning avlodlari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shu bilan birga, AQSH aholisi tarkibida Lotin Amerikasi davlatlari (ayniqsa, Meksika) dan ko‘chib kelganlar, qoratanlilar, mulatlar va boshqa irqiy guruhlarning ulushi ancha katta hamda borgan sari ortib bormoqda.

AQSHda 1790-yildan boshlab har 10 yilda muntazam ravishda aholi ro‘yxatga olinadi. 1790-yildan 2020-yilgacha AQSH aholisi soni salkam 85 barobarga oshgan va uning o‘sishi hozirgacha davom etmoqda. Hozirgi bosqichda AQSH aholisining tabiiy ko‘payishi yillik hisobda 0,3–0,4% ni tashkil etib, jahon bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan (1,1%) ancha past, ammo rivojlangan davlatlar o‘rtacha ko‘rsatkichiga (0,0%) nisbatan birmuncha yuqori. Migratsion ko‘payish esa yillik hisobda 0,2% ga teng. Ta’kidlash o‘rinliki, AQSH xorijiy migrantlarning soni (46 mln kishi) bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinda turadi.

AQSHda shahar aholisining ulushi 82% (2020-y.). Eng yirik shaharlari — Nyu York *(153-rasm)*, Los Anjeles, Chikago, Xyuston, Filadelfiya. Urbanizatsiya jarayoni rivojlanishi natijasida AQSH hududida 3 ta megalopolis shakllangan: shimoli-sharqdagi “Boston-Vashington” (BosVash), Buyuk ko‘llar bo‘yidagi “Chikago-Pitsburg” (ChiPits) va Tinch okean bo‘yidagi “San-Fransisko-San-Diyego” (SanSan).




153-rasm. **Nyu York shahri**

AQSHda eng ko‘p qo‘llanadigan til ingliz tilidir. Shuningdek, mamlakat aholisining 50 mln kishiga yaqin qismi kundalik hayotda ispan tilida so‘zlashadi. Ispanzabon amerikaliklar ulushi Meksika chegarasiga yaqin joylashgan Nyu Meksiko, Kaliforniya, Texas, Arizona, Nevada shtatlarida ayniqsa yuqori (20–45%).

AQSHda aholi zichligining o‘rtacha ko‘rsatkichi 1 km^2 ga 35 kishiga teng, lekin mamlakatning turli qismlarida u ancha farq qiladi *(154-rasm).* Bunga asosan tabiiy sharoit kuchli ta’sir etadi. Shimoli-

sharqiy, janubi-sharqiy va g‘arbiy okeanbo‘yi shtatlarida aholi zichligi eng yuqori bo‘lsa, tog‘li shtatlar va, ayniqsa, Alyaskada aholi ancha siyrak joylashgan.



154-rasm. **AQSH aholi zichligi (shtatlar kesimida, kishi/km²)**

Savol va topshiriqlar

1. AQSHning geografik o‘rni va hududiy tuzilishini tavsiflang. U qanday sabablar tufayli federativ davlat sifatida shakllanganini asoslashga harakat qiling.
2. AQSH tabiiy sharoitining xilma-xil bo‘lishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi? Atlasdagi dunyoning tabiiy xaritasidan foydalanib mamlakat relyef tuzilishini hamda suv resurslari bilan ta’minlanish darajasini tavsiflang.
3. AQSH aholisi shakllanishining asosiy xususiyati nimadan iborat? Sizningcha, nima sababdan mamlakatga Lotin Amerikasi davlatlaridan ko‘chib kelganlar ulushi borgan sari ortib bormoqda?
4. AQSH aholisi zichligiga qanday omillar katta ta’sir ko‘rsatadi? Mamlakatning qaysi qismlarida aholi zichligi yuqori? Nima uchun?
5. Megalopolislar qanday shakllanadi? Nima sababdan davlatlar orasida eng ko‘p megalopolislar AQSHda shakllangan deb hisoblaysiz?

Sanoat mintaqalari, qishloq xo‘jaligi mintaqalari, transkontinental yo‘llar, Shimoli-sharq, O‘rta G‘arb, Janub, G‘arb.

AQSHning xalqaro iqtisodiyotdagi o‘rni haqida nimalarni bilasiz?

57-§. AQSH xo‘jaligi va iqtisodiy rayonlari


AQSH yalpi ichki mahsulot hajmi bo‘yicha jahon mamlakatlari orasida Xitoydan keyingi ikkinchi o‘rinni egallaydi va dunyoning yetakchi iqtisodiyotlaridan biri hisoblanadi. Ammo ta’kidlash lozimki, AQSHning yuzlab yirik transmilliy korporatsiyalari ko‘plab xorijiy davlatlarda keng iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishi mamlakatning iqtisodiy qudratini va jahon xo‘jaligidagi o‘rnini yanada yuksaltiradi. Shuningdek, AQSH bank-moliyaviy tizimining ulkan salohiyati hamda AQSH dollarining asosiy xalqaro valyuta funksiyasini bajarayotgani mamlakatning jahon iqtisodiyotiga kuchli ta’sir qilishini ta’minlaydi.

Sanoati. AQSH yalpi sanoat mahsuloti hajmi bo‘yicha jahonda Xitoydan so‘ng 2-o‘rinda turadi. Mamlakatda zamonaviy sanoatning barcha tarmoqlari yuqori darajada rivojlangan. Ayniqsa, aerokosmik sanoat, avtomobilsozlik, elektrotexnika, elektronika, tibbiyot asbob-uskunalarini ishlab chiqarish, atom mashinasozligi, harbiy-sanoat majmuasi, neft-kimyo sanoati kabi zamonaviy texnologiyalarga tayanib rivojlanayotgan sanoat tarmoqlarida AQSHning dunyo miqyosidagi yetakchiligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

So‘nggi yillarda AQSH jahonda neft va tabiiy gaz qazib olishda 1- (yiliga 700 mln tonnadan ortiq neft va 900 milliard m^3 dan ziyod tabiiy gaz), ko‘mir qazib olishda 4- (yiliga 500 mln tonnaga yaqin) o‘rinlarni egallaydi. Neft-gaz sanoatining eng yirik rayonlari Texas, Kaliforniya va Alyaska shtatlarida shakllangan. Alyaskaning shimolida dunyodagi eng yirik neft konlaridan hisoblanadigan Pradxo Bey koni joylashgan. Ko‘mir eng ko‘p miqdorda Vayoming shtatida qazib olinadi. Elektr energiyasini ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha AQSH jahonda Xitoydan keyingi 2-o‘rinda turadi (2020-yilda 4,3 trln kW·h). Mamlakat yoqilg‘i-energetika balansida neft va tabiiy gaz yetakchi ahamiyatga ega *(155-rasm)*.

Kimyo va neft-kimyo sanoatining eng yirik rayoni mamlakat janubida, Texas shtatida shakllangan. AQSH kimyo sanoatining eng yirik markazi Xyuston shahri hisoblanadi.

Mashinasozlik sanoati ko‘p tarmoqli bo‘lib, har xil shtatlarda turlicha ixtisoslashgan. Tinch okeanbo‘yi shtatlari (Kaliforniya, Vashington) aerokosmik sanoat va elektronika, Buyuk ko‘llarga tutash shtatlar (Michigan, Illinoys) avtomobilsozlik, shimoli-sharqiy Atlantikabo‘yi shtatlari esa kemasozlikning rivojlanganligi bilan alohida ajralib turadi.



155-rasm. **AQSH yoqilg‘i-energetika balansi (2019-y.)**

AQSHda bir nechta yirik sanoat mintaqalari shakllangan. Bunday hududlardan eng qudratlisi Atlantika okeani va Buyuk ko‘llarga tutash shtatlarni qamrab olgan Shimoliy sanoat mintaqasi hisoblanadi. Uning hissasiga mamlakat sanoat ishlab chiqarishining deyarli yarmi to‘g‘ri keladi. Boshqa yirik sanoat mintaqalari qatoriga Appalachi tog‘lari bo‘ylab joylashgan Janubi-g‘arbiy asosan neft va neft-kimyo sanoatiga ixtisoslashgan Meksika qo‘ltig‘i hamda mamlakat janubi-g‘arbidagi Kaliforniya sanoat mintaqalari kiradi.

Qishloq xo‘jaligi. AQSHdagi asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlari — bug‘doy, makkajo‘xori, soya,

paxta, shakarqamish, qandlavlagi, turli sabzavot va mevalar. Makkajo‘xori, soya va paxta eksporti bo‘yicha AQSH dunyoda 1-o‘rinda turadi. Chorvachilikning asosiy tarmoqlari — qoramolchilik, parrandachilik va cho‘chqachilik. Go‘sht va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishda AQSH jahondagi yetakchi davlatlardan biri.

Tabiiy va tarixiy omillarga bog‘liq holda AQSHda turli tarmoqlarga ixtisoslashgan qishloq xo‘jaligi mintaqalari vujudga kelgan. Kordilyera tog‘lari etaklarini egallagan Buyuk tekisliklardagi bug‘doy mintaqasi, Markaziy tekisliklarning shimolidagi makkajo‘xori mintaqasi, Missisipi havzasining janubidagi paxta mintaqasi *(156-rasm),* Buyuk ko‘llarga tutash shtatlardagi sut mintaqasi, tog‘li shtatlardagi go‘sht chorvachiligi mintaqasi, Kaliforniyadagi bog‘dorchilik mintaqasi shular jumlasidandir.



156-rasm. **AQSHdagi yirik paxta plantatsiyalarida paxta yig‘im-terimi**

Transporti. AQSH temir va avtomobil yo‘llarining uzunligi, aeroportlarning soni hamda ulardagi yuk va yo‘lovchilar aylanmasi bo‘yicha jahonda 1-o‘rinda turadi. Transport tizimining o‘zagini kenglik yo‘nalishidagi Atlantika va Tinch okean sohillarini bog‘laydigan hamda shimoliy va janubiy shtatlarini tutashtiruvchi meridional yo‘nalishga ega transkontinental temir yo‘l va avtomobil magistrallari tashkil etadi. Atlantika va Tinch okeanlari, Meksika qo‘ltig‘i va Buyuk ko‘llar

sohillarida 100 tadan ortiq yirik portlar mavjud. Bulardan yuk aylanmasi bo‘yicha yetakchisi Yangi Orlean shahri hisoblanadi. AQSH hududida 5000 tadan ziyod qattiq qoplamali aeroportlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Atlanta shahridagi aeroport jahon bo‘yicha eng ko‘p yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatadi.


Turizmi. AQSH tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlarning soni bo‘yicha jahonda yetakchilik qilmasa ham, turizm hisobiga eng katta daromad oluvchi mamlakat hisoblanadi. AQSHga ko‘proq Kanada va Yevropa mamlakatlaridan sayyohlar keladi. Florida, Kaliforniya va Gavayi shtatlarida dengizbo‘yi turizmi keng rivojlangan. Dunyoga mashhur Nyu York, Chikago,Los Anjeles, San Fransisko va boshqa shaharlarga har yili millionlab sayyohlar tashrif buyuradi. Mamlakatda turizm rivojlanishi uchun juda boy tabiiy resurslar ham mavjud *(157-rasm).*



157-rasm. **Yellouston milliy bog‘idagi issiq buloqlardan biri va Niagara sharsharasi**

Iqtisodiy rayonlari. AQSH hududida tabiiy va ijtimoiy-tarixiy omillardan kelib chiqib turli iqtisodiy qudrat va ixtisoslashuvga ega bo‘lgan 4 ta yirik iqtisodiy rayon (makrorayon) ajratiladi: Atlantika okeani bo‘yida joylashgan maydoni kichik, ammo aholi soni va zichligi katta, yuqori darajada sanoatlashgan, eng yirik moliyaviy markazlarga ega shtatlarni qamrab olgan *Shimoli-sharq*; Buyuk ko‘llardan janub va g‘arbda joylashgan, ko‘ptarmoqli sanoat, donchilik va sut chorvachiligiga ixtisoslashgan *O‘rta G‘arb*; paxtachilik, tamakichilik,

bog‘dorchilik, neft-kimyo va to‘qimachilik sanoati, dengizbo‘yi turizm rivojlanishi bilan ajralib turadigan, qoratanli aholi salmog‘i nisbatan yuqori bo‘lgan *Janub*; ko‘proq tog‘li relyef va qurg‘oqchil iqlimga ega, rangli metallurgiya, aerokosmik, elektronika sanoati, bog‘dorchilik va yaylov chorvachiligiga ixtisoslashgan, ispanzabon aholining nisbatan yuqori salmog‘i bilan ajralib turuvchi *G‘arb (158-rasm).*



158-rasm. **AQSHning yirik iqtisodiy rayonlari**

Savol va topshiriqlar

1. AQSHning jahon iqtisodiyotiga ta’siri qanday omillar bilan belgilanadi? AQSH va Xitoy iqtisodiyotini taqqoslang.
2. AQSHning asosiy sanoat mintaqalarini tavsiflang. Ushbu mintaqalar qanday omillar ta’sirida shakllanganini tushuntiring.
3. Atlasdagi Amerika Qo‘shma Shtatlari iqtisodiy xaritasidan foydalanib yozuvsiz xaritaga mamlakatning qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvini belgilang.
4. Quyidagi fikrlarni davom ettiring.

AQSH iqtisodiyotining turli tarmoqlari rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar:	**Sanoat**	Foydali qazilmalar zaxiralarining ko‘pligi	……
	Qishloq xo‘jaligi	Agroiqlimiy resurslarga boyligi	……
	Turizm	Tabiiy rekreatsiya resurslariga boyligi	……

5. Qo‘shimcha manbalar asosida O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalari to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plang va mamlakatimiz iqtisodiyotining qaysi sohalariga AQSH kompaniyalari tomonidan ko‘plab investitsiyalar kiritilayotganini aniqlang.

Britaniya Hamdo‘stligi qirolligi, tashqi migratsiya, kanadalik inglizlar, kanadalik fransuzlar, Toronto, Monreal.

Kanadaning AQSH va Avstraliya bilan qanday umumiy jihatlarini ajrata olasiz?





Maydoni: **9984,6** ming km²
Aholisi (2020): **38,2** mln
Poytaxti: **Ottava**

58-§. Kanada

Kanada Shimoliy Amerika materigining shimoliy qismi va unga yondosh orollarda joylashgan. Kanada qirg‘oqlari shimolda Shimoliy Muz okeani, sharqda Atlantika okeani, janubi-g‘arbda Tinch okean suvlari bilan yuviladi. Mamlakat quruqlikda faqat AQSH bilan chegaradosh. Kanada hududining kattaligi bo‘yicha jahonda 2-o‘rinda turadi.


Kanada Britaniya Hamdo‘stligi qirolligi bo‘lib, davlat rahbari rasmiy ravishda Buyuk Britaniya hukmdori hisoblanadi. Amalda siyosiy boshqaruv tepasida mamlakat bosh vaziri turadi. Kanada 10 ta provinsiya va 3 ta hududdan iborat federativ davlat. Poytaxti — Ottava shahri mamlakatning janubi-sharqida joylashgan.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Kanadaning sharqiy va g‘arbiy qismlari geologik tuzilishi va relyefi xususiyatlari bilan keskin farqlanadi. Sharqiy qismi qadimgi platformada joylashgan bo‘lib asosan tekislik va kuchli parchalangan yassi tog‘liklardan iborat bo‘lsa, Tinch okeanga tutash g‘arbiy qismi baland Kordilyera tog‘lari bilan band.

Kanada jahondagi foydali qazilmalarga eng boy davlatlardan biri. Uning hududida uran, temir rudasi, nikel, mis, qo‘rg‘oshin, rux, oltin, neft, tabiiy gaz va kaliy tuzlarining yirik konlari mavjud.

Kanada tabiatining eng muhim xususiyatlarini uning iqlimi belgilaydi. Mamlakat hududining 75% i sovuq iqlim zonasiga to‘g‘ri keladi. Asosiy tabiat zonalari — tayga, tundra va Arktika cho‘llari. Kanada janubida dasht landshafti keng tarqalgan.

Mamlakat yer, suv hamda o‘rmon resurslariga juda boy *(159-rasm).* Shimoliy yarimshardagi o‘rmonlarning deyarli ⅓ qismi Kanadaga to‘g‘ri keladi. U ko‘llar soni bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinda turadi.



159-rasm. **Kanada tabiati**



160-rasm. **Toronto shahri**

Aholisi. Kanadaga tug‘ilish va tabiiy ko‘payishning past darajasi xos bo‘lib, yillik hisobda tabiiy ko‘payish sur’atlari 0,2% ga teng (2020-y.). Mamlakat aholisining o‘sishiga ko‘proq tashqi migratsiya ta’sir ko‘rsatadi. Migratsiya saldosi 2020-yili 1,4% ni tashkil etgan.

Mamlakatda shahar aholisining ulushi 80% dan ortiq. Eng yirik shaharlari — Toronto *(160-rasm),* Monreal, Vankuver, Kvebek.

Kanadadagi ikkita eng yirik millat kanadalik inglizlar va kanadalik fransuzlardir. Shuning uchun Kanadada ham ingliz, ham fransuz tillari rasmiy til maqomiga ega. Fransuz tilida so‘zlashuvchi aholining 85% i mamlakat sharqidagi Kvebek provinsiyasida istiqomat qiladi. Kanadadagi fransuz madaniyati markazi Monreal shahri hisoblanadi. Mamlakatning shimoliy hududlarida tub aholi — eskimoslar

va amerikalik hindular yashaydi. Ularning tillariga tegishli federal hududlarda rasmiy maqom berilgan. Intensiv immigratsiya tufayli Kanada aholisining etnik rang-barangligi borgan sari ortib bormoqda.

Aholisining o‘rtacha zichligi bo‘yicha Kanada jahondagi eng so‘nggi o‘rinlardan birida turadi (1 km² ga 4 kishi). Aholisining ⅘ qismi mamlakatning iqlim sharoiti birmuncha qulayroq bo‘lgan janubiy hududlarida mujassamlashgan. Ayniqsa, janubi-sharqiy chegarabo‘yi hududlarida aholi zichligi yuqori *(161-rasm)*.

Iqtisodiyoti. Kanada jahonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlangani jihatidan peshqadam davlatlaridan biri bo‘lib, “Katta yettilik” guruhi a’zosi hisoblanadi.

Kanada uran, nikel, oltin, platina, molibden rudalari, olmos, kaliy tuzlari, asbest, oltingugurt qazib olishda yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Mamlakatda neft-gaz sanoati ham yuqori darajada rivojlanmoqda *(162-rasm)*. U dunyodagi eng yirik yoqilg‘i eksportyorlaridan biri hisoblanadi.

Kanadada tog‘-kon sanoati bilan bir qatorda elektr energetikasi, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz, transport va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, rangli va qora metallurgiya, kimyo, oziq-ovqat sanoati yuqori darajada rivojlangan.

Dehqonchilik mamlakat janubidagi unumdor qora tuproqli dashtlarda intensiv rivojlangan. Kanada jahondagi eng yirik bug‘doy eksportyorlaridan biri. Raps, soya va kungaboqar kabi moyli ekinlarni yetishtirish va jahon bozoriga yetkazish bo‘yicha ham Kanada jahonning peshqadam davlatlari qatorida turadi.



161-rasm. **Kanada aholisining joylashuvi (mamlakatning alohida rang bilan bo‘yalgan har bir qismida aholisining ¼ qismi yashaydi)**



162-rasm. **Okeandagi burg‘ilash platformasi**

Savol va topshiriqlar

1. Kanadaning iqtisodiy-geografik o‘rnini izohlang. Uning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida AQSHga qo‘shniligi qanday ahamiyat kasb etadi deb hisoblaysiz?
2. Kanada tabiiy sharoiti va resurslarining asosiy xususiyatlarini tavsiflang va ularning mamlakat iqtisodiyotiga ta’sirini tushuntiring.
3. Kanada aholisining joylashuviga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi? Nima uchun Kanada aholisining aksariyat qismi mamlakat janubida yashaydi?
4. Kanada aholisi etnik va til tarkibining o‘ziga xos xususiyatini izohlang. Sizningcha, nimaga ushbu mamlakatga xorijdan ko‘chib keluvchilar ko‘p?
5. Kanada qaysi ekinlarni yetishtirish va jahon bozoriga yetkazishda peshqadam davlatlardan hisoblanadi? Mamlakat qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuviga ta’sir etuvchi omillarni tushuntiring.
6. Atlasdagi Kanada iqtisodiy xaritasidan foydalanib mamlakat qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvini hamda asosiy sanoat markazlarini yozuvsiz xaritaga belgilang.
7. Quyidagi yozuvsiz xaritada belgilangan Kanadaning yirik shaharlari nomini aniqlang.



Amazoniya, ekvatorial va subekvatorial iqlim, o‘rmon resurslari, San Paulu, Rio de Janeyro, favela, mulatlar, tovar qishloq xo‘jaligi.

Braziliya qaysi sohalarda dunyoga mashhur?





Maydoni: **8515,7** ming km²
Aholisi (2020): **211,8** mln
Poytaxti: **Brazilia**

59-§. Braziliya

Braziliya Federativ Respublikasi Janubiy Amerikadagi eng yirik davlat bo‘lib, ushbu materik jami maydonining salkam yarmini egallaydi. Qirg‘oqlari sharqdan Atlantika okeani suvlari bilan yuviladi. Braziliya Chili va Ekvadordan tashqari Janubiy Amerikadagi barcha davlatlar bilan chegaradosh. Hududining kattaligi bo‘yicha jahon mamlakatlari orasida 5-o‘rinni egallaydi.

Boshqaruv shakli — prezidentlik respublikasi. Siyosiy-ma’muriy jihatdan 26 ta shtat va 1 ta federal poytaxt okrugidan iborat. Poytaxti — Brazilia shahri mamlakatning markaziy qismida joylashgan.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Braziliya hududi qadimgi Janubiy Amerika platformasida joylashgan. Shuning uchun relyefi pasttekislik va yassi tog‘liklardan iborat. Shimolida katta maydonni Amazoniya pasttekisligi band qiladi. Undan janubda kuchli parchalangan Braziliya yassi tog‘ligi joylashgan. Braziliya yassi tog‘ligi va Atlantika okeani orasida tor qirg‘oqbo‘yi pasttekisligi joylashgan. Braziliyada neft, ko‘mir, temir, boksit, nikel, uran, marganes rudalari, olmos va boshqa foydali qazilmalarning yirik konlari mavjud.

Katta qismi ekvatorial va subekvatorial iqlim mintaqalarida joylashgani va Atlantika okeanidan esadigan passat shamollarining ta’siri sababli iqlim sharoitiga yuqori darajadagi namgarchilik va issiqlik xos.

Sernam iqlim tufayli Braziliyada gidrografik tarmoqlar juda yaxshi rivojlangan. Mamlakat shimolidan dunyoning eng uzun va sersuv daryosi — Amazonka o‘tadi. Amazonka havzasida sayyoramizdagi eng yirik va qalin o‘rmon massivlaridan biri shakllangan *(163-rasm)*. Braziliyada Amazonkadan tashqari, Parana, Tokantins, San Fransisku kabi yirik daryolar ham bor. Umuman olganda, Braziliya suv, gidro energetika va o‘rmon resurslari bilan eng yaxshi ta’minlangan davlatlardan biri hisoblanadi.

Aholisi. Braziliya dunyodagi aholisi eng ko‘p davlatlardan biri. 2020-yil ma’lumotlariga ko‘ra, Braziliyada 212 mln kishiga yaqin aholi yashaydi. Aholining tabiiy ko‘payishi yuqori emas, yillik hisobda 0,7–0,8% ga teng.

Braziliya — yuqori urbanizatsiyalashgan davlat. Shahar aholisining ulushi 85% dan ortiq. Braziliyada jahon miqyosida yirikligi bilan ajralib turadigan ikkita shahar — San Paulu va Rio de Janeyro joylashgan *(164-rasm)*. Mamlakatdagi yirik shaharlarda kambag‘al aholi istiqomat qiladigan xarob massivlar juda katta maydonlarni egallaydi. Braziliyada bunday shahar mavzelari “favela” deb ataladi.




163-rasm. **Amazoniya o‘rmonlari**



164-rasm. **San Paulu shahri**

Braziliyaliklarning irqiy tarkibida yevropeoidlar va mulatlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Davlat tili va kundalik hayotda eng ko‘p ishlatiladigan til — portugal tili. Aholining diniy tarkibida katoliklar yetakchilik qiladi. Braziliya katoliklar soni bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinda turadi.

Braziliyaning Atlantika okeaniga tutash janubi-sharqiy qismi dunyodagi aholi eng zich joylashgan hududlardan biri bo‘lsa, Amazoniya o‘rmonlarida, aksincha, aholi juda siyrak joylashgan *(165-rasm).*



165-rasm. **Braziliyada aholi zichligi (shtatlar kesimida, kishi/km²)**

Iqtisodiyoti. Braziliya Federativ Respublikasi ulkan iqtisodiy salohiyati va tez o‘sib borayotgan ishlab chiqarish bilan ajralib turuvchi davlatlardan biri. YIM hajmi bo‘yicha Braziliya dunyoda 8-o‘rinni egallaydi (2020-yil).

Braziliya iqtisodiyotining yetakchi tarmog‘i bo‘lgan sanoat so‘nggi yillarda barqaror rivojlanmoqda. Sanoatning eng muhim tarmoqlaridan biri metallurgiya hisoblanadi. Jahondagi eng yirik temir rudasi konlaridan hisoblanadigan Minas Jerays va Karajas katta iqtisodiy ahamiyatga ega.

Metallurgiya sanoatining tez rivojlanishi turli mashinasozlik tarmoqlari taraqqiyotiga ijobiy ta’sir qildi. Braziliyada avtomobilsozlik, samolyotsozlik, kemasozlik, mikroelektronika, radiotelemexanika kabi mashinasozlik tarmoqlari yaxshi rivojlangan.

Braziliya elektr energiyasini ishlab chiqarish bo‘yicha jahonning birinchi o‘ntaligiga kiradi. Mamlakat elektr energetikasida GESlarning o‘rni katta. Itaypu va Tukurui jahondagi eng yirik GESlar qatoriga kiradi.

Braziliya bioyoqilg‘i ishlab chiqarish bo‘yicha jahonda AQSHdan keyingi ikkinchi o‘rinda turadi. Mamlakatda bu mahsulot shakarqamishni qayta ishlash asosida ishlab chiqariladi. Avtotransport vositalarining asosiy qismi aynan bioyoqilg‘i (etanol)dan foydalanib ishlaydi.

Qishloq xo‘jaligida dehqonchilik ham, chorvachilik ham tovar ahamiyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Dehqonchilikda donchilik, kofe, shakarqamish *(166-rasm),* paxta, soya, tamaki, banan yetishtirish muhim rol o‘ynaydi. Braziliya jahondagi oziq-ovqat mahsulotlarining eng yirik eksportyorlaridan biri. Jumladan, u shakar, kofe va tamaki eksporti bo‘yicha jahonda birinchi o‘rinda turadi.

Chorvachilikda go‘sht chorvachiligi va parrandachilik yuqori darajada rivojlangan. Braziliya go‘sht yetishtirish va eksport qilish bo‘yicha dunyodagi yetakchi davlatlardan biri.




166-rasm. **Shakarqamish plantatsiyasi**

Savol va topshiriqlar


1. Jahonning siyosiy xaritasi yordamida Braziliyaning iqtisodiy-geografik o‘rniga tavsif bering va uning ijobiy jihatlarini izohlang.
2. Braziliya qaysi turdagi tabiiy resurslarga boy? Uning iqlimi mamlakat tabiiy resurs salohiyatida qanday ahamiyatga ega?
3. Braziliyada aholi zichligiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi? Mamlakatning qaysi qismlarida aholi zichligi eng yuqori va aksincha? Nima uchun?
4. Braziliya elektr energetikasiga qanday xususiyat xos? Shu kabi holatni yana qaysi davlatlarda kuzatish mumkin?
5. Mamlakat sanoati va qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi hamda unga ta’sir ko‘rsatgan omillarni tavsiflang.
6. Braziliya haqidagi ma’lumotlarning muqobil variantlari orasidan to‘g‘rilarini toping.

YIM hajmi bo‘yicha dunyoda 8-o‘rinni egallaydi.	YIM hajmi bo‘yicha dunyoda 5-o‘rinni egallaydi.
Chili va Urugvaydan tashqari Janubiy Amerikadagi barcha davlatlar bilan chegaradosh.	Chili va Ekvadordan tashqari Janubiy Amerikadagi barcha davlatlar bilan chegaradosh.
Aholining diniy tarkibida protestantlar yetakchilik qiladi.	Aholining diniy tarkibida katoliklar yetakchilik qiladi.
Kofe eksporti bo‘yicha jahonda birinchi o‘rinda turadi.	Kofe eksporti bo‘yicha jahonda uchinchi o‘rinda turadi.
Iqtisodiyotining yetakchi tarmog‘i qishloq xo‘jaligi.	Iqtisodiyotining yetakchi tarmog‘i sanoat.



60-§. Umumlashtiruvchi takrorlash

1. Quyidagi Afrika davlatlarini dengizga chiqish imkoniyatiga ega va ichki kontinental davlatlarga ajrating.



2. Ushbu ma’lumotlar qaysi davlatlarga tegishli ekanligini toping.

- Ko‘llar soni bo‘yicha jahonda birinchi o‘rinda turadi.
- Shimoliy Amerika materigining eng baland cho‘qqisi joylashgan.
- Shimolidan dunyoning eng uzun va sersuv daryosi o‘tadi.
- Maydoni jihatdan jahonda oltinchi o‘rinni egallaydi.
- Jahonda jun eksporti bo‘yicha birinchi o‘rinda turadi.
- Turizm hisobiga eng katta daromad oladi.
- Aholisining ⅘ qismi mamlakatning janubiy hududlarida mujassamlashgan.
- Bioyoqilg‘i ishlab chiqarish bo‘yicha jahonda ikkinchi o‘rinda turadi.
- Avtomobil yo‘llarining uzunligi bo‘yicha jahonda birinchi o‘rinda turadi.
- Shakar eksporti bo‘yicha jahonda birinchi o‘rinda turadi.
- Hududining kattaligi bo‘yicha jahonda ikkinchi o‘rinni egallaydi.

3. Berilgan sonlar asosida kerakli hisoblashlarni bajarib, jadvalni to‘ldiring.

Davlatlar	Aholisi soni, mln kishi	Urbanizatsiya darajasi, %	Shahar aholisi soni, mln kishi	Qishloq aholisi soni, mln kishi
Avstraliya	25,8	86	...	...
AQSH	329,9	82	...	...
Kanada	38,2	81	...	...
Braziliya	211,8	87	...	...

4. Atlasdagi Avstraliya, Kanada va Braziliya iqtisodiy xaritalaridan foydalanib ushbu davlatlar qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvini taqqoslang va unga qanday omillar ta’sir etganini izohlang.

Glossariy

Agroiqlimiy resurslar — qishloq xo‘jaligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi iqlimiy resurslar (asosan issiqlik va namlik miqdori).

Aholining mexanik ko‘payishi — ma’lum davr davomida biron hududga ko‘chib kelgan aholi hamda ko‘chib ketgan aholi orasidagi nisbat.

Aholining tabiiy ko‘payishi — tug‘ilish darajasining o‘lim darajasidan farqi.

Anklav davlat — hamma tomondan bitta davlat hududi bilan o‘ralgan hamda boshqa biror davlat yoki dengiz suvlari bilan chegaraga ega bo‘lmagan davlat.

Aralash respublika — hukumat tarkibi prezident va parlament tomonidan o‘zaro kelishilgan holda shakllantiriladigan respublika davlat boshqaruvi shaklining ko‘rinishi.

Demografik inqiroz — tug‘ilish o‘lim darajasidan ko‘ra pastroq bo‘lganligi sababli aholi sonining kamayishi.

Demografik portlash — o‘lim darajasi pasayishi tufayli aholi sonining tez sur’atlar bilan ko‘payishi.

Demografiya — aholining takror barpo bo‘lishi va tarkibi, ularning o‘zgarib borishini o‘rganuvchi fan.

Ekologik muammo — tabiatdan nooqilona foydalanish natijasida tabiiy muhit sifatining yomonlashishi.

Ekologik siyosat — tabiiy muhitni muhofaza qilish va uni sog‘lomlashtirishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan harakatlar tizimi.

Eksklav — muayyan davlatning asosiy hududidan ajralgan va boshqa davlatlar hududi bilan o‘ralgan qismi.

Etnos — insonlarning tili, yashash hududi, madaniy an’ana va urf-odatlari, turmush tarzi bilan ajralib turadigan va eng asosiysi, o‘zligini anglash hissi mavjud bo‘lgan tarixan shakllangan ijtimoiy-madaniy guruhi.

Fan-texnika inqilobi — ilm-fan taraqqiyoti tezlashishi natijasida ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishning uzluksiz jarayoni.

Federatsiya — umumiy konstitutsiyaviy tuzum doirasida mustaqil ichki boshqaruvga ega bo‘lgan ma’muriy-hududiy birliklariga ega davlatlar.

Geotermal resurslar — energiya manbai sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan Yerning ichki issiqligi.

Hududiy ixtisoslashuv — ma’lum hudud xo‘jaligining tashqi bozor uchun mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi.

Iqtisodiy geografik o‘rin — muayyan hududiy obyektning iqtisodiy ahamiyatga ega boshqa obyektlarga nisbatan joylashuvi.

Iqtisodiy rayon — xo‘jaligining ixtisoslashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari va muammolari bilan ajralib turgan mamlakatning yirik hududiy qismi.

Irq — insonlarning tashqi ko‘rinish belgilari (teri, soch, ko‘z ranglari, tana tuzilishi, yuz, burun, lab shakli va hokazo) bilan o‘zaro farq qiluvchi guruhi.

“Issiqxona effekti” — “issiqxona” gazlari miqdorining ortishi natijasida atmosfera pastki qatlami haroratining ko‘tarilishi.

Jahon xo‘jaligi — o‘zaro savdo-sotiq, kreditlar berish, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar barpo etish va boshqa shakldagi iqtisodiy aloqalar orqali bog‘langan jahon mamlakatlarining milliy iqtisodiyotlari majmui.

Konstitutsion monarxiya — davlat rahbari (monarx)ning siyosiy vakolatlari ma’lum darajada cheklangan monarxiya boshqaruv shaklining ko‘rinishi.

Konfessiya — din, diniy yo‘nalish.

Megalopolis — yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalarining bir-biriga qo‘shilib ketishi.

Migratsiya — kishilarning bir hududdan boshqa hududga doimiy yoki vaqtincha muddatga ko‘chishi.

Monarxiya — oliy davlat hokimiyati to‘liq yoki qisman yakka shaxsga (monarxga) tegishli bo‘lgan hamda odatda avloddan avlodga o‘tadigan davlat boshqaruvi shakli.

Monoshahar — muayyan bir yirik korxona yoki foydali qazilma koni negizida shakllangan, bitta ishlab chiqarish tarmog‘iga ixtisoslashgan shahar.

Mutlaq monarxiya — davlat rahbari (monarx) ning siyosiy vakolatlari cheklanmagan monarxiya boshqaruv shaklining ko‘rinishi.

Parlamentar respublika — hukumat tarkibini parlament shakllantiradigan respublika davlat boshqaruvi shaklining ko‘rinishi.

Port — okean, dengiz qirg‘og‘ida yoki ichki suv yo‘llarida joylashgan va kemalar to‘xtashi uchun jihozlangan joy.

Prezidentlik respublikasi — hukumat tarkibi prezident tomonidan shakllantiriladigan respublika davlat boshqaruvi shaklining ko‘rinishi.

Rekreatsiya — insonlarning jismoniy va ruhiy quvvati, salomatligi hamda ish qobiliyatini tiklash.

Rekreatsion resurslar — rekreatsiya maqsadlarida foydalanilishi mumkin bo‘lgan tabiiy, tarixiy-madaniy, xo‘jalik, sog‘lomlashtiruvchi, ko‘ngilochar obyektlar.

Respublika — barcha davlat hokimiyati organlari saylanadigan yoki umummilliy vakolatli muassasalar tomonidan shakllantiriladigan davlat boshqaruvi shakli.

Soxta urbanizatsiya — yirik shaharlar chekkalarida zaruriy infratuzilma elementlariga ega bo‘lmagan, qishloqlardan ko‘chib kelgan aholi tomonidan tartibsiz ravishda bunyod etilgan mavzelarning shakllanishi.

Tabiatdan foydalanish — tabiiy resurslardan foydalanish, ularni muhofaza qilish va qayta tiklash bilan bog‘liq inson faoliyati.

Tabiatdan nooqilona foydalanish — tabiiy muhit va uning resurslari holatining salbiy tomonga o‘zgarib borishiga olib keladigan tabiatdan foydalanish.

Tabiatdan oqilona foydalanish — tabiiy boyliklardan me’yorida, ularni muhofaza qilish va qayta tiklashga, tabiiy muhitning sog‘lom holatini saqlashga e’tibor bergan holda foydalanish.

Tashqi savdo aylanmasi — davlatning ma’lum davr mobaynidagi eksporti va importining yig‘indisi.

Tashqi savdo balansi — ma’lum davr oralig‘ida muayyan davlat eksporti va importi qiymatlarining ayirmasi.

Transmilliy kompaniya — ikki va undan ortiq mamlakatda faoliyat ko‘rsatadigan korxonalar hamda katta miqdorda xorijiy aktivlarga ega xalqaro kompaniya.

Unitar davlat — tarkibidagi ma’muriy-hududiy birliklari yagona hokimiyat organlariga bo‘ysunadigan davlat.

Urbanizatsiya — jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida shaharlar ahamiyatining oshishi, jumladan, shahar aholisi soni va salmog‘ining o‘sishi, shahar turmush tarzining tarqalishi jarayoni.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya — davlatlarning o‘zaro mustahkam bozor aloqalari, yagona iqtisodiy siyosat va qonunchiligiga asoslangan iqtisodiy birlashish jarayoni.

Xalqaro mehnat taqsimoti — ayrim mamlakatlar xo‘jaligining ma’lum mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi va bu mahsulotlarni boshqa mamlakatlar bilan ayirboshlashi.

Shahar aglomeratsiyasi — turli kattalikdagi shaharlarning ma’muriy, ishlab chiqarish, ijtimoiy, madaniy aloqalar natijasida birlashuvi.

Yalpi ichki mahsulot (YIM) — muayyan davrda mamlakat hududida yaratilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxidagi umumiy qiymati.

Yalpi milliy mahsulot (YMM) — muayyan mamlakatning fuqaro va kompaniyalari tomonidan ma’lum bir davr mobaynida mamlakat hududida va uning tashqarisida yaratilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxidagi umumiy qiymati.

Cho‘llashish — cho‘llik xususiyatlari xos bo‘lgan hududlar maydonining kengayib borish jarayoni.



Foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro‘yxati

Alimqulov N., Safarova N., Amanbaeva Z., Mo‘minov D. Geografiya (o‘quv qo‘llanma). — Toshkent, 2019. — 292 b.

Egamberdiyeva U.T. Sanoat geografiyasi. Darslik. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. — 240 b.

Hildebrant B., Max L., Keller K., Neumann R.P. (2021), Human geography, Hawtorne, CA, USA, 848 p.

Qayumov A., Pardaev G‘., Islomov I. Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiya (o‘quv qo‘llanma). — Toshkent, 2015. — 160 b.

Qayumov A., Safarov I., Tillaboyeva M., Fedorko V. Geografiya (Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun darslik: qayta ishlangan va to‘ldirilgan beshinchi nashri. — Toshkent: O‘zbekiston, 2019. — 176 b.

Paul L. Knox (2017), The geography of Western Europe, Abingdon, 264 p.

Safarova N.I., Komilova N.K., Islomov I.N., Karakulov N.M. Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi (o‘quv qo‘llanma). — Toshkent: Mahalla va oila, 2022. — 242 b.

World regional geography — people, places and globalization (2016), LibreTexts, 651 p.

Агафошин М.М., Горохов С.А., Заяц Д.В. Экономическая и социальная география зарубежных стран: учебное пособие. — Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2020. — 223 с.

Агафошин М.М., Горохов С.А., Лобжанидзе А.А., Лопатников Д.Л., Толкунова С.Г. Общая экономическая и социальная география: учебное пособие. — Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2020. — 127 с.

Анохин А.А., Житин Д.В. География населения с основами демографии. Учебник. — Москва: Юрайт, 2019. — 203 с.

Бабурин В.Л., Гладкевич Г.И. Экономическая и социальная география стран Ближнего Зарубежья. — Москва: Ленанд, 2021. — 440 с.

Лобжанидзе А.А., Горохов С.А., Заяц Д.В. Этногеография и география религий. Учебник и практикум. 2-е изд., пер. и доп. — Москва: Юрайт, 2019. — 279 с.

Новая географическая картина мира. Часть 1: учебное пособие / под редакцией В.А. Колосова, Д.В. Зайца. — Москва: Дрофа, 2020. — 319 с.

Новая географическая картина мира. Часть 2: учебное пособие / под редакцией В.А. Колосова, Д.В. Зайца. — Москва: Дрофа, 2020. — 287 с.

Окунев И.Ю. Политическая география: учебное пособие для вузов. — Москва: Аспект Пресс, 2019. — 512 с.

Родионова И.А. Экономическая и социальная география мира. — Москва: Юрайт, 2012. — 688 с.

Ромашова Т.В. География населения с основами демографии: практикум. — Томск: Издательский Дом ТГУ, 2014. — 99 с.

Симагин Ю.А. Территориальная организация населения и хозяйства: учебное пособие — Москва: КНОРУС, 2017. — 380 с.

Социально-экономические проблемы развития регионов в условиях глобальной нестабильности / Под редакцией И.А. Родионовой. — Москва: РУДН, 2021. — 237 с.

Xalqaro statistik ma’lumotlar bilan tanishishda foydalanish mumkin bo‘lgan veb saytlar

https://unstats.un.org/ — Birlashgan Millatlar Tashkiloti Statistika bo‘limi.

https://www.undp.org/ — BMTning Taraqqiyot dasturi.

https://www.unido.org/ — BMTning Sanoat rivojlanishi tashkiloti (YUNIDO).

https://www.fao.org/statistics — BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO).

http://uis.unesco.org/ — YUNESKO Statistika instituti.

http://www.prb.org/ — BMTning Aholi masalalari bo'yicha ma'lumotnoma byurosi

https://data.worldbank.org/ — Jahon Banki.

https://www.imf.org/ — Xalqaro valyuta fondi.

https://www.wto.org/ — Xalqaro savdo tashkiloti.

https://www.isi-web.org/ — Xalqaro statistika instituti.

https://www.oecd-ilibrary.org/statistics — Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti.

https://ec.europa.eu/eurostat/ — Yevropa Komissiyasining Yevrostat boshqarmasi.

https://www.opec.org/ — Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEC).

http://www.cisstat.com/ — Mustaqil davlatlar hamdo‘stligining davlatlararo statistika qo‘mitasi.

https://eec.eaeunion.org/ — Yevrosiyo iqtisodiy komissiyasi.

https://www.bp.com/ — “British Petroleum” kompaniyasi.

https://www.usgs.gov/ — AQSH Geologik xizmati.

https://trendeconomy.ru/ — Xalqaro savdo statistikasi.

https://knoema.ru/ — Jahon ma’lumotlar atlasi.



Ilova

JAHON MAMLAKATLARI HAQIDA MA'LUMOT (2020)

№	Davlat	Hududi, ming km²	Aholisi, mln kishi	Boshqaruv shakli	Poytaxti
	YEVROPA				
1	Albaniya	28,7	2,8	Respublika	Tirana
2	Andorra	0,4	0,08	Monarxiya	Andorra la Velya
3	Avstriya	83,8	8,9	Respublika	Vena
4	Belarus	207,6	9,4	Respublika	Minsk
5	Belgiya	30,5	11,5	Monarxiya	Bryussel
6	Bolgariya	110,9	6,9	Respublika	Sofiya
7	Bosniya va Gersegovina	51,1	3,3	Respublika	Sarayevo
8	Buyuk Britaniya	243,8	67,2	Monarxiya	London
9	Daniya	43,1	5,8	Monarxiya	Kopengagen
10	Estoniya	45,2	1,3	Respublika	Tallin
11	Finlandiya	338,1	5,5	Respublika	Xelsinki
12	Fransiya	547	64,9	Respublika	Parij
13	Germaniya	357,4	83,3	Respublika	Berlin
14	Gretsiya	131,9	10,7	Respublika	Afina
15	Irlandiya	70,3	5	Respublika	Dublin
16	Islandiya	103	0,4	Respublika	Reykyavik
17	Ispaniya	504,8	47,6	Monarxiya	Madrid
18	Italiya	302,1	60,3	Respublika	Rim
19	Latviya	64,6	1,9	Respublika	Riga
20	Litva	65,3	2,8	Respublika	Vilnyus
21	Lixtenshteyn	0,16	0,04	Monarxiya	Vaduts
22	Lyuksemburg	2,6	0,6	Monarxiya	Lyuksemburg
23	Malta	0,3	0,5	Respublika	Valletta
24	Moldova	33,8	3,5	Respublika	Kishinyov
25	Monako	0,002	0,04	Monarxiya	Monako
26	Niderlandiya	41,5	17,5	Monarxiya	Amsterdam
27	Norvegiya	324,2	5,4	Monarxiya	Oslo
28	Polsha	312,7	38,4	Respublika	Varshava
29	Portugaliya	92,1	10,3	Respublika	Lissabon
30	Rossiya	17098,2	146,7	Respublika	Moskva
31	Ruminiya	237,5	19,2	Respublika	Buxarest
32	San Marino	0,06	0,03	Respublika	San Marino
33	Serbiya	88,5	8,8	Respublika	Belgrad

№	Davlat	Hududi, ming km²	Aholisi, mln kishi	Boshqaruv shakli	Poytaxti
34	Slovakiya	48,8	5,5	Respublika	Bratislava
35	Sloveniya	20,2	2,1	Respublika	Lyublyana
36	Ukraina	603,5	41,8	Respublika	Kiyev
37	Vatikan	0,0004	0,001	Monarxiya	Vatikan
38	Vengriya	93	9,8	Respublika	Budapesht
39	Xorvatiya	56,5	4	Respublika	Zagreb
40	Shimoliy Makedoniya	25,3	2,1	Respublika	Skopye
41	Shvetsiya	449,9	10,4	Monarxiya	Stokgolm
42	Shveysariya	41,3	8,6	Respublika	Bern
43	Chernogoriya	14	0,6	Respublika	Podgoritsa
44	Chexiya	78,8	10,7	Respublika	Praga
	OSIYO				
45	Afg‘oniston	652,8	38,9	Respublika	Kobul
46	Armaniston	29,7	3	Respublika	Yerevan
47	Bahrayn	0,8	1,5	Monarxiya	Manama
48	Bangladesh	144	169,8	Respublika	Dakka
49	Birlashgan Arab Amirliklari	83,6	9,8	Monarxiya	Abu Dabi
50	Bruney	5,8	0,5	Monarxiya	Bandar Seri Begavan
51	Butan	38,4	0,7	Monarxiya	Tximpxu
52	Eron	1648	84,2	Respublika	Tehron
53	Filippin	299,7	109,6	Respublika	Manila
54	Gruziya	69,7	3,7	Respublika	Tbilisi
55	Hindiston	3287,2	1400,1	Respublika	Dehli
56	Indoneziya	1919,4	271,7	Respublika	Jakarta
57	Iordaniya	89,4	10,7	Monarxiya	Ummon
58	Iroq	437,1	39,7	Respublika	Bag‘dod
59	Isroil	22,1	9,2	Respublika	Tel Aviv
60	Kambodja	181	15,5	Monarxiya	Pnompen
61	Kipr	9,2	1,2	Respublika	Nikosiya
62	Koreya Respublikasi	100,2	51,8	Respublika	Seul
63	Koreya Xalq Demokratik Respublikasi	120,5	25,8	Respublika	Pxenyan
64	Kuvayt	17,8	4,7	Monarxiya	Al Kuvayt
65	Laos	236,8	7,2	Respublika	Ventyan
66	Livan	10,4	6,8	Respublika	Bayrut
67	Malayziya	329,7	32,8	Monarxiya	Kuala Lumpur
68	Maldiv Respublikasi	0,3	0,5	Respublika	Male
69	Mongoliya	1566,6	3,4	Respublika	Ulan Bator

№	Davlat	Hududi, ming km²	Aholisi, mln kishi	Boshqaruv shakli	Poytaxti
70	Myanma	678,5	54,7	Respublika	Neypido
71	Nepal	140,8	30	Respublika	Katmandu
72	Ozarbayjon	86,6	10,1	Respublika	Boku
73	Pokiston	803,9	220,9	Respublika	Islomobod
74	Qatar	11,6	2,8	Monarxiya	Doxa
75	Qirg‘ iziston	199,9	6,6	Respublika	Bishkek
76	Qozog‘ iston	2724,9	18,7	Respublika	Nur Sulton
77	Saudiya Arabistoni	2149,7	35	Monarxiya	Ar Riyod
78	Singapur	0,8	5,8	Respublika	Singapur
79	Suriya	185,2	19,4	Respublika	Damashq
80	Tailand	514	66,5	Monarxiya	Bangkok
81	Tojikiston	141,4	9,4	Respublika	Dushanbe
82	Turkiya	783,6	83,7	Respublika	Anqara
83	Turkmaniston	491,2	6	Respublika	Ashxobod
84	Ummon	309,5	4,7	Monarxiya	Maskat
85	Vetnam	329,5	96,2	Respublika	Xanoy
86	Xitoy	9599	1434,2	Respublika	Pekin
87	Yaman	527,9	29,8	Respublika	Sana
88	Yaponiya	377,9	126	Monarxiya	Tokio
89	O‘zbekiston	448,9	34,2	Respublika	Toshkent
90	Sharqiy Timor	14,9	1,3	Respublika	Dili
91	Shri Lanka	65,6	21,9	Respublika	Kolombo
	AFRIKA				
92	Angola	1246,7	32,5	Respublika	Luanda
93	Benin	112,6	12,2	Respublika	Porto Novo
94	Botsvana	581,7	2,3	Respublika	Gaborone
95	Burkina Faso	274,2	20,9	Respublika	Uagadugu
96	Burundi	27,8	11,9	Respublika	Gitega*
97	Efiopiya	1127,1	115	Respublika	Addis Abeba
98	Ekvatorial Gvineya	28	1,4	Respublika	Malabo
99	Eritreya	121,3	6,1	Respublika	Asmera
100	Esvatini	17,3	1,1	Monarxiya	Mbabane
101	Gabon	267,6	2,2	Respublika	Librevil
102	Gambiya	11,3	2,4	Respublika	Banjul
103	Gana	238,5	31,1	Respublika	Akkra
104	Gvineya	245,8	12,6	Respublika	Konakri
105	Gvineya Bisau	36,1	1,9	Respublika	Bisau
106	Janubiy Afrika Respublikasi	1219,9	59,6	Respublika	Pretoriya
107	Janubiy Sudan	619,7	11,2	Respublika	Juba

№	Davlat	Hududi, ming km²	Aholisi, mln kishi	Boshqaruv shakli	Poytaxti
108	Jazoir	2381,7	44,4	Respublika	Jazoir
109	Jibuti	23,2	1	Respublika	Jibuti
110	Kabo Verde	4	0,6	Respublika	Praya
111	Kamerun	475,4	26,6	Respublika	Yaunde
112	Keniya	582,6	53,5	Respublika	Nayrobi
113	Komor orollari	2,2	0,9	Respublika	Moroni
114	Kongo	342	5,5	Respublika	Brazzavil
115	Kongo Demokratik Respublikasi	2345,4	89,6	Respublika	Kinshasa
116	Kot d'Ivuar	322,4	26,2	Respublika	Yamusukro
117	Lesoto	30,3	2,1	Monarxiya	Maseru
118	Liberiya	111,3	5,1	Respublika	Monroviya
119	Liviya	1759,5	6,9	Respublika	Tripoli
120	Madagaskar	587	27,7	Respublika	Antananarivu
121	Malavi	118,5	19,1	Respublika	Lilongve
122	Mali	1240	20,3	Respublika	Bamako
123	Markaziy Afrika Respublikasi	623	4,8	Respublika	Bangi
124	Marokash	446,5	36	Monarxiya	Rabot
125	Mavrikiy	2	1,3	Respublika	Port Lui
126	Mavritaniya	1030,7	4,6	Respublika	Nuakshot
127	Misr	1001,4	100,8	Respublika	Qohira
128	Mozambik	801,6	31,2	Respublika	Maputu
129	Namibiya	825,4	2,5	Respublika	Vindxuk
130	Niger	1267	24,2	Respublika	Niamey
131	Nigeriya	923,8	206,1	Respublika	Abuja
132	Ruanda	26,3	13	Respublika	Kigali
133	San Tome va Prinsipi	1	0,2	Respublika	San Tome
134	Senegal	196,2	16,7	Respublika	Dakar
135	Serra Leone	71,7	8	Respublika	Fritaun
136	Seyshel orollari	0,4	0,1	Respublika	Viktoriya
137	Somali	637,6	15,9	Respublika	Mogadisho
138	Sudan	1886	43,8	Respublika	Xartum
139	Tanzaniya	948,1	59,7	Respublika	Dodoma
140	Togo	56,8	8,3	Respublika	Lome
141	Tunis	163,6	11,9	Respublika	Tunis
142	Uganda	236	45,7	Respublika	Kampala
143	Zambiya	752,6	18,4	Respublika	Lusaka

№	Davlat	Hududi, ming km²	Aholisi, mln kishi	Boshqaruv shakli	Poytaxti
144	Zimbabve	390,6	14,9	Respublika	Xarare
145	Chad	1284	16,9	Respublika	Njamena
	AMERIKA				
146	Amerika Qo‘shma Shtatlari	9519,4	329,9	Respublika	Vashington
147	Antigua va Barbuda	0,4	0,1	Monarxiya	Sent Jons
148	Argentina	2780,4	45,4	Respublika	Buenos Ayres
149	Bagam orollari	13,9	0,4	Monarxiya	Nassau
150	Barbados	0,4	0,3	Respublika	Brijtaun
151	Beliz	22,9	0,4	Monarxiya	Belmopan
152	Boliviya	1098,6	11,6	Respublika	Sukre**
153	Braziliya	8515,7	211,8	Respublika	Brazilia
154	Dominika	0,7	0,07	Respublika	Rozo
155	Dominikana Respublikasi	48,7	10,5	Respublika	Santo Domingo
156	Ekvador	283,5	17,5	Respublika	Kito
157	Gaiti	27,7	11,4	Respublika	Port o Prens
158	Gayana	214,9	0,8	Respublika	Jorjtaun
159	Gonduras	112,1	9,9	Respublika	Tegusigalpa
160	Grenada	0,3	0,1	Monarxiya	Sent Jorjes
161	Gvatemala	108,9	18,1	Respublika	Gvatemala
162	Kanada	9984,6	38,2	Monarxiya	Ottava
163	Kolumbiya	1138,9	51,3	Respublika	Santa Fe de Bogota
164	Kosta Rika	51,1	5,1	Respublika	San Xose
165	Kuba	110,8	11,3	Respublika	Gavana
166	Meksika	1972,5	127,8	Respublika	Mexiko
167	Nikaragua	129,5	6,6	Respublika	Managua
168	Panama	78,2	4,3	Respublika	Panama
169	Paragvay	406,7	7,3	Respublika	Asunson
170	Peru	1285,2	32,8	Respublika	Lima
171	Salvador	21	6,5	Respublika	San Salvador
172	Sent Kits va Nevis	0,26	0,05	Monarxiya	Baster
173	Sent Lyusiya	0,6	0,2	Monarxiya	Kastri
174	Sent Vinsent va Grenadin	0,4	0,1	Monarxiya	Kingstaun
175	Surinam	163,8	0,6	Respublika	Paramaribo
176	Trinidad va Tobago	5,1	1,4	Respublika	Port of Speyn
177	Urugvay	176,2	3,5	Respublika	Montevideo
178	Venesuela	916,4	28,6	Respublika	Karakas
179	Yamayka	11	2,8	Monarxiya	Kingston
180	Chili	756,9	19,5	Respublika	Santyago

№	Davlat	Hududi, ming km²	Aholisi, mln kishi	Boshqaruv shakli	Poytaxti
	AVSTRALIYA va OKEANIYA				
181	Avstraliya	7692,0	25,8	Monarxiya	Kanberra
182	Fiji	18,2	0,9	Respublika	Suva
183	Kiribati	0,7	0,1	Respublika	Bairiki
184	Marshall orollari	0,18	0,06	Respublika	Majuro
185	Mikroneziya Federativ Shtatlari	0,7	0,1	Respublika	Palikir
186	Nauru	0,02	0,01	Respublika	Yaren
187	Palau	0,4	0,02	Respublika	Ngerulmud
188	Papua Yangi Gvineya	463,8	9	Monarxiya	Port Morsbi
189	Samoa	2,8	0,2	Respublika	Apia
190	Solomon orollari	28,4	0,7	Monarxiya	Xoniara
191	Tonga	0,7	0,1	Monarxiya	Nukualofa
192	Tuvalu	0,03	0,01	Monarxiya	Funafuti
193	Vanuatu	12,2	0,3	Respublika	Port Vila
194	Yangi Zelandiya	268,7	5	Monarxiya	Vellington

Izoh.

1. Jadvalda 1.01.2021-y. holatiga ko‘ra BMTga a’zo bo‘lgan 193 ta davlat hamda Vatikan davlati to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan. Hudud maydoni va aholi soni davlatlarning BMT tomonidan tan olingan chegaralari doirasida keltirilgan.

2. Davlatlar aholisining soni 1.07.2020-yil holatiga ko‘ra, BMT ma’lumotlari bo‘yicha berilgan. Manba: Population Reference Bureau. 2020 World Population Data Sheet.

* Burundi Respublikasining poytaxti 2019-yili Bujumbura shahridan Gitega shahriga ko‘chirilgan.

**Sukre Boliviyaning konstitutsion poytaxti hisoblanadi, amaldagi poytaxti esa La Pas shahridir.



www.idum.uz saytidan yuklab olindi

O‘quv nashri

Geografiya

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
10-sinfi uchun darslik

Muharrir Orifjon Madvaliyev
Badiiy muharrir Sarvar Farmonov
Texnik muharrir Akmal Sulaymonov
Rassom Iqbol Salohiddinov
Dizayner-sahifalovchi Ilnur Karadjayev
Musahhih Xurshidbek Ibrohimov

Bosishga 00.00.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60×84 ⅛.
Source Sans 3 garniturasi. Kegli 12. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 13,95. Nashriyot-hisob tabog‘i 14,01.
Adadi _____ nusxa. Buyurtma № ____.



www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.